



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

8(25)

2025





ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№8(25) 2025

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 -
tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha
dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan
zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



Jurnal haqida
Jurnalga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida 1672 raqamli guvohnoma berilgan.

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

«Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-методическом журнале *«Педагогическая акмеология»* являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

"Pedagogical akmeology" international scientific-metodical journal

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific-metodical journal "Pedagogical akmeology" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

Muassis: "Sadridin Salim Buxoriy" MCHJ "Durdona" nashriyoti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

Web-sayt: www.paresearchjournal.uz

Bosh muharrir:

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Husenova Aziza Sharipovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mas'ul kotib:

Bafayev Muhiddin Muhammadovich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Muqimov Komil Muqimovich, O'zR FA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, O'zR FA akademigi, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik

Abdullayeva Barno Sayfiddinovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Madzigon Vasiliy Nikolayevich, akademik, pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Maksimenko Sergey Dmitriyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Kozubsov Igor Nikolayevich, pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)

Mustafa Said Arslon, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

To'xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

O'rayeva Darmonoy Saidaxmedovna, filologiya fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Axadov Ma'murjon Sharipovich, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Ma'murov Bahodir Baxshulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rahimov Sharof Amonovich, fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasulov To'liq Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Vohidov Shodmon Husenovich, tarix fanlari doktori, professor, Marmara universiteti (Turkiya)

Ochilov Alisher To'lis o'g'li, tarix fanlari doktori (DSc)

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimova Gulsanam Nematovna, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Kadirov Xayot Sharipovich, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Muxtorov Erkin Mustafoyevich, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Xudoyqulov Xol Jumayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

- 4 *Rajabov To'xtasin Ibodovich*, pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Qilichov Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori (DSc)
Elov Ziyodullo Sattorovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Jumaniyozova Muhabbat Husenovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Farmonova Shabon Muhammadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) , dotsent
Jumayev Yo'ldosh G'afurovich, yuridik fanlari nomzodi, dotsent
Qodirov Rashid Hamidovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosatshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Jo'rayev Akmal Razzoqovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Nazarov Mustaqim Rashidovich, texnika fanlari nozodi, dotsent
Ergashev Jahongir Yunus o'g'li, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Murodov Sherzod Normonovich, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Po'lotova Yulduz Asadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ashurova Marhabo Sayfulloyevna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Omonova Dildora Nekmurodovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Adizova Nigora Baxtiyorovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raupov Sohob Saidovich, tarix fanlari nomzodi, professor
Rizayev Baxtiyor Nazarboyevich, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Umurov Zarif Latifboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sirojov Ochil Sirojovich, tarix fanlari nomzodi, professor
Jalilova Saboxat Xalilovna, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
Sidiqova Dilor Shavkatovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Abdullayeva Feruza Nurillovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Saidqulova Firuza Farmonovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Temirov Farrux Umedovich, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Babayeva Shoir Boymurodovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva Mashhura Muzaffarovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Atabayeva Nargis Batirovna, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ro'ziyev To'lqin Razzoqovich, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Abdullayeva Dilfuza Abdujalilovna, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUNDARIJA

TARIX..... 7

Boltayev Bobir Baxtiyorovich. Buxoro kecha va bugun: Buxoro davlat universiteti tuzilmasidagi viloyat "Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi" misolida.....	7
Rahmonov Kamol Jamolovich. "Globallashuv sharoitida O'zbekistonning Tojikiston bilan aloqalari" mavzusini o'qitishda innovasion yondashuv	13
Murodova Dilrabo Shomurodovna. Buxorodagi ilk oliygoh tarixi arxiv hujjatlarida: o'tmishdan kelajak sari	18
Erkinoy Davletbayevna Saparbayerova. O'rta Osiyoda kollektivlashtirishga qarshi ommaviy chiqishlar tarixi (1930-yillar manbalari asosida).....	25
Nurmetov Ismoil Alimbayevich. Global ekologik konvensiyalar va xalqaro ekologik munosabatlarda o'zbekistonning ishtiroki	36
Orziyev Mahmud Zayniyevich, Nizamov Asqar Baxromovich. XIX asr birinchi yarmida Janubiy Turkiston o'zbek bekliklari tarixiga oid.....	40
To'raev Anvar Ismoilovich. Buxoro turkmanlarning oilaviy qadriyat va urf-odatlaridagi o'ziga xos ijtimoiy-madaniy jihatlar	47
Abbosov Abbosali Zarifovich. Buxoro vohasida arxeologik tadqiqotlarning boshlanishi.....	51
Yusufaliev Shahzodjon Zafar o'g'li. Turkiston o'lkasida ovchilikning tarixiy ildizlari	56
Rahimboyeva Marjona Jamil qizi. Oila tarbiyasi tarbiyaning asosiy yo'nalishi sifatida: Ahmad Donish qarashlari misolida.....	60
Jumayev Yo'ldosh G'afurovich. Milliy o'zini o'zi boshqarish organlarining fuqorolik jamiyatini rivojlantirishdagi o'rni.....	64
Asli Orunbayev. Ittihad va taraqqiy harakati ayollarning jamiyatdagi o'rniga nisbatan yondashuvi.....	67

ANIQ FANLAR..... 74

Kamolov I.R., Axmedov A.A., Izbosarov B.F., Idiboyeva S.B., Qahhorova M.E. Elektromagnetizm fanidan talabani kreativ kompetentligini rivojlantirishda ijodiy yondashuv	74
Jo'rayev Akmal Razzoqovich, Xolliyev Javohir Farxodovich. Energetika sohasi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili.....	78

FILOLOGIYA 86

Niyozmetova Roza Xasanovna. Badiiy asarda tabiat tasviri va qahramonlar tuyg'ulari ifodalanishini o'rganish.....	86
---	----

PEDAGOGIKA 91

Axmadv Olimjon Shodmonovich. Buxoroda ta'lim-tarbiya tizimining rivojlanishida mang'it hukumdorlarining o'rni	89
Shabon Muhammadovna Farmonova. O'quvchilarni intellektual rivojlantirishda baholashning o'rni	94
Mustafayev Baxtiyor Ibragimovich. Maktab musiqa madaniyati o'qituvchisi kasbiy mahoratini rivojlantirish asoslari	100
O.D.Raximov. Talabalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishda zamonaviy me'morchilikning ta'limiy ahamiyati	103
Turdiyeva Mohira Juraqulovna. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda inklyuziv ta'limni rivojlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish metodikasi.....	107
Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna. Texnologiya fani dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarida amaliy topshiriqlar bajarishni texnik kreativ rivojlantirish	111
Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna. Sun'iy intellektning magistratura talabalarining ilmiy pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'siri.....	115
G'aybullayev Shonazar Mirbobyevich. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion boshqarishda sinf rahbarlarining roli	119
Qurbonova Nigina Boboxo'jayevna. Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida Sadridin Ayniyning ilmiy merosidan foydalanishning afzalliklari	125
Eltazarova Shoxida Sardorbek qizi. Grammatik tushuncha va uni boshlang'ich ta'limda o'zlashtirish bosqichlari	131

6	Jumayev Ruzokul Xoliqulovich. Talabalarning mustaqil ishini tashkil etishda loyihaviy metodning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari.....	134
	Abdullayev Amirulla Xazratovich. O'zgarishlarni boshqarish va innovatsion menejment integratsiyasi: ta'lim muassasalari uchun strategik yondashuv	139
	Muzaffarova Farida Muxtor qizi. Sharq mutaffakkirlarining merosi vositasida talabalarning o'quv – bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari.....	144
	Axmedova Gavhar Faxriddinovna. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarining kreativ salohiyatini rivojlantirish metodikasi.....	148
	Ахметова Клара Ирисматовна. Методы и средства сбора и обработки мониторинговой информации	154
	Rahimboyeva Marjona Jamil qizi. Oila tarbiyasi tarbiyaning asosiy yo'nalishi sifatida (Ahmad Donish qarashlari misolida)	161
	Kadirov Rashid Xamidovich. Sport fanidagi transformatsiya: klassik paradigmalardan raqamli monitoring va bilimlar transferigacha	165
	Djurayeva Salomat Nabiyevna. Boshlang'ich ta'limda etnopedagogika namunalaridan foydalanishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning asoslari.....	171
	Xo'janiyozova Gulhayo Ilhom qizi. Boshlang'ich ta'lim ona tili darslarida ko'rgazmali vositalardan foydalanishning metodik imkoniyatlari.....	174
	Qo'ldoshev Mexriddin Avezmurodovich. Ahmad Donishning ma'naviy-axloqiy qarashlari.....	178
	Islomova Fazila Amrullayevna. Davlat tashkilotlarida faoliyat yuritadigan o'rta yoshli xodimlarni sog'lomlashtirishning muhim omillari	181
	Baxronova Zulfiya Ravshanovna. Ingliz tili o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalarini joriy etishning didaktik xususiyatlari.....	188
	Rahmatov Tursunpo'lot Raupovich. Maktabda informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish	193
	Jo'rayev Dilshod Rashidovich. Umumiy o'rta ta'limda ta'lim sifatini boshqarish texnologiyalari.....	198
	Shermatova Uljamol Shopulat qizi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning metodik asoslarini takomillashtirish	202
	Qosimova Jasmina Ilhom qizi. Oilaviy ta'lim va uning o'ziga xos jihatlari	206
	PSIXOLOGIYA	210
	Atadjonova Dinora Ulug'bekovna. O'zlashtirmovchilikka olib keluvchi psixologik omillar va ularni bartaraf etish yo'llari	210
	Omanova Nuriya Shuxrat qizi. Ta'lim jarayonida refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishdagi psixologik yondashuvlar	213

Boltayev Bobir Baxtiyorovich

Buxoro davlat universiteti
arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BUXORO KECHA VA BUGUN: BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI TUZILMASIDAGI VILOYAT “QATAG‘ON QURBONLARI XOTIRASI MUZEYI” MISOLIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro viloyatida sovet hukumati davrida qatag‘on qurboniga aylangan insonlar taqidirini yorituvchi dastlabki muzeylarning ochilishi va ularning bugungi kundagi faoliyati tahlil qilingan. Shu bilan birgalikda Buxoro viloyatida ham “Qatag‘on qurbonlari va xotirasi” muzeyining tashkil etilishi uning yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o‘rni va roli ochib berilgan. Muzeyda Buxoro viloyatining o‘tmishi va bugungi kun tarixi mavjud obidalarining suratlari orqali yoritilgan. Bundan tashqari, bu muzeydagi mavjud bo‘limlar hamda ulardagi eksponatlar yaqindan tahlil qilinib, ularning bugungi kundagi tarixiy ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: xalq dushmani, razvedkachi, vatan xoini, lager, haykal, shahid, zal, eksponat, ekspozitsiya, vazir, sayt, interyer, ilmiy xodim, qaror, hisobot.

БУХАРА ВЧЕРА И СЕГОДНЯ: НА ПРИМЕРЕ ОБЛАСТНОГО “МУЗЕЯ ПАМЯТИ ЖЕРТВ РЕПРЕССИЙ” В СТРУКТУРЕ БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Аннотация. В статье анализируется открытие первых музеев в Бухарской области, рассказывающих о судьбах людей, репрессированных в годы советской власти, и их современная деятельность. В то же время, создание Музея «Жертвы репрессий и память» в Бухарской области раскрывает его место и роль в патриотическом воспитании подрастающего поколения. Музей освещает историю Бухарской области и её настоящее посредством фотографий существующих памятников. Кроме того, подробно анализируются существующие разделы музея и представленные в них экспонаты, показывается их историческое значение в наши дни.

Ключевые слова: Враг народа, разведчик, предатель, лагерь, статуя, мученик, зал, экспонат, экспозиция, министр, сайт, интерьер, исследователь, решение, отчет.

Bukhara yesterday and today: the example of the regional “Museum of memory of the victims of repression” in the structure of the Bukhara State University

Abstract. The article analyzes the opening of the first museums in the Bukhara region, telling about the fates of people repressed during the years of Soviet power, and their current activities. At the same time, the creation of the Museum "Victims of Repression and Memory" in the Bukhara region reveals its place and role in the patriotic education of the younger generation. The museum highlights the history of the Bukhara region and its present through photographs of existing monuments. In addition, the existing sections of the museum and the exhibits presented in them are analyzed in detail, showing their historical significance in our days.

Keywords: Enemy of the people, spy, traitor, camp, statue, martyr, hall, exhibit, exposition, minister, website, interior, researcher, decision, report.

Kirish. O'zbekiston Respublikasining milliy mustaqilligiga qadar, sobiq kommunistik mafkura ta'siri ostida vatan ozodligi yo'lida kurashgan, yurt osoyishtaligi, xalqni savodli, bilimli qilish uchun jonbozlik ko'rsatgan insonlar "xalq dushmani", "vatan xoini", "xorij razvedkasi ayg'oqchisi" kabi turli nomlar bilan atab kelingan. Mustaqillik sharofati bilan tarixiy jarayonlarga haqqoniylik, adolatlilik, tarixiylik tamoyillari bilan baho berish imkoniyati tug'ildi. Shu sababli turli bo'htonlar bilan qatag'on qilingan ajdodlarimiz nomini oqlash, ularning merosini o'rganish, vatan ozodligi yo'lida olib borgan kurashlarini yoshlarga ibrat qilib ko'rsatish, masalalari hozirgi kunning eng asosiy masalasiga aylanib qoldi desak, aslo xato qilgan bo'lmaymiz. Bu boradagi ilk harakatlar sifatida 2001-yil 1-mayda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov "El-yurtimiz ozodligi va erkinligi yo'lida, xalqimizning qadr-qimmati, or-nomusini, milliy an'analarimiz va urf-odatlarimizni himoya qilishda, bosqinchi va yovuz kuchlarga qarshi mashaqqatli kurashlarda qurbon bo'lganlar xotirasi minnatdor avlodlar yodida abadiy saqlanib qoladi"-degan ezgu fikrlarni bildirgan edilar [1].

Adabiyotlar sharhi. Respublika miqyosida olimlar, mutaxassislar tomonidan olib borilgan ishlar natijasida 2002-yil 31-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ishtirokida "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyining tantanali ochilishi bo'lib o'tdi. "Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi" "Shahidlar xotirasi" maydonining o'rtasida bunyod etilgan bo'lib, muzeyning kiraverish zalida "Iztirob haykali" joylashgan. Bu haykalda farzandini kutayotgan keksa ota-ona, o'z yorini kutayotgan ayol, ota mehrini sog'ingan bola tasviri mavjud[2]. Bu muzey hozirgi kunga qadar respublikaga tashrif buyuruvchilar soni va ilmiy salohiyati bilan eng ilg'or muzeylardan biri bo'lib kelmoqda. Ammo muzeyning respublika markazida joylashgani, viloyatlardan tashrif buyuruvchilar uchun turli qiyinchiliklar mavjudligi muzey faoliyatini kengaytirishni taqozo etdi.

Respublika miqyosida olimlar, mutaxassislar tomonidan olib borilgan ishlar natijasida jumladan, Buxoro viloyati hokimligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta'lim muassasalari tuzilmasida Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-noyabrdagi № 936-sonli qarori asosida Buxoro davlat universiteti tuzilmasidagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi"ni tashkil etish masalasini ko'rib chiqqan edi [3]. Eng avvalo, ushbu qarorga, asosan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining bo'limlarini viloyatlar hududlaridagi oliy ta'lim muassasalari tuzilmalarida Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylarini tashkil etish, muzeylarni tashkil etish bo'yicha mas'ullar, ishchi guruhlarini shakllantirish, ular amalga oshirgan ishlarni nazorat qilish, muzeylarning faoliyat yo'nalishlari, ular tomonidan o'tkazilishi lozim bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, xalqimiz, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda bu kabi muzeylarni o'rni va ahamiyati bilan bog'liq fikr-mulohazalar keltirilgan.

Shu qarorlar ijrosini ta'minlash maqsadida, Buxoro davlat universiteti jamoasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017-yil 28-noyabrdagi №869 qarori asosida va Buxoro viloyati hokimligining 2017-yil 5-dekabrdagi farmoyishi asosida o'z faoliyatini belgilab oladi. Yuqoridagi qaror va farmoyishlar asosida Buxoro davlat universiteti rektorining 2017-yil 1-dekabrdagi 728-U buyrug'i chiqarildi. Tarix fakulteti negizida mo'ljallangan "Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi"ni shakllantirish, faoliyatini yo'lga qo'yishda ko'mak berish maqsadida ishchi guruh tuzilgan bo'lib, uning tarkibiga S.I. Inoyatov, H.H. To'rayev, Sh.A. Hayitov, K.J. Rahmonov, M.B. Qurbonova, S.S. Raupov, A.H. Hamroyev, B.B. Boltayevlar kiritilganligini ko'rish mumkin [4]. Buxoro davlat universiteti rektori universitet tuzilmasi tarkibida "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyini tashkil etish borasidagi amaliy chora-tadbirlarni 2017-yil 1-dekabrdan boshlab yuboradi [5]. Ishchi guruhning faoliyati va bajargan ishlari xususida Buxoro davlat universiteti Ilmiy kengashida tez-tez hisobot berib borilgan.

Natija va mulohazalar. Buxoro davlat universiteti tuzilmasi tarkibidagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi"ni tashkil etish borasida qator tashkiliy va ilmiy izlanishlar olib

borilishi natijasida, 2018-yil 18-may – Xalqaro muzeylar kuni munosabati bilan Bux davlat universiteti tuzilmasidagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tadi. Muzey uchta zaldan iborat bo‘lib, 1865-yildan hozirgi kunga qadar bo‘lgan davrni qamrab oladi. Muzey ekspozitsiyasidan XIX - asrga oid osori-atiqalar, qimmatli arxiv hujjatlari, foto va kino hujjatlar ham o‘rin olgan.

Muzeyning birinchi zali “Chor Rossiyasi bosqini davri” (1868-1920-yillar)” deb nomlangan bo‘lib, unda fotosuratlar, xaritalar, rasmiy hujjatlar va shu davrga oid xalq amaliy bezak san‘ati namunalari va uy-ro‘zg‘or buyumlari orqali O‘rta Osiyo hududining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, Buxoro amirligiga qarshi 1866–1868-yillarda amalga oshirilgan harbiy yurishlar, Buxoroda mustamlakachilik tuzumining o‘rnatilishi, amirlik zobitlari va sarbozlari, Buxoroda hududida hukmronlik qilgan mang‘itlar sulolasi tarixi yoritiladi.

Muzeyning ikkinchi zali “Sho‘ro davri (1920-1991-yillar)” deb nomlangan bo‘lib, zalda sovet davri qatag‘oniga uchragan davlat arboblarning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan lavhalar haqida ma‘lumot beruvchi monografiya va asarlar o‘rin olgan. Jumladan, Nusratilla Naimovning “Buxoro jadidlari”, A.E. Ishonov “Fayzulla Xo‘jayev”, M.Xasanovning “Fayzulla Xo‘jayev”, O.E. Eshonov “Fayzulla Xo‘jayev”, Nusratilla Naimovning “Fitrat fojeasi”, Yo.Saidovning “Jadid shariyati leksikasi” kabi asarlari mavjud [6].

Bundan tashqari, “O‘zbeklar ishi” bilan bog‘liq foto va arxiv hujjatlaridan nusxalar ham mavjud. Ko‘rgazmaning eng oxirgi vitrinasi O‘zbekiston Kompartiyasining birinchi sekretari lavozimida faoliyat yuritgan Sharof Rashidovning hayoti va faoliyati keng yoritilgan.

Muzeyning uchinchi zali “Kecha va Bugun” deb nomlangan bo‘lib, unda 1991-yil 31-avgustda mamlakatimiz Mustaqillikka erishgandan so‘ng Qatag‘on qurbonlari xotirasining tiklanishi yo‘lida olib borilgan sa‘y-harakatlar, Buxoro viloyatida joylashgan va sho‘rolar zamonida ayanchli ahvolga kelgan ko‘plab me‘moriy obidalarning qayta tiklanishi va obodonlashtirilishi, millat tarixining qayta tiklanishiga oid fotosuratlar, maketlar va rasmiy hujjat nusxalari orqali yoritiladi.

Viloyatlardagi hududiy “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeylari vazifasi sifatida ular tashkil etilayotgan davrda hududdagi Qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish, ularni yod etish, o‘tib kelayotgan yosh avlod qalbi va ongida o‘tganlar xotirasiga hurmat va ehtirom tuyg‘usini shakllantirish bilan bog‘liq ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni amalga oshirishi belgilab qo‘yilgan. Bu kabi vazifalarni bajarish orqali xalqimizni Qatag‘on qurbonlari faoliyati bilan tanishtirish va yosh avlodni komil inson bo‘lib shakllanishida ularning hayot yo‘lini o‘rnak sifatida ko‘rsatish mumkin [7].

Hozirgi kecha-kunduzda bu yerga yurtimizning turli universitetlari, institutlari, maktab, litsey, kollej va turli tashkilotlardan delegasiyalar va mehmonlar tez-tez tashrif buyurmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda muzeylar yoshlarni dunyoqarashini shakllantirishda, ularni katta hayotga yo‘naltirishda, fikrlashi, mafkuraviy tarbiyasida katta ta‘sir ko‘rsatadi. Maktab o‘lkashunoslik muzeylarida eksponatlar, asosan, o‘quvchilar va o‘qituvchilar tomonidan to‘plangan bo‘lsa, oliygollarda bu eksponatlar talabalarning amaliyoti jarayonida yig‘ilishi kuzatilgan. Darhaqiqat, o‘rganishlar shu narsani ko‘rsatdiki, muzeylari mavjud oliygohlar dars jarayonlarida ham ushbu, dargohdan unumli foydalansa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Sababi, hozirgi yosh avlodni o‘z ota-bobosi merosini yaqindan bilib o‘rganish imkoniyati yanada kengayadi deb o‘ylaymiz [8].

“Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi” ning asosiy vazifasi sobiq sho‘rolar davrida tazyiqqa va qatag‘onga uchragan, nohaq jazolanib, turli koloniyalarda surgunda bo‘lgan ajdodlar nomini aniqlash, ular merosini o‘rganish va keng xalq ommasiga yetkazish. Shu sababli ushbu muzeyning talaba yoshlar, keng jamoatchilikka ma‘naviy-mafkuraviy ta‘siri katta. Bugungi kunda ushbu muzey faoliyati natijasida nohaq Qatag‘on qilingan ko‘plab ajdodlarning nomlari abadiylashtirilmoqda. Hozirgi kunda A.Hamroyev boshchiligidagi jamoa ushbu muzey fondlarini boyitish, qatag‘onga uchragan turli soha tegishli Buxorolik vatandoshlarimizning nomlarini abadiylashtirish borasidagi sayi harakatlarini uzviy davom ettirgan holda yangi va zamonaviy ekspozitsiyalar tashkil etib kelmoqdalar.



Buxoro viloyat “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi ochilishida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi ” muzeyi direktori Baxtiyor Vaxapovich Xasanov ham ishtirok etgan edi.



Muzeyga tashrif buyurgan mehmonlarga Buxor viloyat “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzey direktori A.H.Hamroyev ekskursiya o‘tmoqda



Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning "Qatag'on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to'g'risida" PF-2837-son farmoni. // <https://lex.uz/en/docs/177255>.

2. Qatag'on qurbonlari xotira muzeyi. <http://myday.uz/uz/muzei/qatagon-qurbonlari-hotira-muzeyi>. 2021 yil.23.09, K.Nishonova, Muzey – xalq tarixining ko'zgusi:/ Xizmatda foydalanish uchun.-Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2011.- B. 113.

3. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-noyabrda 936-son qarori (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta'lim muassasalari tuzilmasida Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida)da O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining tuzilmasi (1-ilova), Qatag'on qurbonlari xotirasi

- 12 muzeylari tashkil etiladigan hududlardagi oliy ta'lim muassasalarining ro'yxati (2-ilova), Hududlardagi oliy ta'lim muassasalarining tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylarining namunaviy tuzilmasi (3-ilova), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining ustavi (4-ilova), Hududlardagi oliy ta'lim muassasalarining tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylarining namunaviy nizomi (5-ilova) kabilarning namunalari keltirilgan. To'liqroq qarang. <https://lex.uz/docs/3422637>.

4. Buxoro davlat universiteti Tarix fakulteti dekani O'.S. Ochilovning 2017 yil, 22 dekabrda 1-sonli farmoyishi.

5. Buxoro davlat universiteti rektori A.A. Tulaganovning 2017 yil 1 dekabrda 728-U raqamli buyrug'i.

6. Buxoro davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi yo'l ko'rsatgichi. – Buxoro, 2018.

7. Buxoro davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori bilan muloqot.

8. Hamroyev A.H. Qatag'on qurbonlarini yod etish-burchimiz // Buxoronoma 60-son.
20

Rahmonov Kamol Jamolovich

Buxoro davlat universiteti
arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari doktori (DSc)

“GLOBALLASHUV SHAROITIDA O‘ZBEKISTONNING TOJIKISTON BILAN ALOQALARI“ MAVZUSINI O‘QITISHDA INNOVASION YONDASHUV

Mazkur maqolada “Globallashuv sharoitida O‘zbekiston va jahon mamlakatlari hamkorligi” fanidan “Globallashuv sharoitida O‘zbekistonning Tojikiston bilan aloqalari” mavzusi misolida tarix fani o‘qituvchilariga hamkorlik strategiyalariga asoslangan darslarni qo‘shimcha manbalar asosida tashkil etish metodlari tavsiya etiladi. Shuningdek, Tojikiston tarixiga oid matbuot manbalari ilk bor ilmiy-metodik muomalaga kiritiladi

Kalit so‘zlar: Globallashuv, fanning uslubiy ta‘minoti, fundamental darslik, modul-kredit tizimi, Buxoro mahalliy matbuot organlari, Sharqiy Buxoro, Hisor viloyati, Ko‘lob viloyati, G‘arm viloyati, xabar, narx-navo, ish haqi, aeroplan, flot, maktab, kasalxona, savodxonlik.

ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ПРЕПОДАВАНИЮ ТЕМЫ «ОТНОШЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА С ТАДЖИКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ»

В данной статье на примере темы «Отношения Узбекистана с Таджикистана в условиях глобализации» из предмета «Сотрудничество Узбекистана со странами мира в условиях глобализации» рекомендуются методы организации уроков, основанные на стратегиях сотрудничества по истории. учителей на основе дополнительных источников.

Ключевые слова: Глобализация, методическое обеспечение науки, фундаментальный учебник, модульно-кредитная система, местные органы печати Бухары, Восточная Бухара, Гиссарская область, Кулябская область, Гармская область, новость, цены, зарплата, aeroplan, flot, школа, больница, грамотность.

AN INNOVATIVE APPROACH TO TEACHING THE TOPIC "UZBEKISTAN'S RELATIONS WITH TADJIKISTAN'S IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION"

In this article, on the example of the topic "Uzbekistan's relations with Tadjikistans's in the context of globalization" from the subject "Cooperation betwyeyen Uzbekistan and world countriyes in the context of globalization", methods of organizing lessons based on cooperation strategiyes are recommended to history teachers based on additional sourcyes.

Key words: Globalization, methodological support of sciencye, fundamental textbook, module-credit system, local press bodiyes of Bukhara, Eastern Buxara, Khisar region, Kulyab region, Garm region, article, news, prices, salary, airplane, fleet, maktab, hospitale, literacy.

Kirish. Hozirgi kunda barcha sohalarda malakali kadrlar (jumladan, bo‘lajak tarix o‘qituvchilar) tayyorlovchi oliy o‘quv yurtlari zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchisini raqobatbardosh va yetuk mutaxassislar qilib tayyorlash uchun o‘qitishning zamonaviy va samarali yo‘llarini topish hamda amalda tadbqiq qilish muhim hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgacha mavjud tarix fanlarini eskicha qolip va mazmundagi o‘quv mashg‘ulotlaridan voz kechib, innovation-raqamli va axborot jamiyati uchun munosib tarixchi kadrlar tayyorlashga mo‘ljallangan dasturlarga ehtiyoj juda katta. Shu bilan birga bo‘lajak tarixchilarni yetuk mutaxassis etib tayyorlovchi o‘quv muassasalariga va uning metodistlariga endi oson bo‘lmaydi. Chunki bunday tezkor, shiddatli davrda, axborotlar jadal suratlar bilan tarqalayotgan

- 14 bugungi kunda ko'plab o'quv muassasalarida umumiy bir jihat – ko'p hollarda darslarning innovasion jihatdan yetarli darajada tashkil etilmayotganligi ko'zga tashlanib qolmoqda. Darslarning texnologik to'g'ri tashkil etilishi ma'ruzachining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishiga juda katta ko'mak beradi, o'qituvchi har bir mashg'ulotda o'z ta'sir doirasini kengaytirishga juda ahamiyatlidir.

Ma'lumki, bo'lajak tarix fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim vazifalaridan biri talabalar uchun tasdiqlangan o'quv dasturlarining mazmuniga va ularni zamonaviy talablarga javob beradigan xususiyatlarga bog'liqligini hech kim inkor etmasa kerak.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari 70220301- Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi boyicha) magistratura mutaxassisligi o'quv rejasiga ko'ra 2-jarayonda (30 soat ma'ruza, 60 soat) "Globallashuv sharoitida O'zbekiston va jahon mamlakatlari hamkorligi" fani o'qitiladi[1]. Fanning ishchi o'quv rejasi nazarda tutilmoqda Buxoro davlat universiteti rektorining 2024 yil 29 avgustda imzosi va muhri bilan 70220301- Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi boyicha) magistratura mutaxassisligi uchun tasdiqlangan. Mazkur fanning bosh maqsadi – O'zbekistonning jahon mamlakatlari, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hozirgi kungacha bo'lgan rivojlanishining asosiy omillari va yo'nalishlarini yoritishga qaratilgan. Taqdim etilgan fan tarixchi magistrnlarning nazariy – uslubiy saviyasini oshirishda, Markaziy Osiyoda ro'y berayotgan tarixiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

"Globallashuv sharoitida O'zbekiston va jahon mamlakatlari hamkorligi" fanining uslubiy ta'minoti hisoblangan o'quv dasturi va tavsiya etilgan darsliklar mazmuni hozirgi zamon talablariga javob bermaydi. To'g'ri, keyingi yillarda oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari tomonidan o'quv qo'llanmalar va darsliklar chop etilmoqda. Biroq yagona fundamental darslik yaratish baribir davrtalab bo'lib qolmoqda. Mavjud uslubiy ta'minot bilan tanishilganda, aksariyati 2017 yilgacha bo'lgan ma'lumotlar bilan to'xtab qolgan.

To'g'ri, "Globallashuv sharoitida O'zbekiston va jahon mamlakatlari hamkorligi" fanining samaradorligi faqat darslikka bog'liq emas. Har yili qayta tayyorlanayotgan o'quv-uslubiy majmualar ham qanchalik takomillashtirilayogan bo'lsa-da, o'qituvchining ijodiy yondashuvi, jozibali ma'ruzasi yoki suhbatlari o'rnini egallay olmaydi.

O'zbekistonning eng yangi tarixi davriga oid, qolaversa, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi tarixi masalalariga doir ilmiy ishlar qilinmoqda. Mazkur tadqiqotlarning yangiligi o'quv dasturlar va o'quv-uslubiy majmualarga kiritilmayapti. O'quv-uslubiy majmualarni ham bugungi yangilanayotgan O'zbekiston sharoitiga moslashtirish, modul-kredit tizimi, masofaviy ta'lim jarayonlariga yaqinlashtirish lozim. Bu esa bugungi kunda fidoiy mutaxassislar oldida turgan eng muhim vazifa hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan har bir darslikning fan mavzulariga qo'shimcha tarzda materiallar joylashtirish maqsadidan kelib chiqib, mazkur maqola doirasida fanning mavzularidan biri "Globallashuv sharoitida O'zbekistonning Tojikiston bilan aloqalari" mavzusi orqali quyida bir qator tavsiyalar taqdim etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. "Globallashuv sharoitida O'zbekiston va jahon mamlakatlari hamkorligi" fanidan "Globallashuv sharoitida O'zbekistonning Tojikiston bilan aloqalari" mavzusini loyihalashtirishda quyidagi qo'shimcha jihatlarga e'tibor qaratiladi.

Darsning birinchi bosqichida mavzu va rejalar e'lon qilinadi.

Mavzuning dolzarbligi, ilmiy va pedagogik amaliy ahamiyati tushuntiriladi. "Globallashuv", "hamkorlik", "o'zaro ishonch", "tarixiy aloqalar" kabi tayanch atamalarga izoh beriladi.

Mavzuning "O'zbekiston- Tojikiston munosabatlarining tarixiy ildizlari" deb nomlangan 1-rejasini loyihalashtirish va bayon etishda ma'ruzachi –o'qituvchi tomonidan quyidagi qo'shimcha materiallarni magistrarga yetkazish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

"O'zbekiston-Tojikiston munosabatlarining tarixiy ildizlari" rejasini atroflicha va keng qamrovli o'rganish uchun 1917-1930 yillarda Turkistonda chop etilgan davriy matbuot materiallari, mavzuga oid qo'shimcha boy ma'lumotlar beradi. Jumladan, 1920-1929 yillarda Buxoroda dunyo yuzini ko'rgan, Buxoro mahalliy matbuot organlari - "Buxoro axbori" va "Ozod

Buxoro" gazetalar [2] orqali Sharqiy Buxoro (hozirgi Tojikiston Respublikasi hududi shu nomda BXSР hukumati tarkibida bo'lgan) ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hayotidagi ma'lumotlar tahlil qilinsa, darsning samaradorligi yanada oshadi.

Ma'lumki, BXSР yillarida amirlik davrida mavjud bo'lgan mamlakat ma'muriy bo'linishidagi 27 ta bekliklar tartibi o'rniga viloyatlar, tumanlar, kentlar, qishloqlar singari ma'muriy boshqaruv tartibi joriy qilindi. "Ozod Buxoro" gazetasining 1923 yil noyabr oyida nashr etilgan sonlaridan birida qayd etilishicha, BXSР 10 ta viloyat, 41 tuman, 132 kentga bo'lingan. Sharqiy Buxoro hududining hozirgi Tojikiston Respublikasiga tegishli 3ta viloyati va uning aholisi qo'yidagicha bo'lgan.

Hisor viloyati - 140 000 kishi;

Ko'lob viloyati - 140 000 kishi;

G'arm viloyati - 80 000 kishi [3].

Gazetalar ma'lumoticha, o'sha davrda respublikaning Sharqiy Buxoro qismida Sariosiyo viloyati (Sariosiyo, Qoratog', Yurchi, Bobotog' tumanlari), Dushanbe viloyati (Dushanbe, Yangibozor, Fayziobod, Xovos tumanlari), G'arm viloyati (G'arm, Qal'ai Xum, Darvoz tumanlari), Ko'lob viloyati (Xovaling, Yaksuv, Mo'minobod, Ko'lob tumanlari), Qo'rg'ontepa viloyati (tumanlarga bo'linmagan) [4] kabi viloyat va tumanlar mavjud bo'lgan.

Mazkur viloyatlardagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar yuqorida nomlari qayd etilgan BXSР mahalliy matbuotida muntazam yoritib borilgan. Tadqiqotimiz natijasida "Ozod Buxoro"ning bir qator sonlari orqali ushbu matbuot nashrining viloyatlardagi muxbirlari tarkibini aniqlashga erishildi. Jumladan, Islom Sharif ismli shaxs muntazam Sharqiy Buxoro hududlari bo'yicha muxbir sifatida xabarlar jo'natib turgan. 1924 yilning boshlaridan "Ozod Buxoro" gazetasida kommunistik mafkura ta'siri kuchayganligi ko'rinadi. Gazetadagi xabar va maqolalarda Sharqiy Buxoro hududi haqida ham "Qizil choyxona", "Qizil burchak", "Firqa turmushidan", "Firqaga a'zolik shartlari", "Qora taxtaga" (BKP safidan chiqarilganlar haqida - K.R.) kabi ruknlar ostida ma'lumotlar uchraydi. Shuningdek, "Ozod Buxoro" gazetasida 1923 yilning oxiri va 1924 yil boshlarida kommunistik mafkura ta'sirida yangi ruknlar ochildi. Shunday ruknlardan "Bosmachilikning so'nggi kunlari", "Bosmachilikka qarshi kurash", "Bosmachilarga qarshi tadbirlar", "Ikki haftalik" (maorif ikki haftaligi, ushr ikki haftaligi va hokazo), "Xotin-qizlar o'rtasida", "Kommunist yoshlar hayotidan" kabi ruknlar ostida Sharqiy Buxorodagi ijtimoiy jarayonlarga oid faktlarni sanab o'tish mumkin. Ayniqsa, "bosmachilik harakati" bilan bog'liq maqola va xabarlarning ko'p miqdorda hamda deyarli gazetaning har bir sonida Sharqiy Buxoro (hozirgi Tojikiston Respublikasi) hududi haqida berilishi[5] yuqoridagi fikrning dalilidir.

Sharqiy Buxoroda «bosmachilik» harakati oqibatida hukumat xalq xo'jaligini izga qo'yish va rivojlantirish imkoniyatini topolmagan edi. Sun'iy sug'orish inshootlarining buzilishi, ekin yerlarining tashlandiq joylarga aylanishi, sanoat korxonalarining to'xtab qolishi, paxtachilik va qorako'lchilik sohasidagi inqiroz kabilar mazkur hududda inflyasiyani mislsiz ravishda oshib ketishiga sabab bo'lgan edi.

Bozorlarda narx-navolar astronomik summada oshib, hukumat to'laydigan ish haqi va moyanalarga me'yoriy turmush tarzini yo'lga qo'yish mumkin bo'lmay qoldi. Buxoro Respublikasida pul qadrsizlanganligini 1923 yil bahoridan boshlab, 5000 so'mlik qog'oz pullar chiqarishga o'tilganidan ham bilsa bo'ladi. Endi bir qadar Sharqiy Buxoro bozorlaridagi narxlarga e'tiborni qaratsak.

1 botmon bug'doy-500 mln. so'm, un-600 mln. so'm, arpa-450 mln. so'm, jo'xori-220 mln. so'm, 5 qadoq go'sht-40 mln. so'm, 1 pud qand- 1 mlrd. so'm, 1 pud shakar-260 mln. so'm, 1 pud Samarqand gurunch-175 mln. so'm, shuningdek, 1 pud qorachoy-3 mlrd. so'm, ko'k choy-2 mlrd. so'm, murch-2 mlrd. so'm baholangan. Sanoat mollaridan 1 yashik gugurt-250 mln. so'm, 1 arshin chit- 12 mln. so'm, satin esa-23 mln. so'm, xom ipakning 10 qadog'i-4 mlrd. so'm edi.

Shuning uchun Buxoro qog'oz pullarining o'rniga respublikada yurayotgan Buxoro oltin so'mi, tilla tanga va kumush tangalari savdogarlar tomonidan talab qilinardi. 1922 yil ma'lumotlariga qaraganda, 5 so'mlik oltin tanga-450 mln. so'm, Buxoro tillasi-360 mln. so'm, oddiy tanga esa 7500 so'm baholangan.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi rahbari Fayzulla Xo‘jayev 1923 yilning bahorida Moskvada bo‘lib, respublika hududi bo‘ylab samolyotlar qatnovini yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida shartnoma tuzgan. O‘sha yili Rossiya orqali Buxoro Respublikasi, Turkiston ASSR va Xorazm Respublikasiga xorijdan 20 ta samolyot (aeroplan) yuborildi. Samolyotlar uchun Rossiyaga 50 ming oltin so‘m miqdorida pay puli berilgan. Aeroplanlar Buxoro shahrini Dushanbe (hozirgi Tojikiston Respublikasi poytaxti), Xiva, Toshkent, Olmaota (Qozog‘iston) bilan bog‘lash kerak edi. Respublikada muntazam havo flotini yaratish uchun 3 kishidan iborat komissiya tuziladi. Komissiya zimmasiga respublikaning eng muhim shaharlari Eski Buxoro, Kogon, Termiz, Dushanbe, Ko‘lob, Qarshi kabilarda aeroport (qo‘nalg‘a) qurish ishini yo‘lga qo‘yish masu‘liяти yuklanadi. «Buxoro-Dushanbe havo yo‘lini ochish va havo kemalari to‘xtayturg‘on maydonlar yasamoq uchun Buxoro hukumati 35 ming oltin so‘m ajratdi», - deyiladi xabarlarining birida. Buxoro Respublikasida 1923 yilda «Havo floti do‘stlari jamiyati» tuziladi. Ushbu jamiyatning tashabbusi bilan respublikadagi shirkat va tashkilotlardan, aholidan havo floti foydasiga yordam pullari to‘plangan.

Tahlil va natijalar. «Buxoro axbori»ning XX asr 20-yillaridagi sonlarini varaqlar ekanmiz, kelajakka ishonch ruhi bilan qarab, xayrli ishlardan o‘z mablag‘larini ayamaganliklariga guvoh bo‘lamiz. Ba‘zi kishilar Buxoro Respublikasi hukumatining havo floti tuzishga bog‘liq urinishlarini tanqid ostiga olib: «Ko‘chalarimiz tor, tosh yotqizilmagan, tevaragimizni o‘lim va qabr dunyosi o‘rab olgan. Avvalo, avtomabillarni yo‘lda yurishi haqida o‘ylash kerak» qabilidagi ruhni tushiruvchi fikrlarni aytganlar. E‘tiborlisi shundaki, faqat Buxoro-Dushanbe havo yo‘lini ochilishiga va faoliyati yo‘lga qo‘yilishiga erishiladi. O‘z davrining zamonaviy samolyotlariga ega bo‘lish orqali Buxoro Respublikasi hukumati moddiy ahvolni yaxshilamoqni maqsad qilgan. Bir paytning o‘zida fuqarolarning «uzog‘ini-yaqin» qilishdek xayrli orzu-umidlar ham bor edi.

Respublikaning oxirgi yilida ham savodsizlik bilan kurash masalasi ko‘ndalang bo‘lib turdi. O‘sha davrda bu jabhadagi umumiy holatni “Ozod Buxoro” gazetasi bir necha maqola va xabarlar orqali izohlashga uringan[6]. Ayniqsa, A. Boymatovning gazetada chop etilgan “Xat-savodsizlik bilan kurash jabhasida” nomli salmoqli maqolasi kengroq ma‘lumot beradi. Jumladan, maqolada yozilishicha: “Har bir maktab huzurida kurs bo‘lmoqqa tegish topildi. Bu kurslarda 2 nafar muallim, 1 nafar mudir, 50 nafar talaba bo‘lishi lozimligi belgilong‘on. Har oy Buxoroda 840 so‘m, viloyatlarda 120 so‘m harajat qilinayotgan ekan. Har maktab 10 so‘m 40 tiyin olib, 13 so‘m 20 tiyinga tushadur. Barcha smeta 21639 so‘mdur (Sharqiy Buxoro kirgizilmagan). G‘arbiy Buxoro (hozirgi Buxoro viloyati hududi)da erkaklar 560 000 nafar; xotunlar ham 560 000 nafar savodsiz hisobg‘a oling‘on. Muallimni 3 nafar qilib, talabalar sonini 75 nafar qilish kerak. Bu maktablarga ibtidoiy maktab o‘qituvchilarini jalb qilib, 25% ziyod (60 so‘m) oylik berish kerak. O‘qitg‘onlari uchun soatlab 80 tiyin berishga qarorlar berish kerak” [7] -kabi ma‘lumotlarni o‘qish mumkin.

Respublikaning oxirgi yilida, ya‘ni O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilishi arafasida ma‘muriy-hududiy bo‘linish bilan bog‘liq o‘zgarishlar gazetada aks ettirilganligi muhimdir. F.Xo‘jayev, A.Muhiddinov, I.Xidiraliyev va boshqa hukumat a‘zolarining bu masaladagi yirik maqolalari mavjudligini qayd qilib o‘tish o‘rinlidir. Ular orqali BXSRTarkibida tojik va turkman viloyatlari tashkil etilishi (1923 yil) bilan bog‘liq munozarali tarixiy voqealardan xabardor bo‘linadi[8].

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. O‘zbekistonning boshqa mamlakatlar bilan aloqalarini o‘rganishga jarayonida 1-rejalar asosan munosabatlarning tarixiy asoslari tahlil etilishiga hamda mazkur rejalar bayonida o‘qituvchi tomonidan keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqot natijalaridan foydalanishga tavsiya beriladi.

2. 2018-2025 yillarda taxminan 50 dan ortiq doktorlik, 200 dan ortiq tarixning turli yo‘nalishlari bo‘yicha himoyalar amalga oshirildi. Ilmiy tadqiqotlar ilgarilab ketmoqda. Mazkur tadqiqotlarning yangiligi darslik va metodik qo‘llanmalarda aks ettirilmayapti. Qolaversa, tarix fani o‘qituvchilarining aksar foizi bu fan yangiliklaridan mutlaqo xabarsiz. Shuning uchun ilmiy

yangiliklarni ta'limga olib kirish uchun muvofiqlashtiruvchi maxsus bir kengash tuzish kerak. Kengash faoliyati monitoring qilib borilishi zarur.

3. Keyingi yillarda yozilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, hatto dissertasiyalar ham rasmiy hisobotlar va statistik ma'lumotlar jamlanmasiga o'xshaydi, ayrimlari dalil va raqamlar bilan to'ldirib tashlangan. Rejalarda ham uzviylik, davomiylik yo'q, yarmidan voqealar uzilib qolganga o'xshaydi. Ko'pgina mavzularini, hatto rejlarni ham darsliklardagi mavjud mayetariallardan tashqari qo'shimcha manbalar asosida o'tish zarur, shundagina magistr istiqbolida o'zini bo'lajak tarix fani o'qituvchisidek tasavvur qila boshlaydi.

4. Oliy ta'limda tarix darsliklari yozish monitoringini olib borib, novator va metodistlarni tanlab, yangi avlod darsliklarini yaratish kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Buxoro davlat universiteti rektorining 2024 yil 29 avgustda imzosi va muhri bilan 70220301- Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) magistratura mutaxassisligi uchun tasdiqlangan ishchi o'quv rejasi nazarda tutilmoqda.

2. "Buxoro axbori" gazetasi BXS Markaziy Ijroiya Qo'mitasi matbuot organi bo'lib, 1920 yil 9 sentyabrdan 1923 yil oktyabrgacha chop etilgan. Gazeta o'zbek tilida, isloh qilingan arab imlosida, sarg'ish rangli o'rtacha sifatdagi qog'ozda, haftada 1-2 marta, 1500-2000 nusxada chiqarilgan. 1923 yil 16 oktyabrdan "Ozod Buxoro" nomida gazeta nashr qilina boshlangan. Bu gazeta 1930 yil oktyabr oyigacha chiqib turgan. Gazetalarning to'liq taxlamlari bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi (O'zbekiston MDA) va Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyati markaziy kutubxonasida saqlanmoqda.

3. Buxoro Jumhuriyatida qancha xalq bor? //Ozod Buxoro. 14-son. 1923 yil 21 noyabr; Qarang. Hayitov Sh., Rahmonov K. Buxoro Xalq Respublikasi va Germaniya: hamkorlikning tarixiy lavhalari (1920-1924 yillar). -T.: Fan, 2004. -B.7.

4. Viloyatlarda. Sharqiy Buxoroni viloyatlarga bo'lish //Buxoro axbori. 200-son. 1923 yil 12 sentyabr; Sharqiy Buxoro bosmachilikdan keyin. O'lkani ma'muriy bo'linishi //Buxoro axbori. 208-son. 1923 yil 30 sentyabr.

5. Bosmachilar qizil askardan qochadur. //Ozod Buxoro. 32-son. 1923 yil 29 dekabr; Bosmachi taslim bo'ladi; //Ozod Buxoro. 68-son. 1924 yil 29 mart; Bosmachilikning keyingi kunlari (rukn): Bosmachilarni uramiz; Dehqonlar bosmachilarg'a qarshi; 1 ta bosmachi asir tushdi //Ozod Buxoro. 81-son. 1924 yil 23 aprel; Bosmachilikning so'nggi kunlari: Yana bitta taslim bo'ldi; Ibrohimbek qochadur; Bosmachilar bilan kurash: 83 ta bosmachining taslim bo'lishi; Sobir polvon va 8 ta yigiti o'zini hukumatga topshirdilar; Tursun eshon o'ldirildi //Ozod Buxoro. 95-son. 1924 28 may; Bosmachilik bilan kurash; May oyida bizning muvaffaqiyatlarimiz; Mirzo yuzboshi va Qozi yasovulboshi taslim bo'ldilar //Ozod Buxoro. 102-son. 1924 yil 12 iyun; Bosmachilikning keyingi kunlari: Sharqiy Buxoro viloyatlarida bosmachilik bitdi //Ozod Buxoro. 118-son. 1924 yil 16 iyul.

6. Kamol No'noq. Xat-savodsizlik bilan kurash ishlarining borishi //Ozod Buxoro. 119-son. 1924 yil 27 iyul; O'sha muallif. Xat-savodsizlik bilan kurash jabhasida //Ozod Buxoro. 121-son. 1924 yil 31 iyul; Vahobov. Xat-savodsizlik bilan kurash //Ozod Buxoro. 127-son. 1924 yil 14 avgust.

7. Fayzulla Xo'ja. O'rta Osiyoning milliy jumhuriyatlarga bo'linishi //Ozod Buxoro. 132-son. 1924 yil 25 avgust; O'sha muallif. Markazda O'rta Osiyo masalasi //Ozod Buxoro. 163-son. 1924 yil 14 noyabr; Abdulqodir Muhiddinov. Milliy jumhuriyatlar tashkili //Ozod Buxoro. 67-son. 1924 yil 24 mart; O'sha muallif. Milliy jumhuriyatlar tashkili va Buxoro turkmanlari //Ozod Buxoro. 80-son. 1924 yil 20 aprel; Xidiraliyev. O'rta Osiyo milliy tuzilishi //Ozod Buxoro. 132-son. 1924 yil 25 avgust.

8. Abdulqodir Muhiddinov. Milliy jumhuriyatlar tashkili va Buxoro turkmanlari //Ozod Buxoro. 80-son. 1924 yil 20 aprel.

Murodova Dilrabo Shomurodovna
Buxoro davlat universiteti
arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BUXORODAGI ILK OLIYGOH TARIXI ARXIV HUJJATLARIDA: O'TMISHDAN KELAJAK SARI

Anotatsiya. Ushbu maqolada XX asrda Buxoroda tashkil qilingan ilk oliy ta'lim muassasasi bo'lgan (sobiq Buxoro Davlat Pedagogika instituti) Buxoro davlat universiteti tarixining moziy izlari aks etgan arxiv hujjatlaridagi tahlili yoritiladi. Asr bilan yuzlashgan oliygoch o'tmishi qayd qilingan noyob arxiv manbalari hozirda O'zbekiston Milliy arxivi hamda Buxoro viloyat davlat arxivi fondlarida saqlanadi. Hozirda Buxoro viloyat davlat arxivida oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga oid jami 4 ta fondlar tarkibida 2143 ta yig'majildlar mavjud bo'lib, davriy jihatdan 1933 – 2011-yillarni o'z ichiga oladi. Ularning orasida hujjatlar salmog'i, davriy chegarasi va hajm jihatidan Buxoro davlat universiteti tarixi aks etgan hujjatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Ta'lim muassasasi, arxiv jamg'armalari, hujjatlar, hisobotlar, shaxsiy arxiv fondlari, pedagogika instituti, universitet, sirtqi bo'lim, fakultet, mutaxassis.

ИСТОРИЯ ПЕРВОГО ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ В БУХАРЕ В АРХИВНЫХ ДОКУМЕНТАХ: ОТ ПРОШЛОГО К БУДУЩЕМУ

Аннотация. В данной статье освещается анализ архивных документов, отражающих исторические следы Бухарского государственного университета, первого высшего учебного заведения, созданного в Бухаре в XX веке (бывший Бухарский государственный педагогический институт). Уникальные архивные источники, фиксирующие историю университета, столкнувшегося с веком, в настоящее время хранятся в фондах Национального архива Узбекистана и Бухарского областного государственного архива. В настоящее время в Бухарском областном государственном архиве в составе 4 фондов, относящихся к деятельности высших учебных заведений, хранятся 2143 дела, охватывающие период с 1933 по 2011 годы. Среди них особое значение имеют документы, отражающие историю Бухарского государственного университета по весу документов, срокам и объему.

Ключевые слова: Образовательное учреждение, архивные фонды, документы, отчеты, личные архивные фонды, педагогический институт, университет, заочное отделение, факультет, специалист.

THE HISTORY OF THE FIRST HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTION IN BUKHARA IN ARCHIVE DOCUMENTS: FROM THE PAST TO THE FUTURE

Abstract. This article analyzes archival documents reflecting the historical traces of Bukhara State University, the first higher education institution established in Bukhara in the 20th century (formerly Bukhara State Pedagogical Institute). Unique archival sources recording the history of the university, which faced a century, are currently held in the collections of the National Archives of Uzbekistan and the Bukhara Regional State Archives. Currently, the Bukhara Regional State Archive, comprising 4 collections related to higher education institutions, holds 2,143 files covering the period from 1933 to 2011. Among them, documents reflecting the history of Bukhara State University are of particular importance in terms of document weight, timeframe, and volume.

Keywords: Educational institution, archival funds, documents, reports, personal archival funds, pedagogical institute, university, correspondence department, faculty, specialist.

Kirish. XX asrning birinchi yarmida O'zbekiston SSRda oliy ta'lim muassasalari tarmog'i ortib bordi. Respublika maktablari uchun pedagog mutaxassislar tayyorlash zaruratining tobora kuchayishi munosabati bilan hukumat qarori asosida Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Namangan, Andijon, Toshkent, Nukus, Xiva, Urganch shaharlarida oliy maktablar tashkil qilingan. Azaldan ilm-ma'rifat beshigi bo'lib kelgan Buxoroda ham sovet andozasidagi ilk oliy ta'lim muassasasi sifatida Buxoro pedagogika instituti faoliyati yo'lga qo'yiladi. Universitetning dastlabki davridagi o'quv-pedagogik jarayonni tashkil etish bilan bog'liq (1930-1950-yillar) hujjatlari hozirda O'zbekiston Milliy arxivining R-94-fondida saqlanadi. Bundan tashqari Buxoro davlat universitetining viloyat davlat arxivida saqlanayotgan 1932-1977-yillardagi faoliyati 744 ta yig'majildan iborat bo'lib, ular respublikada dastlabki o'qituvchi mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalaridan biri hisoblangan Buxoro pedagogika institutiga asos solinishi va shakllanishi bilan bog'liq tarixiy jarayondagi muammolarni o'rganish, tahlil etish imkoniyatini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu maqolada Buxoro davlat universiteti tarixi asosan birlamchi manbalar hisoblangan O'zbekiston Milliy arxivining R-94 hamda Buxoro viloyat davlat arxivining 532-fond fondlarida saqlanayotgan hujjatlar asosida yoritiladi.

Metodlari. Mazkur maqolada tarix fanida tadqiqotlar olib borishning tarixiylik tamoyili, obyektivlik va tizimli tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. XX asrning 30-yillarida O'zbekiston SSRda maorif tizimidagi o'qituvchilar yetishmasligi muammosini hal etish maqsadida viloyatlarda oliy pedagogik kadrlarni tayyorlash ishlarini tashkil etishga e'tibor qaratiladi. Respublika rahbarlarining sa'yi harakatlari natijasida 1930-yil 25-iyulda Butunittifoq bolsheviklar kommunistik partiyasi Markaziy kengashining "Umumiy majburiy boshlang'ich ta'lim to'g'risida" gi qarori qabul qilinadi. Mazkur qaror ijrosi 40 kun o'tib, O'zbekiston SSR Xalq maorif komissarligining 5-sentabrdagi Farg'ona va Buxoroda pedagogika institutlari tashkil etish to'g'risidagi buyrug'ida o'z aksini topdi [1; B. 279].

Mazkur institutlar zimmasiga qishloq maktablari uchun o'qituvchi kadrlar tayyorlash vazifasi yuklatiladi. Buxoro Oliy pedagogika institutiga direktor etib o'sha davrda okrug Maorif bo'limi boshlig'i bo'lib ishlagan Karimjon Vahobov tayinlangan [2; B. 37]. Institut qoshida uch ming jild kitobga ega bo'lgan fundamental kutubxona tashkil etilib, unga B. Salixov direktor etib belgilanadi. Kutubxonada jami 25 017 ta kitob saqlanib, ulardan 18000 ta rus, 7017 tasi esa o'zbek tilidagi adabiyotlar bo'lgan.

Buxoro shahri markazida joylashgan sobiq erkaklar maorif institutining ikki qavatli binosida 39 ta xona bo'lib, ulardan 21 tasi dars va laboratoriya mashg'ulotlariga, qolganlari ma'muriyat ish joylari sifatida ajratilgan. O'zbekiston madaniy yodgorliklar va tabiatni asrash ishlari bo'yicha qo'mita (Uzkomstaris) tasarrufidagi Ark qo'rg'oni va Nodir Devonbegi madrasasi binolari talabalar yotoqxonasi sifatida oliygoh ixtiyoriga topshirilgan. Shunga qaramasdan, uzoq hududlardan kelgan yoshlarga yotoq joylarining yetishmasligi va u yerdagi qoniqarsiz sharoit ayrim hollarda talabalarni o'qishni tashlab ketishiga ham sabab bo'lgan. 1938-1939-yillarda umumiy qimmati 120.000 so'm bo'lgan 300 o'rinli talabalar yotoqxonasini qurish rejalashtirilgan. Qurilish bosh rejasi va loyiha chizmalari viloyat arxivida to'liq saqlangan.

1930-yil 7-noyabrda institutning tashkil qilinishida jonbozlik ko'rsatgan Fayzulla Xo'jayevning nomi berilib, rasman dars jarayonlari boshlanadi. Institutda Fizika-matematika, Tarix va Agropedagogika fakultetlari tashkil etiladi. 1932-yilda Tarix fakulteti Tarix-filologiya fakultetiga Agropedagogika fakulteti Tabiiy fanlar fakultetiga aylantirilib o'quv-metodik baza va botanika bog'i tashkil qilinadi. 1933-yildan boshlab Tarix-filologiya fakulteti qoshida «O'zbek tili va adabiyoti» kafedrasini o'z faoliyatini boshlagan [3; B. 117].

Bundan tashqari, institut qoshida bir yillik xotin-qizlar hamda ishchilar fakulteti tashkil etilgan. Kogon shahrida institutning kechki filialiga asos solinib, unga asosan o'rta ma'lumotga ega bo'lgan o'qituvchilar o'qishga qabul qilingan.

Dastlab institutga 45 talaba qabul qilingan edi. Ulardan 13 nafari xotin-qizlar bo'lgan. Yildan yilga talabalarining soni oshib borgan. Masalan, 1931-1932-o'quv yilida – 114 talaba, 1932-1933-o'quv yilida – 206 nafar talaba tahsil olgan. Hujjatlarda qayd etilishicha, 1933-yilning 1-iyulida institutni ilk marta 39 nafar bitiruvchilar tugatib, mutaxassislik diplomlariga ega bo'lishgan. Institut tarixi aks etgan hujjatlardagi ma'lumotlarda bayon qilinishicha talabalar orasida ma'naviy-mar'ifiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradigan milliy musiqa, foto havaskorlar va drama to'garaklari tashkil etilgan bo'lib, ular orqali yoshlarning bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishga harakat qilingan. Biroq dastlabki davrda oliygohdagi o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishda rahbariyat tomonidan jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi, jumladan, XMK tomonidan ishga yo'llanma asosida yuborilganlar o'rniga ma'lumoti yetarli bo'lmagan shaxslarning olinishi, mablag'larning noqonuniy sarflanishi, talabalar uchun zarur sharoitlarining yaratib berilmaganligi kabi muammolar haqida davriy matbuotda tanqidiy maqolalar e'lon qilingan. Bundan tashqari 1933-yilda o'qituvchilarning Baku, Kiyev, Xarkov, Moskva, Qozon, Samara, Stalingrad shaharlarida malaka oshirishlari uchun ajratilgan 38635 rublni noqonuniy talon-taroj qilinishi ham e'tirozlarga sabab bo'lgan [4; B. 308].

Dastlab o'qish muddati 3 yil bo'lib, 1934-yildan 4 yillik pedagogika oliygohiga aylantiriladi. Institut o'qituvchilarining katta qismi rusiyazbon bo'lganligi bois, mashg'ulotlar asosan rus tilida olib borilgan. Talabalarga 16 nafar pedagog saboq bergan. Shuningdek, 1930-yil 26-sentabrda Tarix fakultetiga Leningraddan professor N.A.Kojin, agropedagogika fakultetiga esa Dnepropetrovskdan dotsent L.B.Komenko biologiya fani o'quvchisi sifatida markazdan yuborilgan. Institutda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning milliy tarkibi xilma-xil bo'lib, talabalarga o'zbek, polyak, belorus, ukrain, tatar, rus, boshqird, qozoq va qirg'iz millatiga mansub mutaxassislar saboq bergan. Shundan o'zbeklar 54 foiz, tatarlar 29 foiz, tojiklar 4,8 foiz, yahudiylar 2,72 foizni tashkil etgan. Oliygo'h o'qituvchilarining samarali ishlashida jiddiy to'siq bo'lgan turar joy muammosi, professor-o'qituvchilar uchun mo'ljallangan uylarning qurilishi Xalq Maorifi Komissarligi tomonidan kechiktirilgani, oylik maoshlarning o'z vaqtida berilmaganligi katta noroziliklarga sabab bo'lgan. Masala institut uchun yangi o'quv binosini qurish va yil oxirida shahar soveti hisobidan yotoqxona uchun 6 ta joy ajratish bilan yakun topgan [5; B. 18].

XX asrning 30-yillarida avj olgan sinfiy dushmanlarga qarshi qatag'on siyosati bevosita ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. 1934-yil 22-mayda O'zbekiston KPsi Markaziy qo'mitasining "Buxoro pedagogika instituti to'g'risida" gi 12 baddan iborat qarori qabul qilingan. Davriy matbuot sahifalarida e'lon qilingan mazkur rasmiy hujjatda ta'kidlanishicha, institut rahbariyati tomonidan partiyaning oliy ta'lim muassasalari oldiga qo'yan siyosiy talablari bajarilmaganligi, sotsialistik targ'ibot keng targ'ib qilinmaganligi, talabalarni tanlashda jiddiy siyosiy xatolarga yo'l qo'yib, sinfiy yot unsurlarni institutga qabul qilinishiga yo'l qo'yanlikda, davlat pulini talon-taroj qilib, moliya intizomini buzganlik, sinfiy hushyorlik oshirilmaganlik kabi ayblovlar bilan institut direktori G'.Usmonov va ilmiy bo'lim mudiri Amirxonov ishdan olinib, Toshkent pedagogika instituti rahbari X. Valiyev oliygoh direktori qilib tayinladi. Ijtimoiy kelib chiqishi "begona" bo'lganlardan tozalash tadbirlari respublikadagi barcha oliy o'quv yurtlarini qamrab olgan bo'lib, o'z navbatida, talabalarining ijtimoiy kelib chiqishi bilan birga "xalq dushmanlari" ga aloqasi bor-yo'qligi ham o'rganilgan. 1934-yilning sentabridan Buxoro davlat pedagogika instituti qoshida Xorazm viloyati uchun ikki yillik o'qituvchilar tayyorlash instituti tashkil qilinib, xorazmlik yoshlar o'qishga qabul qilingan. Bir yil o'tib alohida, mustaqil O'qituvchilar institutiga asos solingan. Dastlab bu muassasadagi ikkita: o'zbek tili va adabiyoti hamda fizika-matematika bo'limlarida jami 120 nafar talaba tahsil olgan [6; B. 310].

1935-yil 22-aprelda Buxoro davlat pedagogika institutining 15 nafar talabalari O'zbekiston SSR XKS raisi F. Xo'jayevga Moskva va Leningradga malaka oshirishga yuborish bo'yicha murojaat qiladi. Talabalarining safariga 20.000 rubl ajratiladi. Ammo Maorif Komissarligi bu mablag'ni institut ehtiyojlariga sarflashni afzal ko'radi. 1937-yilda katta qatag'on to'liqini boshlangach, Buxoro pedagogika institutining nomi o'zgartiriladi. SSSR MIKning 9-iyulidagi qaroriga ko'ra unga Sergo Orjonikidze nomi berilgan. 1938-yilda Pedagogika va O'qituvchilar

institutlari birlashtirilib yuboriladi. Institut moliyaviy jihatdan Maorif komissarligiga, ilmiy va o'quv ishlari bo'yicha esa Oliy ta'limga bo'ysundiriladi. 1938-1941-yillarida institutning 4 ta fakultetida 120 nafar talaba tahsil olgan.

1941-yil 1-avgustdan boshlab Buxoro pedagogika institutida faoliyat yuritgan 1 nafar professor, 10 nafar dotsent, 6 nafar fan nomzodi, 40 nafar o'qituvchilar va talabalar Registon maydonida tashkil etilgan harbiy tayyorgalik mashg'ulotlariga jalb qilinadi. Shu yilning 21-sentabridan muassasa rahbarining buyrug'i bilan bolalar uylarining tarbiyalanuvchilari, nogironligi bo'lgan hamda faol talabalar ta'lim to'lovidan ozod qilinadi. Arxiv hujjatlarida qayd etilishicha, urush boshlangan dastlabki davrda institut jami 4 ta o'quv binosiga ega bo'lgan. Fakultetlar kesimida tahlil qilinganda, Tabiiy fanlar fakulteti 1-binoda, Adabiyot fakulteti 2-binoda, 3-binoda Fizika-matematika fakulteti hamda 4-bino Xorazm ko'chasi 10-uyda joylashgan Buxoro qozisining uyida kechki filial va tayyorlov guruhlari sifatida faoliyat yuritgan. 1941-yilning oktabridan institutning 2 ta yotoqxonasi harbiy gospitalga berib yuborilgan.

Buxoro pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti hamda ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi kafedralarining 1941-1942-o'quv yili ilmiy-tadqiqot rejasida fashizmga qarshi mavzudagi tadqiqotlar olib borildi. Xususan, Sharafutdinov, K.Karimov, M.Mirzayev, I.Pardayev, K.Xayrullayev kabi o'qituvchilarning "Zamonaviy o'zbek adabiyoti fashizmga qarshi kurashda", "Zamonaviy o'zbek folklorshunosligida qahramonlar mavzusi", "Zamonaviy o'zbek tilshunosligida harbiy terminlar" mavzularidagi nomzodlik dissertatsiyalari bo'yicha izlanishlar amalga oshirilgan. 1942-yildan boshlab institutning G'ijduvon va Shofirkon tuman filiallari tashkil etilib, u yerda 5,5 oylik tayyorlov guruhlari faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Buxoro viloyat ijroiya qo'mitasining 1942-yil 9-yanvardagi 1/20 qarorida hududga ko'chirib keltirilgan oliy ta'lim muassasasi to'g'risida ma'lumot berib o'tilgan. Ushbu rasmiy hujjatda qayd etilishicha, Buxoro shahriga 1942-yilda ko'chirib keltirilgan Moldaviya pedagogika instituti va uning 200 nafar talabasini o'quv xonalari, turar joy bilan ta'minlash vazifasiga mas'ul etib Buxoro pedagogika instituti direktori Davlat Yusupov tayinlanadi va mazkur masala yuzasidan qator topshiriqlar beriladi. Jumladan, "Narimonov" nomidagi maktab binosini ta'mirlab, mazkur oliygohga o'quv binosi sifatida berish hamda Shergiron aholi manzilidagi bolalar uyiga mo'ljallangan binoni talabalar turar joyiga aylantirilgan [7; B. 14].

Arxiv hujjatlarida 1943-1944-yilgi o'quv jarayonida Fizika-matematika, Til-adabiyot va Tabiiy fanlar fakultetlarida 190 nafar talaba tahsil olgan. Rasmiy manbalarda talabalarning soni yil sayin oshib borilgani qayd etilsa-da, o'quv dargohini 160 nafar talaba tashlab ketganligi arxiv hujjatlarida aks etgan. 1944-yilda O'rta Osiyo Davlat universiteti hamda Toshkent Pedagogika institutining sirtqi bo'limida tahsil olayotgan talabalar Buxoro pedagogika institutida o'qishni davom ettirishgan [8; B. 171].

Mamlakatning urush girdobiga tortilganligi oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga ham ta'sir ko'rsatmay qolmadi. 1943-1944-o'quv yili hisobotlarida Buxoro pedagogika institutida harbiy va jismoniy tayyorgarlik uchun 200 soat ajratilganligini ko'rish mumkin. Tarix fakultetida mutaxassislik fani hisoblangan o'rta asr tarixidan 26 soat, harbiy tayyorgarlik kursi bo'yicha esa 157 soatlik dasturlar o'zlashtirilganligi arxiv hujjatlarida qayd etilgan. O'quv yili oxirida institutda 1 ta professor, 5 ta dotsent, 3 ta fan nomzodi, 20 nafar katta o'qituvchi va 24 ta o'qituvchi-assistentlar faoliyat ko'rsatishgan.

Hujjatlardagi ma'lumotlarga ko'ra, oliygohda professor-o'qituvchilarni yetishmasligi muammosini viloyatga evakuatsiya qilingan mutaxassislar hisobiga yechish siyosati olib boriladi. Rus-tili va adabiyoti, Tabiiy fanlar, Fizika kafedralariga V.A.Vasilev, M.A.Shapira, Ye.A.Shrabshteyn, F.A.Belskiy kabi urush hududlaridan ko'chirib keltirilgan professor va dotsentlar ishga olinadi. Buxoro pedagogika instituti nafaqat viloyatning o'zi, balki, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm vohalari uchun ham o'qituvchi-pedagoglar tayyorlovchi markaz vazifasini bajargan. 1944-yilda G'ijduvon, 1946-yilda esa Shofirkon filiallari faoliyati tugatilgan [9; B. 184].

1945-yil iyulda Buxoro davlat pedagogika va o'qituvchilar institutida ilk bor talabalarning ilmiy konferensiyasi bo'lib o'tadi. Anjumanda asosan iqtidorli talabalarning pedagogika, tarix-filologiya, tabiiy fanlar hamda fizika-matematika sohariga oid qiziqarli mavzulardagi dolzarb

- 22 ahamiyatga ega bo'lgan 22 ta ilmiy ma'ruzalari tinglangan. 1945-1946-o'quv yilida Qarshi shahrida Buxoro o'qituvchilar institutining filiali ochilib, 1948-yildan esa mustaqil O'qituvchilar institutiga aylantiriladi.

1957-yilda institutda Boshlang'ich ta'lim asoslari fakulteti, 2 yildan so'ng esa Boshlang'ich ta'lim asoslari kafedrasiga ham asos solingan. 1961-yilda ilk bitiruvchilar viloyat maktablarda pedagogik faoliyatlarini boshlaydilar. 1961-yilning aprelida O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri akademik T.A.Sarimsoqovning 86-K buyrug'i bilan institut rektorligiga taniqli iqtisodchi olim, davlat va hukumat arbobi, oliy ta'lim tizimi islohotchisi Juma Namozovich Namozov tayinlanib, bu vazifada 1977-yilgacha uzluksiz faoliyat ko'rsatdi. Bu yillarda institut professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyati qator fan nomzodlari va doktorlari hisobiga oshib borganligini ko'rish mumkin [10; B. 26-28].

Mazkur davrda Buxoro davlat pedagogika institutida 230 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat ko'rsatib, ulardan 2 ta professor, fan doktori, 25 nafar fan nomzodlari, dotsentlar, 66 ta o'qituvchi, 106 ta o'qituvchi va assistentlar faoliyat ko'rsatgan. 1960-1961-o'quv yilida muassasada 1693 ta talaba tahsil olgan bo'lsa, 1961-1962-o'quv yilida esa 1809 nafar talaba ta'lim olgan.

1961-yil 8-iyuldagi O'zbekiston SSR Ministrlar Kengashining "Umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitishni takomillashtirish" to'g'risidagi qaroriga asosan 1962-yilda institutning tarix-filologiya fakulteti qoshida Chet tillar bo'limi va Musiqa va ijro kafedrasini tashkil etilgani arxiv hujjatlarida o'z aksini topgan. 1966-yilda esa xorijiy tillar fakultetiga asos solinib, ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy o'quv jihozlari bilan ta'minlanadi.

1970-1975-yillarda institut rahbariyati fan doktorlari va nomzodlarni tayyorlashga juda katta amaliy yordam berdi. Bu davrda N.Yo'ldoshev, F.Qosimov (tarix), H.G'.Ne'matov (o'zbek tili), S.Baqoyev (biologiya), A.Abdullayev, R.Vohidov, O.Safarov (o'zbek tili va adabiyoti), B.Ochilov (fizika), R.Raxmonov (falsafa), fanlari bo'yicha doktoranturada tahsil olganlar. 1966-1967-yillarda 17 pedagog aspiranturaga kirgan bo'lsa, 1970-1975-yillarda ularning soni 23 taga, 1975-1979-yillarda esa 31 nafarga yetdi. Rektorning yuksak tashkilotchilik mahorati va chinakam jonkuyarligi tufayli institutning o'sha davrda Markaziy Osiyo mintaqasida kamdan-kam uchraydigan yagona bo'lgan ulkan, shinam, zamonaviy va go'zal yangi binosi qurilishi boshlandi. Juma Namozovning tashabbusi va taklifi bilan institut yangi binosi joylashgan hudud viloyat o'quv yurtlari va talabalar shaharchasi sifatida bunyod etilishi bilan bog'liq loyiha ishlab chiqildi va bu boradagi amaliy qurilish harakatlari boshlandi [11; B. 8-9].

1970-1971-o'quv yilida ta'lim tizimidagi tartibga ko'ra, oliygohning bitiruvchilari Andijon, Xorazm, Samarqand, Surxondaryo viloyatlariga ishga taqsimoti belgilangan. Turkmaniston SSR Xalq ta'limi vazirligining 1971-yil 2- martdagi №12/17 raqamli xatiga asosan 80-120 rubl oylik maosh va turar joy bilan ta'minlash sharti bilan oliygohning boshlang'ich sinf o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha 10 nafar bitiruvchilari Karki va Toshhovuz tumanlariga yuborilgan. Umumiy hisobda 1971-o'quv yilida jami 683 nafar bitiruvchi 14 ta mutaxassislik bo'yicha institutni tugatgan. 1972-yil 26-yanvar holatida institutda 7 ta fakultet, 32 ta kafedra, 314 o'qituvchilardan, 3 fan doktori, professor, 87 nafar dotsent va fan nomzodlari faoliyat ko'rsatgan. Bundan tashqari, tayyorlov kurslarida 550 nafar abituriyentlar tayyorlandi. Talabalar soni ortib borgan sari, yotoq joylarga bo'lgan talab oshib bordi. Natijada, 1973-yilda 6 ta binoli 1830 o'rin ega talabalar turar joyi qurilishi boshlangan. Oxirgi 2-3-yil ichida 50 ga yaqin pedagoglar oilasi xonadonlar va qurilish uchun yer maydoni bilan ta'minlanib, doimiy ravishda bu masala partiya va kasaba uyushmalari, oliygoh rahbariyatining diqqat e'tiborida bo'lgan [12; B. 64-66].

Ilmiy-tadqiqot sohasida oliygohda bu o'quv yilida doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilinib, 9 tadqiqotchi aspiranturaga qabul qilingan. 1974- yilda A. Russo nomidagi Belsk davlat pedagogika instituti bilan mye'yoriy hujjatlar borasida aloqalar olib borilganligi arxiv hujjatlarda aks etgan. Shu yilning o'zida O'zbekiston SSR Xalq ta'limi ministrilgining qaroriga asosan mamlakatimizda ikkinchi bo'lib badiiy-grafika fakulteti tashkil qilinadi. Fakultetdagi birinchi o'quv yilida 9 ta guruhda 213 nafar talaba tahsil olgan. 1976-1977-o'quv yilida 17 ta

mutaxassislik bo'yicha 1425 nafar abituriyent o'qishga qabul qilingan bo'lib, shundan 925 tasi kunduzgi va 500 tasi sirtqi bo'limda tahsil olgan. 250 nafar tinglovchilar esa tayyorlov guruhlarida o'qitilgan. 1976-yilda talabalardan iborat qurilish guruhlar tashkil etilib, 1 mln. rubl miqdordagi qurilish ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Har bir talaba yil davomida shahar va institut hududidagi qurilishlarda 20 soatdan kam bo'lmagan holda majburiy bunyodkorlik ishlariga ishtirok etganligi to'g'risida institutning "Ilg'or fan uchun" nomli gazetasida xabarlar berilgan.

Fan va ta'lim sohasidagi xizmatlari hamda mutaxassislar tayyorlashdagi yutuqlari uchun SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1981-yil 22- maydagi qarori bilan institut "Faxr belgisi" (Знак Почета) ordeni bilan taqdirlangan. Bu yillarda institut ilmiy-pedagogik jamoasi N.Ne'matov, F.Qosimov, B.Ochilov, O.Safarov, R.Vohidov, A.Atovoyev, R.Raxmonov, K.Zaripov, S.Inoyatov, T.Oqmurodov, O.Roziqov singari yangi iste'dodlar hisobiga to'ladi. Ilmiy salohiyatni yuksaltirishga bo'lgan e'tibor natijasida institut jamoasi tomonidan yadro fizikasi, geliotexnika, ixtiologiya, falsafa, tarix, manbashunoslik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik va pedagogika singari qator ilmiy yo'nalishlar rivojlantirilib, tadqiqotlar ko'lamini kengaytgan. Qo'lga kiritilgan yutuqlar va ilmiy izlanishlarning natijalari respublika va undan tashqarida e'tirof qilingan. Nihoyat bor 1989-yilda tilshunoslik, adabiyotshunoslik va folklorshunoslik ixtisosliklari bo'yicha aspirantura ochilgan. 1990-yilda institutda 10 ta fakultet, 43 ta kafedra, 472 ta ilmiy-pedagogik xodimlar, jumladan, 17 ta fan doktori, professor, 3 nafar respublikada xizmat ko'rsatgan fan arbobi, 160 ga yaqin fan nomzodi, dotsentlar faoliyat ko'rsatgan [13; C. 298].

Mustaqillik sharofati bilan oliy ta'lim tizimidagi islohotlar samarasi sifatida 1992-yilning 28-fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi oliy o'quv yurtlarini tashkil etish to'g'risida"gi PF-356 sonli farmoni qabul qilingan. Mazkur farmonning ijrosini ta'minlash maqsadida 1992-yil 15-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 125-raqamli qarori bilan Buxoro davlat pedagogika instituti negizida Fayzulla Xo'jayev nomidagi Buxoro davlat universitetiga asos solingan. 1993-yilga kelib universitetda Misr Arab Respublikasining Aynush-Shams va 1995-yilda Al-Azhar universitetlari, shuningdek, Saudiya Arabistonidagi Ar-Riyod, Germaniyaning Shtutgart, Fransiyaning Sorbonna, Buyuk Britaniyaning Redding universitetlari va Kolderdams kolleji, Rosiyaning Novosibirsk universiteti bilan hamkorliklar o'rnatilgan. Universitet rektori K.M.Muqimovning 2000-yil 28-oktabrdagi 259-U buyrug'i asosida 2000-2001- o'quv yilidan ilk bor adabiyotshunoslik, pedagogika, makroiqtisodiyot, nazariy fizika, organik kimyo, hisoblash matematikasi va informatika mutaxassisliklari bo'yicha 19 nafar talaba o'qishga qabul qilinib, magistrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan [14; B. 26].

Xulosa va takliflar. Bugun asr bilan yuzlashib, tabarruk 95 yoshni qarshilayotgan Buxorodagi ilk ma'rifat maskani bo'lmish Buxoro davlat universiteti respublikamizning otaxon oliygohlari qatorida munosib o'ringa egadir. O'zbekiston Milliy arxivi va Buxoro viloyat davlat arxivi fondlarida oliygoh tarixi va faoliyati aks etgan hukumat qarorlari, bo'lim va kafedralarning yig'ilish hisobotlari, ilmiy kengash bayonnomalari, asosiy faoliyat bo'yicha buyruqlar, shtatlar jadvali, yillik buxgalteriya hisobotlari, talabalar qabuli va o'qishni ko'chirish to'g'risidagi buyruqlar, shaxsiy varaqa, yotoqxona loyihalari kabi hujjatlar saqlanmoqda. Ushbu hujjatlardan Buxoroda oliy ma'lumotli pedagog mutaxassislarni tayyorlashdagi muammo va yechimlar, oliygohda faoliyat yuritgan professor-o'qituvchilar, o'quv jarayonini tashkil etish yo'lida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida batafsil ma'lumotlar olish mumkin. Biroq oliygohning 1977-yildan keyingi salkam 50-yillik davrdagi hujjatlari viloyat arxiviga topshirilmaganligini qayd etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Milliy Arxivi (Keyingi o'rinlarda O'zMA) R-94-fond, 5-ro'yxat, 77-yig'majild, 279-varaq.
2. O'zMA, R-94-fond, 5-ro'yxat, 2643-yig'majild, 37-varaq.
3. Buxoro viloyat davlat arxivi (Keyingi o'rinlarda BVDA) 532-fond, 1-ro'yxat, 1-yig'majild, 6-varaq, 117-varaq.
4. O'zMA, R-94-fond, 5-ro'yxat, 930-yig'majild, 308-varaq.

5. O'zMA, R-94-fond, 5-ro'yxat, 5799-yig'majild, 18-varaq.
6. O'zMA, R-94-fond, 5-ro'yxat, 930-yig'majild, 310-varaq.
7. BVDA, 1127-fond, 1-ro'yxat, 42-yig'majild, 14-varaq.
8. BVDA, 532-fond, 1-ro'yxat, 710-yig'majild, 184-varaq.
9. BVDA, 532-fond, 1-ro'yxat, 710-yig'majild, 171-varaq.
10. С.Иноятв. Умрбокий инсон: Устозга шогирд эхтироми. – Бухоро: Durdona, 2022. – Б. 26-28.
11. Саховатли умр соҳиби (Жума Намозовнинг 100 йиллик таваллудининг ёрқин хотирасига бағишланган хотиранома ва илмий анжуман тўплами). – Бухоро. 2022.- Б. 8-9.
12. BVDA, 532-fond, 1-ro'yxat, 650-yig'majild, 64-varaq, 66-varaq.
13. Материалы научно - теоретической конференции посвященные 60-летию Бухарского Государственного Педагогического Института. (Январ 1990). - Бухара. 1990.- С. 298.
14. Buxoro davlat universiteti joriy arxivi. 2000-yil hisoboti. - B. 26.

Erkinoy Davletbayevna Sapparbayeva

Navoiy davlat konchilik va texnologiya universiteti
ijtimoiy gumanitar fanlari va jismoniy tarbiya
kafedrası assistenti

erkinoydavarbayeva03@gmail.com

O'RTA OSIYODA KOLLEKTIVLASHTIRISHGA QARSHI OMMAVIY CHIQISHLAR TARIXI (1930-YILLAR MANBALARI ASOSIDA)

Annotatsiya. Ushbu maqola 1930-yillarda O'zbekiston va butun O'rta Osiyo hududida yuz bergan kollektivlashtirish siyosatiga qarshi ommaviy chiqishlarni arxiv manbalari va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilishga bag'ishlangan. Sovet hokimiyatining agrar siyosati, xususan dehqon xo'jaliklarini majburiy tarzda kolxozlarga birlashtirilishi, an'anaviy xo'jalik yuritish shakllarining tugatilishi, xususiy mulklarning musodara qilinishi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning ko'payishi hamda bolshvikcha ma'muriy bosimlarning kuchayishi mahalliy aholining keng ko'lamlil noroziliklarga sabab bo'ldi.

Arxiv hujjatlarida keltirilgan statistik ma'lumotlar bu noroziliklarning ko'lami kengligi va ishtirokchilar sonining ko'pligini ko'rsatadi. Masalan, 1930-yil fevral-mart oylarida faqatgina O'zbekiston SSRda 95 ta norozilik chiqishlari qayd etilib, ularda norozilik kayfiyatidagi mahalliy aholidan 40 mingdan ortiq kishi qatnashgan. Ayniqsa, Jalolobod, Andijon, Zarafshon, Bag'dod, G'ijduvon va Buvayda tumanlarida yuz bergan ikki tomonlama to'qnashuvlarning tubida xalqning ijtimoiy, iqtisodiy va diniy-ma'naviy hayoti keskin o'zgarishlarning sodir bo'lganini ko'rsatadi. Norozilik namoyishlarida ayollarning faol ishtiroki, ularning diniy muassasa vakillari va mahalliy boylarni ozod qilish talablari, shuningdek, jamoa xo'jaliklariga zo'rliq yozishga qarshilik ko'rsatish kabi omillar voqealarning keng ijtimoiy qamrovini namoyon etadi.

Tadqiqotda ushbu jarayonlarning asosiy sabablari sifatida iqtisodiy adolatsizlik, ijtimoiy tabaqalanish, diniy qadriyatlarining poymol qilinishi hamda sovet hokimiyatining repressiv siyosati yotganligi ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kollektivlashtirish siyosati O'rta Osiyoda nafaqat agrar sohani qayta tashkil etish jarayonini, balki jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan keng ko'lamlil ijtimoiy muammolarga olib kelgan. Maqola sovet davri tarixining eng muhim muammoli sahifalarini yoritib berish bilan birga, xalqning o'z iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini asrab-avaylash uchun olib borgan kurashini ilmiy asosda yoritish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, kollektivlashtirish, norozilik, ommaviy chiqish, qishloq xo'jaligi, sovet siyosati, repressiya.

HISTORY OF MASS PROTESTS AGAINST COLLECTIVIZATION IN CENTRAL ASIA. (BASED ON SOURCES FROM THE 1930S)

Abstract. The article is devoted to the analysis of mass protests against the policy of collectivization that took place in Uzbekistan and throughout Central Asia in the 1930s, based on archival sources and scientific literature. The agrarian policy of the Soviet government, in particular, the forced unification of peasant farms into collective farms, the liquidation of traditional forms of management, the confiscation of private property, the increase in taxes and other mandatory payments, as well as the strengthening of Bolshevik administrative pressure, caused mass protests among the local population.

Statistical data presented in archival documents indicate the scale of these protests and the large number of their participants. For example, in February-March 1930 alone, 95 protests were recorded in the Uzbek SSR, in which more than 40 thousand people from among the local population who were in a state of discontent took part. In particular, the bilateral conflicts that occurred in the Jalal-Abad, Andijan, Zarafshan, Baghdad, Gijduvan and Buveida districts indicate

- 26 *fundamental changes in the social, economic and religious-spiritual life of the people. The active participation of women in the protests, their demands for the release of representatives of religious institutions and local wealthy people, as well as resistance to forced registration in collective farms, demonstrate the broad social scale of the events. The study analyzes from a scientific point of view that the main causes of these processes were economic injustice, social stratification, violation of religious values and the repressive policy of the Soviet government. The results of the study show that the collectivization policy led not only to the process of reorganization of the agricultural sector in Central Asia, but also to a wide range of social problems that covered all aspects of public life. The article, highlighting the most important problematic pages of Soviet history, provides a scientific basis for the people's struggle to preserve their economic, social and cultural values.*

Keywords: Central Asia, collectivization, protest, mass uprising, agriculture, Soviet policy, repression.

ИСТОРИЯ МАССОВЫХ ПРОТЕСТОВ ПРОТИВ КОЛЛЕКТИВИЗАЦИИ В СРЕДНЕЙ АЗИИ. (ПО ИСТОЧНИКАМ 1930-Х ГОДОВ)

Аннотация. *Статья посвящена анализу массовых протестов против политики коллективизации, имевших место в Узбекистане и по всей Средней Азии в 1930-е годы, на основе архивных источников и научной литературы. Аграрная политика советской власти, в частности, насильственное объединение крестьянских хозяйств в колхозы, ликвидация традиционных форм хозяйствования, конфискация частной собственности, повышение налогов и других обязательных платежей, а также усиление большевистского административного давления, вызвали массовые протесты среди местного населения. Статистические данные, представленные в архивных документах, свидетельствуют о масштабах этих протестов и многочисленности их участников. Например, только в феврале-марте 1930 года в Узбекской ССР было зафиксировано 95 протестов, в которых приняли участие более 40 тысяч человек из числа местного населения, находившихся в состоянии недовольства. В частности, двусторонние конфликты, произошедшие в Джалал-Абадском, Андижанском, Зарафшанском, Багдадском, Гиждуванском и Бувейдинском районах, свидетельствуют о кардинальных изменениях в социальной, экономической и религиозно-духовной жизни народа. Активное участие женщин в протестах, их требования освобождения представителей религиозных учреждений и местных богатых людей, а также сопротивление принудительной регистрации в колхозах, демонстрируют широкий социальный масштаб событий. В исследовании с научной точки зрения проанализировано, что основными причинами этих процессов были экономическая несправедливость, социальное расслоение, нарушение религиозных ценностей и репрессивная политика советской власти. Результаты исследования показывают, что политика коллективизации привела не только к процессу реорганизации аграрного сектора в Средней Азии, но и к широкому спектру социальных проблем, охвативших все аспекты общественной жизни. Статья, освещающая важнейшие проблемные страницы советской истории, даёт научную основу для борьбы народа за сохранение своих экономических, социальных и культурных ценностей.*

Ключевые слова: *Средняя Азия, коллективизация, протест, массовое восстание, сельское хозяйство, советская политика, репрессии.*

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi. Ushbu tadqiqotda nazariy asos sifatida modernizatsiya nazariyasi, sinfiy kurash konsepsiyasi va ijtimoiy harakatlar nazariyasidan foydalanildi. Modernizatsiya nazariyasiga ko'ra, sovet hokimiyati kollektivlashtirish siyosatini O'rta Osiyo jamiyatini tezkor ravishda "modern" (sotsialistik) xo'jalik shakliga o'tkazish vositasi sifatida qaragan. Ammo bu jarayon mahalliy an'anaviy xo'jalik yuritish usullari va diniy-ma'naviy qadriyatlar bilan keskin to'qnashdi, natijada keng ko'lamli ijtimoiy qarshiliklarga sabab bo'ldi.

Metodologik jihatdan tadqiqotda bir necha ilmiy yondashuvlar uyg'un qo'llanildi. Jumladan, tarixiylik va xolislik prinsiplari asosan voqealar o'sha davr sharoitidan kelib chiqib tahlil qilindi, sovet davri targ'ibotidan xoli holda, arxiv hujjatlariga va zamonaviy tarixiy tahlillarga tayangan holda obyektiv baholashga harakat qilindi. Qiyosiy tarixiy tahlil metodi nuqtai nazaridan O'zbekiston va boshqa O'rta Osiyo respublikalaridagi norozilik chiqishlari o'zaro qiyoslab o'rganildi. Bu metod orqali Jalolobod, Andijon, Zarafshon va boshqa hududlardagi voqealarning umumiy sabablari hamda mahalliy o'ziga xosliklari aniqlandi. Struktura-funksional yondashuvdan foydalanib kollektivlashtirish siyosatining iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy tuzilmalarni qanday o'zgartirgani, jamiyat hayotidagi funksional buzilishlarni qanday keltirib chiqargani tahlil qilindi. Ijtimoiy harakatlar nazariyasi asosida dehqonlarning kollektiv qarshilik shakllari ijtimoiy-huquqiy kurash sifatida ko'rildi va ayollarning siyosiy faolligi, diniy qadriyatlarni himoya qilish talablari, musodara va soliqlarga qarshi chiqishlar bu nazariy asosda "xalq ommasining pastdan yuqoriga qarab ijtimoiy mobilizatsiyasi" sifatida talqin qilindi.

Tarixiy manbashunoslik metodiga asoslanib tadqiqotda Rossiya Federatsiyasi Federal xavfsizlik xizmati markaziy arxivi va O'zbekiston Milliy Arxivi fondlarida saqlanayotgan hujjatlar asosida olib borildi va ushbu hujjatlarda voqealarga sovet hokimiyatining rasmiy talqinini, dehqonlarning real talablarini va hukumatning repressiv choralarini o'zida aks ettirgani empirik manba ekanligi asoslandi. Shuningdek, tarixshunoslik tahlili metodi qo'llanilib, sovet davri adabiyotlaridagi mafkuraviy talqinlar, mustaqillik davri olimlarining tanqidiy yondashuvlari hamda G'arb tarixchilari tadqiqotlari o'zaro solishtirildi va bu yondashuv masalaga turli paradigmalardan qarash imkonini berdi. Natijada, tadqiqotning nazariy-metodologik asosi ijtimoiy-siyosiy tarix, agrar munosabatlar tarixi va ommaviy ijtimoiy harakatlar nazariyasi kesishgan nuqtada shakllantirildi. Bu yondashuv kollektivlashtirish siyosatiga qarshi chiqishlarning ko'p qatlamli sabablari (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy) va xilma-xil shakllarini (namoyishlar, qurolli to'qnashuvlar, ayollar faolligi, diniy qarshiliklar) ilmiy asosda tahlil qilish imkonini berdi.

Kirish. 1930-yillar boshida SSSRda amalga oshirilgan qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish siyosati mamlakatning barcha mintaqalarida jiddiy ijtimoiy-siyosiy silkinishlarga sabab bo'ldi. Bu siyosatning asosiy maqsadi mayda dehqon xo'jaliklarini tugatib, ularni yirik kolxoz va sovxozlarga birlashtirish orqali davlat rejalashtirgan miqdorda don va xomashyo yetkazib berishni ta'minlashdan iborat edi. Shu tariqa davlat iqtisodiyotning agrar sohasini to'liq nazorat qilishga erishmoqchi bo'ldi. Biroq bunday majburiy siyosatning amalga oshirilishi dehqonlarning an'anaviy hayot tarziga, xo'jalik yuritish shakllariga hamda mahalliy ijtimoiy-madaniy qadriyatlarga bevosita zid keldi.

O'rta Osiyo respublikalari, xususan O'zbekiston, kollektivlashtirish jarayonining eng keskin kechgan hududlaridan biri bo'ldi. Chunki mintaqa Ittifoq uchun paxta xomashyosining asosiy yetkazib beruvchisi sifatida belgilangan va shu bois bu yerda kollektivlashtirish sur'atlari nihoyatda yuqori bo'ldi. 1929-1932-yillar oraligi'da xo'jaliklarning yarmidan ko'pi kolxozlarga birlashtirildi. Jumladan, 1929-yilda xo'jaliklarning atigi 2,5 foiz kolxozlarga birlashtirilgan bo'lsa [3, 12-19], 1931-yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich 52 foiz ga yetdi [18]. 1932-yilning fevral oyiga kelganda O'zbekistonda deyarli 65–70 foiz xo'jaliklar kollektivlashtirilgan holda qayd etilgan [20]. Bu jarayon ko'pincha ma'muriy bosim, zo'rlik, mol-mulkni musodara qilish, soliqlarni oshirish va aholining siyosiy huquqlarini cheklash kabi usullar orqali amalga oshirildi.

Natijada O'zbekiston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston hududlarida yuzlab ommaviy norozilik harakatlari yuz berdi. Arxiv hujjatlarida qayd etilishicha, faqatgina 1930-yilning fevral–mart oylarida O'zbekistonda jami 95 ta ommaviy chiqish sodir bo'lgan bo'lib, ularda 40 mingdan ortiq kishi ishtirok etgan. Jalolobod, Andijon, Zarafshon, Bag'dod, Buvayda va boshqa tumanlardagi voqealar aholining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, an'anaviy turmush tarzini saqlab qolish va zo'ravonlik siyosatiga qarshi turishga qaratilganini ko'rsatadi.

Ushbu maqolada mazkur voqealar ilmiy tahlil qilinib, ularning sabablari, shakllari va oqibatlari arxiv hujjatlari hamda tarixiy adabiyotlar asosida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, norozilik harakatlarining o'ziga xos xususiyatlari – ayollarning faol ishtiroki, diniy qadriyatlarning

28 himoyasi, siyosiy tashkilotchilik unsurlari va sovet hukumatining repressiv munosabati alohida yoritiladi. Mazkur masalani o'rganish sovet davri ijtimoiy-siyosiy tarixini, xususan dehqonlarning ijtimoiy norozilik mexanizmlarini anglash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. O'rta Osiyoda kollektivlashtirish siyosati va unga qarshi yuz bergan ommaviy chiqishlar masalasi tarixshunoslikda keng o'rganilgan bo'lib, turli davrlarda yozilgan tadqiqotlarda masalaga turlicha yondashuvlar kuzatiladi. Shu sababli ushbu mavzuning moniyatini ochish va ilmiy jihatdan yetarlicha xulosalarga ega bo'lish maqsadida adabiyotlarni to'rt davrga bo'lib tahlil etishni maqsadga muvofiq deb topdik. Avvalo, sovet davri tarixshunosligiga murojaat etib, 1930–1980-yillarda chop etilgan asarlarda kollektivlashtirish masalasiga tarixchilarning munosabatlarini o'rganishga harakat qildik. Ushbu davr adabiyotlarida kollektivlashtirish siyosatiga munosabat asosan ijobiy talqin qilingan bo'lib, rasmiy sovet tarixiy nashrlarida kollektivlashtirish jarayoni “dehqonlarni iqtisodiy jihatdan yuksaltirish va ularni ilg'or ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb etish” sifatida ko'rsatilgan [21,25]. Masalan, O'zbekiston SSR tarixi asarida kollektivlashtirish jarayoni “sotsialistik qishloq xo'jaligini barpo etishdagi buyuk g'alaba” sifatida talqin qilin bo'lsa, Pankratovning fikrlarida kollektivlashtirish siyosati dehqonlarni “sinfi yuksalish bosqichiga olib chiqdi” deb baholangan. Qolaversa, O'.Mavlonov sovetlarning kollektivlashtirish siyosatini “O'zbek dehqonining madaniy-ma'naviy rivojlanishida burilish nuqtasi” sifatida tasvirlangan bo'lsa [24], A.Kamalovning monografiyada kollektivlashtirishning og'ir ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari ko'rib chiqilmasdan, aksincha uning “iqtisodiy yutuqlari” yuqori baholanib, xalqimizning feodal tartibotlar ustidan qozongan g'alaba sifatida talqin etilgan[23]. Umuman bu davr adabiyotlarida mahalliy aholi tomonidan amalga oshirilgan norozilik harakatlari “reaksion kuchlarning qarshiligi”, “sinfduşmanlar fitnasi” yoki “banditizm” sifatida izohlanib, voqealarning tub mohiyati obyektiv baholanmagan.

Mustaqillik yillarida sovet davri tarixini tadqiq etishda yangicha metodologiya ish olib borildi va voqealarni obyektiv qayta ko'rib chiqish jarayoni boshlandi. Avvalgi sovet tarixshunosligida kollektivlashtirish siyosati asosan “sotsializmning buyuk yutug'i” sifatida talqin qilingan bo'lsa, endilikda u zo'ravonlik, iqtisodiy izdan chiqarish va ijtimoiy-siyosiy repressiyalar manbai sifatida o'rganila boshladi [16,17,19,20].

Tarixchi olim Hamid Ziyayev o'zining tadqiqotlarida kollektivlashtirish jarayonining mohiyati arxiv manbalariga asosan keng tahlil qilib, XX asrning 30-yillarida yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozlarning asosiy sabablari sifatida dehqon xo'jaliklarining majburiy kollektivlashtirilishi, mol-mulkning musodara qilinishi va aholining ko'chirilishi ko'rsatadi. Shuningdek, u kollektivlashtirishni “qishloq aholisining ijtimoiy noroziligi va sovet davlatining repressiv siyosati bilan bevosita bog'liq jarayon” sifatida baholaydi. Q.Rajabov o'zining tadqiqotlarida ham kollektivlashtirishning og'ir oqibatlari batafsil yoritilgan. Muallif kolxozlashtirish nafaqat iqtisodiy tizimni, balki o'zbek dehqonining an'anaviy turmush tarzini, oilaviy-maishiy hayotini ham izdan chiqarganini ta'kidlaydi. Ayniqsa, u o'z izlanishlarida ayollar va dindorlarning norozilik harakatlaridagi faol ishtiroki, diniy qadriyatlarining kamsitilishi masalalarini manbalar asosida alohida tahlil qilingan. Bundan tashqari, H.Toshboev, A.Xasanov va O.Ergashevlarning so'nggi yillarda e'lon qilingan maqolalar va monografiyalarida kollektivlashtirish siyosatiga qarshi kurashni milliy tarixiy jarayon sifatida, shuningdek, noroziliklarning o'ziga xos mahalliy xususiyatlari bilan uyg'unlikda o'rganishga katta e'tibor bergan. Ularning tadqiqotlarida arxiv hujjatlari, xotiralar va zamonaviy tarixiy tahlil usullari asosida kollektivlashtirishning iqtisodiy ta'siridan tashqari, bu jarayonlarning xalqimiz taqdiriga ko'rsatgan ma'naviy-madaniy ta'sirini o'rganishga katta e'tibor qaratmoqdalar. Umuman olganda, mustaqillik davri tarixshunosligida kollektivlashtirish masalasi avvalgi mafkuraviy talqinlardan xoli, tanqidiy va ob'ektiv yondashuv asosida qayta yoritilmoqda. Bu davr tadqiqotlari orqali kollektivlashtirishning nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy, ijtimoiy va madaniy oqibatlari ham chuqur ilmiy tahlil qilingan.

G'arb olimlari 1930-yillardagi kollektivlashtirish siyosatini SSSR tarixidagi eng dramatik va ko'p qirrali jarayonlardan biri sifatida tahlil qildilar va bu yo'nalishdagi tadqiqotlarda jarayonning iqtisodiy mohiyati bilan bir qatorda, uning ijtimoiy, siyosiy va madaniy oqibatlari ham

keng yoritdilar. Jumladan, Moshe Lewinning tadqiqotlarda kollektivlashtirishning iqtisodiy oqibatlari tahlil qilinib, kollektivlashtirish sovet iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan industrializatsiya resurslarini yaratishga xizmat qilgan. Ammo bu jarayonning narxi nihoyatda og'ir bo'lib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi izdan chiqqan, oziq-ovqat taqchilligi kuchaygan va dehqonlarning hayot darajasi keskin pasayib ketgan degan asosli fikrni ilgari surgan. Lewin bu siyosatni "iqtisodiy modernizatsiya nomi ostida amalga oshirilgan ijtimoiy falokat" sifatida baholagan va uning tarixiy asoslarini ilmiy jihatdan asoslab bergan [14].

Robert Conquestning sovet davri kollektivlashtirilishiga oid asarida jamoalashtirish jarayonlarini "sovet iqtisodiy siyosatining eng fojiali ijtimoiy tajribasi" sifatida baholagan va u ocharchilik, deportatsiya va repressiyalarni asosiy oqibat sifatida ko'rsatib, bu jarayonning insoniy qadr-qimmatni poymol qilgan jarayon ekanligini ta'kidlagan. Conquestning talqinida kollektivlashtirish siyosati nafaqat dehqonlarni iqtisodiy jihatdan majburiy bo'ysundirish, balki jamiyatni dahshatga solish orqali nazorat qilishning ham vositasida namoyon bo'lganligini asoslab bergan [11]. Sheila Fitzpatrick asarlarida kollektivlashtirish jarayoni "tirik qolish strategiyalari" nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi va sovet dehqonlarining kollektivlashtirish sharoitida omon qolish uchun moslashuvchan yo'llarni tanlashga majbur bo'lganligini ta'kidlanadi. U kollektivlashtirish siyosatini faqat repressiya va zo'rlik emas, balki ma'lum darajada ijtimoiy transformatsiya jarayoni sifatida ham baholab, u noroziliklarning keng ko'lamini va dehqonlarning passiv-aktiv qarshiliklarini ilmiy asosda ko'rsatib beradi [13].

Lynne Violaning tadqiqotlarida kollektivlashtirish davridagi dehqonlar qarshiliklari keng yoritilgan bo'lib, u arxiv hujjatlariga asoslangan holda sovet hokimiyatining kollektivlashtirishni amalga oshirishda duch kelgan asosiy muammosi sifatida keng miqyosdagi noroziliklar ekanligini ko'rsatadi. U qarshiliklarni "o'zini himoya qilishning ijtimoiy shakli" sifatida baholab, bu jarayonni "pastdan yuqoriga" bo'lgan kurash sifatida talqin qiladi [18]. Terry Martinning asarida kollektivlashtirish milliy siyosat bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinib, bu jarayon O'rta Osiyo respublikalari misolida nafaqat iqtisodiy modernizatsiya, balki milliy va madaniy qarama-qarshiliklarning kuchayishiga olib kelgan degan fikrga keladi [15]. Xullas, G'arb olimlarining turli qarashlari kollektivlashtirish masalasini faqat bir tomonlama emas, balki kompleks yondashuv orqali o'rganishga imkon beradi. Masalan, Conquest bu jarayonni ijtimoiy fojea sifatida ko'rsa, Martin milliy va etnik o'lchamni alohida ta'kidlaydi, Viola va Fitzpatrick dehqonlarning qarshiliklarini va ularning "tirik qolish strategiyalari"ni ilmiy asosda ochib beradi. Lewin kollektivlashtirish jarayonini tushuntirar ekan, noroziliklarda iqtisodiy oqibatlarni markazga qo'yadi. Bu turli talqinlar O'rta Osiyo tarixshunosligi uchun ayniqsa ahamiyatli bo'lib, ular kollektivlashtirish siyosatining ko'p qirrali oqibatlarini solishtirma-tarixiy tahlil qilishga yordam beradi.

1930-yillarda O'rta Osiyoda yuz bergan kollektivlashtirishga qarshi harakatlarni ilmiy asosda tadqiq etishda arxiv hujjatlari eng muhim manbalar sirasiga kiradi. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Federal Xavfsizlik Xizmatining markaziy arxivi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi fondlarida saqlanayotgan "Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi" (OGPU) hamda "Ichki ishlar xalq komissarligi" (NKVD)ning xizmat yozishmalari, maxfiy xatlar va ma'lumotnomalari tadqiqot uchun noyob manba bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Federal Xavfsizlik Xizmatining markaziy arxivida o'sha davrdagi OGPU maxsus hisobotlari bo'lib, unda qishloq hududlarida kuzatilgan noroziliklarning miqyosi, ishtirokchilar soni, qo'llanilgan usullar va sovet hokimiyati tomonidan ularga berilgan siyosiy-huquqiy baholar aniq ko'rsatilgan. Ushbu materiallarda dehqonlarning kollektivlashtirishga qarshi kurash shakllari (kolxozlardan chiqib ketish, chorva va urug'larni yashirish, vakillarni haydab yuborish, ochiq qo'zg'olonlar) batafsil qayd etilgan [7]. Shuningdek, NKVDning maxfiy ma'lumotlarida har bir voqea "kontrinqilobiy chiqish", "banditlar harakati" yoki "sinfiy dushmanlarning fitnasi" sifatida talqin etilganini ko'ramiz. Bu esa sovet davlati mafkuraviy yondashuvini ochib beradi: dehqonlarning ijtimoiy-iqtisodiy noroziligi emas, balki ularning siyosiy jihatdan "dushman kuchlar" sifatida baholanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi [8, 9].

O'zbekiston Milliy Arxivida (O'zMA) qishloq xo'jaligi, partiya va ichki ishlar organlariga tegishli fondlarda kollektivlashtirish jarayonida yuzaga kelgan qarshiliklar, soliq siyosati, musodara qilingan mol-mulk va ularning taqdiri haqida boy hujjatlar saqlanadi. Xususan, Zarafshon, Farg'ona va Qashqadaryo okruglariga oid ma'lumotlarda qisqa muddatda xo'jaliklarning 50–60 foizi majburiy tarzda kolxozlarga birlashtirilgani, bu esa mahalliy aholi orasida keng ko'lamli noroziliklarga sabab bo'lgani qayd etilgan [1, 2, 3, 4, 5]. Bu hujjatlarning tarixiy ahamiyati shundaki, ular voqealarning rasmiy sovet tarixshunosligida berilgan biryoqlama talqinidan farqli ravishda, jamiyatdagi real kayfiyatlar, qarshiliklarning ildizlari va hukumatning repressiv mexanizmlari haqida aniq daliliy asoslarni taqdim etadi. Shu sababli, mazkur arxiv manbalari kollektivlashtirish davri tarixini qayta talqin etishda, sovet modernizatsiyasi jarayonining asl mohiyatini ochib berishda birlamchi va ishonchli manba sifatida alohida o'rin tutadi. Xullas, sovet davri tadqiqotlarida kollektivlashtirish biryoqlama va targ'ibot ruhida yoritilgan bo'lsa, mustaqillik davrida esa olimlar ushbu siyosatni tanqidiy ruhda tahlil qilishga katta urg'u berdilar. Xorijiy tarixshunoslik esa masalani kengroq – sovet iqtisodiy siyosati va inson huquqlari buzilishi kontekstida ko'rib chiqdilar va nisbatan adolatli baho berdilar deb hisoblaymiz.

Asosiy qism. Mazkur mavzuning dolzarbligida, avvalo, kollektivlashtirish siyosatining nafaqat iqtisodiy ta'siri, balkim chuqur ijtimoiy-siyosiy oqibatlari ham namoyon bo'ladi. O'rta Osiyoda amalga oshirilgan jamoalashtirish siyosati dehqonlarning an'anaviy xo'jalik yuritish usullarini butunlay izdan chiqarib, mahalliy aholining hayot tarzini tubdan o'zgartirdi va ijtimoiy noroziliklarning keng ko'lamda yuzaga chiqishiga turtki bo'ldi.

O'zbekiston tarixida mazkur davr dehqonlarning davlat tomonidan joriy etilgan majburiy iqtisodiy siyosatlarga qarshi kurashi va xalq ommasining ijtimoiy-huquqiy ehtiyojlarini ifodalovchi norozilik harakatlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, arxiv hujjatlarida qayd etilgan ommaviy chiqishlar xalqning ijtimoiy faolligi va o'z manfaatlarini himoya qilishga bo'lgan intilishining tarixiy dalili hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, kollektivlashtirish davridagi qarshilik harakatlarini o'rganish o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy ongidagi o'zgarishlarni va turmush tarzini shakllantirgan jarayonlarni tahlil qilishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, kollektivlashtirish jarayonida sodir bo'lgan voqealar sovet davlatining repressiv mexanizmlarini anglash uchun ham ahamiyatlidir. Sobiq ittifoqning majburlov organlari hisoblangan OGPU va NKVD hujjatlarida qayd etilganidek, oddiy dehqonlarning ommaviy chiqishlari ko'pincha "kontrinqilobiy harakatlar" yoki "banditizm" sifatida talqin qilingan va ular qattiq kuch ishlatish yo'li bilan bostirilgan. Bu esa sovet davlati siyosiy tizimining mohiyatini, ya'ni iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishda repressiya va zo'ravonlikni asosiy qurol sifatida qo'llaganini ko'rsatadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi yana shundaki, kollektivlashtirish siyosati natijasida yuz bergan noroziliklar bugungi kunda ham milliy tarixshunoslikda muhim ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Mustaqillikdan keyin chop etilgan asarlarda bu voqealarning tarixiy mohiyati qayta ko'rib chiqilib, xalqning huquqiy va iqtisodiy manfaatlari uchun olib borgan kurashi sifatida baholanishi bu masalaning tadqiqot doirasida dolzarbligini yanada oshirmoqda. Shunday qilib, kollektivlashtirishga qarshi harakatlarni o'rganish nafaqat sovet davri agrar siyosatini, balki xalqning unga nisbatan munosabatini, ijtimoiy ongini, norozilik shakllarini ham yoritib berish imkonini beradi. Shu jihatdan ushbu mavzuni ilmiy tadqiq etish O'zbekiston tarixshunosligida ham, sovet davri agrar siyosatining umumiy konsepsiyasini qayta baholashda ham o'ta muhimdir.

O'rta Osiyoda kollektivlashtirish siyosatining asosiy sabab va omillari quyidagilardan iborat. Birinchidan, bolsheviklar O'rta Osiyo, ayniqsa O'zbekiston, SSSR uchun strategik paxta xomashyo bazasi sifatida belgilab, XX asrning 20–30-yillarida mamlakatni industrializatsiya qilishni asosiy maqsad qilib qo'ydi. Mamlakatni industrializatsiya qilish uchun zarur bo'lgan valyuta paxta xom-ashyosining evaziga amalga oshirilishi zarur edi. Qolaversa, mamlakatning oziq-ovqat mustaqilligi va to'laqonli xomashyo resurslariga ega bo'lish nihoyatda zarur edi. Shu sababli kollektivlashtirish siyosati O'rta Osiyoda birinchi navbatda paxtachilikni markazlashtirish va davlat monopoliyasini mustahkamlashga xizmat qildi. Mustaqil dehqon

xo'jaliklari bu siyosatga mos kelmaganligi uchun ular kolxoz va sovxoz tizimiga majburan birlashtirildi [20]. Ikkinchidan, kollektivlashtirish O'rta Osiyoda sovet hokimiyatini mustahkamlashning muhim vositasi sifatida ko'rib, mintaqada davom etayotgan basmachilik harakatlari, diniy-ijtimoiy qarshilik va an'anaviy mahalliy elitalarning ta'sirini pasaytirishga xizmat qilar edi. Sovet elitasi uchun kollektivlashtirish siyosati nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy nazorat va ijtimoiy transformatsiyaning asosiy mexanizmi sifatida ko'rib, asosiy moddiy ne'mat yaratuvchi kuch hisoblangan dehqonlarni kolxozlarga birlashtirish orqali ularning turmush tarzi, ishlab chiqarish faoliyati va ijtimoiy munosabatlari to'liq nazorat ostiga olinishi ko'zga tutilgan edi [18]. Uchinchidan, O'rta Osiyoda dehqonlarning ko'pchiligi mayda tovar ishlab chiqaruvchilar bo'lib, ular asrlar davomida shakllangan an'anaviy xo'jalik yuritish shakllarini saqlab qolgan edi. Bu munosabatlarni sovet hokimiyati uchun "an'anaviy" ijtimoiy qatlamni "sinfiy dushman" sifatida baholadi va ularni bo'ysundirishni maqsad qildi. Ayniqsa, quloq deb e'lon qilingan o'rta va yirik dehqonlar tabaqasi sinfiy jihatdan yo'q qilinmas ekan ular uchun xavf yuqoriligicha saqlanib qolar edi. Bu jarayon orqali sovetlar bir tomondan ijtimoiy stratifikatsiyani yo'qotmoqchi bo'lsa, ikkinchi tomondan yangi sotsialistik dehqon sinfini shakllantirishni rejalashtirdi [11]. To'rtinchidan, kollektivlashtirish siyosati marksistik-lenincha nazariyaga tayangan holda olib borildi. Sovet mafkurasiga ko'ra, xususiy mulkka asoslangan xo'jalik yuritish usuli sotsializm qurilishiga zid bo'lib, uni yo'q qilish zarur edi. Shu sababli, O'rta Osiyodagi an'anaviy yer-mulk munosabatlari, diniy va urf-odatlariga asoslangan xo'jalik shakllari "orqaga tortuvchi kuch" sifatida baholandi. Mafkuraviy targ'ibotda kollektivlashtirish dehqonlarni "yangi hayot"ga olib kiruvchi, "savodsizlikdan va qoloqlikdan qutqaruvchi" jarayon sifatida talqin qilindi. Beshinchidan, O'rta Osiyo respublikalari sovet markazi uchun strategik geosiyosiy hudud bo'lib, bu yerda nafaqat iqtisodiy resurslar, balki siyosiy nazorat ham muhim hisoblangan. Qolaversa, markaz kollektivlashtirish orqali mintaqadagi milliy elitalarni iqtisodiy jihatdan zaiflashtirish va ularni siyosiy hokimiyatdan chetlashtirishga intildi. Bundan tashqari, kollektivlashtirish siyosati orqali mahalliy aholini ruslashtirish va sovetlashtirish jarayonini ham kuchaytirib, mahalliy aholining milliy o'zlikni unitishi bilan bog'liq jarayonni boshlab berdi [26].

1930-yillar boshida O'rta Osiyo respublikalari Sovet davlatining iqtisodiy siyosatida alohida strategik hudud sifatida qaraldi. Ayniqsa, O'zbekiston paxta xomashyosini yetishtiruvchi asosiy mintaq bo'lgani uchun kollektivlashtirish siyosati bu yerda keskin va tezkor usullar bilan amalga oshirildi. Arxiv hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, faqatgina 1930-yilning fevral-mart oylarida O'zbekistonda 95 ta chiqish qayd etilgan bo'lib, ularda 40 mingdan ortiq kishi qatnashgan. Bu esa voqealarning oddiy mahalliy norozilik emas, balki keng ko'lamli ijtimoiy-siyosiy harakatga aylanganidan dalolat beradi. Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston hududlarida ham shunday holatlar kuzatildi. Masalan, Qirg'izistonda Jalolobod voqealari 1000 nafardan ortiq kishini birlashtirdi. Ularning talablari kolxozlarga majburlashni to'xtatish, qaytarib olingan urug'larni va mol-mulkni egalarga qaytarish, faol dehqonlarni hibsdan ozod qilish kabi ijtimoiy-iqtisodiy mazmunga ega edi. Bu esa noroziliklarning faqat "sinfiy kurash" bilan emas, balki xalqning kundalik hayoti va yashash sharoitlari bilan chambarchas bog'liq bo'lganini ko'rsatadi. O'rta osiyo aholisi kollektivlashtirishga qarshi keng ko'lamli norozilik harakatlarini olib borib, bolsheviklarning o'lkada yuratayotgan siyostlarining noinsoniy ekanligini ko'rsatib berishdi. Adabiyotlar tahlili va manbalar bergan ma'lumotlarga tayangan holda o'lkada XX asrning 30-yillarida sodir bo'lgan norozilik harakatlari va qarshiliklarning asosiy sabablari ko'p qirrali bo'lib, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy-ma'naviy omillar majmuasidan iborat.

1930-yillarda O'zbekiston SSRda mahalliy aholi tomonidan sodir etilgan norozilik va qarshiliklarning iqtisodiy sabablari sifatida, mintaqaning paxta xomashyosi yetishtirishning asosiy bazasiga aylantirish maqsadida kollektivlashtirish jarayonlari nihoyatda tezkor sur'atda amalga oshirilganligidir. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, faqatgina 1930-yilning o'zida O'zbekistondagi dehqon xo'jaliklarining 50–55 foizi majburan kolxozlarga birlashtirilib, bu jarayon ko'pincha xo'jaliklarni iqtisodiy asosdan mahrum qilish orqali amalga oshirildi: Xavast va Bog'dod tumanlarida amalga oshirilgan norozilik harakatlarining asosiy sababi ekin uchun ajratilgan urug'-navlarining musodara qilinishi bo'lgan [7]. Dehqonlarning ekin uchun saqlagan urug'lari

32 majburan kolxoz omborlariga topshirilishi ommaviy chiqishlarga sabab bo'lgani qayd etilgan. Zarafshon va Jizzax okruglarida chorvaning 70 foizgacha qismini davlat hisobiga olib qo'yish natijasida aholining iqtisodiy barqarorligi izdan chiqdi [20]. Soliq yukining oshirilishi, ya'ni "sinfy soliq" deb atalgan majburiy to'lovlar natijasida, boy va o'rtahol dehqonlar deyarli barcha mulklaridan ajratildi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1930–1931-yillarda O'zbekistonda 8 mingdan ortiq xo'jalik "kulak xo'jaligi" deb topilib, mol-mulklari musodara qilingan [16]. Shunday qilib, kollektivlashtirish siyosati iqtisodiy asosda dehqonlarni qashshoqlikka mahkum qildi va ularning ommaviy noroziliklarga chiqishiga zamin yaratdi.

Norozilik harakatlarning ijtimoiy-siyosiy sabablariga sovetlarning o'lka xalqlariga nisbatan olib borgan huquqlardan mahrum etish, repressiyalar va zo'ravonlik siyosati sabab bo'lib xizmat qildi. Sovet hokimiyatining kollektivlashtirish siyosati ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi keskin ziddiyatlarni yuzaga chiqardi. Bu avvalo, boylar, dindorlar va boshqa "sinfy dushman" deb e'lon qilingan guruhlar siyosiy va fuqarolik huquqlaridan butunlay mahrum qilindi. Ularning saylovlarda ovoz berish huquqidan chetlatilishi va davlat yordamidan mahrum bo'lishi keng noroziliklarga sabab bo'ldi. Masalan, 1930-yil 16-iyunda Farg'ona viloyatining Buvayda tumanida sodir bo'lgan ayollar namoyishida qamoqdagi boylarni ozod qilish va dindorlarning huquqlarini qaytarish kabi talablar qo'yilgan [4]. 1930–1931-yillarda O'zbekistondan 22 mingdan ortiq dehqonlar "sinfy dushman" sifatida GULAG lagerlariga surgun qilinganligi bolsheviklarning repressive harakatlarining yaqqol namunasi sanaladi. Bolsheviklarning zo'ravonlik siyosatining yorqin namunasi sifatida 1930-yilning 6-martida Jalolobodda dehqonlar harakati voqealari paytida GPU tomonidan 24 nafar faol dehqon otib tashlanganligi va yuzlab odam hibsga olinganligini ko'rsatish o'rinli bo'lar edi [9]. Bu jarayonlar esa sovet davlatining mahalliy aholini siyosiy jihatdan bo'ysundirish va har qanday qarshilikni kuch bilan bostirishga asoslanganini ko'rsatadi.

Norozilik harakatlarining madaniy-ma'naviy sabablariga masjidlarining yopilishi, shariat normalarining bekor qilinishi va unga zid qonunchilikning amalga tadbqiq etilishi, shuningdek, paranjiga qarshi olib borilgan harakatlar sabab bo'lgan. Masalan, 1930-yil 23-martida O'sh okrugi Bozorqo'rg'on tumanida 18 ta masjid yopilgan va bu aholining keskin noroziligiga sabab bo'lgan. Sovet qonunchiligi asosida nikoh, meros, ayollarning ijtimoiy huquqlariga oid yangi qoidalar joriy etildi va shariat normalariga zid qonunlar bo'lib, bu qonunlar mahalliy urf-odatlar va diniy an'analar qarama-qarshi edi [2]. Shu sababli Zomin tumanida yashovchi Imam Nazarov boshchiligida dehqonlar noroziligi boshlanib, ular shariat asosida xo'jalik yuritishni davom ettirishni talab qilib chiqishgan [1]. Shu bois qarshiliklar diniy-ma'naviy jihatdan ham kuchli tus olib, faqat iqtisodiy emas, balki qadriyatlarni himoya qilish xarakteriga ega bo'ldi. Shunday qilib, kollektivlashtirishga qarshi noroziliklarning sabablari ko'p qatlamli bo'lib, ular iqtisodiy adolatsizlik, ijtimoiy huquqsizlik va madaniy qadriyatlarga tajovuzkorlikning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelgan. Bunday omillar uyg'unligi esa noroziliklarning ko'lamini kengaytirgan va ularni oddiy xo'jalik muammosidan siyosiy tusgacha bo'lgan ijtimoiy harakat darajasiga olib chiqqa olgan.

1930-yillarda O'rta Osiyoda yuz bergan noroziliklar quyidagi asosiy shakllarda namoyon bo'ldi:

1. Hukumat vakillari va kolxoz faollariga qarshi hujumlar.
2. Militsiya va GPU kuchlariga qarshi qurolli to'qnashuvlar.
3. Musodara va inventarizatsiyaga qarshi iqtisodiy chiqishlar.
4. Ayollarning siyosiy faolligi va tashabbuskorligi.

1930-yillarda O'rta Osiyoda kollektivlashtirish siyosatiga qarshi yuz bergan noroziliklarga sovet hokimiyatining munosabati keskin repressiv xarakterga ega bo'ldi. Markaziy hukumat va mahalliy OGPU (Davlat siyosiy boshqarmasi) organlari bu chiqishlarni iqtisodiy yoki ijtimoiy norozilik sifatida emas, balki "kontrinqilobiy bandit harakatlari", "sinfy dushmanlarning fitnasi" va "quloq elementlarining qo'zg'oloni" sifatida baholashdi [7]. OGPU hisobotlarida dehqonlarning ommaviy noroziliklari "bandit guruhlarini"ning chiqishi sifatida talqin qilindi. Masalan: 1930-yil 8 martdagi Andijon voqealari bo'yicha hisobotda 500 kishilik olomon "sinfy

dushmanlar" tomonidan uyushtirilgan kontrinqilobiy harakat sifatida qayd etilgan. Bundan tashqari, Buvayda va Qurghontepa voqealari esa "diniy-reaksiyon elementlar" va "ayollarni chalg'ituvchi ruhoniy kuchlar" fitnasi sifatida izohlangan [4]. Bunday talqin siyosiy maqsadga qaratilgan bo'lib, dehqonlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini emas, balki sinfiy kurashni oldinga surardi.

Ko'plab chiqishlarni bostirish uchun OGPU kuchlari yetarli bo'lmagani sababli Qizil Armiya bo'linmalari ham jalb qilingan. Jumladan, Jalolobod (Qirg'iziston) voqealarida 1000 kishilik olomonga qarshi Qizil Armiya chaqirilgan. Namangan va Andijon hududlarida 1930-yil mart oyida sodir bo'lgan noroziliklarni bostirish uchun harbiy qismlar qatnashgan, natijada 50 dan ortiq odam otib tashlangan, 400 nafardan ziyodi esa hibsga olingan. Bu faktlar sovet hukumatining qarshiliklarni siyosiy "qo'zg'olon" sifatida baholab, harbiy kuch vositasida bostirish siyosatini ko'rsatadi. Noroziliklardan keyin hibsga olinganlar odatda "siyosiy jinoyatchilar" sifatida maxsus uchliklar tomonidan tezkor tartibda hukm qilingan. 1930-yilning mart-aprel oylarida faqat Farg'ona vodiysida 600 dan ortiq odam OGPU qarorlari bilan qamoq jazosiga, 120 ga yaqini esa otuv jazoga hukm qilingan. Arxivdagi OGPU hujjatlarida qayd etilishicha, 1930–1933-yillar davomida O'zbekistonda "quloqlik" aybi bilan 25 mingdan ortiq kishi shaxsiy va siyosiy huquqlardan mahrum qilingan, 7 mingdan ortig'i esa turli muddatlarga qamalgan.

Quyidagi jadvalda 1930-yillarda O'rta Osiyoda kollektivlashtirish siyosatiga qarshi chiqishlar statistikasi, shakllari va sabablari ko'rsatib o'tilgan.

№	Ko'rsatkich	Ma'lumotlar
1	Statistik ma'lumotlar (1930-yil fevral–mart)	- O'zbekiston: 95 ta chiqish (12 570 – 30 143 kishi) - Qirg'iziston: 10 ta chiqish (350 – 6220 kishi) - Turkmaniston: 3 ta chiqish (300 – 500 kishi) - Tojikiston: 3 ta chiqish (700 kishi)
2	Ommaviy chiqishlarning shakllari	- Uy-joy va kolxoz faollarining uylari vayron qilindi (Xidirsha, Andijon) - Militsiyaga hujum qilindi, faol dehqonlar o'ldirildi (Jalolobod) - Inventarizatsiya va mol-mulk musodarasiga qarshilik (Bag'dod, Ul'yati) - dindorlar va boylarni ozod qilish, huquqlardan mahrum qilinganlarni qayta tiklash talabi (Buvayda, Kangalti)
3	Qarshilik sabablari	- Zo'ravonlik bilan kollektivlashtirish (50–55 % xo'jaliklar majburan kolxozlashtirilgan) - dindorlar va boylarga nisbatan repressiyalar - Soliqlarning oshirilishi, xotin-qizlar huquqlariga oid qonunlarning o'zgartirilishi - Mahalliy sharoit hisobga olinmagan markaziy qarorlar

Kollektivlashtirishga qarshi kurashning mahalliy aholiga keltirgan oqibatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi. Avvalo, sovet hokimiyatining qatag'on va qatl etish siyosati bo'lib, qarshilik harakatlarida qatnashgan yuzlab dehqonlar "aksilinqilobchi" yoki "xalq dushmani" sifatida qatag'on qilindi. Minglab dehqon oilalari "kulak" yoki "aksilinqilobchi" sifatida belgilangan holda Qozog'iston, Sibir va Ural hududlariga surgun qilinib, mahalliy aholining demografik tarkibda katta o'zgarishlarga olib keldi. Mustaqil dehqon xo'jaliklari tugatilib, kolxoz va sovxoz tizimiga majburiy birlashtirildi. Natijada, an'anaviy ishlab chiqarish shakllari buzildi, mulkchilik munosabatlari tubdan o'zgardi. Majburan joriy etilgan paxta yetishtirish siyosati oziq-ovqat ekinlarining qisqarishiga, ocharchilik xavfining kuchayishiga olib keldi va 1931–1933-yillarda O'zbekistonda oziq-ovqat tanqisligi kuzatildi. Inventarizatsiya va musodara siyosati natijasida ko'plab oilalar chorva, uy-joy va boshqa tirikchilik manbaidan ayrildi.

Bundan tashqari Sovet hokimiyatiga nisbatan mahalliy aholining ishonchi keskin kamaydi. Bu jamiyatning siyosiy barqarorligini zaiflashtirdi. Ayollarning huquqlarini kengaytirish haqidagi

- 34 sovet qonunlari mahalliy ijtimoiy me'yorlar bilan to'qnashib, keskin qarama-qarshiliklarga sabab bo'ldi. Masjidlarning yopilishi va ulamolarning ta'qib qilinishi diniy hayotning cheklanishiga olib keldi. Kollektivlashtirish siyosati o'zbek dehqonining asrlar davomida shakllangan xo'jalik yuritish usullarini yo'qotdi. Mahalliy aholining iqtisodiy mustaqilligi va ijtimoiy o'zligini susaytirdi. Qamoqlar, surgunlar, ocharchilik xavfi jamiyatda qo'rquv va tushkunlik kayfiyatini kuchaytirdi. Sovetlashtirish va ruslashtirish siyosati natijasida mahalliy madaniyat va o'zlikning asta-sekin susayishi yuz berdi. Umuman olganda kollektivlashtirish siyosatiga qarshi kurash O'rta Osiyoda keng ijtimoiy-siyosiy oqibatlariga olib keldi. U nafaqat iqtisodiy tizimni, balki jamiyatning demografik, ijtimoiy va madaniy asoslarini ham izdan chiqardi. Qarshiliklar bostirilgan bo'lsa-da, ular mahalliy aholi xotirasida zo'ravonlik, mulkdan ayrilish va o'zligidan begonalashish ramzi sifatida saqlanib qoldi. Bu jarayon keyingi davrlarda ham sovet tizimiga nisbatan ichki norozilik ruhini yashirin tarzda davom ettirdi.

Xulosa. O'rta Osiyoda 1930-yillarda yuz bergan kollektivlashtirishga qarshi ommaviy chiqishlar sovet agrar siyosatining mahalliy sharoitlarga mutlaqo moslashmaganligi, zo'ravonlik va ma'muriy xatoliklar natijasida vujudga kelganini ko'rsatadi. Sovet hokimiyatining markazlashgan siyosati dehqon xo'jaliklarining an'anaviy shaklini, mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy tizimni va qadriyatlarni hisobga olmadi. Natijada xalq, xususan dehqonlar, o'z mulki va huquqlarini himoya qilish uchun ommaviy noroziliklarga chiqdi. Bu jarayonlar o'z mohiyatida nafaqat iqtisodiy qarshilik, balki siyosiy-huquqiy ongning ifodasi sifatida ham tarixiy ahamiyat kasb etdi. Arxiv hujjatlari va tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, kollektivlashtirishga qarshi harakatlar xalqning o'z iqtisodiy manfaatlarini saqlab qolishga intilishidan tashqari, ijtimoiy adolat, diniy qadriyatlar va mahalliy urf-odatlarini himoya qilish xarakteriga ega bo'lgan. Shu bilan birga, sovet hukumatining repressiv siyosati GPU va NKVD tomonidan amalga oshirilgan keng ko'lamli hibslar, qurolli bo'linmalar orqali noroziliklarni bostirish sovet davlatining o'z iqtisodiy maqsadlariga erishishda kuch ishlatish va zo'rlikni asosiy vosita sifatida qo'llaganini yaqqol ko'rsatdi.

Mazkur voqealar SSSR tarixida muhim o'rin tutadi, chunki ular markaziy siyosat bilan milliy respublikalar ijtimoiy-siyosiy hayoti o'rtasidagi ziddiyatni yaqqol ochib berdi. Bu jarayonlar O'zbekiston tarixida xalq ommasining siyosiy faolligi, ijtimoiy norozilik shakllari va o'z manfaatlarini himoya qilishdagi qat'iyatini o'rganishda katta ilmiy ahamiyatga ega.

1930-yillardagi tajriba zamonaviy O'zbekiston agrar siyosati uchun bir qator saboqlarni beradi:

1. Mahalliy sharoitni hisobga olish zarurati. Agrar siyosatni ishlab chiqishda hududlarning tabiiy-iqlimiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Sovet tajribasi shuni ko'rsatadiki, markazlashgan va majburiy siyosatlar ijtimoiy norozilikka olib keladi.
2. Dehqon manfaatlarini himoya qilish. Agrar islohotlar faqat yuqoridan turib emas, balki bevosita ishlab chiqaruvchi kuch, yani, dehqonlar manfaatlarini va mulk huquqlarini himoya qilgan holda amalga oshirilishi kerak.
3. Kooperativlashuvning ixtiyoriylik tamoyili. Sovet tajribasida majburiy kollektivlashtirish noroziliklarga sabab bo'lgan. Hozirgi davrda kooperativ xo'jaliklar va klaster tizimi faqat ixtiyoriylik asosida rivojlantirilsa, samarali natija beradi.
4. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish. Sovet davridagi eng katta muammo samaradorlikning pastligi bo'lgan. Bugungi O'zbekistonda esa agrar sohada raqamlashtirish, suv tejavchi texnologiyalar va agroinnovatsiyalarni keng tatbiq etish qishloq xo'jaligi barqarorligini ta'minlaydi.
5. Fermerlarning ijtimoiy-huquqiy erkinligini kafolatlash. 1930-yillardagi repressiyalar dehqonlarning iqtisodiy tashabbuslarini butunlay so'ndirdi. Bugungi kunda esa aksincha, fermerlar tashabbuskorligi qo'llab-quvvatlanishi, ularning davlat qarorlarida ishtiroki ta'minlanishi muhimdir.

Foydalangan manbalar ba adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Milliy Arxivi, (O'zMA), R-837-fond, 1-ro'yxat, 58-yig'ma jild, 23–27-varoqlar.
2. O'zMA, R-837-fond, 1-ro'yxat, 63-yig'ma jild, 41–44-varoqlar.
3. O'zbekiston Milliy Arxivi. R-837-fond, 31-ro'yxat, 15-yig'ma jild. 12-19-varoq.
4. O'zMA, R-837-fond, 31-ro'yxat, 54-yig'ma jild, 17-19-varoqlar.
5. O'zMA R-2456-fond, 2-ro'yxat, 56-yig'ma jild, 77–83-varoqlar.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni Arxiv (O'zPDA), 1-fond, 23-ro'yxat, 45-yig'ma jild, 112–118-varoqlar.
7. Rossiya Federatsiyasi Federal xavfsizlik xizmati Markaziy arxivi. 2-fond, 8-ro'yxat, 3-yig'ma jild, 181–185-varoqlar.
8. Rossiya Davlat ijtimoiy-siyosiy tarix arxivi. 17-fond, 162-ro'yxat, 9-yig'ma jild, 45–52-varoqlar.
9. Rossiya Davlat ijtimoiy-siyosiy tarix arxivi. 62-fond, 2-ro'yxat, 2141-yig'ma jild, 77-varoqlar.
10. Abdurazakov, A. Sovet modernizatsiyasi va uning oqibatlari (O'rta Osiyo misolida). – Toshkent: Universitet, 2008. – B. 95–104.
11. Conquest, R. The Harvest of Sorrow: Soviet Collectivization and the Terror-Famine. – London: Hutchinson, 1986. – 412 p.
12. Ergashev O. Sovet davri qishloq xo'jalik siyosati va uning oqibatlari. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2018. – 298 b.
13. Fitzpatrick, S. Stalin's Peasants: Resistance and Survival in the Russian Village after Collectivization. – New York; Oxford: Oxford University Press, 1994. – 386 p.
14. Lewin, M. Russian Peasants and Soviet Power: A Study of Collectivization. – New York: W.W. Norton & Company, 1968. – 468 p.
15. Martin, T. The Affirmative Action Empire: Nations and Nationalism in the Soviet Union, 1923–1939. – Ithaca; London: Cornell University Press, 2001. – 496 p.

Nurmetov Ismoil Alimbayevich
Urganch davlat universiteti dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ismoil_nur84@mail.ru

GLOBAL EKOLOGIK KONVENSIYALAR VA XALQARO EKOLOGIK MUNOSABATLARDA O'ZBEKISTONNING ISHTIROKI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik, ayniqsa, atrof-muhitni muhofaza qilish va suv resurslarini boshqarish masalalari tahlil qilingan. Asosiy e'tibor, Davlatlararo barqaror rivojlanish bo'yicha komissiya, Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazining (MOMEM) xalqaro ekologik jarayonlarda ishtirok etish, iqlim o'zgarishi va biologik xilma-xillikni saqlash sohasida xalqaro moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish va atrof-muhitni boshqarishning masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: DBRK, MOMEM, suv-energetika tizimi, BMT Taraqqiyot Dasturi, ekologik forumi, Iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillik.

УЧАСТИЕ УЗБЕКИСТАНА В ГЛОБАЛЬНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ КОНВЕНЦИЯХ И МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация. В статье анализируется региональное сотрудничество Республики Узбекистан в Центральной Азии, особенно в сфере охраны окружающей среды и управления водными ресурсами. Основное внимание уделяется участию Межправительственной комиссии по устойчивому развитию, Регионального экологического центра Центральной Азии (РЭЦЦА) в международных природоохранных процессах, расширению доступа к международным механизмам финансирования в области изменения климата и сохранения биоразнообразия, а также управления охраной окружающей среды.

Ключевые слова: БДРК, MOMEM, водно-энергетическая система, ПРООН, экологический форум, изменение климата, биоразнообразие.

UZBEKISTAN'S PARTICIPATION IN GLOBAL ENVIRONMENTAL CONVENTIONS AND INTERNATIONAL ENVIRONMENTAL RELATIONS

Abstract. The article analyzes regional cooperation of the Republic of Uzbekistan in Central Asia, especially in the field of environmental protection and water resources management. The main focus is on the participation of the Intergovernmental Commission on Sustainable Development, the Regional Environmental Centre for Central Asia (CAREC) in international environmental processes, expanding access to international financing mechanisms in the field of climate change and biodiversity conservation, as well as environmental management.

Key words: BDRK, MOMEM, water-energy system, UNDP, environmental forum, climate change, biodiversity.

Kirish (Introduction). Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishini mintaqaviy hamkorlikdan, ayniqsa, atrof-muhitni muhofaza qilish va suv resurslarini boshqarish masalalaridan xoli tarzda amalga oshirib bo'lmaydi. Yagona ekotizim va umumiy suv resurslari Markaziy Osiyo mamlakatlaridan kuch va hamkorlikni birlashtirishni talab qiladi. Mintaqa davlatlari global ekologik muammolarni hal qilish maqsadida, o'zlarining xalqaro-siyosiy sa'y-harakatlariga ko'ra, BMTning deyarli barcha ekologik konvensiyalariga qo'shilgan[1].

So`nggi yillarda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan mintaqadagi barcha mamlakatlarga turli darajadagi tashriflar amalga oshirildi. Chunki O`zbekistonning qo`shni davlatlar bilan 2016-yilga qadar shakllangan barcha masalalardagi munosabatlarini qayta ko`rib chiqish taqozo qilinardi. Zero, suv resurslari, transport kommunikatsiyalaridan foydalanish, atrof-muhitni transchegaraviy ifloslanishlardan himoya qilish, chegaralar delimitatsiyasi va boshqa masalalarda murosaning yo`qligi yillar davomida kelishmovchiliklarga sabab bo`lgan edi[2]. Shu sababli zamonaviy muloqotlarda Markaziy Osiyo davlatlarini qiziqtiradigan xavfsizlik, iqtisodiyot, investitsiya, turizm, madaniyat, sog`liqni saqlash va ekologiya sohalarida mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga ega qo`shma qarorlar qabul qilindi[3]. Mintaqada suv-energetika bilan bog`liq masalalarni hal qilishda siljishlar kuzatildi. O`zbekiston Qambar-Ota va Rog`un GESi qurilishi loyihalarida ishtirok etish imkoniyatini ko`rib chiqishga tayyorligini bildirdi[4].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Markaziy Osiyo geosiyosatining ayrim jihatlari, mintaqa davlatlarining zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimini shakllantirishdagi ishtiroki, xalqaro shartnomalardagi majburiyatlarini bajarilishiga oid masalalar ko`rib chiqilgan hamda huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bilan bog`liq muammolar tahlil qilingan. Jumladan, huquqshunoslar, siyosatshunoslar va iqtisodchilar olimlardan N.Qosimova, S.Safoev, R.Alimov, F.Tolipov, Sh.Arifxanov va boshqa mualliflarning tomonidan yaratilgan ayrim asarlar yuqoridagi masadlarni tadqiq etishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil usullari qo`llanildi. Bugungi kunda dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari natijasida paydo bo`layotgan global, mintaqaviy va milliy ekologik xavflardan davlatni, jamiyatni va har bir fuqaroni himoya qilishga yo`naltirilgan O`zbekiston Respublikasining tashqi siyosati bevosita xalqaro hamkorlik masalalariga yo`naltirilgan. Zero, suv resurslari, daryolardan foydalanish, atrof-muhitni ifloslanishlardan himoya qilish, chegaralar delimitatsiyasi va boshqa masalalarda murosaning yo`qligi yillar davomida kelishmovchiliklarga sabab bo`lgan edi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Davlatlararo barqaror rivojlanish bo`yicha komissiya (DBRK) "Orol dengizi va Orolbo`yi mintaqasidagi muammoni hal qilish, ekologik reabilitatsiya va Orol mintaqasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta`minlash bo`yicha qo`shma harakatlar to`g`risida bitim"ga muvofiq **1994-yil 19-iyulda** tashkil etildi[5]. Komissiyaning asosiy maqsadi Orol mintaqasini sog`lomlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, u erda yashovchi aholini ijtimoiy himoya qilish, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, Markaziy Osiyo davlatlarining ekologik hamkorligi bo`yicha takliflarni ishlab chiqishdan iborat bo`ldi.

Belgilangan tartibga muvofiq Komissiya tarkibi 15 ta a`zodan iborat bo`lib, Markaziy Osiyoning har bir davlatidan 3 nafar (atrof-muhitni muhofaza qilish vaziri, iqtisodiyot vaziri o`rinbosari, ilm-fan sohasi vakili) vakil tayinlanadi. DBRKga raislik 2 yil davomida rotatsiya shaklida atrof-muhitni muhofaza qilish vazirlari tomonidan amalga oshiriladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish sohasida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash bo`yicha DBRKning asosiy faoliyati 2001-yil 12-aprelda tasdiqlangan Markaziy Osiyoda atrof-muhitni muhofaza qilish bo`yicha mintaqaviy harakatlar rejasi (RPDOOS SA)ni amalga oshirilishida aks etdi[6]. Unga asosan, atmosfera va suvning ifloslanishi, suv resurslari tanqisligini kamaytirish, erlar va tog`ekotizimlari degradatsiyasi, chiqindilarni boshqarish, atrof-muhit muhofazasida jamoatchilik ishtirokini kuchaytirishga yo`naltirilgan qisqa (2002-2007-yy.) va uzoq (2002-2012-yy.) muddatli harakatlar amalga oshirildi[7]. Ushbu sa'y-harakatlar 2012-yilda yakunlandi.

Ta`kidlash joizki, RPDOOSning yakuniy natijasi salmoqli bo`lib, ushbu mintaqaviy reja Orol dengizi muammolarini hal qilishdan butun Markaziy Osiyo mintaqasining atrof-muhitini muhofaza qilish sohasidagi hamkorlikka o`tish imkonini berdi.

2030-yilgacha bo`lgan davrda RPDOOSning yangi versiyasini ishlab chiqish zarurati tug`ilgach, 2016-2018-yillarda OQXJ IQ, DBRKning yig`ilishlari, vazirlar konferensiyasi, davra suhbatlari doirasida 4 marta muhokama bo`lib o`tdi[8]. 2018-yil 24-avgust kuni Turkmanboshi

38 shahrida bo'lib o'tgan OQXJ ta'sischi davlatlar rahbarlari kengashining majlisida Barqaror rivojlanish uchun atrof-muhit bo'yicha Mintaqaviy dasturi loyihasi, DBRKning Maslahat kengashini tashkil etish masalalari ko'rib chiqildi. Shuningdek, DBRKga raislik qilish vakolati Turkmanistondan O'zbekiston Respublikasiga berildi.

2019-yil oktyabr oyida Nukus shahrida DBRKning yillik sessiyasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Evropa iqtisodiyoti komissiyasi hamda Davlatlararo barqaror rivojlanish komissiya o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumini imzolash marosimi bo'ldi. Ushbu hujjat Markaziy Osiyoda atrof-muhit bilan bog'liq barqaror rivojlanish maqsadlari, atrof-muhitni boshqarishni kuchaytirish, yashil iqtisodiyot va resurslardan foydalanish samaradorligi, iqlim o'zgarishiga moslashish, bioxilma-xillik va ekotizimlarni boshqarish, suv sifati va chiqindilarni boshqarish, mintaqaviy va milliy ahamiyatga molik boshqa ustuvor yo'nalishlar bo'yicha taraqqiyotga erishishga qaratilgan[9].

Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi (MOMEM) atrof-muhit va barqaror rivojlanish sohasidagi etakchi mintaqaviy bilim markazi bo'lib, milliy, mintaqaviy va xalqaro hamkorlar tomonidan tan olingan. Ushbu tashkilot 2001-yilda Markaziy Osiyoning besh mamlakati hukumatlari[10], shuningdek, Evropa Ittifoqi va BMT Taraqqiyot Dasturi tomonidan 1998-yilda Daniyaning Arxus shahrida bo'lib o'tgan 4-Evropa konferensiyasining qaroriga binoan tashkil etilgan[11].

Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik hamkorlik va barqaror rivojlanishni ilgari surgan holda, MOMEM mintaqaviy tashkilotga aylangan. 2008-yilgacha MOMEM o'z faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun to'g'ridan-to'g'ri maqsadli grantlarni olib keldi. Bu borada Evropa Ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlar MOMEMni atrof-muhit sohasidagi hamkorlikning mintaqaviy platformasi sifatida rivojlantirishni qo'llab-quvvatladilar. Davlat organlari, nodavlat tashkilotlari va xalqaro agentliklar MOMEMni professional va ishonchli sherik sifatida ko'radilar.

2013-yilga kelib, tashkilot uchun eng muhim masalalardan biri bu loyihaviy tashkilotdan mintaqaviy tashkilot formatiga o'tish bo'ldi. Mintaqaviy hamkorlik platformasiga ega tashkilotga aylanish nafaqat aniq loyihaviy buyurtmalarni bajarish, balki mintaqaning rivojlanishiga ham hissa qo'shish imkoniyatini berdi. 2013-yildan 2018-yilgacha MOMEM atrof-muhit masalalari bo'yicha hamkorlikni kengaytirish maqsadida bir qator dialog maydonlarini yaratdi. Markaziy Osiyo xalqaro ekologik forumi, Iqlim o'zgarishi bo'yicha Markaziy Osiyo konferensiyasi, Parlament a'zolari va Tashqi ishlar vazirligi vakillarining uchrashuvlari shular jumlasidandir. Shuni ham ta'kidlash kerakki, MOMEM o'z faoliyati doirasida yakka tartibdagi muayyan loyihalarni amalga oshirishdan keng miqyosli tizimli loyihalarni bajarishga o'tdi.

2014-yildan – 2019-yilgacha bo'lgan davrda MOMEM Orxus konvensiyasi, "Nodavlat tashkilotlar bilan ishlash konsepsiyasi"ni amalga oshirish doirasida qator loyihalarga e'tibor qaratdi. 2019-yil oxiri – 2020-yil boshida MOMEM yangi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan Markaziy Osiyodagi fuqarolik jamiyatlari tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik konsepsiyasini" ishlab chiqishni boshladi.

Hozirgi kunga qadar MOMEM mintaqamamlakatlarida Orxus konvensiyasini amalga oshirishda quyidagi yo'nalishlar orqali o'z hissasini qo'shmoqda:

- har yili o'tkaziladigan mintaqaviy konferensiyalar va forumlar orqali;
- iqlim o'zgarishi bo'yicha, xususan, iqlim to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish, muammo va echimlar, moliyalashtirish masalalarini ko'tarish;
- suv sifati bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lish, ular almashishini ko'zda tutuvchi suv resurslarini boshqarish bo'yicha;
- turli ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyati masalalari ustuvor bo'lgan turli xil ekologik konvensiyalar majburiyatlarini bajarish;
- atrof-muhit va barqaror rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan iqtisodiyotni ekologiyalashtirish;
- yirik loyihalar doirasida tajribaviy loyihalarini hamkorlikda amalga oshirish orqali;

• Markaziy Osiyodagi fuqarolik jamiyati institutlari vakillarini milliy va mintaqaviy tadbirlarga ma'ruzachi, moderator va vositachi sifatida taklif qilish[12].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). So'nggi yillarda MOMEM 4 ta yirik loyihani amalga oshirmoqda: "Markaziy Osiyodagi suv, ta'lim va hamkorlik", Mercedes, Markaziy Osiyodagi Neksus dialoglari, UzWaterAware. Bundan tashqari, o'tgan davrda Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyoda suv yuzasidan hamkorlik yuzasidan WECCOOP loyihasi amalga oshirildi.

Markaziy Osiyoda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishda MOMEMning sa'y-harakatlarini alohida ta'kidlash lozim. Markaziy Osiyo mamlakatlari hukumatlari Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi xalqaro ekologik jarayonlarda ishtirok etish, iqlim o'zgarishi va biologik xilma-xillikni saqlash sohasida xalqaro moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish va atrof-muhitni boshqarishning OQXJ va DBRK Ijroiya qo'mitasi sifatidagi mintaqaviy modellarini ilgari surishda yordam beradigan noyob platforma sifatida ko'rishadi.

2017-2021-yillarda Yangi O'zbekistonning olib borayotgan pragmatik siyosati, mintaqaviy siyosiy jarayonlardagi yangicha muhit tufayli MOMEMning ham roli oshdi. MOMEM xalqaro sheriklar, donor mamlakatlar, davlat idoralari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va Markaziy Osiyoda fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda ko'plab muhim tadbirlarni tashkil etish hamda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сулайманова Г. Сотрудничество стран Центральной Азии по экологическим вопросам // www.ecogofond.kz
2. "Марказий Осиёдаги келишмовчиликнинг асосий сабаби муросанинг йўқлиги эди". 14.07.2020 й. // www.gazeta.uz
3. Замонавий дунёда Ўзбекистон ташқи сиёсатининг кун тартиби // Янги Ўзбекистон, 2020 йил, 27 август.
4. Қодиров А. Янгиланаётган Ўзбекистон ташқи сиёсатининг энг муҳим устувор йўналишлари // Халқ сўзи, 2020 йил, 9 август.
5. МФСА: путь к региональному сотрудничеству. – Душанбе, 2003. – С.29.
6. Региональный план действий по охране окружающей среды Центральной Азии от 12 апреля 2001 г. // www.cawater-info.net/library/rus/reg_plan_ca.pdf
7. Талдыкбаев Б., Бузруков Ж. Информационное обеспечение деятельности МКУР МФСА: современное состояние и перспективы усиления потенциала // www.unecse.org
8. Мамедов Б. Региональная программа по охране окружающей среды для устойчивого развития Центральной Азии (Презентация секретариата МКУР) 02.03.2021 // www.eecca-water.net
9. UNECE and Interstate Commission on Sustainable Development strengthen cooperation for environmental protection in Central Asia Environment Sustainable Development. 23.10.2019 // www.unecse.org
10. ЎзМА, М-37-фонд, 1-рўйхат, 6916-йиғма жилд, 45-варақ.
11. Содействие водно-энергетической и продовольственной безопасности в Центральной Азии. Бюллетень Нексус № 1. РЕЦЦА, 2019. – С. 3.
12. ЎзМА, М-37-фонд, 1-рўйхат, 6916-йиғма жилд, 46-варақ.

Orziyev Mahmud Zayniyevich
Buxoro davlat universiteti arxeologiya
va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti,
tarix fanlari falsafa doktori (PhD)
mahmudorziyev78@gmail.com

Nizamov Asqar Baxromovich
Toshkent farmatsevtika instituti
o'qituvchisi
asqarmirzayev1984@gmail.com

XIX ASR BIRINCHI YARMIDA JANUBIY TURKISTON O'ZBEK BEKLIK LARI TARIXIGA OID...

Annotatsiya. Buxoroda Ashtarxoniylar sulolasi inqirozga yuz tutgach, Mang'itlar sulolasi hokimiyat tepasiga kelgan. Sulola almashishi jarayonida markaziy hokimiyat uchun kurashlar avj olgan paytda Buxoro xonligiga qarashli bo'lgan Janubiy Turkistondagi o'zbek bekliklari Mang'itlar sulolasi bilan bir vaqtda vujudga kelgan Ahmadshoh Durroniy asos solgan Afg'oniston davlati tomonidan bosib olingan. Ahmadshoh Durroniy vafotidan so'ng o'zbek bekliklari rasman Kobulga qaram deb hisoblansada, amalda mustaqillikni qo'lga kiritganlar. Buxoro amirligida Shohmurod bir qadar ichki tartibni o'rnatib, Janubiy Turkiston bekliklarini Buxoro amirligi tarkibiga qatarishga uringan. Uning vorisilari amir Haydar va amir Nasrullo davrida ayrim bekliklar Buxoro amirligiga itoat etganlar. Ammo, Afg'onistonda barakzoylardan bo'lgan Do'stmuhammadxonning hokimiyat tepasiga kelishi bilan markazlashtirish uchun kurashlarni boshlagan. Birinchi ingliz-afg'on urushi davrida ham Janubiy Turkistondagi o'zbek bekliklari inglizlarning Hindukush tog'lari orqali O'rta Osiyoga o'tishlariga qarshilik qilib, ingliz qo'shinlarini mag'lubiyatga ham uchratganlar. Ingliz-afg'on urushidan so'ng Do'stmuhammadxon inglizlardan olgan harbiy ko'mak bilan XIX asrning 0-yillaridan boshlab, Janubiy Turkistondagi o'zbek bekliklarini bo'ysundirishni boshlagan. Bosib olingan o'lkalarni birlashtirib chahorviloyat deb nomlagan va katta o'g'li Muhammad Afzalxonni hokim etib tayinlagan.

Kalit so'zlar. Amirlik, beklik, mustaqillik, vassal, o'lpon, istilo, bezgak, botqoqzor, qabila, sulola, Janubiy Turkiston, Hindukush, ayg'oqchilik.

К ИСТОРИИ УЗБЕКСКИХ КНЯЖЕСТВ ЮЖНОГО ТУРКЕСТАНА В ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА

Аннотация. После кризиса Аштарского ханства в Бухаре к власти пришла династия Мангидов. В период смены династий узбекские княжества Южного Туркестана, подчинявшиеся Бухарскому ханству, были завоеваны афганским государством, основанным Ахмад-шахом Дуррани, которое возникло одновременно с династией Мангидов. После смерти Ахмад-шаха Дуррани узбекские княжества официально считались зависимыми от Кабула, но фактически обрели независимость. В Бухарском эмирате шах Мурад пытался установить некоторый внутренний порядок и объединить княжества Южного Туркестана в Бухарский эмират. Во время правления его преемников, эмира Хайдара и эмира Насруллы, некоторые княжества подчинялись Бухарскому эмирату. Однако с приходом к власти Дост Мухаммад-хана, баракзая, в Афганистане началась борьба за централизацию. Во время Первой англо-афганской войны узбекские княжества Южного Туркестана оказали сопротивление британскому продвижению в Среднюю Азию через Гиндукуш и даже разгромили британские войска. После англо-афганской войны в XIX веке Достмухаммад-хан, при военной поддержке англичан, начал покорение узбекских княжеств Южного Туркестана. Он объединил завоёванные территории, назвав их Чохорвилаят (четыре провинции), и назначил своего старшего сына Мухаммада Афзал-хана губернатором.

Ключевые слова: Эмират, княжество, независимость, вассал, дань, вторжение, малярия, болото, племя, династия, Южный Туркестан, Гиндукуш, шпионаж.

ON THE HISTORY OF THE UZBEK PRINCIPALITIES OF SOUTH TURKESTAN IN THE FIRST HALF OF THE 19TH CENTURY

Abstract. *After the Ashtar Khanate in Bukhara fell into crisis, the Mangid dynasty came to power. During the period of dynastic change, the Uzbek principalities in South Turkestan, which were subordinate to the Bukhara Khanate, were conquered by the Afghan state founded by Ahmad Shah Durrani, which arose at the same time as the Mangid dynasty. After the death of Ahmad Shah Durrani, the Uzbek principalities were officially considered dependent on Kabul, but in practice they gained independence. In the Bukhara Emirate, Shah Murad tried to establish some internal order and integrate the principalities of South Turkestan into the Bukhara Emirate. During the reign of his successors, Emir Haidar and Emir Nasrullah, some principalities obeyed the Bukhara Emirate. However, with the rise to power of Dost Muhammad Khan, a Barakzai, in Afghanistan, struggles for centralization began. During the First Anglo-Afghan War, the Uzbek principalities in South Turkestan resisted the British's advance into Central Asia through the Hindu Kush Mountains and even defeated the British troops. After the Anglo-Afghan War, Dostmuhammad Khan, with military support from the British, began to subjugate the Uzbek principalities in South Turkestan in the 19th century. He united the conquered territories and named them Chahorvilayat (four provinces) and appointed his eldest son Muhammad Afzal Khan as the governor.*

Keywords: *Emirate, principality, independence, vassal, tribute, invasion, malaria, swamp, tribe, dynasty, South Turkestan, Hindu Kush, espionage.*

Kirish. XIX asr dunyo tarixida o'ziga xos o'zgarishlar davri bo'lib, bu davrda kapitalistik ishlab chiqarish rivojlangan davlatlarning dunyoni bo'lib olish va iqtisodiy, siyosiy va xo'jalik taraqqiyotida orqada qolgan mamlakatlarni mustamlakalarga aylanish jarayonlari sodir bo'lgan edi. Bar vaqtlar G'arb va Sharq o'rtasida vositachi bo'lgan va jahon tamaddunining markazlaridan bo'lgan Turkiston o'lkasi umumiy tushkunlik davrini boshdan kechirayotgan davr bo'lib, Sharqiy Turkiston Xitoy ta'siriga, G'arbiy Turkiston Rossiya va Janubiy Turkiston Angliya tomonidan qo'llab-quvvatlangan Afg'oniston ta'siriga tushib qolgan. Ushbu maqolada Janubiy Turkistondagi o'zbek bekliklarining Afg'oniston davlati ta'siriga tushib qolish jarayonlari tarixiy manba va adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. Ushbu maqolani yoritishda biz foydalanilgan adabiyotlarni gartli ravishda uch guruhga birinchi; manbalar va manbaviy ahamiyatga ega bo'lgan adabiyotlar, ikkinchi; sobiq sovet davrida yaratilgan adabiyotlar va uchinchi, mustaqillik davrida yaratilgan adabiyotlar guruhlariga bo'ldik. Asosiy manba sifatida 1867-1917 yillarda yaratilgan "Turkestanskiy sbornik" ("Turkiston to'plami") tomalaridagi sayohlar, ayg'oqchilarning estaliklari, tahlilchilarning qarashlariga oid maqolalarni kiritdik. Jumladan, ingliz ayg'oqchisi Aleksandr Bornsning "Turkiston to'plami"ning 38-tom va 39-tomlaridagi xotiralari, 243-tomda ushbu sayohatlarning tahlilidan keng foydalanilgan. Shuningdek, M.A. Terentevning "Turkiston to'plami" 93-tomida joylashgan Rossiya va Angliyaning O'rta Osiyodagi raqobatiga bag'ishlangan tahliliy maqolasi diqqatga sazovordir. Manbaviy ahamiyatga ega bo'lgan asarlar sirasiga kiritilgan N.Xannikov asarida Janubiy Turkiston bekliklaridan qaysilari Buxoroga vassal bo'lgani keltirilgan bo'lsa, S.A. Shumov asarida, Afg'oniston tarixi manbaviy asarlar, tarixiy hujjatlar asosida o'rganilib, tahrir chizig'idan o'tkazilgan. Mirza Abdulazim Somiy mang'it amirlari tarixini yoritish jarayonida qisman bo'lsada amirlarning Janubiy Turkiston bekliklriga nisbatan tutgan siyosatiga to'xtalib o'tgan.

Sovet davrida yaratilgan asarlarda sinfiylik nuqtai-nazaridan yondashish ko'zga tashlanadi. Shunday bo'lsada, tarixiy voqeiyliklar yoritilish uslubi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. A.X. Babaxodjayev asarida asosan Ingliz imperiazmi qoralangan va Afg'oniston, O'rta Osiyo aholisi uchun asosiy xavf sifatida ko'rsatishga harakat qilgan. Bu yo'nalishdagi asarlar sirasiga N.A. Xalfin izlanishlarini ham keltirib o'tish mumkin. V.V. Bartold izlanishlari asosan tarixiy geografik xarakterga ega bo'lgan bo'lsa, P.P. Ivanov harbiy soha vakili bo'lganligi sababli asosan yo'llar,

- 42 siyosiy jarayonlarga katta e'tibor qaratgan. A.Shoxumorov Badaxshonning Rossiya va Angliya ta'siri ostida bo'linish va aholisining katta qismi ismoiliylik bo'lgani sababli ularning taqdiriga ko'proq e'tibor qaratgan. K.M. Yuldashev esa Afg'oniston davlatida zamonaviy diplomatiyaning shakllanishi va diplomatik jarayonlarda dastlabki ishtiroki masalalariga to'xtalgan.

Sobiq SSSR parchalanib ketgandan keyin ushbu mavzuga oid bir qadar ilmiy izlanishlar e'lon qilingan. Jumladan A.V. Postnikovning "Dunyo tomi" (Pomir) uchun kurashlar tarixini hujjatlar asosida tahlil qilgan bo'lsa, MITSAY instituti chop etgan asarda Markaziy Osiyodagi davlatlar va bekliklar bilan Usmoniylar saltanati o'rtasidagi diplomatik munosabatlar tahlili keltirilgan. Anke fon Kyugengel mang'it amirlari tarixiga to'xtalib, ularning Janubiy Turkiston bekliliklari bilan munosabatlarini tahlil qilgan bo'lsa, M.Z. Orziyev va U.B. Sobirovlar masalaning tarixshunoslik jihatlariga e'tibor qaratganlar.

Natija va mulohazalar. XIX asr boshlarida Afg'onistonda Sadazoy (Durraniy) va Barakzoy urug'lari o'rtasidagi keskinlik Afg'onistonda notinch vaziyatni keltirib chiqargan buning natijasida Janubiy Turkistonda istilo qilingan o'zbek bekliklarining mustaqillikka intilishlari kuchaygan. XIX asrning 20-30 yillarida Afg'onistonda Barakzoy va Popolzoylar o'rtasidagi taxt uchun kurashlar avj olib, Janubiy Turkistondagi bekliklarning bir qismi Buxoro amirligiga, bir qismi Hirotida hukumronlik qilayotgan sadazoylarning so'nggi hukumdori Komronga, bir qismi barakzoylardan bshlgan Kobul hukumdori Do'stmuhammadxonga vassall bo'lsa, ayrimlari to'la mustaqil davlatga aylangan[25, 80]. Aslida vassallik ham nomigagina bo'lib, Afg'on davlatidagi siyosiy tarqoqlik natijasida o'zbek bekliklari to'la mustaqillikni qo'lga kiritganliklar. Ushbu fikrlarni P.P. Ivanov tadqiqodlarida XIX asrning birinchi yarmida afg'on Turkistondagi o'zbek bekliklari to'la mustaqil bo'lganligiga oid qarashlari ham tasdiqlaydi[5, 141]. Chunki, XIX asrning birinchi yarmida sadazoy va barakzoy urug'lari kurashi markaziy hokimiyatni kuchsizlantirgan edi. Mavjud vaziyatdan Buxoro amirlari ham foydalanib, Janubiy Turkistondagi bekliklarni o'z davlati tarkibiga qaytarishga harakat qilgan. Amir Haydar (1778-1800-1826 yy) davrida 1817 yil janubiy Turkistonga harbiy yurish tashkil qilingan. Balx XIX asr birinchi choragidan boshlab Janubiy Turkiston uchun kurashlarda Buxoro amirligining asosiy tayanch nuqtasiga aylangan. Shuningdek, XIX asr 50-yillarga qadar Buxoro amirligiga qarashli hudud sifatida qayd etib o'tilgan [9,89]. Balx egallanganidan keyin, Janubiy Turkistondagi bir qator bekliklar jumladan, Maymana, Qunduz va Badaxshon kabi o'zbek bekliklari Buxoro amiriga o'z vassalliklarini tan olganlar va har yili o'lpon yuborib turganlar[4, 31].

XIX asr boshlarida barakzoylar va Sadazoy (durraniy nomi bilan mashhur)ning hokimiyat uchchun kurashlari avj olib, 1826 yil barakzoylar Afg'onistonda hokimiyatni qo'lga kiritgan. Barakzoylardan bo'lgan birinchi hukmdor Do'stmuhammadxonga mamlakatni to'liq birlashtirish1836 yil, Eron bilan munozarali Hiroti egallash esa 1863 yilda sodir bo'lgan. Bu davrda esa Janubiy Turkiston bekliklari mustaqil bo'lgan deb xulosa qilish mumkin. XIX asrning birinchi yarmida Janubiy Turkiston Xulm (Toshqo'rg'on) hukmdori Qilich Alixon tomonidan birlashtirilgan. Qilich Alixon davrida Afg'on Turkistoni gullab-yashnagan, bunga sabab iqtisodiy islohot bo'lib, Janubiy Turkistondan o'tuvchi savdo karvonlari xavfsizligini ta'minlash va ulardan olinadigan bojni bekor qilinishi bo'lgan. Qilich Alixon 1822 yilda vafotidan so'ng, Xulmga uning sobiq vassali Qunduz hokimi Murodbek bostirib kelgan. Xulm va Balxni talab aholining katta qismini Qunduz botqoqzorlariga ko'chirgan va aholining katta qismi vafot etgan[15, 137]. Botqoqzorliklarda yashashga moslashmagan aholi bezgak kasaliga tez chalingan.

Xulm hokimi Qilich Og'a Janubiy Turkistonni o'n besh yil davomida tinchligi, osoyishtaligini ta'minlagan. Vafotidan oldinroq ikki o'g'liga Buxoro amiriga itoat etishni vasiyat qilgan bo'lsada, o'g'illari vasiyatga amal qilmagan. Qilich Alixon vafotidan (1820 yilning oxiri) bir yil o'tib, Qatag'on begi (Murodbek Qunduz Qatag'on urug'idan bo'lgan)ning hujumi sodir bo'lgan. Janubiy Turkistonda Qilich Alixonning asosiy ittifoqchisi, vassali bo'lgan Qunduz hukmdori Murodbek Qatag'an bo'lib, keyinchalik Murodbek mintaqada yetakchilik uchun kurashda sobiq ittifoqchisi o'g'illariga qarshi kurashgan[11, 79]. Murodbek Qunduz Janubiy Turkistondagi o'zbek bekliklarini to'liq bo'ynsundira olmagan. XIX asrning o'rtalariga qadar Buxoro amirligiga vassal bo'lgan Afg'on Turkistoni bekliklari sifatida Maymana, Saripul,

Andxoy, Shibirg'on bekliklari sanab o'tilgan[15, 137]. Demak, Janubiy Turkistonda hukumronlik qilishda Murodbek Qunduz Buxoro amirlari bilan kurash olib borgan deb xulosa qilish mumkin. Ammo, Buxoroga vassalik nomigagina bo'lib, ayrim bekliklar Murodbek bosib olishidan cho'chib Buxoroga itoat etgan deb xulosa qilish mumkin. Jumladan, N.Xannikov yozib qoldirgan ma'lumotlarida, Buxoro amiri Nasrulloxon (1826-1860 yy) hukumronligi dastlabki yillarida Balx bekligining Buxoroga tobe o'lka bo'lmaganligi va Nasrulloxonga teng huquqli hukumdor sifatida sovg'a yuborayotgan davlatlardan biri ekanligi keltirib o'tilgan[23, 3]. Ko'rinib turibdiki, XIX asrning boshlarida, Janubiy Turkiston bekliklarining deyarli barchasi mustaqil siyosat yuritganlar.

XIX asrning 30-40 yillarida Janubiy Turkiston o'lkasida asosiy hukumdor Qunduz begi Murodbek Qatag'an bo'lganligini ingliz ayg'oqchilari ma'lumotlarida keltirib o'tilgan. Ushbu ma'lumotlarda Janubiy Turkiston uchun kurashlarda Buxoroning eng kuchli raqibi afg'onlar emas, Qunduz miri Murodbek Qatag'an ekanligi qayd etilgan[18, 490]. A.Borns Murodbekning ta'siri Kobul yaqinidagi Seygan, Kamard qishloqlarini ham qamrab olganligi, Seygan hukumdori Muhammad Alibek goh Kobulga, goh Qunduzga, itoat etishi, Kobul amirini ko'nglini otlar bilan, Qunduz hokimini ko'nglini hazoralardan asir olingan go'zal qizlar bilan olishi, Kamard qishlog'i hokimi Rahmatullo tojik Qunduz hokimi Muhammad Murodbekning o'lpon to'lovchisi ekanligini yozib qoldirgan[15, 137]. A.Borns ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, Afg'on Turkistonidagi o'zbek bekliklarning ayrimlari hali ham Buxoro amirligi tarkibiga kirgan. Buxoro amirligi qo'shini haqida o'z hisobotlarida qayd etib o'tar ekan, muntazam qo'shinlari soni 20 mingni tashkil etishi, urush vaqtida eljari deb nomlanuvchi xalq militsiyasi soni 50 mingga yetishi, shuning 10 mingini Amudaryodan janubdagi bekliklar yetkazib berilishini yozigan[17, 483]. Bu ma'lumotdan Afg'on Turkistonidagi bekliklarning bir qismini XIX asr 40-50 yillarida Buxoroga tobe ekanligini anglash mumkin.

XIX asrning birinchi yarmida inglizlar tomonidan o'zbek bekliklari hududiga ko'plab elchi va ayg'oqchilar kela boshlagan. Ko'p hollarda ayg'oqchilar yashirin, musulmon ziyoratchisi, savdogar qiyofasida kelsalarda, mahalliy hukumdorlari bilan yaqin aloqalar o'rnatganlar. Badaxshonga kelgan dastlabki rasmiy elchilar Doktor Lord va Kapitan Vudlar 1837 yilda Badaxshon bekligiga ikki maqsadda, birinchisi, Qunduz hukumdori Murodbek bilan Afg'oniston masalasida kelishuvga erishish kkinchisi, Amudaryoning yuqori oqimini tekshirish bo'lgan[23, 15]. Chunki, bu vaqtda inglizlar Afg'onistonni bosib olishga tayyorgarlik ko'ra boshlagan edilar. Do'stmuhammadxonning Rossiya elchisi Yan Vitkevich elchiligini iliq kutib olinishi inglizlarni xavotirga solgan. Birinchi ingliz-afg'on urushining dastlabki davrida ayg'oqchilarning ma'lumotlariga tayangan Hindistondagi ingliz hukumati boshlig'i ser Oklend 1839 yil 13 martda Ost-Indiya kompaniyasi yashirin kengashiga yo'llagan maktubida Qunduz bekligining barakzoylarga qarshi Afg'onistonda qayta tiklangan Sadazoy sulolasini qo'llab-quvvatlashga umid borligini ma'lum qilgan [22, 18]. Bu ma'lumotlar keyinchalik o'z tasdig'ini topgan.

Birinchi ingliz-afg'on urushi davrida inglizlardan texnik va taktik ortda qolgan afg'on armiyasi tezda mag'lubiyatga uchragan. Yengilgan Do'stmuhammadxon 1839 yil avgustda Xulm (Toshqo'rg'on) hokimi Muhammad Aminbek oldiga qochib kelgan. Bu yerda Buxoro, Erondan yordam so'rab, Qunduz hukumdori Murodbekning oldiga muzokaralar uchun shaxsan o'zi borsada amaliy natijaga erisha olmagan. Buxoro amiri Nasrulloxon elchi yuborib Do'stmuhammadxonga boshpana va yordam berishni ma'lum qilgandan so'ng Do'stmuhammadxon Buxoroga yo'l olgan [10, 198]. Buxoroga yetib kelgan Do'stmuhammadxonga asirdek munosabatda bo'linganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan. Do'stmuhammadxon hayotini tahlikaga qo'yib, Buxorodan qochishga majbur bo'lgan va katta mashaqqat bilan Janubiy Turkiston hududiga yetib olgan[14,136]. Xulm (Toshqo'rg'on)ga yetib kelgan Do'stmuhammadxonga Turkiston bekliklari yordami bilan inglizlarga qarshi kurashish uchun sakkiz ming kishi atrofidagi qo'shin to'plangan. Ushbu qo'shin 1840 yil 17 sentyabrda Bomiyonda inglizlar ustidan g'alaba qozonib, Bajgoh va Sayganni egallasalarda, inglizlar bilan sulh tuzishga majbur bo'ladilar. Unga ko'ra, Xulm hukumdori Do'stmuhammadxonga boshpana, yordam bermasligi kerak edi[10, 203]. O'zbek bekliklari g'alaba qozonsalarda katta talofot ko'rganlari bois inglizlar bilan sulh tuzganlar deb xulosa qilish mumkin. O'zbeklar va inglizlar o'rtasidagi kurash xususida A.X. Babaxodjayev fikr-

44 mulohazalariga ko'ra, Muhammad Amin va Do'stmuhammadxonlarning sakkiz ming kishilik qo'shin inglizlar bilan Parvon Darada jangga kirishgan. Ushbu jangda inglizlar qatqshatqich mag'lubiyatga uchrab, qo'shin qo'mondoni general Sel va Hindukushda siyosiy agent bo'lgan doktor Lord kabi nufuzli ingliz amaldorlari o'ldirilgan. Garchi, o'zbeklar ham katta talofot ko'rib, inglizlar bilan sulh tuzishga majbur bo'lgan bo'lsalarda, shu jangdan so'ng inglizlar Hindukush orqali O'rta Osiyo hududiga o'tishga boshqa urinmaganlar[1, 12]. Bu jang aslida birinchi galda Buxoro amirligi siyosiy tarixi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan deb xulosa qilish mumkin.

Do'stmuhammadga inglizlar bosimi bilan yordam va boshpananing berilmasligi uning ortiq inglizlarga qarshilik qila olmasligini anglatgan va Do'stmuhammadxon inglizlarga taslim bo'lgan. Istilochilarga qarshi yangi kurashni boshlanishi Do'stmuhammadxonning o'g'li Muhammad Akbarxon nomi bilan bog'liq. Amir Nasrulloxon Do'stmuhammadxon Buxorodan qochgan vaqtda Akbarxon zindonga tashlangan. Afg'onistondagi voqeiyliklar ortidan Buxoro ruhoniylarining amirga bosim o'tkazishi va ularning talabi bilan Muhammad Akbarxon ozod qilingan. Akbarxon Balxga kelishi bilan keng xalq ommasi uni yaxshi kutib olib, olti ming otliq askar unga yordam bera boshlagan[3, 88]. Inglizlarga qarshi kurashlarning ikkinchi bosqichida ham o'zbek bekliklari aholisi faol ishtirok etgan. 1838-1842 yillarda Afg'oniston xalqlarining milliy ozodlik kurashi inglizlarni to'liq quvib chiqarilishi bilan yakunlangan. Ammo, inglizlar ta'siridan baribir to'liq qutilishning imkoni bo'lmagan. Do'stmuhammadxon 1855 yil 30 martida inglizlar bilan "inglizlar do'stiga do'st, dushmaniga dushman" bo'lishi ko'zda tutilgan kelishuvga erishgan. 1857 yildagi sulhga ko'ra, qurol va moliyaviy yordam evaziga tashqi siyosatni butunlay inglizlar qo'lga o'tib ketgan[26, 29].

Afg'onistondagi hukumronligini mustahkamalagan Do'stmuhammadxon Janubiy Turkistonni egallash uchun kurashlarni taxminan 1850-yillar atrofida boshlagan. Bu davrda Balx egallanib, Janubiy Turkistondagi Afg'onistonga qaram hududlarga o'sha vaqtda tirik o'g'illaridan bo'lgan Muhammad Afzalxonni hokim qilib tayinlagan. Afzalxon Qunduz va Badaxshonga bir necha marta bosqinchilik yurishlari qilsada to'liq bo'ynsundira olmagan[24, 23]. Ayrim tarixiy adabiyotlarda, Do'stmuhammadxon 1850 yilda Kichik Turkistonni egallash uchun uchinchi o'g'li Muhammad Akramxonni katta qo'shin yuborganligi, Balx bekligi ishg'ol qilingach, Oqcha, Shibirg'on, Andxoy, Xulm, Saripul va Qatag'on bekliklari hokimllari vassallikni tan olganligi, XIX asr 50-yillarida yangidan bo'ynsundirilgan Afg'on Turkistoni (Chahorviloyat) tuzilganligi qayd etilgan[10, 223]. Dastlab, XIX asrning 50-yillarda Afg'on Turkistoni viloyati tuzilgan va keyinchalik u chorviloyat nomi bilan ham atalgan. Ushbu viloyatga Do'stmuhammadxon katta o'g'li Afzalxonni tayinlaydi[6, 153]1. Shunday bo'lsada qator bekliklar mustaqil siyosat yuritganliklari tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan. Usmonli turk davlati arxivlarida 1851 Istambulga O'rta Osiyo hukumdorlaridan borgan elchilar sanab o'tilgan bo'lib, ular orasida Andxoy bekligi elchisi ham mavjudligi sanab o'tilgan[7, 178]. Demak, XIX asrning 50-yillarda Andxoy mustaqil siyosat yuritganligi ma'lum.

XIX asr 50-yillarga qadar bir qator o'zbek bekliklari mutlaqo mustaqil siyosat olib borganlar. Shuningdek, Balx, Shibirg'on, Qunduz, Maymana, Mozori Sharif, Andxoy, Xulm bekliklari o'zlarini Do'stmuhammadxonga teng hisoblagan holda elchi almashganlar[13, 10]. XIX asr 40-50 yillaridagi siyosiy mavqei xususidagi ma'lumotlarda, Xulm bekligi hukumdori Mir Muhammad Amin 1836 yilga qadar vali (noib) unvoniga ega bo'lgan va Qunduz bekligigaga o'lpon to'lagan. Murodbek vafotidan so'ng yana mustaqil hukumdor bo'lgan. Balx aholisi kam sonli sababli XIX asrning 40-yillaridagina mustaqil bo'lgan. Mozori Sharif hukumdori Eshon Shujoiddin ham mustaqil hukumdor bo'lsa, Oqcha hukumdori Eshon O'roq Buxoro amiri vassali bo'lgan [15, 139].

Janubiy Turkistondagi o'zbek bekliklarini Afg'onistonga bo'ynsundirilishi 1849-1851 yillardan boshlangan bo'lib, qisqa mustaqillikdan so'ng Balx, keyin Xulm, Oqcha bekliklari bo'ynsundirilgan. 1858 yilda Qunduz bekligi vassallikni tan olgan bo'lsa, 1859 yilda Badaxshon Afg'oniston hukumdori Do'stmuhammadxonga vassaligini izhor qilgan[8, 20]. Ammo, Badaxshonni to'liq egallash 70-yillarda amalga oshirilgan. Tarixiy adabiyotlarda o'zbek bekliklarining bo'ynsundirilish turlicha keltirilgan bo'lib, S.A. Shumov va A.R. Andreyevlarning

ma'lumotlari yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan farq qilib, Do'stmuhammadxon Janubiy Turkistondagi o'zbek bekliklarini quyidagi xronologik ketma-ketlikda bo'ynsundirganligi keltirilgan. Unda, 1856 yil Balx va Xulm bekliklari, 1858 yil Oqcha, Shibirg'on, Andxoy bekliklari, 1861 yilda Qunduz va Badaxshon bekliklarini Afg'onistonga vassal sifatida bo'ynsundirilganligi keltirilgan[25, 47]. Amudaryoning chap sohilidagi Buxoro amirligiga qarashli yerlar XIX asr o'rtalarida bosib olinishi Buxoro amirligi bilan munosabatlarning keskinlashuviga sabab bo'lgan. Ammo, Nasrulloxon Do'stmuhammadxonga qarshi faol kurash olib borganligiga oid aniq faktlar tarixiy adabiyotlarda keltirilmagan. Mirza Abdulazim Somiy ikki o'rtadagi kurash bo'lganligini keltirsada, jang tafsilotlarini keltirib o'tmagan holda, 1859 yil sulh tuzilganligi, unga ko'ra ikki davlat o'rtasidagi chegara Amudaryo deb kelishilganligi, bu davrda afg'onlar tomonidan hali bo'ynsundirilmagan Maymana, Oqcha, Balx kabi o'zbek bekliklari Do'stmuhammadxonga berib yuborilganligi, ushbu bekliklarni Sheralixon 60-70 yillar davomida zo'r urinishlardan so'ng bo'ynsundirganligi keltirib o'tilgan[12, 155].

Do'stmuhammadxon davrida Afg'onistonga o'zbek bekliklarining vassalligi ma'lum bir to'lovlar bilan cheklangan bo'lib, ayrim bekliklarining vassallik shartlari tarixiy adabiyotlarda keltirilgan. Masalan, Badaxshon bekligi har yili Kobul xazinasiga har bir xonadondan ikki rupiya miqdoridagi la'l jo'natib turgan. Do'stmuhammadxon vafotidan so'ng Badaxshon 15 ming rupiya (9 ming rubl) to'lab, Buxoro vassalligiga o'tgan[20, 121]. Ya'ni, Afg'onistondan Buxoro amirligi qo'l ostiga o'tgan. Turkiston o'lkasiga ruslar va afg'onlar istilosi davom etayotgan davrda ham bekliklarning o'zaro birlashuvi kuzatilmagan. Vamberi sayohatlari davrida kichkina Maymana bekligining yolg'iz o'zi afg'onlarga qahramonona kurashi sodir bo'lib, H.Vamberi maymanaliklarning qahramonona kurashi haqida afsonalar to'qilgani, afg'onlar o'zbek bekliklaridan Andxoy va Balx hokimlari bilan birgalikda 1862 yilda Maymanani bo'ynsundira olmaganligi, Buxoro amiri Maymana hokimi Hikmatxon va uning vafotidan so'ng o'g'li Husaynxonni qo'llab-quvvatlaganligi, Husaynxonga 10 ming tilla bilan moliyaviy yordam ko'rsatganligini yozib qoldirgan[15, 139].

1873 yilgi Rossiya razvedkasi ma'lumotlariga ko'ra, afg'onlar 1854 yilda Balx, Andxoyni egalagan, Maymanani esa bo'ynsundira olmaganlar [21, 93]. Shuningdek, Do'stmuhammadxon davrida ham Qunduz begi Murodbek Qatg'an o'z mustaqilligini saqlab qolganligi bilan bog'liq ma'lumotlar "Turkiston to'plami" materiallarida keltirib o'tilgan[15, 138]. Qunduz begi Murodbek Qatag'an mustaqillikni saqlab qolibhatto, Amudaryoning o'ng sohilidagi Buxoro amirligiga qarashli yerlarga ham da'vo qilgan. Uning qo'shini 30 ming otliq va 6 ta to'pdan iborat bo'lib, Amudaryodan shimoldagi Roshan va Shug'on Murodbekka o'lpon to'lashga majbur bo'lgan. Murodbek, faqatgina Darvozni bo'ynsundira olmaydi. Chunki, Darvozga katta miqdorda qo'shinlarni olib o'tishga tor tog' yo'laklari imkon bermasligi buning asosiy sababi bo'lgan[16, 139]. Murodbek Qatag'anning o'z davlati mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan qator tadbirlari bo'lib, ulardan biri pkl va pora evaziga ayg'oqchilar orqali ma'lumotlar to'plash bo'lgan. "Nedelya" gazetasining 1878 yil 26 noyabrdagi 48-sonida keltirilgan maqolada A.Borns sayohatlari davrida Kobulda Qunduz hokimi Murodbekning ayg'oqchisini uchratganligi keltirilgan [19, 201a]. Bu esa yuqorida keltirib o'tilgan fikrlarni tasdiqlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, XIX asrning boshlarida Janubiy turkiston bekliklarining mustaqillik davri bo'lib, bu ularning o'zaro birlashish va kelajakda yaxlit siyosiy, tarixiy va madaniy birlik sifatida yashab qolishlari uchun imkon bo'lgan. Ammo, o'zaro kelishmovchiliklar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning keskinligi, ichki bozor torligi, bunga imkon bermagan. XIX asrning o'rtalaridan boshlab Afg'oniston tomonidan istilo qilish xavfi oshib borib, Do'stmuhammadxonning Janubiy Turkistonga tajovuzi kuchayib borgan. Shunday bo'lsada Janubiy Turkistonni to'liq bo'ynsundirish uning vorisi Sheralixonga nasib qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бабаходжаев А.Х. Провал агрессивной политики Английского империализма в Средней Азии в 1917-1920 гг. – Т.: Издательство Академии Наук Узбекской ССР, 1955. – 159 с.

2. Бартольд В.В. Сочинения. Том III. Работы по исторической географии. – М.: Наука, 1965. – 711 с.
3. Губар М.Г. Афганистан на пути истории. – М.: Наука, 1987. – 206 с.
4. Джурабаев Д.Х. Бухарский эмират во второй половине XVIII-первой половине XIX вв. В письменных источниках. Автореферат по соисканию ученой степени доктор исторических наук. – Хўжанд: - 46 с.
5. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI-середина XIX в.). – М.: Издательство восточной литературы, 1958. – 248 с.
6. История Афганистана с древнейших времён до наших дней / Отв. ред. Ю.В. Ганковский. – М.: Мысль, 1982. – 368 с.
7. История Центральной Азии в Османских документах Том I. Политическое и дипломатические отношения. – Самарканд: МИЦАИ, ТОА. 2011. – 310 с.
8. История вооружённых сил Афганистана 1747-1977. // Ответственный редактор Ю.В. Ганковский. – М.: Наука, 1985. – 204 с.
9. Кюнгел Анке. Легитимация среднеазиатской династии Мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв). Алматы: Издательство “Дайк-Пресс”, 2004. – 516 с.
10. Массон В.М., Ромодин В.А. История Афганистана: Афганистан в новое время / Ответственные редакторы: Р.Т. Ахрамович, О.В. Ганковский, В.А. Лившиц. Том II. – М.: Наука, 1965. – 550 с.
11. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Предисл. Н.А. Халфина. – М.: Наука, 1975. – 180 с.
12. Мирза Абдулазим Соми. Тарихи салотини Мангития. Издание текста, передисловие, перевод и примечания Л.Б. Епифановой. – М.: Наука, 1962. – 332 с.
13. Назаров Р. Афғонистон ўзбеклари. – Т.: Фан, 2011. – 128 б.
14. Новая история стран зарубежной Азии и Африки. Издание второе, исправленное и дополненное. Допущено министерством высшего и среднего специального образования РСФСР в качестве учебного пособия для университетов. – Ленинград: Издательство Ленинградского университета, 1971. – 544 с.
15. Орзиев М.З. “Туркистон тўплами”да Авғон Туркистони бекликларининг сиёсий тарихига оид айрим маълумотлар (XVIII-XIX асрлар). // Xorazim Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi, 2021. – 4-son. – Б. 136-140.

To'raev Anvar Ismoilovich

Buxoro davlat universiteti

arxeologiya va Buxoro tarixi kefedrasi

katta o'qituvchisi

a.i.turaev@buxdu.uz**BUXORO TURKMANLARNING OILAVIY QADRIYAT VA URF-ODATLARIDAGI O'ZIGA XOS IJTIMOYIY-MADANIY JIHATLAR**

Annotatsiya. Shubu maqolada Buxoro hududida yashab kelayotgan turkmanlarning asrlar davomida sayqalashib, bizgacha yetib kelgan urf-odatlari va qadiyatlarini haqida so'z yuritiladi. Oila muqaddas dargoh bo'lib, turkman oilalarda yoshi kattalarning, oqsoqollarning alohida mavqei doimiy tarzda e'zozlab kelinganligi, o'ziga eng yaqin yoshi katta oila vakillarini sensirash odati ham o'ziga xos hurmat belgisi ekanligi va turkmanlarning boshqa xalqlardan ajratib turadigan oilaviy qadriyat hamda an'analari haqida maqolada bayon qilib o'tiladi. Urf-odat va qadriyatlar o'zining ma'lum bir qoidalariga, an'alariga asoslangan holda katta jamoa tarzida o'tkazilishi turkmanlarning o'zaro uyushqoqligini namoyon qilib kelganligi manbalar orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Globallashuv jarayoni, urf-odat, qadriyat, an'ana, xalklarning etnografiyasi, oila-nikoh, oila-jamoa, bobo-buvi, ota-ona, qozon bir, uylanmoq, Zarafshon daryosi, xider eli turkmanlar, patriarxal oila.

СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ТРАДИЦИЙ ТУРКМЕНОВ БУХАРЫ

Аннотация. В данной статье рассматриваются обычаи и традиции туркмен, проживающих на территории Бухары, которые веками совершенствовались и дошли до наших дней. Семья является священной обителью, где в туркменских семьях всегда особо почиталось положение старших и аксакалов. Обычай обращаться к самым близким старшим членам семьи на «ты» является знаком уважения, что отличает туркменские семейные ценности и традиции от других народов. В статье также освещается проведение обрядов и традиций на основе определённых правил и обычаев в широком кругу, что демонстрировало взаимную сплочённость туркмен, что подтверждается источниками.

Ключевые слова: процесс глобализации, обычаи, ценность, традиция, этнография народов, семья и брак, семейная община, дед и бабушка, отец и мать, общий котёл, женитьба, река Зарафшан, туркмены хидэр эли, патриархальная семья.

SOCIO-CULTURAL FEATURES OF FAMILY VALUES AND TRADITIONS OF THE BUKHARA TURKMENS

Abstract. This article examines the customs and traditions of the Turkmens living in the Bukhara region, which have been refined over centuries and preserved to this day. The family is considered a sacred institution, where the status of elders and community leaders (aksakals) has always been highly respected in Turkmen households. The tradition of addressing the closest senior family members with formal respect is a distinctive mark of honor and represents a unique feature of Turkmen family values and traditions, setting them apart from other peoples. The article also highlights how rituals and traditions, based on specific rules and customs, were carried out collectively, which demonstrated the solidarity and unity of the Turkmens, as evidenced by historical sources.

Keywords: *globalization process, custom, value, tradition, ethnography of peoples, family and marriage, family community, grandparents, parents, common cauldron, marriage, Zarafshan River, Khider Eli Turkmens, patriarchal family.*

Kirish. Bugungi kunda yer yuzida sodir bo'layotgan globallashuv jarayonida har bir xalq, millat o'ziga tegishli asriy qadriyatlarini, urf-odat va marosimlarini saqlab qolishga e'tibor qaratib kelmoqda. Chunki, etnoslararo madaniy yaqinlashuv ularning turmush tarzida yangi qadriyatlarni shakllantirishi bilan birga, milliy madaniyatlardagi o'ziga xoslikni asta-sekinlik bilan unifikatsiyalashishiga, ma'naviy qadriyatlarining o'zgarishiga, ularning bir-biri bilan umumiy jihatlarni kasb etishiga, hatto unutilib borishiga, ham sabab bo'lmoqda. Bir hududda istiqomat qilib kelayotgan turli etnos vakillarining urf-odat, qadriyat va an'analarini tadqiq etish, ushbu xalqlarning etnografiyasini yaxlit tarzda va chuqur o'rganish imkonini beradi. Har bir xalqni boshqasidan ajratib turuvchi muhim etnografik belgilardan biri, uning urf-odatlari va marosimlari hisoblanadi. Marosim inson hayotida moddiy va ma'naviy talab va ehtiyoj orqali yuzaga keladigan ijtimoiy hodisadir[1,73].

Buxoro vohasidagi turkmanlarning oilada va jamiyatda tutgan o'rni, farzand tug'ilishi, uni tarbiyalash bilan bog'liq marosimlar, oila-nikoh munosabatlari va dafn marosimlari atroflicha tadqiq qilinmagan masala hisoblanadi. Mazkur masalada ilmiy adabiyotlar bilan birga, dala etnografik tadqiqotlar asosida izlanishlar olib borish mavzu mohiyatini teran anglashga yordam beradi.

Azaldan, inson hayotida oilaning o'rni muhim bo'lib, bola shaxs sifatida shakllanishi, jamiyat hayotida farzandning ijtimoiy rolini belgilashda, ham ma'nau ham jismonan yetuk inson bo'lib voyaga yetishida oilaning o'rni muhim bo'lgan. Oila va oilaviy munosabatlarni o'rganish asnosida jamoada o'z o'rniga ega bo'lib kelgan yoshi ulug'larning – bobo, buvi va ota-onalarning oiladagi mavqei ko'plab turkiy xalqlar qatori turmanlarda ham nihoyat darajada katta bo'lgan. Keksa avlod azaldan oiladagi farzandlarni tarbiyasi ma'sul bo'lib kelganlar va ular xonadondagi turli ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim o'rin tutganlar. Garchi turkman oilalarida asosiy qarorlar ota tomonidan qabul qilinib kelingan bo'lsada, lekin, oilaning boshqa a'zolaridan, ayniqsa, kekse yoshdagi bobo-buvilarning ham albatta fikrlari so'ralgan. Farzand mustaqil hayotga qadam qo'ygan bo'lsada, oiladagi muhim vazifalarni bajarishda, ya'ni, yangi imorat qurish, qachon va qaerga chorva mollari bilan ko'chish, chorva mollarini sotish, to'y va marosimlarni o'tkazish kabi masalalarda ota-onalari maslahati bilan ish tutgan. Oiladagi farzand alohida xo'jalik bo'lib, ko'chib chiqmaguncha, ayoli bilan otasining uyida iste'qomat qilib kelgan. O'g'ilning oilasi vaqt o'tishi bilan to'la iqtisodiy mustaqil bo'lganidan so'ng, otasining xonadonidan ro'zg'ori uchun kerak bo'ladigan oziq-ovqat va turli asbob-anjomlarni olishdan o'zini tiygan. Lekin, shunga qaramay, barcha muhim qarorlarni qabul qilishda, u otasi bilan maslahatlashib, uning roziligini olish orqali shu ishga qo'l urgan. Otaning o'g'illariga bo'lgan munosabatlarida nafaqat ota-o'g'il o'rtasidagi munosabat, balki o'g'ilning mehnati katta iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini ham ko'rsatish mumkin[2,97].

XX asrning boshlariga qadar turkmanlar katta patriarxal oila bo'lib, bitta umumiy ro'zg'or atrofida uyushgan holda yashab kelganlar. Aholi orasida "umumiy ro'zg'or", "ro'zg'or bir", "qozon bir" kabi atamalar keng qo'llanib kelingan bo'lib, bir urug'ning oila a'zolari umumiy o'choqda pishirilgan ovqatdan tanavul qilganlar. Hattoki, o'g'il oilali bo'lib, oila a'zolari bilan yangi qurilgan (ko'p hollarda otasi uyiga yaqin) uyga ko'chib o'tgan bo'lsada, ayoli va farzandlari bilan birga, doimo ota xonadonida yozilgan dasturxondan taom tanavul qilib kelish odat bo'lgan. Dasturxon atrofida umumiy oilaga tegishli muammolar muhokama qilinib, kelgusida qilinishi kerak bo'lgan ishlar rejalashtirilgandan so'ng, farzand oilasi bilan tunash uchun o'z uyiga qaytib borgan. Uylangan farzandlar ota-onasidan alohida mustaqil holda istiqomat qilib kelgan bo'lsalarda, kun davomida yoki oy davomida topib kelgan daromadlarining asosiy ulushini o'z ota-onalariga doimiy ravishda berib kelganlar. O'g'ilni yoki oila a'zolarining pulga ehtiyojlari sezilgan vaqtda, ularga ota-onalar tomonidan yordam berib turilgan[3]. Aslida turkmanlarda *öylenmek* (uylanmoq) so'zi "alohida uyga ega bo'lish", "alohida xonadonni boshqarish" degan ma'noni anglatib kelgan bo'lsada[8,12], uylangan yigit oilasini to'liq iqtisodiy ehtiyojlarini

ta'minlay ololmaganligi, kelin tug'ilgan farzandlarni voyaga yetkazishda qaynonasini yordamiga doimo ehtiyoj sezib kelganligi sababli, yigit oilasi bilan ko'p vaqtini ota uyida o'tkazgan.

Turkmanlar orasida mavjud bir rivoyatga ko'ra o'tmishda Zarafshon daryosi bo'yida yashagan xider eli turkmanlari 13 ta qozonga bo'lingan bo'lib, qozon atrofida qarindosh urug'lardan tashkil topgan katta patriarxal oila jam bo'lgan. Qozon a'zolari *kazanbir* deb aytilgan. Bu atama *gazanbir* shaklida o'troq va yarim o'troq turkman qabilalari orasida keng tarqalgan. Yozma manbalarda ta'kidlanishicha, dastlab qozonga 10 tadan 35 tagacha oila kirib, uni shu urug'ning yoshi katta kishisi boshqargan[9,5]. Darhaqiqat, keyingi davrlarda, ya'ni, XX asr o'rtalariga qadar turkmanlarning qozon yetakchilarining o'rni jamoa hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bo'lib, yer-mulk masalalari, suv taqsimoti, ariqlarni tozalashda mavsumiy hasharlar uyushtirish, oilaviy kelishmovchiliklarni hal qilish va shunga o'xshash boshqa muhim ishlarni ular o'z nazoratiga olganlar. Qishloqda yashab kelgan ayrim turkman xonadonlarida 30 nafardan 60 nafargacha oila a'zolari soni bo'lib[12,46], farzandlarni tarbiyasi bilan bog'liq ayrim masalarni hal qilishda oila yetakchilari o'zlariga tegishli urug' vakili ya'ni yaqin qarindoshlari bilan maslahatlashgan holda ish tutgan. Ayniqsa, oila sha'ni bilan bog'liq masalalarni hal qilishda urug' yetakchisi yoki qavm-qarindoshlardan tashqari insonlar bilan maslahatlashish noto'g'ri qaror deb bilganlar. Oila siri va u bilan bog'liq muommolarni begona insonlar tez fursatda boshqalarga tarqatadi, undan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishlar mumkin degan qo'rquv bo'lgan. Oila-jamoa bilan bog'liq munosabatlar qavm-qarindoshlar tomonidan hal qilinib kelingan bo'lib, unda asosiy rol ni urug'ning kekxa a'zolari o'ynagan.

Ilgari turkman urug'lari o'zida 10-15 qarindosh oilalarni birlashtirib, 3-5 avlod vakillaridan iborat bo'lgan va avlodlarining birini nomi bilan atalgan[2,75]. Urug' vakillari ichidagi ishonch har doim yuqori o'rinda bo'lib kelganligi bois turkmanlar qizlarini turmushga berish yoki o'g'illarini o'ylantirishlaridan oldin birinchi o'rinda urug'dagi kekxa avlod vakillari bilan maslahatlashgandan so'nggina qaror qabul qilganlar[4]. Bugungi kunda ham bunday odatlarga amal qilinib kelinayotgan bo'lib, turkman xonadonlarida uy-joylar yoki ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan inshootlar qurishda, xo'jalik uchun zarur bo'lgan yangi ariq yoki ko'priklar qurishda, balog'atga yetgan yigitni uylantirish va qizni turmushga uzatishda ota-onalar oila a'zolarini fikrlarini so'rash bilan birga, o'zlariga yaqin kekxa yoshli kishilarni maslahati bilan ish tutib kelmoqdalar.

XX asr o'rtalaridan boshlab turkman oilalarida iqtisodiy o'zgarishlar yuz berib, shu davrdan boshlab aksariyat oila a'zolar qishloq xo'jaligida mehnat qilishi, sanoat korxonalarida xizmatchi, jamiyatning turli soha-bo'g'inlarida faoliyat yuritib kelganliklari bois katta patriarxal oilalarning bo'linishiga sabab bo'lgan. Qolaversa, xonadon a'zolari ichida xususiy mulkka bo'lgan ehtiyojni kuchayib borganligi, sobiq sovet hukumatining zo'rlik bilan kollektivlashtirish siyosatining o'tkazishi natijasida katta patriarxal oilalar bo'linib ular o'rnida kichik oilalarning paydo bo'lishiga olib kelgan[7,91]. Bu bo'linish jarayoni qisqa fursat ichida amalga oshirilgan deb bo'lmaydi. Chunki, uzoq yillar davomida urug' vakilarning ro'zg'ori, turmush-hayoti, orzu-istaklari, tashvishlari bir bo'lganligi bois, katta patriarxal oilaga xos ayrim an'analar keyingi davrlarida ham saqlanib qolgan. Katta patriarxal oilalarning bo'linishi oldinroq yuz bergan bo'lsada, uning a'zolari o'rtasida hozirga qadar ayrim xo'jalik ishlarini birgalikda maslahatlashgan holda bajarish davom etib kelmoqda.

Hozirda turkmanlar atrofida aholi bilan oila-nikoh munosabatlariga qizg'in kirishganliklari natijasida turkmanlarning oilaviy qadriyatlarini bir qator o'zgarishlarga uchradi. Ayniqsa, turkmanlar orasida oila a'zolari va qavm-qarindoshlariga murojat qilish borasida ham o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, o'tgan asrning 70-80 yillariga qadar Buxorodagi turkmanlar onasini *ija*, akaga *og'a*, otasining ayol singlisiga ya'ni ammasiga *becha*, onasining singlisi, xolasiga *deza*, *doyi* deb tog'agasini chaqirgan bo'lsa, akasi kabi amakisiga *og'a*, kelinlar qayni ukasi *yugijiga*, qayni singliga esa *baldiz* deb murojaat qilganlar[5]. Bugungi kunda esa mahalliy aholi bilan yaqinlashuv, turkmanlar orasida qavm-qarindoshlarini bunday nom bilan chaqirilish hamma hududlarda ham saqlanib qolmagan. Lekin, turkmanlar uyushgan holda istiqomat qilib kelayotgan va salmog'i jihatdan birmuncha ko'p bo'lgan, Olot, Kogon, Buxoro

50 tumanidagi aholi hozirda ham tog‘asini *doyi*, amakisini *og‘a* onasiga *ija* deb atalishi uchraydi. Shuningdek, ushbu hududlardagi ayrim turkmanlar yoshi katta va o‘zlariga yaqin tutgan insonini ham *doyi* yoki *og‘a* deb murojaat qilishadi. Turkmanlar har doim mehmonni kutib olishda mehmonnovozlik bilan xush kelding *do‘g‘onim* (tug‘ishgan inim, ukam) deb so‘rashib, uyiga taklif qilishganlar[11,10]. Bugungi kunda ham ayrim turkman oilalarda mehmonni uyga chorlash vaqtida *do‘g‘on* tushunchasini qeng qo‘llab kelmoqdalar. Uyga kelgan mehmon oila a‘zolari uchun begona inson bo‘lsada, mehmonni o‘zlarini qondosh ukalaridek yaqin tutib, *do‘g‘onim* deb ularga iltifot ko‘rsatish odati bor.

Buxoroda istiqomat qilib kelayotgan o‘zbeklar va boshqa millat vakillari o‘zlari uchun begona bo‘lgan kishilarni birinchi marotaba ko‘rgan vaqtlarida, ularga nisbatan *sensiragan* holda murojaat qilishni hurmatsizlik deb bilganlar. Lekin, turkman oilalarida esa *sensirash* o‘zaro yaqinlikni, bir-birlariga nisbatan hurmatni, birodarlikni, qondoshlikning ramzi hisoblangan. Shuning uchun, bu odat o‘tgan asrning 50-yillarigacha saqlanib kelgan[6]. Hatto, XX asrning 20-30 yillarigacha turkmanlar oilalarida aka, opalariga qolaversa, ota va onalariga nisbatan ham *sensirab* murojat qilish holatlari ko‘p kuzatilgan. Ular uchun biror shaxsga *sen* deb murojat qilish yaqinlikni, *siz* deb murojat qilish esa begonalikni belgisi bo‘lib hisoblangan. Hozirgi davrda ham turkmanlarga tegishli bunday o‘ziga xos odatlar o‘z holicha bo‘lmasada, ayrim elementlari saqlanib kelayotganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Xususan, Olot, Qorako‘l tumanidagi turkman oilalarida tarbiya topgan aksariyat yoshlar, voyaga yetgunga qadar, aka va opalariga *siz* deb murojat qilishga odatlanib kelgan bo‘lsalar, ulg‘ayganlaridan so‘ng esa aka va opalariga hurmat ma‘nosida, ularni o‘zlariga yaqin inson ekanliklarini bildirish uchun, *sensirab* bir-birlari bilan muloqot qilishadi.

Xulosa. Faqat bunday murojaat qilish odati oiladagi aka va opaga nisbatan ko‘proq qo‘llanilib kelmoqda. Katta o‘g‘ilning o‘z onasiga *sensirab* gapirishi ayrim turkman oilalarda bugungi kunda ham saqlanib qolgan bo‘lib, bu odobsizlik deb hisoblanmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e‘tiqod va marosimlari. T.: “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxona”, 2007. –B. 270.
2. Ann Arbor. Museum of anthropoge, university of Michigan. № 58. The yomut Turkmen: A study of social organization among a sentral Azian turkis-speaking population. 1975. The universitu of Michigan. –P. 187.
3. Dala yozuvlari. Buxoro viloyat, Peshku tuman, Zaxkash qishlog‘i. 2021 yil
4. Dala yozuvlari. Buxoro viloyat, Peshku tuman, Zaxkash qishlog‘i. 2023 yil
5. Dala yozuvlari. Buxoro viloyat, Kogon tuman, Oqchamamat qishlog‘i. 2023 yil.
6. Dala yozuvlari. Buxoro viloyat, Olot tuman, Chovdur qishlog‘i. 2023 yil.
7. Iskandarov Sh. O‘zbekiston arablari etnomadaniy identikligining shakillanishi va transformatsiyasi. Tarix fan. dokt. ...diss. – Toshkent, 2019. –B. 188.
8. Muxammetberdiev K., Orazg‘ilyojov Ya. “Turkmenistanym tarixyndan materiallar”. Ashgabat-1997. –B. 198.
9. Malikov. A.M. Turkmeny rodov Xizr-eli i Chandir doliny Zerafshana: istoriya i obychai. <http://nblib.library.kz/elib/library.kz/journal/Malikov.....2...13.pdf> 2013. –S. 5.
10. Payzieva M. Toshkent shahri o‘zbeklari oilaviy marosimlarida jamoa an‘analarining o‘rni // O‘zbekiston tarixi. № 2. 2008. -B. 75.
11. Sadridin Ayniy. Qullar romani.-T.: “Badiy adabiyot”, 1964. –B. 472.
12. Tolstova S., Jdanko T., Abrazona S., Kislyakova N. Народы Средней Азии и Казахстана. Москва, Izdatelstvo akademii nauka SSSR, 1963. –S. 153.

BUXORO VOHASIDA ARXEOLGIK TADQIQOTLARNING BOSHLANISHI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asrda chet ellik sayyohlar, elchilar, olimlar tomonidan berilgan ilmiy dalillar va Buxoro vohasi madaniyatini o'rganishga doir ilk arxeologik tadqiqotlarning natijalari ilmiy, qiyosiy tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Buxoro vohasi, sayyohlik, arxeologik tadqiqot, numizmatik malumotlar, "Buxoro xonligi tavsifi", Poykent.

НАЧАЛО АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ В БУХАРСКОМ ОАЗИСЕ АННОТАЦИЯ

В статье представлен научный и сравнительный анализ научных свидетельств иностранных путешественников, послов и учёных XIX века, а также результатов первых археологических исследований культуры Бухарского оазиса.

Ключевые слова: Бухарский оазис, туризм, археологические исследования, нумизматические данные, «Описание Бухарского ханства», Пойкент.

THE BEGINNING OF ARCHAEOLOGICAL RESEARCH IN THE BUKHARA OASIS ANNOTATION

This article presents a scientific and comparative analysis of the scientific evidence provided by foreign travelers, ambassadors, and scholars in the 19th century and the results of the first archaeological studies on the culture of the Bukhara oasis.

Keywords: Bukhara oasis, tourism, archaeological research, numismatic data, "Description of the Bukhara Khanate", Poykent.

Kirish. O'zbekiston zaminining qaysi hududiga murojaat qilmaylik, ming - ming yillik yer qa'ridagi ilk hayot nishonalarini, eng qadimiy madaniyat va san'at namunalarini har qadamda topish va shu orqali bu yerlarda qanday buyuk sivilizatsiya mavjud bo'lganligini ko'rishimiz muqarrar. Mana shu mo'tabar yurtimizdagi yerosti xazinalaridan, asrlar davomida sukutga cho'mib yotgan shahristonlardan topilgan arxeologik ashyolar, noyob tasvirlar va hali ochilmagan, o'z sirlarini pinhon saqlab kelayotgan cho'lu biyobonlar, hech shubhasiz, bugun biz yashayotgan tuproqda qadim - qadim zamonlardan boshlab buyuk madaniyat va san'at rivojlanganligini tasdiqlaydi.

Yirik dehqonchilik makonlaridan biri bo'lgan, Buxoro vohasi o'z geografik joylashuviga ko'ra qadimdan sharq bilan janubi-g'arb mamlakatlarini bog'lovchi savdo-iqtisodiy va madaniy ko'priklar vazifasini bajarib kelgan. Shu jarayon tarixiy taraqqiyot davomida Buxoro vohasini o'ziga xos yuksak dehqonchilik madaniyati, rivojlangan hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlaridan biri bo'lishiga zamin yaratdi.

Yana shuni alohida taqidlash kerakki, Buxoroda nafaqat savdo-sotiq balki o'z davrida ilm-fan, ma'rifat va madaniyat markazlaridan biriga aylanib, diniy va dunyoviy ilmlar rivoj topgan.

Buxoro o'tmishi garchi tarixiy va tadrijiy voqealarga nihoyatda boy va qiziqarli bo'lsada, ammo uning zarvaraklarining ko'pgina saxifalari bizgacha to'lik saklanmagan. Ayniksa, vohaning uzok o'tmishi va shaharning vujudga kelishi haqidagi aniq malumotni yozma manbalardan bilib olishimiz imkonsiz. Shu sababli, Buxoroning qadimgi davrlardagi tarixini yoritishda arxeologik tadqiqotlar va kuzatishlar juda muxim jixat xisoblanadi.

Asosiy qism. Buxoro vohasida arxeologik tadqiqotlar boshlanishida Buxoro vohasi tarixi, moddiy madaniyati, arxeologik va etnologik, kartografik malumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu malumotlar asosan XIX asrda chet eldan tashrif buyurgan rus va boshqa millat elchilari, agentlari va sayyohlari tomonidan to'planib, ilmiy doiraga malum qilingan.

Buning yaqqol misoli 1820-1821-yillarda Rossiyadan Buxoroga kelgan A.Negri boshchiligidagi tashrif buyurgan ekspeditsiya tarkibidagi G.K.Meyendorfnin malumotlarini keltirib o'tishimiz mumkin. Ekspeditsiya tarkibida G.K. Meyendorfdan tashqari V.D. Volxovskiy, A.K.Timofeev, tabiatshunos X.Pander va sayyoh E.A.Eversmann ishtirok etgan [2]. Ekspeditsiya azolari tomonidan 50 verstli masshtabdagi xarita yaratildi hamda 5 astronomik nuqta belgilandi (shu jumladan Buxoro shahrining koordinatlari ham) [3]. Xarita fransuz tilida turkolog Amediy Jobert tahriri ostida "Orenburgdan Buxoroga sayohat" nomli asariga ilova bilan 1826-yili Parijda K.Meyendorf tomonidan nashr etilgan [4].

G.K.Meyendorfnin kitobi Buxoro xonligi va unga tutash hududlarlarining geografiyasi, aholisi, ho'jaligi va davlat boshqaruvi haqida batafsil ma'lumot bera olganligi sababli, tezda K.Xrem va V.Sheyder tahriri asosida nemis tiliga tarjima qilinib nashr etildi [2]. Asarning fransuz tilidagi nashri paydo bo'lishi bilanoq, uning Buxoro xonligiga bag'ishlangan «Statisticheskiy vzglyad na Buxariyu» [3]. va "Nravstvennoe sostoyanie Buxarii" [2]. qismlari rus tiliga tarjima qilinadi.

XIX asrning 40-yillariga kelib O'rta Osiyo hududlarini o'rganish ancha faollashdi va Buxoro hududi haqidagi ilmiy malumotlar keng ommaga berila boshlandi. Buning yorqin dalili 1841-yilda Rossiyadan Buxoroga yuborilgan diplomatik missiyaning tarkibidagi N.Xanikovning "Buxoro xonligi tavsifi" [7] nomli asari edi. Bu asar Buxoro tarixi, etnografiyasiga taaluqli qimmatbaho, ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni beradi. Asar 1843-yilda Peterburgda nashr etilib, asosan o'zining Buxoroda olib borgan shaxsiy kuzatishlari natijasida vujudga kelgan ma'lumotlari, Buxoroda bo'lgan boshqa sayohatchilarning Buxoro to'g'risida yozib qoldirgan xotiranomalari asosida yozilgan. Asar 8 bobdan iborat bo'lib, uning oxirida Buxoro xonligining xaritasi, Buxoro va Samarqand shaharlarining plani berilgan. Adabiyotlarda ko'rsatilishiga qaraganda, bu xarita va planlar 1841-yilda rus diplomatik missiyasining sostavida qatnashgan topograf Yakovlev tomonidan to'plangan materiallar asosida tuzilgan [8].

I.Mushketov N.Xanikovning asariga yuqori baho berib: "N.Xanikov juda ham mufassal va hozirgi vaqtgacha hurmatga sazovar bo'lgan "Buxoro xonligi tavsifi" kitobini yozib, unda Buxoro va uning topografiyasi, tabiiy boyliklari, iqlimi, shular bilan birga, yer qimirlashlari, uning aholisi ham ularning mashg'ulotlari va boshhalar to'g'risida o'sha vaqtlardagi barcha eng yangi ma'lumotlarni tasvirlab beradi»- deb takidlaydi [8].

Inglizlarga har doim O'rta Osiyoning siyosiy ahvoli, geografik mavqei, aholisi, armiyasi haqida aniq ma'lumotlar havo va suvdek zarur edi. Ular bu maqsad yo'lida O'rta Osiyoga bir nechta agent va sayyohlar yuborgan. Shular orasida Armin Vamberining O'rta Osiyoga qilgan ekspeditsiyalari inglizlarga Buxoro haqida bir qancha qimmatli malumotlarni bera oldi. A.Vamberi 1864-yil Londonda nashr etilgan "O'rta Osiyo bo'ylab sayohat" kitobidagi Buxoroga doir malumotlar Yevropaliklar uchun juda muhim hisoblanar edi. Kitob bir paytning o'zida darhol rus tiliga tarjima qilinib, 1865-yili Sanktpeterburgda bosilib chiqadi.

"O'rta Osiyo bo'ylab sayohat" kitobi ikki qismdan iborat. Birinchi qismda uning O'rta Osiyoga qilgan sayohati xotiralari o'rin olgan. Buxoroga doir ilmiy malumotlar asarning ikkinchi qismda keltirib o'tilgan.

Vamberining Buxoro tarixi uchun ilmiy jihatdan katta ahamiyatga molik asarlari 1873-yili nashr etilgan "Buxoro yoxud Transaksoniya tarixi" kitobidir. Muallif Movarounnahr (ikki daryo oraliq'i)ni Transaksoniya atamasi bilan beradi. Bu kitobida Buxoroning eng qadimgi davrlaridan to XIX asr ikkinchi yarmigacha bo'lgan tarixini O'rta Osiyodan olib ketgan qo'lyozmalari asosida bayon qiladi.

A.Vamberining asarlari Buxoro tarixi, siyosiy ahvoli, geografik o'rni va o'sha davrdagi memorchilik obidalarini tahliliga va Buxorodagi ijtimoiy-madaniy hayotiga doir qimmatli malumotlarni beradi.

Buxoro vohasida arxeologik tadqiqotlar boshlanguniga qadar XIX asrda chet ellik olimlar tomonidan berilgan numizmatik ilmiy malumotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Aynan akademik Keller ishlarida Buxoro tangalari tahliliga doir malumotlarni uchratishimiz mumkin. Kellerning 1822-yilda "Sibirskiy vestnik" to'plamida "Buxorodan keltirilgan qadimgi medallar" nomli maqolasida Buxoro bozorlaridan olingan Yunon-Baqtriya podshohlarining tasviri tushurilgan tangalar sharhlab o'tiladi [10]. Katta ehtimol bilan bu tangalar o'sha davrda Buxorodagi kolleksionerlar tomonidan yig'ilgan va sotuvga chiqarilgan.

Buxoro tangalari tasvirlanganida arab afsonalari va rivoyatlari bilan qo'shib tasvirlanganligini ko'plab rus va chet el olimlari ishlarida ko'rishimiz mumkin. V.Tizengauzenning "Sharqiy xalifalik tangalari" asarida aynan shunday malumotlar uchraydi [11]. U o'z asarini yoritishda Buxorxudotlarning tangalarini arab xalifaligining tangalari deb sharhlab xato qiladi. Balki, asarni yozishda Ermitajdagi numizmatika bo'limida Fren tomonidan guruhlashtirilgan tangalar haqidagi malumotlardan ham foydalangan bo'lishi mumkin. Chunki u tangalarni "Afrosiyob urug'idan bo'lgan turk hoqonlari tangalari" deb guruhlashtiradi. Turk hoqonlarining hech qachon Afrosiyob urug'idan emasligi ularga malum bo'lmagan [12].

P.I.Lerxning ishlarida [13] Buxoro tangalari haqida ilmiy malumot va tahlillarni ilmiy mulohazalarga boyliq bilan ajralib turdi.

Buxoro vohasini ilmiy o'rganish maqsadida XIX asr oxirlarida bir qancha o'lkashunos va sharqshunoslar bu yerga tashrif buyurishdi. Bular orasida akademik V.V.Bartoldni ilmiy ishlari Buxoro tarixini o'rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk tarixchi, sharqshunos olim akademik V.V.Bartold 1893-yil O'rta Osiyoga birinchi bor ilmiy tashrif buyurdi. V.V.Bartoldning oldidagi vazifa: Turkistonning o'tmishdagi tarixini yozma manbalar asosida tekshirish, ma'lumotlar yig'ish, imkon qadar shaharlar, markaz, qal'alarning ro'yxatini tuzish kabilarni o'z ichiga olgan [14]. Demak, V. V. Bartoldning tashrifi birinchi navbatda arxeologik xususiyatga ega bo'lgan. Bartold bu kabi vazifalar bilan cheklanib qolmasdan, turli xil qo'lyozmalarni yig'ish ishlarini ham olib borgan [14]. N.I. Veselovskiyning so'zlariga qaraganda, V. V. Bartold sharqdagi ko'chmanchi xalqlarning O'rta Osiyoga kirib kelishi, ularning mahalliy aholi bilan aralashib ketishiga ham alohida e'tibor qaratgan [15].

V.V.Bartold tashabbusi bilan 1895-yilda Toshkentda tashkil etilgan Turkiston Arxeologiyasi havaskorlari to'garagi o'lka qadimshunosligini o'rganishga muayyan hissa qo'shgan ilmiy-jamoatchilik tashkiloti sifatida tarixda qolgan. Amalda 1917-yilgacha faoliyat ko'rsatgan to'garakning asosiy vazifasi Turkiston o'lkasidagi qadimiy yodgorliklar, sharq qo'lyozmalari, tarix, adabiyot, tabobatga oid nodir kitoblar, numizmatika va etnografiyaga oid topilma va kolleksiyalarni qayd qilish, hisobga olish va o'rganishdan iborat edi¹. Buxoro vohasida ham arxeologik tadqiqotlarning boshlanishi aynan shu to'garak faoliyati bilan bog'liqdir.

Buxoro vohasida ilk arxeologik izlanishlar XIX asrning oxirlarida, aniqroq qilib aytganda 1896-yilda xarbiy topograf N.F.Sitnyakovskiy Buxoroga kelib, bir qator arxeologik yodgorliklarni suratga olish va ularni ta'riflash ishlarini bajarishi bilan boshlanadi. Tadqiqot vohaning asosan g'arbiy va sharqiy qismlarida olib boriladi. Sitnyakovskiy bu tadqiqotlari uni Buxoro vohasida bevosita arxeologik kuzatuvlar olib borgan birinchi tadqiqotchiga aylantirdi. U joylarni xaritalash jarayonida butun voha bo'ylab uchraydigan obidalarga xam qiziqqan. Vohadagi qishloqlar, ariqlar, tepaliklar tarixiy arxitektura yodgorliklari - masjid, madrasa, xonakoh, namozgoh, sardobalarning xaritagatga tushirib borgan. Kampirak devori xaritagatga to'g'ri kiritilgan. Buxoro vohasini ilk o'rta asrlarda o'rab turgan, uni atrofdagi ko'chmanchilardan himoya qilgan devorni birinchi marta topografik kartalarga tushirgan. Sitnyakovskiy ko'rgan va tekshirishlar olib borgan vaqtda devor

¹Ширинов Т.Ш., Бердимуродов А.Э., Пардаев М.Х. Ўзбекистонда археология фанининг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан. O'zbekiston arxeologiyasi. 2010. № 1. 2010. 4-16 бетлар.

54 albatta dastlabki ko‘rinishda emasdi. Ayrim joylarda 80 sm dan 1 m va 1,20 sm cha bo‘lgan uzun tepalik holida edi. Buni xaritaga to‘g‘ri belgilash olimdan katta bilim va mahorat talab qilardi.²

Mazkur majlisda N.F.Sitnyakovskiy Zarafshon daryosining o‘ng va chap sohillarida joylashgan Kampir devor qoldiqlari, Shahri vayron, Abu Muslim, Ganchxona, Xazora kabi tepalar, Jumabozor hududi yaqinidagi ikki aholi manzilgohi, Ziyovuddin qal‘asi va Poykent xarobalari, Uzulishkent, Kumushkent, Zandana, Romitan kabi joylarning umumiy joylashuvi va holati xususida atroflicha ma‘lumot bergan.

Bular orasida Poykent arxeologik yodgorligida olib borgan ishlari alohida ajralib turadi. Poykent hududida tadqiqotlar o‘tash jarayonida N.F.Sitnyakovskiy dastlab 6 ta kumush tanga topadi. Bu tangalar o‘rganilganida Mansur ibn Nuh (961-976) va Nuh ibn Mansur (976-997) davrlarida zarb qilinganligini aniqlangan. N.F.Sitnyakovskiy o‘z tadqiqotlari haqida 1896-yil 11 dekabrda Turkiston arxeologiya havaskorlar to‘garagi a‘zolariga bayon qiladi va shu yilning o‘zida o‘z “Hisobot”ini elon qiladi.

XX asrning boshlarida ham Buxoro vohasida arxeologik qazishmalar amalga oshirilgan. Xususan, 1903-yilda Paykend yodgorligining xarobalariga Kornedji institutining geologi R.Pampelli boshchiligidagi amerikalik ekspeditsiyasi o‘rgangan. Pompeli Paykenddagi tadqiqotlari natijasida N.F.Sitnyakovskiyning fikrlarini tasdiqlaydi, shahar devorining qoldiqlarini va topilgan sopol quvurlarning ishlatilish maqsadi xususida o‘zining dastlabki farazlarini bildiradi.

Buxoro vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarni ilk bosqichida Turkiston arxeologik havaskorlar to‘garagi kotibi lavozimida faoliyat yuritgan L.A.Zimin ham arxeologik tadqiqot ishlarini amalga oshirilgan. L.A.Zimin asosan Poykent hududlarida ko‘plab yillar mobaynida (1912-1916 yillar oralig‘ida) o‘z tadqiqotlarini amalga oshirgan. U Poykentga birinchi marta kelganida hudud yaxshi saqlanganligini alohida ta’kidlagan va bu yerda tadqiqot o‘tash mobaynida A.K. Markov, N.F. Sitnyakovskiy, A.A.Semyonov, A.P. Rostkovskiy va V.V.Bartoldlar bilan o‘zaro maslahatlashgan va ularning ilmiy xulosalarini qabul qilgan. Aynan shu maslahatlar va o‘zining arxeologiya sohasidagi bilimlari Ziminning Poykentdagi ulkan yutuqlarga erishishiga sabab bo‘lgan.

L.A.Zimin Buxoro vohasining o‘rta asrlar davri arxeologik talqinidan tashqari, Turkiston mintaqasining ijtimoiy-siyosiy tarixi, qadimgi qo‘rg‘on va arxeologik yodgorliklar xususida ko‘plab ilmiy malumotlarni beradi.

Xulosa. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Buxoro vohasida olib borilgan arxeologik izlanishlar esa O‘zbekiston tarixshunosligi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘rta Osiyo aholisining, jumladan o‘zbek xalqining qadimiy moddiy madaniyat yodgorliklari o‘rganilishiga dastlabki qadamlar qo‘yildi. Bu davrda o‘tkazilayotgan arxeologik qazuv tadqiqotlarining ilmiy natijalarini o‘lka qadim tarixini o‘rganishga, uni to‘ldirishga yo‘naltirish maxsus muammo sifatida qo‘yilmagan. Zero, tadqiqotchilar arxeologik qazuv ishlarida tarixiy yozma manbalar ma‘lumotlaridan keng foydalangan bo‘lsalarda, bunga katta ahamiyat berishmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Meyndorf G.K. Voyage d Orenburg a Bouhara fait en 1820. - Paris., 1826. P.508.; Мухаммаджонов А.Р., Нематов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатига доир баъзи манбалар. Тошкент.1957. Б.18.
2. Саидбобоев З.А. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар (XVI-XIX асрлар). тар.ф.н.дисс.Тошкент,2004. Б.106.
3. Meyndorf G. K. Voyage d Orenburg a Bouhara fait en 1820. - Paris., 1826.
4. Meyndorf G. Relse von Orenburg nach Bouchara im Jahre 1820[Baron G.de Meyendorff]. Nach dem franz, original bearbeitet von. C.Herm, V.Schelder. Jena.1826.

² ПТКЛА.год III, Ташкент. 1897-1898. стр 89-94. См.также отзки о работах Н.Ф.Ситняковского (там же, стр.135). К цитировавшейся уже нами работе Н.Ф.Ситняковского «Заметки о бухарской части долины Зеравшана» приложен ценный список арыков и насиленных пунктов. Шишкин В.А. Варахша. М.1963.стр 14.

5. Мейендорф Г.К. Статистический взгляд на Бухарию. (Из книжки «Путешествие в Бухарию полковника барона Мейендорфа» С французского А. Каменский. «Северный архив», 1826, 23-кисм, 161—182-бетлар. Асарнинг 253-261 бетларидан ташқари еттинчи бобининг ҳаммаси таржима қилинган.
6. Мейендорф Г.К. Нравственное состояние Бухарии. Из книги «Путешествие в Бухарию», Перев. А. Каменский. «Северный архив», 1826, 24-кисм.72-85 бетлар. 25-кисм, 178—194-бетлар. Асарнинг бу боби тўла таржима қилинган.
7. Хаников Н. Описание Бухарского ханства. СПб., 1843.
8. Залесов Н. Очерк дипломатических сношений России с Бухарою с 1836 г. по 1842 г. «Военный сборник», СПб, 1862, № IX, С.45.
9. Мушкетов И. Туркестан, том I, СПб., 1886. С. 98-99.
10. Келлер. О древней медали, вывезенной из Бухари. Сибирский вестник. Ч.1. СПб. 1824. С.9-18.
11. Тизингаузен В. Монеты восточного халифата. СПб., 1873. Стр.372.
12. «Novae symbolae ad rem numariam Muhammedanorum ex Muscis Pflugiana atque Mantufeliano Pctropoli nee non Necdloviano Casani. Edidit Doct. C. M. Fraehn», Pctropoli et Halis Saxonium, 1819, p. 45—46.; Шишкин В.А. Варахша. М., 1963. С.13.
13. Лерх П.И. Монеты Бухар-худатов. Санкт-Петербург, 1909.-Стр.162.
14. Лунин Б.В. Жизнь и деятельность академика В .В. Бартольда. Средняя Азия в отечественном востоковедении. Изд. «Фан». Т. 1981.

TURKISTON O'LKASIDA OVCHILIKNING TARIXIY ILDIZLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkiston o'lkasida ovchilikning tarixiy ildizlari birlamchi manba va tadqiqotlardagi ma'lumotlar asosida ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etilgan. Jumladan, mintaqada ovchilikning poleolit davridan toki xonliklar davrigacha bo'lgan shakllanishi tarixi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Fauna, ovchilik, ovchi va baliqchilar jamoalari, ov qurollari, yovvoyi hayvonlar, samoviy otlar, hayvonlarni asrab-avaylash, ov jarayoni.

ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ ОХОТЫ В ТУРКЕСТАН

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения исследуются исторические корни охоты в Туркестанском крае, основанные на информации из первоисточников и научных исследований. В частности, освещается история становления охоты в регионе от палеолита до периода ханства.

Ключевые слова: Животный мир, охота, сообщества охотников и рыболовов, охотничье оружие, дикие животные, небесные кони, охрана животных, процесс охоты.

HISTORICAL ROOTS OF HUNTING IN THE COUNTRY OF TURKESTAN

Abstract. In this article, the historical roots of hunting in the Turkestan region are researched from a scientific point of view based on information from primary sources and researches. In particular, the history of the formation of hunting in the region from the Paleolithic period to the Khanate period is covered.

Key words: Fauna, hunting, hunting and fishing communities, hunting weapons, wild animals, celestial horses, animal conservation, hunting process.

Kirish. Qadimdan insonlar tabiatdagi mavjud o'simliklarni terib-termachlab, hayvonlarni ovlash orqali kun kechirishgan. O'rta poleolit davrining oxirlaridan boshlab O'rta Osiyo hududlarida iqlim o'zgarishlari sodir bo'lgan. Mintaqaga shimoldan kuchli sovuq oqim (muzlik) kirib kelib, bu hududdagi aholiga, flora va faunaga ham jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Aholi ochiq maydonlardan g'orlarga qo'nim topishga majbur bo'lgan. Issiq iqlimga moslashgan ko'plab mayda hayvonlar nobud bo'lib, ularning o'rnini sovuq iqlimga chidamli bo'lgan shimol bug'ulari, mamontlar, yirtqich ayiqlar egallagan[1]. Turkiston mintaqasidagi odamlar yirtqich hayvonlarga nisbatan jamoa bo'lib ov qilish uslublarini topganlar.

Asosiy qism. Mezolit davrida muzliklar yana shimolga qarab chekinib, hozirgi tabiiy sharoitga o'ta boshlagan. Mezolit davriga kelib, hayvonlarning yangi turlari shakllana boshlagan. Yirik hayvonlar o'rniga tezchopar mayda hayvonlar, xususan, arhar, tog' echkisi, bug'u, jayron, quyon, yo'lbars, qoplon[2] kabi turlar paydo bo'lgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mezolit davrida ovchilik qilish uchun juda muhim bo'lgan o'q-yoy ixtiro qilinadi. Ovchilikning rivojlanishi, ov qurollarining takomillashib borishi natijasida urug' jamoasining ehtiyojidan ortiq ovlangan hayvonlar qo'lga o'rgatila boshlangan. Taniqli arxeolog olim, akademik A.Sagdullaev o'z tadqiqotida hayvonlarni xonakilashtirish va chorvachilikning shakllanishi jarayonlarini ovchilik va ov qurollarining takomillashuvi bilan bog'laydi[3].

Tarixchi olim A.Ochilov o'z tadqiqotida Turkiston o'lkasi, xususan, Buxoro vohasida aholining tog' va suv havzalari atrofidan turar joylar, manzilgohlar barpo etganligining asosiy

sababi sifatida "... bunday joylar tabiat hayvonot dunyosiga boy bo'lib, ov qilish uchun juda qulay bo'lganligi"[4] ni keltirib o'tadi. Muallif Buxoro vohasining sharqiy qismlari faunasi boyligi uchun ham tosh davridan boshlab bu hududlar ovchilarning e'tiborida bo'lganligini ta'kidlaydi.

Arxeologik ekspeditsiyalar davomida birgina Darbozaqir-1 makonidan topilgan maydoni 81 metr kvadrat bo'lgan chayla hududidan arxeologlar tosh qurollari, xususan, chaqmoq toshlardan yasalgan tosh qirg'ichlar, randa, pichoq plastinkalari, bigiz, igna, tosh bolta va boshqa mehnat hamda ov qurollarini[5] topishgan. Arxeolog olimlar bu qurollar orqali qadimgi davr odamlarlari, ayniqsa, ovchilari hayvonlarni terisini shilishda ham keng foydalanganliklari haqida ilmiy xulosalar berishgan.

Markaziy Osiyo tarixi tarixshunosligi bilan shug'ullangan tadqiqotchilarning ishlarida miloddan avvalgi VII-III ming yillikda, ya'ni, neolit davrida Kalta Minor madaniyati keng tarqalgan Balxan, Mang'ishloq yarimorolida, Oqchadaryo deltasi, Qizilqum, Yuqori Uzboy, Mohondaryo hududlarida yashaganlar asosan hayvonlarni ovlash va baliqchilik[6] bilan shug'ullanishganligi qayd etilgan. Qolaversa, arxeologlar tomonidan Qadimgi Xorazmda "Jonboz-4" deb nomlangan ovchilar va baliqchilar boshpanasini topilishi[7] bu hududlarda ham ovchilik ho'jaligi, xususan, hayvonlarni va baliqlarni ovlash muhim o'rinni egallaganligini ko'rsatadi.

Janubiy Orolbuyidagi O'zboy o'zani atrofi arxeolog olimlar tomonidan o'rganilganda, mazkur hududdan Kaltaminor madaniyatiga xos bo'lgan ovchilik qurollari, xususan, tosh nayza, chaqmoqtosh o'q uchlari va boshqa xo'jalik qurollari[8] topilgan. Janubiy Orolbo'yi dashtliklarida jayron, qulon, sayg'oq kabi hayvonlar ko'p bo'lganligi bois, qadimdan bu hududlar ham ovchilar jamoalarining[9] diqqat markazida bo'lgan.

Tadqiqotchi S.Kudaybergenov tadqiqotida O'zboy o'zanida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Devqal'a, O'rtaquyu, Talayxonota va Oqyayla kabi o'rta asrlarga oid karvonsaroylarning qoldiqlari[10] o'rganilganda, mazkur hududlar neolit davridayoq ovchilar va baliqchilar jamoalari tomonidan o'zlashtirilganligi[11] ma'lum bo'lgan.

Keyinchalik neolit va eneolit davri madaniyatlariga e'tibor qaratilsa, ovchilik insonlar hayotida saqlanib qolgan bo'lsa-da, dehqonchilik va chorvachilik kabi xo'jalik turiga nisbatan katta ahamiyatga ega bo'lmay qolgan. Bu davrga kelib ovchilik urug' jamoalarining qo'shimcha mashg'ulotiga aylangan. Sopollitepa manzilgohidagi arxeologik tadqiqotlar davomida hududda dehqonchilik xo'jaligi ustuvorlik kasb etsa-da, manzilgohdan 16 mingtacha hayvon suyaklari, xususan, qo'y, echki, cho'chqa, tuya, sigir, it, mushuk, bug'u, jayron, qulon, yovvoyi cho'chqa, quyon, o'rdak, kaptar[12] va boshqa bir qator hayvon va qushlarning suyaklari qoldiqlari topib o'rganilgan. Bu topilmalar bu davrda insonlar tomonidan uy jonivorlari xonakilashtirilganligini, chorva mollari saqlanganligini, ov hayvonlari ham ovlanganligini tasdiqlaydi. Xattoki, bu davrda xonakilashtirilgan itlar ovchilarga xizmat qilganligi[13] haqida ma'lumotlar uchraydi.

Qadimgi Farg'ona hududidagi Axsikent harobalarini o'rgangan arxeolog olimlar Aravon qoya toshlarida uchqur samoviy tulpor otlari rasmi tushirgan suratni, yirtqich hayvonlar va xonaki qush tasvirlari tushirilgan sopol idishlarni[14] topib o'rganishgan. Bu topilgan arxeologik ashyolardan kelib chiqib, Qadimgi Farg'onada ovchilik jarayonlarida ot inson tomonidan xonakilashtirilganligini ham ko'rish mumkin. Ovchilik orqali ijtimoiy-iqtisodiy hamda harbiy sohalar uchun muhim hisoblangan noyob samoviy otlar xo'jalik hayotida keng foydalanila boshlangan. Hattoki, manbalarda Qadimgi Farg'onadagi bu otlarning bir juftiga Xitoy imperatori Sinszyan viloyatini berishga rozi bo'lganligi[15] qayd etilgan.

Muqaddas Islom dinida ham hayvonot olami, ularni asrab-avaylash va ovlash masalasida alohida hukmlar keltirilgan. Jumladan, Qur'oni Karimning "Moida" surasining 96-oyatida "Sizlarning manfaatingiz uchun va musofirlaringiz uchun ham sizlarga dengizdan ov qilmoqlik va undagi taomlarni iste'mol qilmoqlik halol qilinadi. Sizlarga qachonki, ehromda bo'lgan vaqtlaringizda quruqlikda ov qilish harom qilindi"[16] deyiladi. Shuningdek, islom dinida ov qilish jarayonida insonlar me'yorga e'tibor qaratishlari hamda hayvonlarni belgilangan qoidalarga rioya etgan holda ovlashlari[17] lozimligi belgilangan.

Amir Temur davrida ham ovchilik muhim sanalgan. Shu maqsadda Amir Temur Samarqand va unga chegaradosh hududlardagi tabiiy daraxtzor va chakalakzorlarda bir qancha yangi bog'lar barpo etib, hukmdorning o'zi, shahzodalar, sarkarda va lashkarlar ishtirokida muntazam tarzda ov mashg'ulotlari[18] tashkil etgan.

Qo'shinni oziq-ovqat bilan ta'minlashda Amir Temur yurishlari davomida ham qator ov jarayonlarini uyutirib turgan. Zarafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida Amir Temur Gurjistonga yurishidan so'ng, Tiflis hududida ov tashkil etganligi va ov jarayoni[19] bayoni keltirilgan.

O'rta asrlarda Turkiston o'lkasidagi hayvonot olami, ov jarayonlari haqida qimmatli ma'lumotlar aks ettirilgan manbalardan biri "Boburnoma" asari bo'lib, unda Zahiriddin Muhammad Bobur mintaqa faunasi borasida ham keng to'xtalib o'tgan. Xususan, Farg'ona viloyatidagi ov qushlarini tasniflab, "Ov qushlari ham ko'p bo'ladi. Qirg'ovuli behad semiz bo'ladi. Shunday rivoyatlar qiladilarki, bir qirg'ovul go'shtini turt kishi yeb tugataolmagan"[20] deb qayd etgan.

O'rta asrlar davrida Turkiston tarixini o'rgangan tarixchi olim A.Zamonov tadqiqotlarida[21] ov jarayonlari bilan bog'liq masalalar ham tadqiq etilgan. Xususan, olimning tadqiqotida aynan Shayboniylar sulolasi davrida Buxoro xonligida ov jarayonlari bog'liq qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, muallif 1582 yili Abdullaxon Toshkent hukmdori Bobo sultonni ta'qib qilib yurganda, qo'shin orasida oziq-ovqat yetishmovchiligi yuzaga kelganligini, bunday sharoitda qo'shin ov o'ljalari va o't-o'lanlar bilan oziqlanishiga majbur bo'lganligini, "Yaso" qonunlariga ko'ra, may oyidan toki oktyabr oyigacha qush va hayvonlarni ovlash taqiqlanganligini[22] ta'kidlaydi.

Qo'qon xoni Amir Umarxon (1812-1822 yy.) davrida xonlikning ov qilishi uchun mo'ljallangan kattaligi 2 ming gektar bo'lgan flora va faunaga boy alohida maydoni bo'lib, u Yor masjid hududida joylashgan. Barcha xonlar shu maydonda ov jarayonlarini o'tkazishgan. Bundan ko'rish mumkinki, xonlikda ov qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Xattoki, XIX asrda Qo'qon xonligida ov bilan bog'liq mansab ham joriy etilgan. Xususan, xonlikda oliy darajali qushbegi (mirishkor) mansabi bo'lib, u xonning ovni uyushtirishga mas'ul bo'lgan. Qushbегining ov qilishda ovchi itlari, lochinlari ham bo'lib, bu ov jarayonini ancha yengillashtirgan. Shuningdek, qushbegi ov vaqtida xonning dam olish jarayonlarini ham tashkil etishga[23] javobgar hisoblangan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Turkiston o'lkasida kishilik jamiyatning ilk davrlaridanoq ovchilik shakllangan bo'lib, u aholining oziq-ovqat ta'minotini ta'minlashdagi asosiy xo'jalik turi darajasiga ko'tarilgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон тарихи. Муаллифлар гуруҳи. – Тошкент: "Akademiya", 2010. – Б.8.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mezolit>
3. Сағдуллаев А.С. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. – Тошкент: Университет, 2004. – Б. 15.
4. Очилов А.Т. Бухоро воҳаси тош даври жамоаларининг моддий маданияти: тарихий реконструкция масалалари // Марказий Осиё тарихи ва маданияти халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2023. – Б.93.
5. Асқаров А. Бухоронинг ибтидоий давр тарихидан лавҳалар. – Тошкент: "Фан", 1973. – Б.12.; Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро (Археологик лавҳалар ва тарих. – Тошкент: "Фан", 1991. – Б. 16.
6. Камолиддин Ш.С. Марказий Осиё тарихи тарихшунослигидаги ёндашувлар. – Тошкент: "Fan ziyosi" нашриёти, 2023. – Б. 73-74.
7. Аҳмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. – Тошкент: "Ўзбекистон", 1995. – Б. 7.
8. Итина М.А. Памятники первобытной культуры Узбоя // Т. II. – М., 1955. – С. 66-68.

9. Кудайбергенов С. Жанубий Оролбўйи илк алоқа йўлларининг шаклланиши тарихидан // Марказий Осиё тарихи ва маданияти халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2023. – Б.193.
10. Низовья Амударьи, Сарикамыш, Узбой. История формирования и заселения // Вып. 3. – М., 1960. – С. 326.
11. Кудайбергенов С. Жанубий Оролбўйи илк алоқа йўлларининг шаклланиши тарихидан // Марказий Осиё тарихи ва маданияти халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2023. – Б.192-194.
12. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. – Тошкент: Университет, 2004. – Б. 30.
13. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. – Тошкент: Университет, 2004. – Б. 16.
14. Анорбоев А., Исломов У, Матбобоев Б. Ўзбекистон тарихида Қадимги Фарғона. – Тошкент: “Фан”, 2001. – Б. 9, 22.; Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро (Археологик лавҳалар ва тарих. – Тошкент: “Фан”, 1991. – Б. 20-21.
15. Анорбоев А., Исломов У., Матбобоев Б. Ўзбекистон тарихида Қадимги Фарғона. – Тошкент: “Фан”, 2001. – Б. 9.

Rahimboyeva Marjona Jamil qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti

OILA TARBIYASI TARBIYANING ASOSIY YO'NALISHI SIFATIDA: AHMAD DONISH QARASHLARI MISOLIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ahmad Donish qarashlari misolida oila tarbiyasi tarbiyaning asosiy yo'nalishi sifatidagi ahamiyati ilmiy – nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Farzandlar, ta'lim-tarbiya berish, hunar, faoliyat, mazmun, mohiyat, tushuntirish, ota-onalar, huquqlar, chegaralar, pedagogik tafakkur, hayot, tarbiya va hokazo.

СЕМЕЙНОЕ ВОСПИТАНИЕ КАК ОСНОВНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ ВОСПИТАНИЯ; НА ПРИМЕРЕ ВЗГЛЯДОВ АХМАДА МУДРЕЦА

Аннотация: В данной статье проведен научно – теоретический анализ значения семейного воспитания как основного направления воспитания на примере взглядов Ахмеда мудреца.

Ключевые слова: дети, образование, профессия, деятельность, содержание, сущность, объяснение, родители, права, границы, педагогическое мышление, жизнь, воспитание и т. д.

FAMILY EDUCATION AS THE MAIN DIRECTION OF EDUCATION; ON THE EXAMPLE OF THE VIEWS OF AHMAD THE WISE

Abstract: This article presents a scientific and theoretical analysis of the importance of family education as the main direction of education based on the example of the views of Ahmed the Wise.

Keywords: children, education, profession, activity, content, essence, explanation, parents, rights, boundaries, pedagogical thinking, life, upbringing, etc.

KIRISH: Ahmad Donish pedagogik tafakkurida tarbiya va oilani tashkil etish muhim yo'nalish hisoblanadi. Uning pedagogik tafakkurining bu yo'nalishi "Nodir hodisalar" ("Navodir-ul-vaqoye") nomli ajoyib ilmiy-adabiy asarida mohiyatan o'z ifodasini topgan. Mutafakkir kitobning "Farzandlarga ta'lim-tarbiya berish, hunar va faoliyat mazmun-mohiyatini tushuntirish", "Ota-onalar va ularning huquqlari chegaralari to'g'risida" kabi boblarida ko'proq oila tarbiyasiga doir o'z qarashlarini bayon etgan. Uning fikricha, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashda oila katta rol o'ynaydi.

Muallif ushbu ajoyib asarida turli mavzularni yoritgan bo'lsa-da, bu mavzularning barchasi yozuvchining inson mohiyati, uning hayoti va o'limi, shaxsning shaxsiy va ijtimoiy faoliyati va tarbiyasi haqidagi mulohazalaridir.

Ahmad Donish oilaning farzand tarbiyasida tutgan o'rni beqiyos ekanini ta'kidlab, jamiyatning bu bo'linmasini yaratish usulini muhim nuqta, deb hisoblaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI: Nikohning qadr-qimmati haqida fikr yuritar ekan, shunday yozadi: "Nikohning qadr-qimmati undan olinadigan ne'matlar orqali namoyon bo'ladi, ulardan biri farzand tug'ilishi, uning mavjudligidir:

Nikohdan birinchi maqsad farzandlar dunyoga keltirish va naslni davom ettirishdir... Nikohning yana bir sababi o'sha rahnamo (Muhammad) sollallohu alayhi vasallamning nafsiga ergashish, toki ko'proq odamlar - uning izdoshlari bo'lsin...

Nikohning keyingi foydasi shuki, bu amalning tugashi bilan farzand tug'ilishi uchun duo nozil bo'ladi...

Nikohning yana bir foydasi dinni tasbeh qilishdir, chunki kim turmushga chiqsa, dinining

yarmi ikkinchisiga o'tgan bo'ladi. Turmushga chiqmaganlar esa ko'pincha buzg'unchilik vasvasasiga qarshi tura olmaslik va ko'zlarini hamda qalblarini yumib qo'yish xavfiga duchor bo'lishadi.

Oilaviy hayotning yana bir foydasi shundaki, xotin barcha uy yumushlarini o'z zimmasiga oladi, shuning uchun yaxshi xotin yordamchi va do'stdir. Munosib xotin bo'lishdan boshqa oliy yaxshilik yo'q" ("N-v". 254).

Yozuvchi nuqtai nazaridan, nikoh va oilaviy hayotning afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Farzandning tug'ilishi insonning o'lmasligi, inson naslining davomi kabitdir.
2. Ota-onasini tanigan, hurmat qiladigan insonning, ayniqsa, bolalarning pokligi, iffati.
3. Xotin va erning oilada va jamiyat oldidagi mas'uliyati, bolalarni tarbiyalash va ularni ta'minlash...

Yuqorida ta'kidlanganidek, mutafakkir nikohning foydalari haqidagi fikrlarini payg'ambar hadislar bilan to'ldiradi va mustahkamlaydi. Taxmin qilish mumkinki, mutafakkir "Nodir hodisalar" ("Navodir-ul-vakoe") asarini yozishni boshlashdan avval ulug' ilohiyot olimlarining tarbiya va oila odob-axloqi masalalariga bag'ishlangan salmoqli qator asarlarini to'liq o'rgangan va ular ustida ishlagan. Bunga Muhammad G'azzoliyning "Kimiyo saodat" va Unsurmaalik Keykovusning "Tarbiya kitobi" ("Nasihatnoma") yorqin misol bo'la oladi. Ahmad Donishning ilmiy va ilmiy-publisistik asarlarini o'rganish u o'z xalqining avvalgi mutafakkirlarining pedagogik qarashlaridan yaxshi xabardor bo'lgan degan xulosaga kelish imkonini beradi. Buni uning Muhammad G'azzoliyning nikoh odobiga oid pedagogik qarashlariga tez-tez murojaat qilishi ham tasdiqlaydi. Masalan, u "Er-xotin turmushi qoidalar va qaynona adovati" bobida shunday yozadi:

"Bilingki, nikohdan maqsad farzand ko'rish va naslning davom ettirishdir. Nikohning ma'nosi shahvoniy lazzatlarga berilmaslik, aksincha, shahvoniylikning o'zi odamlarni turmush qurishga undash uchun yaratilgan..." ("N-v", 252); E.E. Bertels Ayniy ma'lumotlariga tayangan holda "Tojik adabiyoti tarixi bo'yicha tadqiqot ishlarining ahvoli" nomli maqola yozar ekan, Ahmad Donishni butun sobiq ittifoq xalqiga o'zining butun buyukligi bilan tanishtirdi. Keyinchalik, Ahmad Donish asarlarini o'rganishni davom ettirib, Bertels E.E. 1936 yilda "Ahmad Kalla asarlarining qo'lyozma nusxalari" sarlavhali tadqiqot nashr qildi.

Xuddi shu fikrni G'azzoliy "Saodat kaliti" asarining "Ikkinchi mohiyat" muqaddimasida shunday ifodalagan:

"Bilingki, nikoh dinga olib boradigan yo'llardan biridir... shuningdek, inson zoti va uning naslini asrash zarurati. Oilaviy hayotsiz buning iloji yo'q... va nikohga kirish ixtiyoriylik tufayli emas, aynan shu bilan bog'liq. U yaratgan shahvoniy ehtiros inson o'z nafslarining homiysi va hukmdori bo'lishi uchun, odamlar ularga nikoh orqali kelishlari uchun, Xudoga boradigan sayohatchilar tug'ilishi uchun va barcha odamlarni hidoyat qilishlari uchun yaratilgan. to'g'ri yo'l" ("N-v", 380).

Bu iqtibosdan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, Ahmad Donish G'azzoliy fikrlarini to'liq mazmunini berib, bu masalada u bilan birdamligini bildirgan.

Unsurmaalik Keykovusning mashhur "Qobusnoma" risolasida o'z aksini topgan ta'limotlari Ahmad Donishning pedagogik qarashlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatganini biroz keyinroq ko'rsatamiz.

Ahmad Donish oila qurish va mustahkamlash, umr yo'ldosh tanlash haqida gapirar ekan, erkak kishiga bir qancha shartlarni qo'yadi. Birinchidan, erning biron bir hunarmandchiligi va o'z uyi bo'lishi kerak. Shundan keyingina u nikoh haqida o'ylashi mumkin. Agar er mayib yoki xunuk bo'lsa, unga teng keladigan ayolga uylangani ma'qul. Chunki er ko'rinishi jirkanch, xotini go'zal bo'lsa, bu erkakni kamsitadi, er-xotin munosabatlarida kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi va uning go'zal xotinining sevuvchilari ko'p bo'ladi. Xuddi shu fikr Keykovusning "Qobusnoma"da ham shunday ifodalangan: "... go'zal ayolning ortidan ergashmanglar, chunki uning go'zalligi ko'p oshiq'larga mavzu bo'ladi".

Nafsli erkak faqat shahvatli ayolga uylanishi kerak, lekin hech qanday holatda pokiza ayolga uylanmaydi." Insonparvar pedagog Ahmad Donish xalqqa din odamlarining mahrumlik va zohidlikka bo'ysunishi uchun emas, balki odamlarning axloqiy va ma'naviy jihatdan kamol topishi, madaniy va moddiy qadriyatlarga ega bo'lishi uchun mavjud bo'lishi haqidagi g'oyani

62 ommaga yetkazishga harakat qilgan. U ilohiyot ilmi qotib qolgan qo'rg'on emas, balki zamonga mos ravishda rivojlanib, o'zgarib borishiga shubha qilmaydi".

Mutafakkir fikridan kelib chiqadiki, oila mustahkamligi, ota-ona va farzandlar baxtining omillaridan biri nikoh an'analarga amal qilishdir. Oila birligi daxlsizligining ikkinchi omilini kelinning nasl-nasabini to'g'ri tanlashi va bilishi, deb biladi. Uchinchidan, u ayolning boyligiga tayanib, ochko'zlikka berilmaslikni, balki his-tuyg'ularingizni ko'proq tinglashni, kelin va kuyovning bir-biriga mos kelishiga tayanishni ogohlantiradi.

Shuningdek, Ahmad Donishning ta'kidlashicha, erkak kishi tanbeh eshitmasligi va xotirlanmasligi uchun o'z xotini uchida yashamasligi yoki o'zidan mavqei va kelib chiqishi yuqoriroq qizga uylanmasligi kerak.

Ahmad Donish o'rtoqlaridan birining iltimosiga ko'ra nikohning foydalari va og'irligi haqida qo'llanma yozgan va bu qo'llanma o'zining "Nodir hodisalar" kitobining "Er-xotin turmushi qoidalari va ona adovati haqida" deb nomlangan alohida bobini tashkil etgan. Qonun." Ushbu qo'llanmada muallif o'z oilasini qurishni rejalashtirayotganlarga nikohning barcha afzalliklari, ijobiy va salbiy tomonlarini, bu harakatni rad etish sabablarini ko'rsatadigan foydali maslahatlar bilan o'rtoqlashadi. Muallifning maqsadi oila qurish, turmush qurish zaruriyatini aslo inkor etish emas, balki, avvalambor, nikohning foydasi va og'irligidan ogoh etish, totli kunlardan tashqari, oilaviy hayotni ham bilishi uchun, oila hayotini o'zgacha his-tuyg'ularini uyg'otish edi. Jismoniy ehtirosni so'ndirish, shuningdek, katta mas'uliyatni yashiradi.

Yozuvchi mustahkam oilani barpo etishda murakkab masalalardan biri bo'lgan kelin va qaynona munosabatlari muammosini quyidagicha hal qilishni taklif qiladi: "...eng muhim shart – bu oilaning turmush tarzini ta'minlashning eng muhim shartidir. Turmush qurgan odamning onasi yo'q va agar bo'lsa, u xotinidan uzoqda yashashi kerak. Agar ona oilada yashasa, uning shaxsiy idish-tovoqlari va uy-ro'zg'or buyumlari bo'lishini tartibga solish kerak, chunki agar ular kambag'allik tufayli bo'linsa, er ona va xotin o'rtasidagi nizolar tufayli qiyin kunlarni boshdan kechiradi. ..." ("N-v", 242).

Mutafakkirning fikricha, urning onasi taqvodor va donishmand ayol, kelin odobli qiz bo'lishiga qaramay, ularda ko'p masalalarda kelishmovchiliklar bo'ladi. Shuning uchun, er ularni bir-biridan ajratib turishi va ularga teng ravishda xizmat qilishi kerak. Chunki kelin va qaynona bo'lib birga yashash uning hayotini zaharlaydi.

Er va xotin o'rtasida yuzaga keladigan nizolarga kelsak, Ahmad Donishning fikricha, xotinning qarindoshlari yoki urning opa-singillari va onasi ularning ishlariga aralashmasliklari kerak, chunki "ular bilishlari kerakki, xotinning eriga bo'lgan dushmanligi bir kundan ortiq davom etmaydi" ("N-v", 248).

Hayot qarama-qarshiliklarning kurashidan iborat bo'lib, ularsiz hech qanday taraqqiyot bo'lmaydi va oila bu naqshga bo'ysungan holda, nizolar paydo bo'ladi.

Bundan kelib chiqib, Ahmad Donish bu mansabdan foydalanib, kelinni eriga qarshi qo'zg'atayotgan yaqin qarindoshlarini sog'lom oilani buzishda ayblaydi. Mutafakkirning fikricha, xotin "erining bor-yo'g'i bilan qanoat qilmog'i, ko'proq narsani talab qilmasligi kerak" ("N-v", 249). Oilaviy masalalarda er erkak kabi harakat qilishi va oilaga farzanddek mehribon bo'lishi kerak. A.Donishning yuqorida biz to'xtalib o'tgan pedagogik qarashlari o'z manbasini o'tgan asrlarda yashab o'tgan Unsurmalik Kaykovus, Nosir Xisrav, Abuhamid Muhammad G'azzoliy, Sa'diy va boshqa mutafakkirlar ijodidan olgan.

Donishning fikricha, agar kishi o'z o'g'li oldidagi otalik burchini bajargan bo'lsa, ikkinchisining vijdon va shariatga ko'ra or-nomus, oliyjanoblik va saxovat burchidan boshqa hech qanday da'vosi bo'lmasligi kerak" ("N-v", 36). Muallif ota va o'g'il o'rtasidagi keyingi munosabatlar quyidagicha bo'lishi mumkinligini taxmin qiladi: agar o'g'il boy bo'lgan bo'lsa, u hamma joyda ota-onasiga moddiy yordam ko'rsatishi kerak.

Muqaddas Qur'ondan rivoyatlar, rivoyatlar va adabiy iqtiboslarga ko'ra, muallif o'z hayotida har bir aqlli odam o'zini to'rt narsa bilan ta'minlashi shart deb hisoblaydi:

1. Och qolishingizga yo'l qo'ymaydigan bir parcha non;
2. Tanani qoplaydigan kiyim;
3. Issiq va sovuqda sizni himoya qiladigan uy;
4. U o'z oilasini davom ettiradigan hurmatli xotin.

Shunday qilib, Ahmad Donish yoshlar turmushining asosiy vazifasini tushuntiradi. Uning fikricha, nikoh orqali "... Xudoning bandasi Xudoga to'g'ri yo'lni qat'iy izlashi, nikohidan manfaat va manfaatlar izlamasligi, balki ko'payishi kerak, shunda u sof va yagona nikohda odob va odob qoidalariga rioya qilishi kerak. gigienaga rioya qiladi, uning munosib, solih farzandlari bor" ("N-v", 54). Shunday qilib, yozuvchi shariatga ko'ra nikoh ikki asosiy ijobiy oqibatlarga olib kelishini inkor etib bo'lmaydi:

1. O'zining pokligi va beg'uborligi tufayli u oilaviy munosabatlarning davomiyligi va barqarorligini kafolatlaydi;
2. Inson avlodi va avlodlarining o'sishi va ko'payishiga olib keladi.

Mutafakkirning fikricha, bunday oilada tug'ilgan bola ezgulik, solihlik, olijanoblikni meros qilib oladi va hech qachon ota-onaning fikr va e'tiqodiga e'tiroz bildirmaydi. Donishning fikricha, muqaddas nikohda tug'ilgan avlod o'z e'tiqodi va xatti-harakatlarida, ota-ona oldidagi burchini ado etishda nikohsiz tug'ilgan farzanddan ko'ra ko'proq mas'uliyatni his qiladi. Noloyiq xatti-harakatlari va ota-onasiga itoatsizligi uchun nikohsiz tug'ilgan avlodni gunohkor va itoatsiz deb hisoblamaslik kerak. Masalan, muallif shunday yozadi: "... va ular hayvonlarga o'xshab qoladilar, ularning erkagi urg'ochi bilan qo'shilib, yosh tug'adi. Va bu bola endi otasining bo'ynini, hozir onasining qulog'ini kemiradi, endi otasining peshonasiga, endi onasining ko'krigiga tepadi; Uning atrofidagilar esa bu bolani aybdor va ota-onasiga noloyiq, deb hisoblamaydi va faqat "Bizga baribir!" deyishadi. ("N-v", 55).

Albatta, Ahmad Donishning oila masalalariga qarashlari juda tor, bir yoqlama va shariat va ma'naviy yuksalish doirasida chegaralangan, chunki muallif yosh avlod tarbiyasi jarayonining ahamiyatini hisobga olmagan. Ko'pgina misollardan ko'rinib turibdiki, ota-onaning olijanob va mo'tabar farzandi yetarlicha ta'lim olmasa, u yuz yoshga to'lguncha eshak bo'lib qoladi. Farzandsiz ota-onalar ota-onalarining kelib chiqishi haqida hech narsa bilmasdan, bolalarni mehribonlik uylari yoki tug'ruqxonalardan asrab olishlari, ularni qunt bilan o'stirishlari va o'qitishlari, asrab olingan farzandlarini o'z farzandlaridek hurmat qilishlari va hurmat qilishlari va ularni juda hurmatli va odobli insonlar qilishlariga misollar keltirishimiz mumkin. Aytish kerakki, ayniqsa, bu masalada Ahmad Donish islom dini va idealistik falsafa aqidalaridan bir qadam ham chetga chiqmaydi.

Muallif farzandlarini haqorat qiladigan onalar haqida shunday izoh beradi: "Axir, men sizni ko'kragim bilan boqdim!" ("N-v", 55).

KUTILAYOTGAN NATIJA: Oilada farzand tarbiyasi haqida Ahmad Donish, birinchidan, er oila boshlig'i bo'lishi kerakligidan boshlaydi. Ikkinchidan, farzandlaringizni mehr bilan seving, ularga mehr bilan munosabatda bo'ling va ular bilan o'ynang. Biroq, shu bilan birga, mo'tadil qattiqqo'llik va hokimiyatni saqlang, chunki Sharq pedagogikasida kuzatilganidek, jiddiylik va iroda bolalarni tarbiyalashda asosiy elementlardan biridir.

XULOSA: Ahmad Donish asarlarining konsepsiyasini tarbiya tashkil etadi. Ahmad Donish asarlarida jamiyatda har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim o'rin tutgan tarbiyaviy falsafa yashiringan. Bizningcha, Ahmad Donish alohida o'rin tutgan Buxoro xalqining atoqli mutafakkirlari pedagogik qarashlarining evolyutsion jarayonlarini o'rganmasdan turib, o'zbek pedagogikasining shakllanishi va rivojlanishi tarixining to'liq tasvirini tiklab bo'lmaydi. Ahmad Donishning ilg'or g'oyalari, pedagogik jihatlari va konsepsiyasidan foydalanishning ahamiyati, ularning pedagogika fani tarixini yetarli darajada o'rganmaganligidan kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmad Donish. Tanlangan asarlar..-"Navodirul vaqoye" Stalinobod, 1959. B-286.
2. Бертелс Э. Ахмади Кале асарларининг қўлёзмалари. Тож материаллари. СССР Фанлар Академиясининг асослари, 3-жилд, - Москва, Наука. 1936, Б-10-28.
3. Bartold V.V. Fors madaniyati va uning boshqa mamlakatlarga ta'siri: 9 jildda to'plangan asarlar. - T.6. - Moskva: Nauka, 1996. - B. 174-188.

Jumayev Yo'ldosh G'afurovich

Buxoro davlat universiteti

yurisprudensiya kafedrası dotsenti, yuridik

fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

MILLIY O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING FUQOROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Annotatsiya: Fuqarolik jamiyati - bu erkin, adolatli va barqaror jamiyat bo'lib, unda har bir fuqaro o'zining huquq va erkinliklaridan to'liq foydalanadi hamda jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'shadi. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda milliy o'zini o'zi boshqarish organlari muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda milliy o'zini o'zini boshqarish organlari haqida batafsil ma'lumot berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Milliy o'zini o'zi boshqarish, fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash, mahalliy muammolarni hal qilish, davlat organlari bilan munosabatlarni mustahkamlash, jamiyatda barqarorlikni ta'minlash

THE ROLE OF NATIONAL SELF-GOVERNMENT BODIES IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY

Abstract: Civil society is a free, just and stable society in which every citizen fully exercises his rights and freedoms and contributes to the development of society. National self-government bodies play an important role in the development of civil society. This article provides detailed information about national self-government bodies in the development of civil society.

Keywords: National self-government, ensuring the active participation of citizens, solving local problems, strengthening relations with state bodies, ensuring stability in society

РОЛЬ ОРГАНОВ НАЦИОНАЛЬНОГО САМОУПРАВЛЕНИЯ В РАЗВИТИИ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация: Гражданское общество — это свободное, справедливое и стабильное общество, в котором каждый гражданин в полной мере реализует свои права и свободы и вносит свой вклад в развитие общества. Органы национального самоуправления играют важную роль в развитии гражданского общества. В статье дается подробная информация о роли органов национального самоуправления в развитии гражданского общества.

Ключевые слова: Народное самоуправление, обеспечение активного участия граждан, решение местных проблем, укрепление связей с государственными органами, обеспечение стабильности в обществе.

Kirish. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining roli muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda bu organlar, ya'ni mahalla institutlari, jamiyatda ijtimoiy va siyosiy faollikni oshirish, shuningdek, fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyati - bu erkin, adolatli va barqaror jamiyat bo'lib, unda har bir fuqaro o'zining huquq va erkinliklaridan to'liq foydalanadi hamda jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'shadi. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda milliy o'zini o'zi boshqarish organlari muhim rol o'ynaydi.

Fuqarolarning O'zini O'zi Boshqarish Organlari quyidagicha talqin qilinadi:

Tashkiliy tuzilma: Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, asosan, mahalla yig'inlari shaklida tashkil etilgan bo'lib, ular fuqarolarni birlashtirish va ularning umumiy

manfaatlarini ifoda etish maqsadida faoliyat yuritadi. Ushbu organlar jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilishda va jamoat tartibini ta'minlashda bevosita ishtirok etadilar.[2]

Rivojlanish jarayoni: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga ko'ra, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ahamiyatini oshirish, ularni davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritishga rag'batlantirish maqsad qilingan.[2] Bu jarayon 2017-yildan boshlab kuchaytirilgan bo'lib, fuqarolar yig'inlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning ijtimoiy roli kuchaytirilishi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.[3]

Milliy o'zini o'zi boshqarish organlari deganda, odatda mahalliy kengashlar, qishloq va mahalla fuqarolar yig'inlari, shuningdek, boshqa shakldagi o'zini o'zi boshqarish organlari tushuniladi. Ushbu organlar fuqarolarning o'z hududidagi muammolarni hal qilishda, jamiyatni boshqarishda va davlat organlari bilan munosabatlarda ishtirok etishini ta'minlaydi.

Milliy o'zini o'zi boshqarish organlarining fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi o'rni quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

Fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash. O'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolarga o'z fikrlarini bildirish, takliflar kiritish va qarorlar qabul qilishda ishtirok etish imkoniyatini beradi. Bu esa fuqarolarning jamiyat hayotiga daxldorlik hissini oshiradi va ularning faolligini rag'batlantiradi.[3]

Mahalliy muammolarni hal qilish. O'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy darajadagi muammolarni aniqlash va ularni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Ular fuqarolar bilan hamkorlikda ish olib borib, eng dolzarb masalalarni ko'rib chiqadi va ularning yechimini topishga harakat qiladi.[5]

Davlat organlari bilan munosabatlarni mustahkamlash. O'zini o'zi boshqarish organlari davlat organlari bilan munosabatlarda vositachi vazifasini bajaradi. Ular fuqarolarning manfaatlarini davlat organlariga yetkazadi va davlat organlarining qarorlarini fuqarolarga tushuntiradi. Bu esa davlat va jamiyat o'rtasida ishonch va hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Jamiyatda barqarorlikni ta'minlash. O'zini o'zi boshqarish organlari jamiyatda barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ular fuqarolar o'rtasida kelishmovchiliklarni hal qilishda, nizolarni bartaraf etishda va jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni saqlashda ko'maklashadi.[3]

O'zbekistonda milliy o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyati qonun bilan tartibga solingan. "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonun ushbu organlarning vakolatlari, vazifalari va faoliyat tartibini belgilaydi.

Milliy o'zini o'zi boshqarish organlarining fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi o'rni chet el tajribasi bilan solishtirishdigan bo'lsak quyidagi natijalarni qo'lga kiritamiz.[9]

Chet el tajribasida o'zini o'zi boshqarish organlarining roli va ahamiyati turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, AQShda "community governance" tushunchasi keng tarqalgan bo'lib, bu fuqarolarning mahalliy darajada o'z muammolarini hal qilishda faol ishtirok etishini nazarda tutadi. Yevropa mamlakatlarida esa "local government" organlari muhim rol o'ynaydi va ular fuqarolar bilan yaqin hamkorlikda ish olib boradi.[6]

Quyidagi jadvalda O'zbekiston va boshqa mamlakatlardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining ba'zi xususiyatlari solishtirilgan:

Xususiyat	O'zbekiston	AQSh	Fransiya
Organlarning nomi	Mahalla fuqarolar yig'ini	Community boards, Neighborhood councils	Conseils de quartier
Vakolatlari	Mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish, fuqarolarning manfaatlarini ifoda etish	Mahalliy darajada maslahat berish, loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish	Mahalliy darajada maslahat berish, loyihalarni muhokama qilish

Davlat organlari bilan munosabatlari	Davlat organlari bilan hamkorlikda ish olib boradi	Davlat organlaridan mustaqil faoliyat yuritadi	Davlat organlari bilan hamkorlikda ish olib boradi
Fuqarolarning ishtiroki	Fuqarolarning yig'inlarda va boshqa tadbirlarda ishtirok etishi	Fuqarolarning kengashlarda va komissiyalarda ishtirok etishi	Fuqarolarning yig'inlarda va maslahatlashuvlarda ishtirok etishi

Chet el tajribasidan O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarda foydalanish mumkin:

O'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlarini kengaytirish. Ularga mahalliy darajada ko'proq qarorlar qabul qilish va mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatini berish.[4]

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida ishtirokini rag'batlantirish. Buning uchun turli xil tadbirlar, maslahatlashuvlar va loyihalar tashkil qilish.

O'zini o'zi boshqarish organlari va davlat organlari o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash. Bu fuqarolarning manfaatlarini samaraliroq ifoda etishga yordam beradi.

O'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini o'rganish va tahlil qilish. Ularning ish uslublarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish.

Shuni ta'kidlash kerakki, har bir mamlakatning o'ziga xos sharoitlari va tajribasi mavjud. Shuning uchun chet el tajribasidan foydalanishda O'zbekistonning milliy va madaniy xususiyatlarini hisobga olish zarur.

XULOSA.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular fuqarolarning manfaatlarini ifodalash va himoya qilish, mahalliy boshqaruvda ishtirok etish, jamoat tartibini ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish kabi muhim funksiyalarni bajaradilar. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari larning faoliyatini yanada takomillashtirish orqali fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirishga erishish mumkin.

Ular fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash, mahalliy muammolarni hal qilish, davlat organlari bilan munosabatlarni mustahkamlash va jamiyatda barqarorlikni ta'minlashga ko'maklashadi. Shuning uchun ham milliy o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://president.uz/oz/lists/view/228>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Fuqarolarning_o%CA%BBzini_o%CA%BBzi_boshqarish_organlari
3. Walzer M. Equality and Civil Society. In: Alternative Conceptions of Civil Society. Ed. by S.Chambers and W.Kymlicka. Princeton: Princeton Univ. Press.2002.
4. Баранов Н.А. Трансформации современной демократии: Учебное пособие.СПб.: Балт. гос. техн, 2006
5. Гоббс Т. Избранные произведения. В 2-х томах. Т.2. М., 2006.
6. Д.Грин. Возвращение в гражданское общество. Социальное обеспечение без участия государства/Пер. с англ. М.: Новое издательство, 2009. 34-бет.
7. Жакбаров М. Комил инсон ғояси: тарихий- фалсафий таҳлил. – Т.:Абу Али ибн Сино нашри., 2000.
8. Квинт В.Л. Стратегиялаш назарияси ва амалиёти. –Т.: Тасвир, 2018.
9. Одиқориев Х. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Тошкент: Шарқ, 2002.
10. Панарин А.С. Глобальное политическое прогнозирование. – М.: Статут, 2008.

ITTIHOD VA TARAQQIY HARAKATI AYOLLARNING JAMIYATDAGI O'RNIGA NISBATAN YONDASHUVI

Annotatsiya. Ittihad va Taraqqiy harakati yaqin tariximizda muhim burilish yasagan siyosiy bir tuzilma sifatida Usmonli davlati hayotiga ko'p jihatdan ta'sir ko'rsatgan. Bu harakat tarkibida turli qarashdagi shaxslar faoliyat yuritgan bo'lsa-da, rahbariyatning ijtimoiy muammolarga munosabati borasida keskin tafovutlar mavjud emas edi. Ittihad va Taraqqiy tashkiloti tuzilgan ilk davrlardan boshlab Meshrutiyat e'lon qilinguniga qadar olib borgan nashrlarida, ayollarning jamiyatdagi mavqeidan norozi ekanini bildirgan va ularni ijtimoiy hayotga faolroq jalb etish zarurligini ta'kidlagan. Ikkinchi Meshrutiyat e'lon qilingach, siyosiy ta'sir kuchaygan bu davrda harakat o'zining ayollik masalasidagi chin dildan yondashuvini ko'rsatish maqsadida ayollar jamiyatlari va nashrlarini moliyaviy hamda ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlagan. Ushbu maqolada Ittihad va Taraqqiy harakati tomonidan ilgari surilgan ayollar jamiyatlari va nashrlarining faoliyati tahlil qilinib, harakatning ayollarga bo'lgan munosabati yuzasidan xulosalar berishga harakat qilinadi.

Kalit iboralar: Ittihad va taraqqiy harakati, ikkinchi mashrutiyat davri, ayollar tashkilotlari, matbuot orqali targ'ibot, ayollar jamiyatlari, matbuot.

ПОДХОД ДВИЖЕНИЯ ИТТИХАД И ТАРАККИ К РОЛИ ЖЕНЩИН В ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. Движение Иттихад и Теракки, будучи одной из значимых политических структур в новейшей истории, оказало многогранное влияние на жизнь Османского государства. Хотя внутри движения действовали личности с различными взглядами, в вопросах социальной политики руководство демонстрировало единый подход. С самого основания и вплоть до провозглашения Конституции, движение через свои издания выражало недовольство положением женщин в обществе и подчеркивало необходимость их более активного участия в общественной жизни. После провозглашения Второй Конституции, в условиях усиления политического влияния, движение начало оказывать финансовую и моральную поддержку женским организациям и изданиям, тем самым демонстрируя искренний интерес к женскому вопросу. В данной статье проводится анализ деятельности женских обществ и печатных изданий, поддерживаемых движением Иттихад и Теракки, и делаются выводы относительно отношения движения к женщинам.

Ключевые слова: движение Иттихад и Теракки, эпоха Второй Конституции, женские организации, пропаганда через печать, женские общества, печать.

THE APPROACH OF THE COMMITTEE OF UNION AND PROGRESS TO THE ROLE OF WOMEN IN SOCIETY

Abstract. The Ittihad and Teraqqi movement, as a significant political force in the recent history of the Ottoman Empire, had a multifaceted impact on the state's social and political life. Although the movement included individuals with diverse viewpoints, the leadership displayed a consistent approach to social issues. From its inception until the declaration of the Constitutional Monarchy, the movement's publications reflected dissatisfaction with the societal status of women and emphasized the importance of their active participation in social life. After the proclamation of the Second Constitutional Era, with increasing political influence, the movement provided both financial and moral support to women's associations and publications, demonstrating a sincere commitment to women's issues. This article analyzes the activities of women's associations and

publications supported by the Ittihad and Teraqqi movement and seeks to draw conclusions about the movement's overall approach to women.

Keywords: Ittihad and Teraqqi movement, Second Constitutional Era, women's organizations, press-based propaganda, women's societies, press.

Kirish. Usmonli oilaviy tuzilmasi va ayollarning jamiyatdagi o'rnini kabi masalalar G'arbga yuzlanish jarayoni bilan birga shakllana boshlagan bo'lib, Usmonli ayolining hayotida muhim o'zgarishlar ilk bor Tanzimat davrida yuzaga kelgan. XIX asrda ta'lim, qishloq xo'jaligi kabi sohalarda sodir bo'lgan islohotlar, shuningdek, dunyo miqyosidagi texnologik taraqqiyotlar Usmonli hududlarida yashagan ayollar hayotiga bosqichma-bosqich ta'sir ko'rsatgan. Yangi mehnat yo'nalishlarining paydo bo'lishi va oilaviy tuzilmadagi o'zgarishlar ayollar hayotida sezilarli darajadagi yangilanishlarni yuzaga keltirgan [8; 2; 1].

Islom huquqi amalda bo'lgan jamiyatlarda bo'lgani kabi, Usmonli davlatida ham ijtimoiy makonlar erkak va ayollar o'rtasida keskin ajratilgan edi. Tanzimatgacha bo'lgan davrda kiyinish uslubi va sayr qilinadigan joylarga bo'lgan ko'plab jabhalarda davlatning aralashuvi yaqqol sezilgan. Biroq, Tanzimat davrida bu yondashuv asta-sekin o'zgarib, ayollar huquqiy jihatdan muayyan ijobiy o'zgarishlarga erisha boshladi; uzoq yillardan beri davom etib kelgan ijtimoiy odatlar o'zgarishga yuz tutdi. Ayniqsa, ayollar ta'limiga oid muhim tashabbuslar aynan shu davrda boshlangan bo'lib, 1869 yilda e'lon qilingan "Tabiiyyat-i Usmoniyya to'g'risida"gi qonun - ayolni shaxs sifatida tan olgan ilk huquqiy tartibga solish bo'ldi. Bu kabi qonuniy o'zgarishlar ayollarning ijtimoiy hayotdagi mavqeini bir qadam oldinga siljitibgina qolmay, balki jamiyatni keyingi modernizatsiya jarayonlariga tayyorlashga ham xizmat qilgan [2; 8; 10].

Tanzimat davrida yaratilgan adabiy asarlarni tahlil qilganda, ularda ayolning jamiyatdagi o'rnini ochiqchasiga muhokama qilinganini, mavjud nikoh va oila tizimi tanqid ostiga olinganini ko'rish mumkin. Namik Kamol, Shinosiy, Shemsiddin Somiy kabi adiblar o'z asarlari orqali ayollar jamiyatda munosib o'rin egallamaganini alohida ta'kidlaganlar [2; 8].

Tanzimat bilan shakllangan ijtimoiy muhit fonida XIX asr oxirlariga kelib, g'arbcha ayol obrazini ilgari surgan, millatchi va ziyoli erkaklardan iborat bir qatlam shakllandi. Ular modernizatsiya ayollar orqali amalga oshirilishiga ishonib, o'z atrofidagi jamiyatni ana shu ruhda yo'naltirishga uringanlar. Usmonli jamiyatida ayollar muammosini ilk bora ochiq muhokamaga olib chiqqan va bu mavzuni matbuot orqali targ'ib qilgan aynan mana shu millatchi guruh vakillari bo'lgan. "Yosh usmonlilar" sifatida tanilgan bu guruhdan tashqari, Fatma Aliya, Emine Semiha, Salma Rizo kabi yuqori tabaqaga mansub ayollar ham o'z huquqlari yo'lida faol harakat boshlaganlar [15; 13; 8].

Ikkinchi Mashrutiyyat e'lon qilingach, Jonturklar boshchiligida shakllangan zamonaviy, dunyoviy qarashdagi ziyolilar ayollar hayotini tubdan o'zgartirgan islohotlar tashabbuskori bo'ldilar. Ayollar jamiyatlar tuzish, gazeta va jurnallarda o'z fikrlarini yozish orqali kelajakka oid qarashlarini bildirish imkoniga ega bo'ldilar. Tanzimatdan boshlab davom etgan modernizatsiya siyosati davlatning ayol ta'limiga ham yuksak e'tibor qaratishiga sabab bo'ldi. Natijada, Ikkinchi Mashrutiyyat davrida bilimli, ma'rifatli turk ayoli taraqqiyot timsoliga aylandi. Ayniqsa, G'arb andozasida tashkil etilgan maktablar va matbuot vositalari ana shunday yangi avlodni shakllantirishda muhim rol o'ynagan [9; 14; 3].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu tadqiqotda Usmonli imperiyasining so'nggi davri, Jön Türkler harakati va II Mashrutiyyat davriga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. N. Berkesning *Türkiye'de Çağdaşlaşma* asarida Turkiya modernizatsiyasi yoritilgan, Ş. Mardinning *Jön Türklerin Siyasi Fikirleri* esa harakatning siyosiy qarashlarini ochib beradi. E. J. Zürcherining *Modernleşen Türkiye'nin Tarihi* imperiyaning so'nggi davridan Respublika bosqichigacha bo'lgan jarayonlarni izchil tahlil qiladi. T. Timur va H. İncelik asarlarida esa uluslashuv jarayoni va II Mashrutiyyatning konstitutsiyaviy tizimi ilmiy asosda bayon etilgan. M. Karakaş, C. Vatandaş, Y. D. Çetinkaya va Y. Ş. Hakyemezning ishlari II Mashrutiyyatdagi ijtimoiy-siyosiy oqimlar va 1908-yil inqilobi bilan bog'liq tajribalarni yoritadi. Yusuf Akçuraning *Üç Tarz-ı Siyaset* hamda *Türkçülük* asarlari turkchilik mafkurasining shakllanishini ko'rsatadi, F. Ahmadning *İttihatçılıktan Kemalizme* esa respublika davrigacha bo'lgan mafkuraviy o'zgarishlarni izohlaydi.

Metodologiya sifatida qiyosiy-tarixiy tahlil, xronologik izchillik va manba tanqidi usullaridan foydalanildi; siyosiy g'oyalarning evolyutsiyasi birlamchi va ikkilamchi manbalar asosida solishtirildi.

Muhokama va natijalar. Ikkinchi Mashrutiya davrida zamonaviylashishga intilayotgan va qarashlarini G'arb tomon yo'naltirgan Usmonli davlatida ilk bor ayollar jamiyatlari tashkilotli va tizimli shaklda shakllanib chiqqan boshladi. Yevropadagi ayollar harakatiga o'xshash tarzda, Usmonli jamiyatida ham bu harakatlarning dastlabki vakillari ko'pincha yaxshi ta'lim olgan, yuqori tabaqaga mansub oilalarning qizlari bo'lgan. Oilaviy imkoniyatlari sababli erkaklar qatori ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lgan Halide Edib, Shukufe Nihol, Nezihe Muhiddin, Sabiha Zekeriya, Fatma Aliya, Emine Semiha va Salma Rizo kabi ayollar jamiyatdagi mavjud ayol mavqeini tanqid qilib, o'z huquqlari uchun da'vo qilishgan va ijtimoiy hayotda faol qatnashib, o'z maqolalari orqali ongli harakatlarni boshlab berishgan [14; 9; 13].

Ittihad va Taraqqiy jamiyati esa, aynan shunday yaxshi ta'lim olgan, an'anaviy chegaralardan chiqishga jur'at etgan ayollarni o'z atrofida jamlagan ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida shakllandi. Jamiyat hali Parijda "Meşveret" gazetasi orqali faoliyat olib borayotgan davridayoq, mashhur davlat arbobi Fazl poshoning qizi, malika Nazli xonimning jamiyatga qilgan tashrifini mamnuniyat bilan matbuotda yoritgan, uni hurmat bilan tilga olib, uning shaxsida barcha ayollarga bo'lgan e'tiborini ochiq ko'rsatgan edi [3].

Shuningdek, Ittihad va Taraqqiy tashkiloti tomonidan 1906 yilda qabul qilingan 39 banddan iborat nizomning birinchi moddasida quyidagicha bayon etilgan: "Meşrutiyat boshqaruvini qaror toptirish, va dinu mezhebidan qat'i nazar barcha Usmonlilarni to'liq birlik ichida erkinlikka va farovonlikka yetkazishga intiluvchi Ittihad va Taraqqiy jamiyati, bundan buyon ham shu muqaddas maqsad yo'lida va moddiy-ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash yo'lida birgalikda ishlashni asosiy yo'nalish sifatida belgilaydi." Ushbu bayonot jamiyat siyosiy sohada ham jins va mazhab tafovutlarini rad etganini ko'rsatadi [6; 10; 3].

Nizomning oltinchi bandida esa ayollarning ham jamiyat a'zoliciga qabul qilinishi mumkinligi quyidagi jumla bilan ifodalangan: "Jins va mezheb farqidan qat'i nazar barcha Usmonli ayol va erkaklar jamiyat a'zosi bo'lishi mumkin." Ikkinchi Mashrutiya e'lon qilingan paytda Ittihad va Taraqqiy jamiyati doirasida o'z huquqlarini siyosiy yo'l bilan himoya qilayotgan ayollar mavjud edi. 1934 yilda Dr. Bahaeddin Shakir tomonidan yozilgan maqolada, Meşrutiyat e'lon qilingan paytda jamiyatda 40 nafar ayol a'zo bo'lgani va bu ayollar maxfiy xatlar tarqatish, ayollar orasida jamiyat faoliyatini tanitish kabi muhim vazifalarni bajarganliklari qayd etilgan. Mazkur ayollarning o'sha davr sharoitida ko'rsatgan jasorati, ehtimol, jamiyat a'zolarining ularga nisbatan hurmati va ularning ta'lim olishlari yo'lida ko'rilgan amaliy choralar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

Bundan tashqari, Ikkinchi Mashrutiya davrida Usmonli davlatining Bolqon urushlari sababli murakkab siyosiy-iqtisodiy holatga tushib qolishi ayollar tashkilotlarining asosan yordam jamiyatlari sifatida faoliyat olib borishiga sabab bo'ldi. Bu yo'nalishdagi ilk namunalardan biri 1908 yilda tashkil etilgan, Fatma Aliya xonim rahbarligidagi "Cemiyet-i İmdadiye" bo'lib, u yordam jamiyati sifatida faoliyat ko'rsatgan. Xuddi shu yili tashkil etilgan "Usmonli Ayollari Shafqat Jamiyati" ham xayriya asosida faoliyat yuritgan bo'lib, bu jamiyat mezheb farqiga qaramasdan, qarovsiz qolgan ayollar va bolalarga yordam berishni maqsad qilgan, faoliyatini asosan ayollar va bolalar ijtimoiy ehtiyojlariga qaratgan edi [9; 14].

Ittihad va Taraqqiy jamiyati tomonidan tashkil etilishiga ko'mak berilgan va faoliyati qo'llab-quvvatlangan yana bir ayollar tashkiloti bu - "Tealiyi Vatan Usmonli Xonimlar Jamiyati" bo'lgan. Jamiyat nizomining birinchi moddasida uning "markaziy idorasi Salonikida joylashgan holda, Ittihad va Taraqqiy Jamiyati homiyligida 1325-yil 4 Kanuni Avval (1909-yil 17-dekabr)"da tashkil etilgani aniq ifodalangan. Ushbu tashkilotga rahbar etib Nasima Yusuf xonim tayinlangan. Ayollar safarbarligini e'lon qilib, moddiy yordam to'plashni maqsad qilgan ushbu jamiyat Ittihad va Taraqqiyning Beshinchi Klubi tomonidan nazorat qilingan.

Jamiyat nizomining to'rtinchi moddasi esa quyidagicha bag'rikenglik ruhida tuzilgan: "Jins va mezheb farqiga qaramasdan, ehtiyojmand bo'lgan har bir ayolning holati o'rganilgach, imkon qadar yordam ko'rsatish uchun harakat qilinadi." Ushbu yondashuv jamiyatning insoniylik va tenglik tamoyillariga sodiq qolganini ko'rsatadi.

Ayollarni ijtimoiy hayotga yanada faolroq jalb qilish maqsadida Ittihad va Taraqqiy jamiyati nafaqat "Ittihad va Taraqqiy Ayollar Bo'limi", "Tealiyi Vatan Usmonli Xonimlar Jamiyati" va "Usmonli Ayollari Taraqqiparvar Jamiyati" kabi tuzilmalarni tashkil etgan, balki Turk Ojamlari doirasida o'tkazilgan ma'rifiy ma'ruzalar orqali jamiyatda ayol masalasiga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishga harakat qilgan [14; 6].

1911-yilda tashkil etilgan "Hilol-i Ahmar Jamiyati Xonimlar Hay'ati" ham Ittihad va Taraqqiyning ko'magida yaratilgan bo'lib, bu jamiyat Bolqon urushida jarohat olganlarga yordam berish bilan shug'ullangan. Ushbu jamiyat asoschisi bo'lgan doktor Besim Ubaydullo posho Darulfunun (hozirgi Istanbul universiteti)da ayollarga yo'naltirilgan sog'liqni saqlash mavzusidagi ma'ruzalari bilan tanilgan. Bu kabi ma'ruzalar orqali ayollar ayniqsa sog'liq sohasida o'qitilgan va Birinchi jahon urushi davrida muhim vazifalarni bajarishga tayyorlanganlar [9; 3].

Ikkinchi Mashrutiyyat davrining faol ayol yozuvchilaridan biri Halide Edib "Tealiyi Nisvon Jamiyati"da faol ishtirok etib, ayollarga ma'ruzalar o'qigan, bu orqali ko'pchilikka ko'p xotinlilik, ayol huquqlari kabi mavzular bo'yicha ma'lumotlar yetkazgan. O'z xotiralarida u ushbu jamiyat haqida quyidagicha eslaydi: "Bu ilk ayollar klubi bir guruh ziyoli ayollar va o'qituvchilar tomonidan tashkil etilgan edi. Asosiy maqsad fikriy taraqqiyot edi. Kichik markazda fransuz va ingliz tillari o'rgatilgan, shuningdek, bolalar parvarishi va uy boshqaruvi bo'yicha ham ma'lumotlar berilgan. Ayrim paytlarda haddan oshgan feministik kayfiyat sezilsa-da, shovqin va mashhurlik ortidan quvmaslikka harakat qilinar, me'yordan chiqmagan yo'l tutilar edi."

Halide Edib xonim faol ishtirok etgan 1911-yilda Istanbulda ayollar "Oq Konferensiyalar" deb nomlangan uchrashuvlarda qatnashganlar. Bu tadbirlarda Fatma Nesibe xonimning nutqlari eshitilgan, ularning o'tkazilishi uchun xususiy uylar tanlangan. Ushbu ma'ruzalar "Ayol Jurnali"da chop etilib, yanada keng auditoriyaga yetkazilgan.

Balkon urushidan keyin, 1913-yilda tuzilgan "Usmonli Turk Ayollarini Himoya Jamiyati" dasturining birinchi bandida quyidagi bayonat mavjud: "Ittihad va Taraqqiy Qizlar Hunar Maktabiga moddiy va ma'naviy ko'mak berish, shahidlar yoki muhojirlarning yetim va beqarov qizlarini tashkil etilajak hunar markazlarida ayollar hunariga o'rgatish, va Usmonli iqtisodiy hayotining rivojiga hissa qo'shish." Bu bayonot jamiyat bilan Ittihad va Taraqqiy jamiyati o'rtasidagi fikriy yaqinlikni ko'rsatib turibdi.

Yana 1913-yilda tashkil etilgan "Usmonli Ayollar Huquqini Himoya Jamiyati" esa "Ayollar Olami" nomli jurnalni nashr etib, ayollar muammolariga doir turli mavzularni yoritgan, ayollarning ijtimoiy hayotdagi rolini yangicha talqin qilishga uringan.

Ayollarni ta'lim va mehnat hayotiga jalb etish borasidagi siyosati orqali Ittihad va Taraqqiy jamiyati ayol obrazini an'anaviy qoliqlar doirasidan olib chiqib, uni jamiyatda faollashtirish va erkinlashtirish yo'lida muhim qadamlar qo'yan. Musulmon ayollarni ish hayotiga jalb etish tashabbusini ko'rsatgan va ularni bu yo'nalishda rag'batlantirgan Ittihad va Taraqqiy "Islom Ayollarini Ish bilan Ta'minlash Jamiyati" kabi tuzilmalarni qo'llab-quvvatlagan, turli klublar tashkil qilib, ayollar uchun kechki darslar singari imkoniyatlar yaratishga harakat qilgan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad - ayollarni jamiyatga foydali, iqtisodiy jihatdan faol shaxslar sifatida shakllantirish bo'lib, shu sababli "Milliy Iqtisod va Tejamkorlik Jamiyati" faoliyatiga ham ayollarni jalb etishga alohida e'tibor qaratilgan.

Ittihad va Taraqqiy jamiyatining bu boradagi siyosiy yondashuvi natijasida ayollar ishchi hayotga tez sur'atlarda kirib borib, iqtisodiy mustaqillikka erishish yo'lida ilk qadamlari qo'yildi. Ayniqsa, 1916-yilda Enver posho homiyligida tashkil etilgan "Usmonli Ayollarini Ish bilan Ta'minlovchi Islom Jamiyati" ushbu yo'nalishdagi eng e'tiborga loyiq tashabbuslardan biri bo'ldi. Bu jamiyat nafaqat ayollar uchun ish o'rinlari yaratishga xizmat qilgan, balki ixtiyoriy ravishda qatnashgan 18–30 yosh orasidagi ayollarni harbiy xizmatga jalb etib, ularni "ayollar ishchi batalyonlari" safiga kiritgan.

Ikkinchi Mashrutiyyat davrida tashkil etilgan ayollar jamiyatlari faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, ularning aksariyati ayollar huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy yordam ko'rsatish, va ayolning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash kabi maqsadlarga yo'naltirilganini ko'ramiz. Bu yo'nalishda ko'plab ayollar tashkilotlari o'z faoliyatlarida siyosiy kuch sifatida faoliyat yuritgan Ittihad va Taraqqiy jamiyatidan ma'naviy va moddiy jihatdan muhim darajada ko'mak olganini ham ta'kidlash joiz.

Ikkinchi Mashrutiya e'lon qilingach, Usmonli matbuot maydonida sezilarli jonlanish yuz berdi. Bu yangilanish ayollar hayotiga ham ta'sir etib, yillar davomida o'z fikrini bayon qilish imkonini kutib yashagan ayollar uchun gazeta va jurnallar yangi ifoda maydoniga aylandi. Bu davrda jamiyatning turli qatlamlaridan chiqqan ayollar ko'p yillik sukutni chetga surib, ozodlik va ijtimoiy ongni shakllantirishda faol ishtirok eta boshladilar. An'anaviy cheklovlardan xalos bo'lgan ayollar matbuotda tashabbuskorlik ko'rsatib, muhim gazeta va jurnallarni hayotga tatbiq etdilar.

Ayollarni mavzu qilgan ilk nashr 1868-yilda Ali Rashid tomonidan nashr etilgan "Taraqqiy" gazetasining ilovasi bo'lgan "Muhadderot" jurnali bo'lsa-da, bu kabi urinishlar asosan erkaklar tomonidan ayollar haqida yozilgan fikrlar bilan chegaralangan edi. Ayollar tomonidan ayollar uchun tayyorlangan ilk mustaqil jurnal esa 1886-yilda Afifa xonim tashabbusi bilan nashr etilgan "Shukufazor" bo'ldi. Bu jurnal ilk sonida e'lon qilgan muhim so'zboshi orqali jiddiy e'tibor qozondi. Unda quyidagicha bayon qilingan edi: "Biz – sochi uzun, aqli qisqa deb masxara qilingan bir guruhmiz. Endi bunga qarshi haqiqatni isbotlaymiz. Ayollikni erkaklikka, erkaklikni ayollikka almashtirmay, mehnat va sa'y-harakat bilan taraqqiyot yo'lidani boramiz." [9; 12].

1888-yilda Abdulhamid II homiyligida nashr etilgan "Muruvvat" jurnali esa asosan ayollar ta'limiga e'tibor qaratgan. Ushbu qisqa muddatli urinishlardan so'ng, nihoyat 1893-yilda Muhammad Tohir va uning rafiqasi Fotima Sodiya xonim sa'y-harakati bilan uzoq muddat faoliyat yuritgan "Xonimlarga Xos Gazeta" nashr etila boshladi. Rasmi tarzda chiqarilgan bu gazeta ta'lim, moda, sog'liq kabi sohalarida chop etgan maqolalari bilan ayollarning bilim darajasini oshirishga xizmat qilgan. O'sha davrning mashhur ayol yozuvchilarining maqolalari bilan bir qatorda, o'quvchilarning maktublariga ham o'rin bergan bu nashr ayollar orasida katta qiziqish uyg'otgan. Shu bois, 1895-yilda yosh qizlarga mo'ljallangan qo'shimcha jurnal ham chop etilib, har xil yoshdagi ayollarga murojaat qilingan.

Ayollarning jamiyatdagi mavqei hali ham to'laqonli shakllanmagan, erkaklar tomonidan esa bu muammo e'tiborsiz qoldirilayotgan bir davrda, Ittihad va Taraqqiy jamiyati g'arbdagi ayol obrazidan ilhom olib, ayol tarbiyasida ta'limning hal qiluvchi ahamiyatini anglab yetdi. Jamiyat, eng avvalo, ma'rifatli ayol modelini shakllantirishga harakat qildi. Ikkinchi Mashrutiya davridagi ayrim nashrlarda ayol va erkak miyasi hajmi o'rtasidagi farqlar tilga olingan bo'lsa-da, Ittihad va Taraqqiy vakillari va ularning qo'llovidagi ayollar jurnallari bunday fikrlarga qat'iy qarshi chiqib, aql-idrok jihatidan ayollar erkaklardan kam emasligini qat'iy himoya qildilar.

Ittihad va Taraqqiy jamiyatining ayollarga nisbatan qarashlarini to'liq tushunish uchun Ikkinchi Mashrutiya davrida jamiyat bilan bevosita yoki g'oyaviy jihatdan bog'liq bo'lgan ayollar jurnallarini tahlil qilish foydalidir. Mashrutiya e'lonidan keyin Hakkı Bey tomonidan nashr etilgan "Demet" jurnali, Jön Türklarning ayol masalasidagi qarashlarini tushunish uchun muhim namuna sanaladi. Ushbu jurnal o'z maqolalarida Jön Türklar harakatini ochiq qo'llab-quvvatlagan va bu g'oyalarni ayollar orasida yoyishga uringan siyosiy tushdagi ayollar nashrlaridan biri bo'lgan [9; 14].

"Demet" jurnali o'z maqsadini quyidagicha izohlagan: "Maqsadimiz oddiy: ayollarimizning tafakkurini yoritish, haftada bir bor ularga ilmiy va adabiy daqiqalar hadya etish. Maqsadimiz – adabiy, ilmiy va siyosiy. Ba'zida nafis tasvirli materiallar ham beriladi va zamon bilan hamnafas bo'lishga harakat qilamiz." Jurnalda zamonaviylik g'oyasi keng yoritilgan, ayollarning ijtimoiy mavqei haqida o'nlab maqolalar chop etilgan. Bosh muharriri Jalol Sohir bo'lgan bu jurnalda Enis Avni, Mithat Jamol, Janob Shahobiddin, Muhammad Amin, Mustafo Namik, Salim Sirri, Muhammad Rauf, Sulaimon Fahmi kabi erkak yozuvchilar ham o'z maqolalari bilan ayollarni qo'llab-quvvatlagan. Ayol mualliflar safida esa Nigor binti Usmon, Jülide, Ulviye, Neziye, Shiven Peride, Ruxson Nevvare, Ismet Haqqi xonim va Halide Edib (Adıvar) kabi nomlar mavjud bo'lgan.

Demet jurnali 1908-yil 30-sentabrda nashr etila boshlangan bo'lsa-da, qisqa vaqt ichida – 1908-yil 11-noyabrda faoliyatini to'xtatgan. Biroq uning mualliflari keyinchalik "Mehasin" va "Ayol" nomli jurnallarda jam bo'lib, ilgari surilgan g'oyalarni davom ettirishgan. Demet jurnalining qisqa faoliyati davomida ham u ayollarning ijtimoiy maqomi, ayol ta'limi, mehnatdagi ishtiroki, onalik, adabiyot, moda, iqtisod va siyosatga oid mavzularni keng yoritgan.

1908-yil sentabrdan 1909-yil noyabrigacha chop etilgan "Mehasin" jurnali ilk bor rangli suratlardan foydalangan holda ayollar e'tiborini tortishga erishgan. Asaf Muammer va Muhammad

Rauf tomonidan nashr etilgan bu jurnal ayollar erkinligini targ'ib qilgan, kasbga ega bo'lish zarurligini ilgari surgan, zamonaviylikka asoslangan maqolalar va ayollar uchun mo'ljallangan ma'ruzalarni nashr etgan. Emine Semiha, Munavvar Osim, Fotima Sabiha, Shukufe Nihol, Halide Solih va Zuhra xonim kabi taniqli mualliflar ushbu jurnalda faoliyat yuritgan va Ittihad va Taraqqiy jamiyati bilan g'oyaviy mushtaraklikni saqlagan [14; 9].

1908-yil 26-oktabrdan 1909-yil mayigacha Salonikida nashr etilgan "Ayol" jurnali ham Demet va Mehasin kabi yo'nalishda yozilgan maqolalari bilan ayollar huquqlarini himoya qilishda ilg'or rol o'ynagan va bu g'oyaning davomiyligini ta'minlashga harakat qilgan. Mustafa Ibrohim Bey tomonidan chiqarilgan bu jurnalda Fotima Aliya, Emine Semiha, Nigor binti Usmon, Noziya va Fitnat binti Hashim kabi ayol mualliflar bilan birga Omer Sayfiddin, Abdulloh Javdat, Muhammad Amin Bey kabi taniqli yozuvchilar ham ishtirok etgan.

Bu jurnal o'z oldiga quyidagi maqsadni qo'ygan: "Adabiy, ilmiy, siyosiy va madaniy jihatdan jiddiy kamchilik mavjud edi - ayollarga bag'ishlangan nashr yo'q edi. Biz shunday ayollar nashrini yaratmoqchimizki, u jamiyatning barcha qatlamlariga murojaat qilsin, aristokratik hayotning havo bilan to'la, mavhum dunyosidan va xayoliy, asabiy tasavvurlardan imkon qadar uzoq tursin."

Ayollar ijtimoiy maqomi borasidagi faoliyatlarini aniq siyosiy harakatlarga aylantirgan Ittihad va Taraqqiy jamiyati bu boradagi ishlari bilan ayollarning hurmati va e'tiborini qozongan. Qo'llab-quvvatlangan jurnallar, ayollar tashkilotlari orqali - ayniqsa ta'lim sohasida - ayollarning orqada qolgan jabhalarda tez yuksalishiga zamin yaratgan. Matbuotning jamiyat ongiga ta'sir kuchini anglagan jamiyat, sekulyarizm yo'lini ochishga harakat qilgan va o'z davri uchun dadil qaror qabul qilib, Darulfunnun (hozirgi Istanbul universiteti) Adabiyot fakultetida umumiy ma'ruzalar darslariga ayollarni ham jalb qilishga ruxsat bergan.

Siyosiy hayot bilan ayollarning ilk tanishuvi ham aynan Ittihad va Taraqqiy vositasida amalga oshgan. Jamiyat doirasida ayollar bo'limi tashkil etilib, ularning siyosiy masalalarga bevosita aloqador bo'lishi ta'minlangan. Jön Türk tarafdorlari tomonidan Selanikda tashkil etilgan va Emine Semiha xonim boshchiligidagi "Ayollar Inqilobiy Qo'mitasi" ham shular jumlasidan bo'lgan. Keyingi yillarda bu tashabbuslarning samarasi yaqqol ko'zga tashlana boshladi - ayollar jamiyat hayotining turli jabhalariga faol ravishda kirib bordilar. Balkonda bo'lib o'tgan urushlar chog'ida ayollar jamiyatlar orqali frontga yordam ko'rsatib, og'ir sharoitda olib borgan bu sa'y-harakatlari bilan ijtimoiy hurmatga sazovor bo'ldilar. 1912-yilda Besim Ubaydullo posho boshchiligidagi tashkil etilgan "Hilol-i Ahmar Ayollar Jamiyati" orqali ayollar sog'liqni saqlash sohasida muhim vazifalarni bajarishga kirishdilar va urush yillari frontga borish orqali ayollarni faqat "zaif" ko'rish noto'g'ri ekani jamiyatga yana bir bor isbotlandi [9; 13; 3].

Ayollarning kurashi sog'liq sohasigagina taalluqli bo'lmay, 1919-yil 19-martda Istanbuldagi Inos Darulfunnun talabalari va Zamonaviy Ayollar Jamiyati a'zolari tomonidan bosqinchilarga qarshi Fatih qabristoni oldida namoyish uyushtirilgan. 1919-yil 19-mayda esa Halide Edib xonim va Meliha xonim Istanbul shahar hokimiyati binosi oldida yig'ilgan ommaga murojaat qilib, milliy qarshilik ruhiyatini yuksaltirgan [3; 9].

Xulosa. Usmonli davlatida olib borilgan zamonaviylashuv siyosatlari bilan uyg'un tarzda ayollarning jamiyatdagi mavqei tobora dolzarb masalaga aylangan va uzoq yillar davomida muhokama markazida bo'lgan. Ayollarning mavjud holatidan norozilik bildirgan va bu norozilikni dastlab ifoda etganlar ham, aynan, o'qimishli erkaklar bo'lgan. Biroq ayollar o'z huquqlarini himoya qila boshlashlari - bu jarayon, tabiiyki, ta'lim orqali yuz bergan; yuqori tabaqaga mansub bo'lgan va yaxshi ta'lim olgan ayol qizlar ushbu harakatda yetakchi bo'lib, jamiyatda ongli yondashuvning shakllanishiga xizmat qilganlar.

Ittihad va Taraqqiy jamiyati esa ilk bosqichlardan boshlab ayol huquqlariga jiddiy yondashgan. Ikkinchi Mashrutiyat e'lon qilingach, siyosiy ta'sir kuchidan foydalangan holda ayollar bilan bog'liq sohalarda dadil va o'zgarishga yo'naltirilgan tashabbuslarni amalga oshirgan. Xususan, ayollar jamiyatlarining tashkil etilishini qo'llab-quvvatlagan, ularni o'z huquqlarini anglaydigan va ifoda eta oladigan ijtimoiy subyektlarga aylantirishga xizmat qilgan. Bu faoliyatlarga moddiy va ma'naviy ko'mak ko'rsatgan. Ittihad va Taraqqiy, matbuotni ham samarali vosita sifatida ishga solib, ayollar fikrlarini keng ommaga yetkazishda, yangilanish ruhini jamiyatning barcha qatlamlariga yoyishda muhim rol o'ynagan. Ayol mavzusini yoritgan

maqolalarni qo'llab-quvvatlab, ijtimoiy ongda ayol obrazining ijobiy yo'nalishda shakllanishiga xizmat qilgan.

Balkon urushlari va uning ortidan boshlangan Birinchi jahon urushi esa Usmonli ayolining mehnat hayotiga kirib borishini jadallashtirgan omil bo'ldi. Ayniqsa, urush yillarida faoliyat yurita boshlagan qizlar maktablari orqali ongli, zamonaviy ayol obrazining shakllanishi boshlangan. Erkaklar frontda bo'lgan paytda ularning vazifalarini zimmasiga olgan ayollar, hatto bevosita urush harakatlarida ishtirok etganlar, bu esa jamiyatdagi ayol mavqeining o'zgarishiga sabab bo'lgan.

1919–1923 yillar oralig'ida Usmonli ayollari namoyishlar tashkil qilgan, "Milliy Mudofaa uchun Ayollar Jamiyati"ni tuzgan, mustamlakachilarga qarshi kurashgan va ozodlik harakatining muhim ishtirokchisiga aylangan. Ayniqsa, Birinchi jahon urushi davrida ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotda faol qatnashuvi, Milliy Kurash yillarida ko'rsatgan jasorati va fidokorligi ularning siyosiy maydonga kirib kelishini kuchaytirgan. [8]

Bugungi kunda turk ayolining jamiyatdagi mavqei, egalik qilayotgan huquqlari va imkoniyatlari, asosan, Ikkinchi Mashrutiyat davrida Ittihad va Taraqqiy jamiyati tomonidan olib borilgan kurash va Milliy Kurash davrida Usmonli ayollarining fidokorona harakatlari natijasi sifatida yuzaga chiqqan deyish mumkin.

Foydalangan adabiyotlar

1. Abidoğlu, İ. (2020). *Modern Düşüncede Toplumsal Farklılık Olgusu*. İstanbul: Kitapyurdu Doğrudan Yayıncılık.
2. Açıköz, Ö. (2013). *Osmanlı Modernleşmesi*. Ankara: Elips Kitap.
3. Ahmad, F. (1999). *İttihatçılıktan Kemalizme* (F. Berktaş, Çev.). İstanbul: Kaynak Yayınları.
4. Akçura, Y. (1991). *Üç Tarz-ı Siyaset*. Atatürk Kültür, Dil ve Tarih Yüksek Kurumu Yayınları VII. Dizi, Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi.
5. Akçura, Y. (2007). *Türkçülük, Türkçülüğün Tarihi Gelişimi*. İstanbul: İlgı Kültür Sanat Yayıncılık.
6. Aydın, S., Türkoğlu, Ö. (2009). *İttihad ve Terakki Cemiyeti Programının ve Eyleminin Radikal Dönüşümü: 1908 Öncesi ve Sonrası*, F. Ergut (Der.), II. Meşrutiyeti Yeniden Düşünmek içinde (s. 260-281). İstanbul: Tarih Vakfı Yurt Yayınları.
7. Baydur, M. (2004). *Kemalizm ve Değişen Paradigma*. İstanbul: İlk Yayınları.
8. Berkes, N. (2005). *Türkiye'de Çağdaşlaşma* (A. Kuyaş, Çev.). İstanbul: Yapı Kredi Yayınları.
9. Çetinkaya, Y.D. (2009). *1908 Devrimi ve Toplumsal Seferberlik, II. Meşrutiyeti Yeniden Düşünmek* içinde (s. 13-23). İstanbul: Tarih Vakfı Yurt Yayınları.
10. Hakyemez, Y. Ş. (2008). *Osmanlı-Türk Anayasacılığında II. Meşrutiyet Durağı*, H. Akkurt, A. Pamuk (Der.) *Yüzüncü Yılında II. Meşrutiyet* içinde (s. 129-155). İstanbul: Pınar Yayınları.
11. Georgeon, F. (2007). *Bazı İşaret Taşları, Kemalizm ve İslam Dünyası*, İ. Gökalp, F. Georgeon (Ed.), *Kemalizm ve İslam Dünyası (1919-1938)* içinde (C. Akalın, Çev.). İstanbul: Kaynak Yayınları.
12. Kaçmazoğlu, H. B. (2003). *Türk Sosyoloji Tarihi II*. Ankara: Anı Yayıncılık.
13. Karakaş, M. (2007). *Türk Ulusçuluğunun İnşası*. Ankara: Elips Kitap.
14. Karakaş, M. (2008). *II. Meşrutiyet Dönemi Fikir Hareketleri*, H. Akkurt, A. Pamuk (Der.), *Yüzüncü Yılında II. Meşrutiyet* içinde (s. 65-102). İstanbul: Pınar Yayınları.
15. Mardin, Ş. (1999). *Jön Türklerin Siyasi Fikirleri 1895-1908*. İstanbul: İletişim Yayınları.
16. Millas, H. (2010). *1908 Olaylarından Yüz Yıl Sonra Rum Milletinin Rolü Nasıl Değerlendirilir?*, S. Akşin, S. Balcı, B. Ünlü (Ed.) *100. Yılında Jön Türk Devrimi* içinde (s. 61-82). İstanbul: İş Bankası Yayınları.

ANIQ FANLAR

Kamolov I.R.
t.f.n., professor,
Navoiy davlat
universiteti

Axmedov A.A.
p.f.d.(DSc),
professor, Navoiy
davlat universiteti

Izbosarov B.F.
f.-m.f.n., professor
Navoiy davlat
universiteti

**Idiboyeva S.B.,
Qahhorova M.E.**
talabalar, Navoiy
davlat universiteti

ELEKTROMAGNETIZM FANIDAN TALABANING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA IJODIY YONDASHUV

Annotatsiya. Ushbu maqolada Elektromagnetizm fanidan ma'ruza, amaliy va auditoriyadan tashqari bo'lgan talabaning mustaqil ta'lim mazmunini yanada takomillashtirish, talabalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish kabi dolzarb vazifalar haqida so'z yuritiladi. Om va Joul-Lens qonunlarining differensial ko'rinishlari individual va ilg'or ta'lim texnologiyalardan keng foydalangan holda keltirilib chiqarilgan bo'lib, talabalarda fizika faniga nisbatan qiziqishi ortishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, ta'lim jarayoni, talaba, Elektromagnetizm, tok kuchi, kuchlanish, Om qonuni, Joul-Lens qonuni, differensial ko'rinish, Amper kuchi, Lorens kuchi, ta'lim metodlari, ta'lim texnologiyalari, amaliy kompetentlik, kompetensiya, malakali mutaxassis.

ТВОРЧЕСКИЙ ПОДХОД В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТА ПО ДИСЦИПЛИНЕ ЭЛЕКТРОМАГНЕТИЗМ

Аннотация. В статье рассматриваются актуальные задачи дальнейшего совершенствования содержания лекционного, практического и внеаудиторного самостоятельного обучения студентов по предмету «Электromagnetizm», а также развития творческих компетенций студентов. Дифференциальные выражения законов Ома и Джоуля-Ленца излагаются с широким использованием индивидуальных и передовых образовательных технологий, что способствует повышению интереса студентов к физике.

Ключевые слова: высшее образование, образовательный процесс, студент, электромагнетизм, ток, напряжение, закон Ома, закон Джоуля-Ленца, дифференциальное выражение, сила Ампера, сила Лоренца, образовательные методы, образовательные технологии, практическая компетентность, компетентность, квалифицированный специалист.

CREATIVE APPROACH TO DEVELOPING STUDENT CREATIVE COMPETENCE IN THE SUBJECT OF ELECTROMAGNETISM

Abstract. The article discusses the current tasks of further improving the content of lectures, practical and extracurricular independent learning of students on the subject of "Electromagnetism", as well as the development of creative competencies of students. Differential expressions of Ohm's and Joule-Lenz's laws are presented with extensive use of individual and advanced educational technologies, which helps to increase students' interest in physics.

Key words: higher education, educational process, student, electromagnetism, current, voltage, Ohm's law, Joule-Lenz law, differential expression, Ampere force, Lorentz force, educational methods, educational technologies, practical competence, competence, qualified specialist.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19-martdagi PQ-5032-sonli "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida ham aynan fizika fanlari ta'limi samaradorligini oshirish xususida tegishli vazifalar aniq ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi, 2019-yil 8-oktyabrda PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31-dekabrda 824-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda muhim qadam hisoblanadi. Bu esa respublikamizda oliy ta'lim jarayonini takomillashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar zahirida jahon andozalari asosida raqobatbardosh malakali kadrlar tayyorlash va uni samaradorligini rivojlantirishga qaratilgan.

Bundan tashqari, bir necha yillar davomida olib borilgan ilmiy-pedagogik izlanishlar va adabiyotlar tahlili natijasidan ko'rish mumkinki: talabalar Umumiy fizika fanining Elektromagnetizm bo'limini o'zlashtirishda mexanika va molekulyar fizika bo'limiga nisbatan ayrim qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shuni inobatga olib, fanning ma'ruza mashg'ulotlarida individual va noan'anaviy ta'lim texnologiyalaridan hodisa va jarayonlarni qisqa vaqt davomida elektron doskalarda mobil ilovalardan foydalanish orqali ishlash pedagog uchun dolzarb hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida Elektromagnetizm fanidan ma'ruza mashg'ulotlari, amaliy mashg'ulotlar va auditoriyadan tashqari bo'lgan talabaning mustaqil ta'lim mashg'ulotlari mazmunini takomillashtirish asosida oliy ta'lim muassasasida (OTM) tayyorlanayotgan mutaxassislarni elektromagnetizmning asosiy qonuniyatlarini hamda nazariy va amaliy masalalarni bajarish uchun zarur bo'lgan fizikaviy bilimlar bilan tanishtirish, nazariy olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish, talabalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga, fan doirasida uning amaliy kompetentligi ham rivojlanadi, bu esa ta'lim tizimiga yangicha yondashuvni beradi. Umumiy fizika kursining Elektromagnetizm bo'limini o'qitishning o'ziga xos jihatlari shundan iboratki, bunda talaba ko'proq fizik jarayonni yuz berish sabablarini o'rganib chiqib, unda nazariyaning to'g'riligini tasdiqlashga imkoniyati bo'ladi [1,2].

Yuqorida aytib o'tilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida, bo'lg'usi fizika fani o'qituvchilariga ta'lim jarayonini zamonaviy ta'lim texnologiyalari, innovatsion yondashuvlar va an'anaviy bo'lmagan metodlar asosida tashkil etish samarali ta'limni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega [3].

Shuningdek, o'zgarmas elektr toki mavzularini ma'ruzada bayon vaqtida ham toklarni uzatilishida va taqsimlanishida aloqador bo'lgan Kirxgofning 1-qoidasiga talabalar diqqatini jalb etmog'imiz zarur bo'ladi, chunki ushbu qoidada: "tugunlardagi tok kuchlarining yig'indisi nolga teng" deyilgan. Bu jumlada tugunlarda tok yo'q degani emas, balki "tugunga kirayotgan tok qiymati tugundan chiqqan tokning qiymatiga teng" deb qabul qilish kerak. Buning asosiy sabab nimada? degan savolga javob berishimiz kerak bo'ladi. Javob shunday bo'ladi: "tugunning o'lchami juda kichik bo'lganligi sababli tugunda tokning sarfi kuzatilmaydi va tugunga qancha tok kirsa, shuncha tok chiqib ketadi. Ushbu yondashuv ham talabalarning fanga qiziqishi va diqqatini darsga jalb etilishiga olib keladi [4].

Shuningdek, ma'ruza davomida Om va Joul-Lens qonunlarining mazmun-mohiyati va matematik ifodasi yozilgandan so'ng, talaba ushbu mavzularni mukammal o'zlashtirib olishi uchun Om va Joul-Lens qonunlarining differensial ko'rinishlari keltirilib chiqarilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi, chunki bu qonunlarning differensial ko'rinishi umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litseylar fizika fani dasturlarida kiritilmagan. Agar ma'ruza davomida bu ish bajarilsa, talabalar uchun ham yangilik, ham fanga qiziqish ortadi.

1. Om qonunining differensial ko'rinishini tok zichligi formulasidan keltirilib chiqariladi: tok zichligi – o'tkazgichning ko'ndalang kesimi yuzasidan oqib o'tgan tokning kuchi bilan ifodalanadi, ya'ni

$$J = \frac{I}{S} \quad (1)$$

agar zanjir elektr yurituvchi kuchga ega bo'lmagan holda bo'lsa, unda tok kuchi

$I = \frac{U}{R}$ ekanligini inobatga olsak, u holda $\rightarrow J = \frac{U}{R \cdot S}$ bo'ladi. Shuningdek, o'tkazgich qarshiligi $R = \frac{\rho \cdot l}{S}$ ekanligini nazarda tutsak, shunda $\rightarrow J = \frac{U \cdot S}{\rho \cdot l \cdot S}$ bo'ladi. Elektr maydon kuchlanganligi va potensial orasidagi bog'lanish uchun

$E = \frac{U}{d}$ o'rinli bo'lsa, unda $\rightarrow J = \frac{E \cdot d \cdot S}{\rho \cdot l \cdot S}$ ko'rinishga ega bo'ladi. Formuladagi o'xshash fizik kattaliklarni qisqartirib olsak, $\rightarrow J = \frac{E}{\rho}$ matematik ifodaga ega bo'lamiz va solishtirma elektr o'tkazuvchanlik o'tkazgichning solishtirma qarshiligiga teskari proporsional, ya'ni $\sigma = \frac{1}{\rho}$ ekanligini bilgan holda

$$J = \sigma \cdot E \quad (2)$$

tengligini ko'ramiz va bu Om qonunining differensial ko'rinishini beradi.

2. Joule-Lenz qonunining differensial ko'rinishini o'tkazgichdan elektr toki o'tganda undan ajralib chiqadigan issiqlik miqdori formulasidan keltirilib chiqariladi. Bunda o'tkazgichning birlik hajmdan birlik vaqt ichida ajralib chiqqan issiqlik miqdori hisoblaniladi, ya'ni

$$Q = \frac{Q}{V \cdot t} \quad (3)$$

$\rightarrow$ agar o'tkazgichdan elektr toki o'tganda undan ajralib chiqqan issiqlik miqdori $Q = I^2 \cdot R \cdot t$ ekanligini e'tiborga olsak, $\rightarrow Q = \frac{I^2 \cdot R \cdot t}{V \cdot t}$ bo'ladi. agar zanjir elektr yurituvchi kuchga ega bo'lmagan holda tok kuchining $I = \frac{U}{R}$ ekanligini inobatga olsak va undan $R = \frac{U}{I}$ ga tengligidan

$\rightarrow Q = \frac{I^2 \cdot U \cdot t}{V \cdot t \cdot I}$ bo'ladi. Ushbu formuladan o'xshash kattaliklarni qisqartirsak, u holda $\rightarrow Q = \frac{I \cdot U \cdot t}{V \cdot t}$ bo'ladi. Agar $V = S \cdot d$ teng bo'lsa, $\rightarrow Q = \frac{I \cdot U \cdot t}{S \cdot d \cdot t}$ ko'rinishga ega bo'ladi. Elektr maydon kuchlanganligi va potensial orasidagi bog'lanish $E = \frac{U}{d}$ bo'lsa, yuqoridagi formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: $\rightarrow Q = \frac{I \cdot E \cdot d}{S \cdot d}$ yoki

$\rightarrow Q = \frac{I \cdot E}{S}$. tokning zichligi $j = \frac{I}{S}$ hamda uning differensial ko'rinishi $j = \sigma \cdot E$ ekanligi inobatga olinsa, $\rightarrow Q = \sigma \cdot E \cdot E$ yoki

$$Q = \sigma \cdot E^2 \quad (4)$$

ko'rinishga ega bo'ladi va bunga Joule-Lenz qonunining differensial ko'rinishi deb aytiladi [5,6].

Ma'ruza davomida Amper kuchi va Lorens kuchi mavzusini o'tayotgan vaqtda, Lorens kuchining matematik ifodasini keltirib chiqarish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Maktab yoki litsey fizika fani darsliklarida Lorens kuchi keltirib chiqarilmagan, balki umumiy holda formulasi berib o'tilgan. Shuning uchun bunga e'tibor qaratsak, talabalar uchun ancha foydali bo'ladi. Lorens kuchining matematik ifodasini keltirib chiqarishda Amper kuchi formulasiga tayanamiz. Bizga ma'lumki, Amper kuchi – magnit maydonda tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi kuchdir, ya'ni

$$F_A = I \cdot B \cdot l \cdot \sin \alpha \quad (5)$$

Demak, Amper kuchi tokli o'tkazgichga, ya'ni N ta zarraga ta'sir etuvchi kuch ekan.

Lorens kuchi esa, magnit maydonda harakatlanayotgan zarraga ta'sir etuvchi kuch, ya'ni yagona zarraga ta'sir etuvchi kuch.

Bundan ko'rinish turibdiki, Lorens kuchining formulasini keltirib chiqarish uchun Amper kuchini N zarralar soniga bo'lishimiz kerak ekan, ya'ni

$$F = \frac{F_A}{N} = \frac{I B l \sin \alpha}{N} \quad (6) \text{ bo'ladi.}$$

Agar tok kuchining zaryadlar konsentratsiyasiga bog'lig'ligini inobatga olsak, u holda $I = n \cdot q \cdot v \cdot S$

Bu yerda:

q – zaryad miqdori,

v – zarra tezligi

S – o'tkazgichning ko'ngdalang kesim yuzasi,

n – birlik hajmdagi zarralar soni

ya'ni zarralar konsentratsiyasi yuqoriligini olsak,

$$F_l = \frac{F_A}{N} = \frac{I \cdot B \cdot l \cdot \sin \alpha}{N} = \frac{n \cdot q \cdot v \cdot S \cdot B \cdot l \cdot \sin \alpha}{N}$$

bo'ladi.

$$n = \frac{N}{V} \quad \text{va} \quad V = S \cdot l$$

ekanligini inobatga olsak,

$$F_l = \frac{F_A}{N} = \frac{I \cdot B \cdot l \cdot \sin \alpha}{N} = \frac{n \cdot q \cdot v \cdot S \cdot B \cdot l \cdot \sin \alpha}{N} = \frac{N \cdot q \cdot v \cdot S \cdot B \cdot l \cdot \sin \alpha}{V \cdot N} \quad (7) \text{ bo'ladi}$$

Agar o'xshash fizik kattaliklarni o'zaro qisqartirib yuborsak, u holda

$$F_l = \frac{F_A}{N} = q \cdot v \cdot B \cdot \sin \alpha \quad (8)$$

bo'ladi va bunga Lorens kuchi deb yuritiladi [7].

Barcha amaliy mashg'ulotlarda nazariy jihatdan o'rganilgan mavzular isbotlanadi, tasdiqlanadi, barcha formulalarni matematik hisoblashlar orqali qonun va hodisalarni tasdiqlanishi ko'rsatiladi. Barcha talabalar amaliy mashg'ulotlarida fizik qonuniyatlarni amalda aniq qo'llash malakalari hosil bo'ladi. Demak, talabalarda krativ kompetentlik to'liq shakllanadi, ya'ni bo'lajak fizika o'qituvchilarni tayyorlashda asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Izbosarov B.F., Kamolov I.R. Elektromagnetizm. Toshkent. Iqtisod-moliya nashriyoti. 2006.
2. Джораев М., Ахмедов А. Модернизация компетентности будущих учителей физики. М.// Физика в школе №7-2015г-с.20-23.
3. А.А.Ахмедов, М.Джораев "Физика фанидан лаборатория машгулотларини ўтказишнинг инновацион услубиёти" Вестник Каракалпакского Государственного Университета им.Бердаха 2018г., №2(39) стр 50-51.
4. B.F.Izbosarov, I.R.Kamolov, G.R.Fatullayeva, L.H.Jalilova. "Oliy ta'limda talaba mustaqil ishini yuqori darajaga ko'tarish omillari". Xalq ta'limi jurnali. 5-son. 2018.
5. Kamolov I.R., Bisenova B.T., Kanatbayev S.S. "Jalpi fizika"(elektromagnetizm). Toshkent. Iqtisod-moliya, 2020.
6. И.Р.Камолов, С.С.Канатбаев, М.Э.Омонбоева, Ш.М.Мансурова. Интеграция предметов – поиск новых педагогических решений. "Наука и образование в современном мире: вызовы XXI века" V Международная научно-практическая конференция. Нур-султан, Казакстан. 130-132 стр. 2019 г.
7. Kamalova D.I., Kamolov I.R., Nabiyeva F.O., Mardanova Y.O'. Elektr va magnetizm (amaliy mashg'ulotlar). O'quv qo'llanma. - Navoiy.: "Aziz kitobxon" nashriyoti, 2025-yil.

Jo'rayev Akmal Razzoqovich

Buxoro davlat pedagogika instituti Aniq
va tabiiy fanlar fakulteti dekani, pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
professor

Xolliyev Javohir Farxodovich

Buxoro davlat texnika universiteti
elektr va energetika muhandisligi kafedrasida
katta o'qituvchisi
Elektron pochta:
javohirx1993@gmail.com

ENERGETIKA SOHASI BO'YICHA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARNI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA BAJARILGAN ILMIY- TADQIQOT ISHLARINING TAHLILI

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashtirish va texnologik taraqqiyot sharoitida energetika sohasida yuqori malakali, kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan muhandis-energetik kadrlarni tayyorlashning dolzarbligi yoritilgan. Unda kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyati, uning nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek, respublika va xorijiy olimlar tomonidan berilgan ilmiy talqinlari tahlil qilingan. Muhandis-energetik kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kreativlik, tanqidiy tafakkur va raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, respublikada 2003–2025-yillarda pedagogika fanlari bo'yicha himoya qilingan PhD va DSc dissertatsiyalari tahlil qilinib, ta'lim va tarbiya nazariyasi hamda metodikasi sohasida bajarilgan ilmiy tadqiqotlarning soni va mazmuni statistik ko'rsatkichlar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: muhandis-energetik kadrlar, kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, energetika ta'limi, nazariy bilim, amaliy ko'nikma, kreativ tafakkur, raqamli texnologiyalar, innovatsion metodlar.

АНАЛИЗ ПРОДЕЛАННОЙ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ РАБОТЫ ПО РАЗВИТИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ, ОБУЧАЮЩИХСЯ В ОБЛАСТИ ЭНЕРГЕТИКИ

Аннотация: В данной статье освещается актуальность подготовки инженерно-энергетических кадров с высокой квалификацией, профессиональными компетенциями в сфере энергетики в условиях глобализации и технологического прогресса. В ней анализируется содержание понятия компетенции, его теоретические и практические аспекты, а также научные трактовки, данные отечественными и зарубежными учеными. Обоснована необходимость овладения теоретическими знаниями, практическими навыками, креативностью, критическим мышлением и цифровыми технологиями в формировании профессиональных компетенций инженерно-энергетических кадров. Проанализированы также докторские и кандидатские диссертации по педагогическим наукам, защищенные в республике в 2003-2025 гг., выявлено количество и содержание научных исследований в области теории и методики обучения и воспитания на основе статистических показателей.

Ключевые слова: инженерно-энергетический персонал, компетентность, компетентностный подход, энергетическое образование, теоретические знания, практические навыки, креативное мышление, цифровые технологии, инновационные методы.

ANALYSIS OF THE RESEARCH WORK DONE ON THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS STUDYING IN THE FIELD OF ENERGY

Abstract: *This article highlights the relevance of training highly qualified engineering and energy personnel with professional competencies in the field of energy in the context of globalization and technological progress. It analyzes the content of the concept of competence, its theoretical and practical aspects, as well as scientific interpretations given by domestic and foreign scientists. The necessity of mastering theoretical knowledge, practical skills, creativity, critical thinking and digital technologies in the formation of professional competencies of engineering and energy personnel is substantiated. The doctoral and doctoral dissertations in pedagogical sciences defended in the republic in 2003-2025 were also analyzed, the number and content of scientific research in the field of theory and methods of teaching and upbringing based on statistical indicators were revealed.*

Keywords: *engineering and energy personnel, competence, competence approach, energy education, theoretical knowledge, practical skills, creative thinking, digital technologies, innovative methods.*

Kirish. Hozirgi davrda dunyo miqyosida kechayotgan texnologik rivojlanish, sanoatning yuqori sur'atlarda taraqqiy etishi, shuningdek, energetika sohasidagi innovatsion yangilanishlar malakali muhandis kadrlar tayyorlash dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Bunday sharoitda nafaqat ishlab chiqarish sohalarida, balki ilmiy-tadqiqot, loyiha-konstruktorlik, muhandislik-texnik xizmat ko'rsatish va menejment sohalarida ham yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Muhandis kadrlarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta'limning mazmuni, shakllari va metodikasini bugungi kunning innovatsion talablari asosida qayta ko'rib chiqish, ayniqsa energetika ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarni kasbiy faoliyatga puxta tayyorlash muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Bu esa, o'z navbatida, nafaqat nazariy bilimlarni o'rganish, balki real ishlab chiqarish vaziyatlarida mustaqil fikrlash, muammolarga tezkor yechim topish, texnologik jarayonlarni boshqarish hamda innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishni taqozo etadi.

Bo'lajak muhandis kadrlar kasbiy faoliyatida yuqori darajadagi mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Shuning uchun ularni tayyorlash jarayonida faqat texnik va tabiiy fanlarga oid bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, balki kommunikativ kompetensiyalar, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalari, tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va jamoada ishlash kabi kompetensiyalarni ham rivojlantirish lozim. Ayniqsa, energetika sohasida ta'lim olayotgan talabalar uchun bu kabi ko'nikmalar ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligi va xavfsizligini ta'minlashda, energiya samaradorligini oshirishni o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda energetika yo'nalishidagi muhandislik ta'limi ko'plab murakkab muammolar bilan yuzma-yuz bo'lib, ulardan biri ta'lim mazmunining ishlab chiqarish ehtiyojlariga yetarlicha mos kelmasligi. Shu bois, oliy ta'lim muassasalari va sanoat korxonalari o'rtasida dual ta'lim texnologiyalariga asoslangan samarali hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, o'quv dasturlarini ishlab chiqarishdagi real texnologik talablar asosida optimallashtirish, zamonaviy ishlab chiqarish vositalari bilan jihozlangan laboratoriyalarda amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish zarurati ortib bormoqda.

Innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi muhandislik ta'limida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Jumladan, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, energetika tizimlari bo'yicha chuqurlashtirilgan bilimlar va amaliy ko'nikmalar muhandislarning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda muhandislik, ayniqsa energetika sohasida kadrlar tayyorlashda ta'limning metodik imkoniyatlarini tubdan isloh qilish, talabalarni kasbiy faoliyatga kompleks tayyorlash, ularning texnik va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri bo'lib, ishlab chiqarish bilan uzviy bog'langan ta'lim muhitida yuqori malakali, mas'uliyatli va innovatsion fikrlovchi muhandislarni tayyorlash mumkin bo'lgan tadqiqod nazariyasiga tayanildi.

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika) ixtisosligidan energetika sohasini o'qitish mazmunidagi tadqiqod ishlarini amalga oshirib ijobiy natijalarga erishgan Respublikamizning yosh olimlaridan L.A.Nematov, A.N.Mamatkulov, Sh.A.Pazilova, U.A.Eshniyozov, D.X.Xalmanovlar tomonidan energetika sohasini o'qitish metodikasi, **pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, kreativlik, eksperimental ko'nikmalar, kompetentli yondashuv, raqamli vositalar va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim** asosida dars jarayonini samarali tashkil etish, talabalarning **texnik fikrlash, ijodkorlik, mustaqil ta'lim** va **kasbiy kompetensiyalarini** rivojlantirishga qaratilgan metodikalar ishlab chiqilib, ta'lim mazmuni va o'qitish metodikasini takomillashtirishga hissa qo'shganlar.

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika) ixtisosligidan mutaxassislikka oid aynan bir fanini o'qitish metodikasi bo'yicha Respublikamiz tadqiqotchilari D.A.Eshnazarov, Y.A.Suyunova, M.J.G'ofirov, U.J.Hasanov, S.B.Atajonova, O.S.Nurova, A.A.Parmonov, B.T.Karimov, H.M.Kurbanov, N.Q.Abdullayev, U.B.Abdiyevlar tomonidan texnika yo'nalishlarida olib borilgan tadqiqotlarda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, ushbu tadqiqotlar modulli o'qitish, innovatsion va raqamli texnologiyalar, virtual ta'lim muhiti, laboratoriya mashg'ulotlari va tizimli tahlil kabi metodlar asosida amalga oshirilgan bo'lib, talabalar kompetensiyalarini (axborot-texnologik, konstruktorlik, muhandislik, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash) rivojlantirish, mutaxassislik fanlarini o'zlashtirish uchun zamonaviy o'quv metodikasi, baholash vositalari va elektron resurslardan foydalanishni rivojlantirish, amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ilmiy-tadqiqotga yo'naltirish, o'qitish jarayoniga muqobil energiya, fizik hodisalar, 3D modellashni integratsiyalash metodikasini takomillashtirish mazmunidagi ilmiy-tadqiqod ishlari amalga oshirilib, texnika oliy ta'lim muassasalarida o'quv sifatini oshirish, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash va texnologik muhitga moslashuvini kuchaytirishga xizmat qilishi nazariy asoslangan.

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika) ixtisosligidan aynan bir ta'lim yo'nalishini o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha Respublikamiz tadqiqotchilari J.F.Madaminov, B.Y.Begmatov, U.A.Pardaboyev, O.O.Nazarov, I.N.Saydaliyev, Y.R.Jo'rayev, H.I.Xanbabayev, D.I.Kulmuradov, Sh.E.Qarshiboyev, O.S.Sultanov, M.Q.To'raqulova, O.Ch.Kuziyev, I.I.Umirov, Sh.S.Xoshimovalarning dissertatsiya ishlarida texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, muhandislik, texnologik, axborot-kommunikatsiya, ijodiy va loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, turli fanlar bo'yicha ta'lim sifatini oshirish, amaliy mashg'ulotlar samaradorligi, raqamli va innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali o'quv jarayonini takomillashtirishga e'tibor qaratganlar. Ushbu tadqiqotlar orqali talabalarda mustaqil fikrlash, amaliy-ijodiy faoliyat, texnik va muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari va usullari aniqlangan, o'quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalar (web-texnologiyalar, mobil ilovalar, raqamli platformalar, elektron darsliklar)ni integratsiyalash, talabalarni ishlab chiqarish jarayoniga yaqinlashtirish, korxonalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, real muammolar asosida o'qitish metodikalari takomillashtirilib, o'quv fanlarini modullashtirish, didaktik va metodik ta'minotlarni yangilash orqali fanlar mazmuni boyitilgan va o'quv jarayonida amaliy va nazariy bilimlarni uyg'unlashtirgan holda interfaol usullar keng qo'llanilishi taklif qilingan, baholash mezonlari ishlab chiqilib, talabalarning rivojlanish darajasi aniq va haqqoniy baholanishi uchun maxsus diagnostik tizimlar taklif etilgan.

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika) ixtisosligidan bo'lajak muhandis-energetik kadrlarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha Respublika olimlaridan O.U.Eshmanov, R.Q.Xudoykulov, K.A.Yadgarov, D.P.Mirzoyev, U.A.Eshquvvatov, D.D.Baratov, A.K.Bijanov, A.K.Bijanov, N.M.Qo'ziyev, V.E.Ubaydova, M.O.Xoldorova, U.A.Nurullayev, A.X.Tillayev, M.A.Alimovlar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Dunyo olimlari D.E.Ryabova, A.V.Hutorskoy fikriga ko'ra kompetensiya quyidagicha talqin qilinadi: kompetensiyani shaxsning faoliyatga tayyorligi, ya'ni bilim, ko'nikma, malaka,

shaxsiy sifatlar, qadriyatlar va tajribaga asoslangan amaliy harakatga tayyorlik darajasi sifatida tushuntirgan.

Yuqorida ko'rib tahlillari keltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining mazmuni shuni ko'rsatadiki, fan, texnika va zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi texnika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bo'lajak muhandis energetik kadrlarni zamonaviy talablarga mos, keng ko'lamli kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan mutaxassislar sifatida tayyorlashni taqozo etmoqda. Xususan, ularning mutaxassislikka oid fanlar o'qituvchisi sifatida shakllanishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi doimiy takomillashib borayotgan texnologik muhitda uzluksiz rivojlanib, hajman kengayib bormoqda. Bu esa ularni kelgusidagi innovatsion faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalaridan samarali foydalanishni o'zlashtirish zarurligini anglatdi.

Bo'lajak mutaxassislik fanlari o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida axborot-kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalaridan didaktik vosita sifatida foydalanish, ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ayni paytda mavjud tajribalar tahlili bu borada ayrim kamchiliklar borligini ko'rsatmoqda:

- Elektr energetikasi ta'lim yo'nalishida mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida zamonaviy dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish tajribasining yetarli darajada shakllanmaganligi;
- Pedagogik jamoalarning salohiyati va moddiy-texnik bazaning innovatsion talablarga mos emasligi;
- Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini virtual muhitda tashkil etishga xizmat qiluvchi dasturiy vositalarning yetishmasligi, shuningdek, ularni qo'llashga doir metodik materiallarning yo'qligi.

Zamonaviy axborot almashunuv asrida insoniyat faoliyatining aksariyati axborotlar bilan ishlash ularni yig'ish, saqlash, tahlil qilish va uzatish jarayonlariga asoslanmoqda. Shu bois, bo'lajak muhandislarni zamonaviy axborot muhitida ishlashga tayyorlash ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Axborotlar bilan ishlash ko'nikmalari nafaqat innovatsion ta'lim faoliyatida, balki ilmiy-tadqiqot jarayonlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion faoliyatga tayyorlangan muhandis o'z sohasidagi yangiliklarni yaratish, mavjud muammolarga ilmiy yondashuv asosida yechimlar topish, yangi axborotlarni izlab topish va ularni amaliyotga joriy etish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Bunday vazifalarni amalga oshirish esa katta hajmdagi axborotlarni samarali tarzda boshqarish va qayta ishlashni talab qiladi. Bu borada avtomatlashtirilgan o'quv-axborot tizimlari, bilimlar bazasi va ma'lumotlar ombori kabi dasturiy vositalar muhim didaktik imkoniyatlar yaratadi. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishga Respublikamizda alohida e'tibor qaratilayotgani quvonarli hol, ammo shunga qaramay, bo'lajak muhandis energetik kadrlarni mutaxassislik fanlari o'qituvchisi sifatida innovatsion faoliyatga tayyorlash bo'yicha zarur nazariy, amaliy hamda ilmiy-metodik asoslar hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Dasturiy ta'lim vositalari keng joriy etilayotgan bo'lsada, ularning ta'lim jarayoniga samarali integratsiyasi uchun kompleks yondashuvlar zarur hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida Respublikamizda amalga oshirilgan va ijobiy natijalarga erishilgan holda himoya qilingan dissertatsiya ishlarining sonini qanday raqamlarda ekanligini bilish va ularning mazmunini anglash maqsadida 2003-2025-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalarining avtoreferatlarini ziyorat.uz axborot ta'lim platformasidan yuklab olish orqali tizimli tahlil qilinganda, ularning umumiy soni ikki ming ellik to'rt (2054) tani tashkil qilib, shundan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining umumiy soni bir ming sakkiz yuz oltmish (1860) tani, pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalarining umumiy soni bir yuz to'qson to'rt (194) ta ekanligi hamda pedagogika sohasining 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalab bo'yicha) ixtisosligidan bajarilgan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalarining umumiy soni olti yuz to'qson ikki (692) ta bo'lib, shundan pedagogika fanlari


- 82 bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining umumiy soni olti yuz yigirma (620) ta hamda pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalarining umumiy soni yetmish ikki (72) ta ekanligi aniqlangan (1.1-jadvalga qarang).

1.1-jadval

2003-2025-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va pedagogika fanlari doktori (DSc) hamda 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) ixtisosligidan bajarilgan dissertatsiyalarining umumiy soni

2003-2025-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalarining umumiy soni		2003-2025-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalaridan hamda 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) dissertatsiyalarining umumiy soni	
2054		692	
Shundan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining umumiy soni	Shundan pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalarining umumiy soni	Shundan 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) ixtisosligida pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining umumiy soni	Shundan 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) ixtisosligida pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalarining umumiy soni
1860	194	620	72

Yuqoridagi tahlillar diagramma ko'rinishida ham izohlangan (1.1-rasmga qarang).



2003-2025-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalarining umumiy soni

2003-2025-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalaridan hamda 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) dissertatsiyalarining umumiy soni

Shundan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining umumiy soni

Shundan pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalarining umumiy soni

Shundan 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) ixtisosligida pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining umumiy soni

Shundan 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) ixtisosligida pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalarining umumiy soni

1.1-rasm. 2003-2025-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va pedagogika fanlari doktori (DSc) hamda 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) ixtisosligida bajarilgan dissertatsiyalarining foizda ko'rsatgichlari


13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika) ixtisosligidan bajarilgan dissertatsiyalarining umumiy soni qirq to'rt (44) ta ekanligi va pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining umumiy soni qirq bitta (41) ta hamda pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalarining umumiy soni uch (3) ta bajarilganligi ushbu tanlangan mavzuning dolzarbligini esa, o'qitish metodikasiga oid bajarilgan tadqiqod ishlaridan bo'lajak muhandis-energetik kadrlarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mazmunidagi dissertatsiyalarining umumiy soni sakkiz (8) ta bo'lib, u ham bo'lsa pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari hissasiga to'g'ri kelayotgani hamda pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiya tadqiqotlari amalga oshirilmaganligini ko'rish mumkin (1.2-jadvalga qarang).

1.2-jadval

2003- 2025-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalaridan 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika) ixtisosligidan hamda bo'lajak muhandis-energetik kadrlarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mazmunidagi dissertatsiyalarining umumiy soni

2003-2025-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalaridan 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika) ixtisosligida bajarilgan dissertatsiyalarining umumiy soni		2003-2025-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalaridan bo'lajak muhandis-energetik kadrlarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mazmunidagi dissertatsiyalarining umumiy soni	
44		8	
Shundan 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika) ixtisosligidan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining umumiy soni	Shundan 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika) ixtisosligidan pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalarining umumiy soni	Shundan bo'lajak muhandis-energetik kadrlarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mazmunidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining umumiy soni	Shundan bo'lajak muhandis-energetik kadrlarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mazmunidagi pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalarining umumiy soni
41	3	8	0

Yuqoridagi tahlillar diagramma ko'rinishida ham izohlangan (1.2-rasmga qarang).



2003- 2025-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalaridan 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika) ixtisosligida bajarilgan dissertatsiyalarining umumiy soni	2003- 2025-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalaridan bo'lajak muhandis-energetik kadrlarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mazmunidagi dissertatsiyalarining umumiy soni
Shundan 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika) ixtisosligidan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining umumiy soni	Shundan bo'lajak muhandis-energetik kadrlarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mazmunidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya-larining umumiy soni
Shundan 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika) ixtisosligidan pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalarining umumiy soni	Shundan bo'lajak muhandis-energetik kadrlarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mazmunidagi pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiya-larining umumiy soni

1.2-rasm. 2003- 2025-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalaridan 13.00.02–Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika) ixtisosligidan hamda bo'lajak muhandis-energetik kadrlarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mazmunidagi dissertatsiyalarining foizda ko'rsatgichlari

Yuqoridagilar Respublikamizda miqyosida 2003-2025-yillarda bajarilgan dissertatsiya ishlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarning bo'lajak muhandis-energetik kadrlarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mazmunidagi pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari deyarli olib borilmaganligi ushbu dissertatsiya mavzusini "Bo'lajak muhandis-energetik kadrlarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish" va ixtisosligini 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika)

ixtisosligidan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) tarzida belgilanishi dolzarb masala sifatida qaralishiga metodologik asos bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тураев А.А., Жураев А.Р. "Модуль приема оптических сигналов с входным каскадом на полевом фототранзисторе // Физика, электроника, электротехника. Материалы программы научно-технической конференции, Сумский государственный университет 2016 – г. С 181-182.
2. Жураев А.Р., Нурумбетова У.К. "Основы обеспечения взаимосвязи учебной программы трудового образования. "Молодой учёный" международный научно журнал № 13 (117) / Июль 2016 – г. С 792-794.
3. A.R. Zhuraev "Types of education and importance of ensuring the coherence of education content in terms of subject "Science and world" International scientific journal. № 7 (35) / 2016, Russia Volgograd. Pg. 67- 69.
4. Жураев А.Р., Тешаева И.М. "Методические основания оптимизации содержания предмета «Технология». "Проблемы науки" научно–методический журнал № 6 (30) / 2018 г. Россия, Москва с 88 – 89.
5. Xolliyev, J. F. (2023). Elektr energiyasi iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi (askuz) tahlili. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(6), 18-21.
6. Xolliyev Javohir Farxodovich (2024/11/12). Bo'lajak muhandis-elektroenergetik kadrlarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. *Modern education and development*, 1(14), 140-146.
7. Жураев А.Р., Йўлдошова Г.С. "Значение использования программы «AutoCAD» при обучении учеников 7 класса по направлению «Технология и дизайн». "Наука, образование и культура" научно–теоретический журнал № 4 (28) / 2018 г. Россия, Москва с 58 – 60.
8. Zhuraev A.R. "Research and methodology background to the optimization of labour and professional training curriculum in general secondary education // International scientific journal. № 7 (35) / Russia Volgograd. International scientific journal. № 7 (35) / Russia Volgograd. Impact factor of the journal «Science and world» – 0.325 (Global Impact Factor 2013, Australia) 2016. – P. 70-71.
9. D.A. Sayfullayeva, A.R. Juraev, Yu.N. Toshev. "Innovative project of preparation of students for professional activity. Научно-методический журнал «Вестник науки и образования». Москва, 2020 - г. № 19 (97). Часть 2. С 48 – 51.
10. А.Р. Жураев., Ш.Х. Хазратова. "Использование лоскутов в шитье современной одежды "Universum" технические науки. научный журнал. – № 12 (81). Часть 2 / Россия, Москва. 2020. – С. 52 – 55

Niyozmetova Roza Xasanovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

Roza@navoiy-uni.uz

BADIIY ASARDA TABIAT TASVIRI VA QAHRAMONLAR TUYG'ULARI IFODALANISHINI O'RGANISH

Annotatsiya. Maqolada tabiat tasviri bilan inson ruhiyati uyg'unligi ifodalangan ayrim asarlarga e'tibor qaratilgan, tahlilga tortilgan.

Kalit ko'zlar: poeziya, lirika, qahramon tuyg'ulari, ruhiy holat, "Dahshat", o'tmishni ideal tasvirlash, "Bahor qaytmaydi", "Kecha va kunduz" asari.

So'z o'zganing holatini, ruhiyatini, qalbini anglash vositasidir. So'z - inson sezgilarini o'zgaga yuqtiradigan sehrli qurol. So'z - ichki va tashqi dunyoning insonga xos tarjimoni. Ammo uning bu fazilatlarini faqat tafakkur otiga mingachgina erishiladi, xolos. Binobarin, ayol zoti - xushbichim libosi, daryo - qirg'og'i, tabiat esa dov-daraxtlari bilan go'zal va to'kis bo'lganidek, so'z ham teran, ta'sirchan, aql va qalban anglanadigan ma'nosi bilan hayotbaxshdir.

Tabiat tasviri kitobxonga asar qahramonlari ruhiyatini yaqqol ochib beradi, uni hayotning past-balandini, achchiq-chuchugini, ya'ni tasvirlanayotgan voqelikni chuqur anglash va his etishga tayyorlaydi. Oddiy bayon bunday imkoniyatlarga ega emas: u xabar bera oladi, xolos. Badiiy asarda tabiat tasviridan foydalanish adabiyotdagi keng qamrovli masala hisoblanadi. Yozuvchilar o'z asarlarida qahramonlarning tuyg'ularini ifodalar ekanlar, tabiat tasviri ham o'sha ruhiy holatga mos ravishda ifodalanadi. Masalan, Abdulla Qahhor qalamiga mansub "Dahshat" hikoyasini olsak. Hikoya shiddatli shamol tasviri bilan boshlanadi. Kech kuzak shamoli manzarasi chiziladi: "*Yaqin ikki haftadan beri ko'z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g'uvillaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi*". Asar qahramonlarining o'zaro suhbatida havoning buzuqligi, qalblarga qo'rquv solishi muallif tomonidan juda jonli tarzda ifoda etilgan. Unsinning o'sha vaqtdagi ruhiy holati anchayin tushkun, allanechuk qalbi azoblarga to'lgandi. Dodhoh esa o'zi tabiatan jizzaki, qo'pol va xotinga o'ch kimsa sifatida tasvirlanadi.

Tabiat tasviri go'yoki, bo'lib o'tayotgan voqeaning, shuningdek, kelgusida bo'lishi mumkin bo'lgan voqealarning darakchisiday tuyuladi. Keyingi holatda u asarning tezisi vazifasini bajaradi, deb hisoblash mumkin. Muallif tabiatning dahshatli manzarasidan darhol odamlar orasidagi munosabatlar tasviriga ko'chadi. Kitobxon diqqatini Olimbek dodxohning uyiga jalb etadi. Dodhoh kelishi bilan xotinlari to'zib qolgani, biri sallasini yechgani, biri chakmoniga qo'l uzatgani, yana biri mahsisini tortishga chog'langani, kelin bo'lib tushganiga besh oygina bo'lgan kenja kelin - Unsinning chilim solib tutgani tasvirini mahorat bilan chizadi. Mana shu qisqa tasvirdan dodhoning qanday kimsa ekani oydinlashadi. Uning zulmkor, zo'ravon ekani o'quvchi ko'z oldida yaqqol gavdalanadi.

Umuman, personaj ruhiyatini ochishda yozuvchi tabiat tasviridan foydalanish o'rinlarini juda ko'p badiiy asarlarda uchratishimiz mumkin.

Olimxon dodxoh erkka erishmoqchi, mustaqilligini qo'lga kiritmoqchi bo'lgan Unsinning yoniga o'z maymunini yuboradi. Chunki qo'l ostidagi qulining erkka erishishini xohlamaydi. Qadimda boylar maymun boqqan ekan. Shu sabab maymun obrazi keltirilgan. Olimxon dodxoh boy edi.

O'sha davrda ayollar oyoqosti qilingan. Qul sifatida qaralgan. Ayollarga mustaqillik berilmagan. Bir paranji ortida ham ayolning o'zi toptalgan, ham uning erki toptalgan. Hozirga kelib esa barcha davlatlar gender tengligi deb jar solmoqda, Bugungi kun ayollari umuman o'zini Unsinning o'rniga qo'yolmaydi, holatini tasavvur ham qilolmaydi: hozirgi kun ayollari kundosh bilan bir joyda bo'lishni fojea deb biladigan, bunday hayot ularning tasavvuriga ham sig'maydi.

Unsin - irodali, qo'rqqanida jasoratli, cho'rtkesar. Unsin qo'rquvdan hushini yo'qotib qo'ymaslik uchun qanday yo'l tutdi? Siz nima qilgan bo'lardingiz? Unsin yengildimi? Irodali, erkparvar odamni yengish mumkinmi? Siz nima deb o'ylaysiz, o'lmoq yengilmoqmi? Siz Unsinga qanday maslahat bergan bo'lar edingiz?

"Dahshat" hikoyasi mazmuni asosida taqdim etiladigan yuqoridagi kabi savol va topshiriqlarning barchasiga sinfdagi hamma o'quvchilardan javob talab qilish shart emas. Muhimi, o'quvchilar shu haqda o'ylab ko'radilar, o'zlarini ham aqlan, ham ruhan zo'riqtiradilar. Savol yoshlarning ko'ngillariga kirib boradi. Bu, albatta o'z natijasini beradi. Buni o'qituvchi ma'lum vaqt o'tgach anglay boshlaydi.

O'tkir Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" asarida ham tabiat tasviri qahramon tuyg'ulariga mos tushadi. Asar tabiat tasviri bilan boshlanadi. *"Bo'ston qishlog'iga og'ir vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi. Tumanlik qo'ynida jimgina mudragan tonglar, ilk sovuq og'ushida junjikkan seryulduz oqshomlar boshlandi. Havoga yelpig'ichday qat-qat bulutlar chiqdi"*. Bu tasvir, avvalo, o'quvchini asar voqealari yuz beradigan joy bilan tanishtiradi. Kech kuzning sokin tarzda tasvirlanishi keyingi voqealar rivojiga ishora qilgandek bo'ladi. Shuningdek, Alimardonning tobi qochib, beparvo, loqayd yotganida ham, tabiat tasviri unga hamohang ifoda topadi. Chunki tashqarida yomg'ir yog'ar, ba'zi kunlari yog'masa ham havo ancha sovib ketgan edi. Hovli yong'oq barglariga to'lib-toshib ketgan edi. Tabiatning bu tasviri orqali ham uyda ayol kishi yo'qligi, boz ustiga onasidan ayrilgani Alimardonni azoblayotgani, ushbu holat uning yuragini ezayotgani anglashiladi.

Asar oxirida Alimardonning o'g'lini ko'rish uchun Muqaddamning qishloqdagi xonadoniga borgani, farzandi Shavkatning o'z otasidan qochib, onasiga talpingani, begona bir insonni ota deganidan qattiq iztirobga tushgani – ushbu ruhiy holati mahorat bilan tasvir etilgan. Ayniqsa, Alimardonning fojiali o'limini yozuvchi tabiat tasviriga monand chizgilarda beradi: *"Ko'kda momaqadiroq faryod soldi. Chaqmoqning bir lahzalik sovuq nuri g'amgin bosh egib turgan tog'larni, yomg'irdan yaltirab ketgan qizg'ish qoyalarni, yo'lning shunday chekkasidan tik tushib ketgan jahannam jarligida ilonday bilanglab oqayotgan soyni yoritib o'tdi. Ammo uning ko'zlari hech nimani ko'rmas, tasavvurida faqat bir narsa – o'z otasidan yotsirab, yig'lab, uyga qochib kirib ketgan Shavkat. Uning silkinib borayotgan do'mboq qo'lchalari turar, alamdand vujudi qaltirab, oyog'i og'rganiga qaramay, bor kuchi bilan gazni bosar edi... Zum o'tmay dahshatli suron tog'-toshlarni larzaga soldi. G'amgin qoyalar qilib qo'ygan gunohidan o'zi qo'rqib ketganday ingrab yubordi..."*.

Hududsiz tabiat og'ushida inson, nahotki, bir zarra misoli bo'lsa; vaqtning shafqatsiz odimlari qarshisida, oniy umrini o'ylaganda, o'lim oldida shunchalik nola sezadimi; yo'qsa, bir martagina berilmish ushoqqina umrning mazmuni nimada; inson o'zining tabiat bilan bog'liqligini qanday his etadi? Ana shu masalalarga berilgan poetik javobdan biz bugungi zamondoshlarimiz xarakteri, ma'naviy-psixologik dunyosining boyligidan, faoliyatining ijtimoiy ahamiyatidan voqif topamiz. Bugungi kunda tabiat va inson mavzusi o'zining ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy mohiyatiga ko'ra ham ana shunday dolzarb masalalardan biri sifatida muhim xarakter kasb etadi. Ushbu masalaga har bir soha vakillari o'ziga xos tarzda yondashmoqda va unga javob izlamoqda.

Tabiat tasviri orqali qahramon ruhiyatini ifodalash Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida ham o'ziga xos holda tasvirlangan. *"Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi...Tollarning ko'm-ko'k sochpopuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi, o'zlari horg'in-horg'in oqsalar-da, bo'shalgan qul singari erkinlik nash'asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog'ochlarning*

88 uchlarida yakka-yakka qushlar ko'rina boshladi. Birinchi ko'ringan ko'klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash'asini beradi. Bultur ekilib, ko'p qoshlarni qoraytirgan o'sma ildizidan yana bosh ko'tarib chiqdi... Muloyim qo'llarda ivib, suvga aylangandan keyin go'zal ko'zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko'rar ekan bu ko'kat! Erkaklarning gullik do'ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro'mol popuklari bilan hazillashib o'ynagan salqin shabada... ko'klam nash'asi bilan sho'xlik qiladi. Hayot nega bu qadar go'zal va shirin bo'ladi bahorda?"

"Zebi (Zebinisa)ning qish ichi siqilib, zanglab chiqqan, ko'ngli bahorning iliq hovuri bilan ochila tushgan; endi, ustiga poxol to'shalgan aravada bo'lsa ham, allaqaylarga, dala-qirlarga chiqib yayrashni tusay boshlagan edi". Romanning bu misralar bilan boshlanishi asarning bosh qahramoni Zebinisaning beg'ubor qalbi, go'zal odobi va qizlarcha samimiy tuyg'ulariga ishora qiladi. Ushbu asarda muallif tabiat manzarasini tahlil markaziga ko'taradi. Qahramonning ichki dunyosi va yashash tarzini baqamti umumlashtiradi. Otasining qiziga nisbatan o'ta talabchanligi, qizining xursandchiligini o'ylagan onasi Qurvonbibining ruxsati nimalarga olib kelmadi...

Aravada ketayotgan Zebi dugonalar kulgisi, aytilayotgan yor-yorlar ta'sirida o'z muvozanatini yo'qotib, otasining maslahatini unutib, qo'shiq boshlab yuboradi.

Bu o'rinlar tahlil davomida o'quvchilar bilan munozarali savollar asosida yanada ochiladi, ularning fikri tinglanadi, bugungi hayot bilan bog'lanadi, xulosalar beriladi.

Yuqori sinflarda badiiy asar tilini o'rganishda peyzaj tasviriga ham e'tibor qaratiladi. O'qituvchi yozuvchi tabiat manzarasini ma'lum maqsadda tasvirlashini, dunyoqarashi, asarda aks ettirilgan voqea va obrazlarga bo'lgan munosabatini anglab olishda peyzajning o'rni muhimligini qayd etish bilan birga peyzajni tasvirlashda til xususiyati, yozuvchining maqsadini aniqlab olishda til, tasviriy vosita va badiiy ifodalar katta ahamiyatga ega ekanligini ham bayon etadi. "*Qayta o'qishda asarning yangidan-yangi qirralari ochilib boradi. Bir o'qilganda e'tiborsiz o'tilgan tasvir va epizodlar boshqa safar diqqatni tortadi. Bu hol, tabiiyki, adibning obraz yaratish mahoratiga, inson qalbini chuqur anglashiga, voqea-hodisalar bayon usuliga tegishlidir. Zero, adabiyotdek so'z san'ati uchun badiiy til juda muhim sanaladi; so'z vositasida obrazlar, manzaralar, tuyg'ular suvratlantiriladi,*"– deb yozadi Abdulla Qodiriy asarlari tadqiqotchisi, adabiyotshunos olim Bahodir Karim.

Demak, badiiy asarlarda qahramon tuyg'ularining tabiat tasviri bilan uyg'unligi ifodasini o'rganish masalasi yoshlarning badiiy asarlar mazmunini, asar qahramonlari ruhiyatini, voqea-hodisalar sodir bo'lgan muhitni yanada chuqurroq anglashida, adibning mahoratini baholashida zarur turtki vazifasini bajaradi. Asarni chuqur mushohada yuritib tahlil qilishga yo'llaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qahhor. Asarlar. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. I jild. 1988 yil.
2. Hoshimov O'. Tanlangan asarlar. Toshkent, Sharq. 2009, I jild, 23-bet
3. Karimov B. Radloff W. Die alttürkischen Inschriften der Mongolei. Neue Folge. St.-Pbg.: 1894. – P. 460.

Axmadoy Olimjon Shodmonovich

Buxoro davlat pedagogika instituti
maktabgacha va boshlang'ich ta'lim pedagogikasi
kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc)
ahmadovolimjon@buxdpi.uz

BUXORODA TA'LIM-TARBIYA TIZIMINING RIVOJLANISHIDA MANG'IT HUKUMDORLARINING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoroda XIX asr oxiri-XX asr birinchi choragida ta'lim-tarbiya muammolariga bag'ishlangan, Buxoro amirligida hukumronlik qilgan Amir Shohmurod, Muhammad Rahimxon, Amir Haydar, Amir Abdulahad, Amir Olimxon mang'itlarning ta'lim-tarbiyaning rivoji uchun olib brogan ijobiy say haakatlari ochib berilgan hamda manbalar va adabiyotlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: Amir Shohmurod, Muhammad Rahimxon, Amir Haydar, Amir Abdulahad, Amir Olimxon, Muhammad Sharif, Mirzo Sadiq Munshiy, Mir Abdulkarim, Mir Husayn Miriy, Muhammad Yoqub Doniyolbiy, Xumuliy, Mirzo Shams Buxoriy, Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Hashmat, Sadridin Ayniy, Manba, manbashunoslik, ta'lim, tarbiya, uzluksiz ta'lim, tadqiqot, maqola, dastur, tizim, an'anaviy ta'lim, maktab, madrasa.

РОЛЬ МАНГИТИЙСКИХ ПРАВИТЕЛЕЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В БУХАРЕ

Аннотация. В этой статье, посвященной проблемам образования и воспитания в Бухаре в конце XIX-первой четверти XX века, раскрыты положительные сдвиги в развитии образования Амир Шохмурод, Мухаммад Рахимхон, Амир Хайдар, Амир Абдулахад, Амир Олимхон, мангитов, правивших в Бухарском эмирате, а также проведен научный анализ источников и литературы.

Ключевые слова: Амир Шахмурод, Мухаммад Рахим Хан, Амир Хайдар, Амир Абдулахад, Амир Олимхан, Мухаммад Шариф, Мирза садик Муниши, мир Абдулкарим, мир Хусейн Мири, Мухаммад Якуб Даниелбий, Хумули, Мирза Шамс Бухари, Ахмад Дониш, Абдурауф Фитрат, Хашият, Садриддин Айни, источник, источниковедение, образование, воспитание, непрерывное образование, исследование, статья, программа, система, традиционное образование, школа, медресе.

THE ROLE OF MANGITI RULERS IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL SYSTEM IN BUKHARA

Abstract. This article, devoted to the problems of education and upbringing in Bukhara at the end of the XIX-first quarter of the XX century, reveals positive developments in the development of education of the Amir Shohmurod, Muhammad Rahimxon, Amir Haydar, Amir Abdulahad, Amir Olimxon Mangits who ruled in the Bukhara Emirate, as well as a scientific analysis of sources and literature.

Key words: Amir Shahmurad, Muhammad Rahim Khan, Amir Haidar, Amir Abdulahad, Amir Olimkhan, Muhammad Sharif, Mirza Sadiq Munshi, Mir Abdulkarim, Mir Hussein Miri, Muhammad Yakub Danielbiy, Humuli, Mirza Shams Bukhari, Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Hashmat, Sadridin Aini, source, source studies, education, upbringing, continuous education, research, article, program, system, traditional education, school, madrasah.

XVIII asrning o'rtalarida Buxoro xonligi o'rnida Buxoro amirligi vujudga kelib, amirlik davri (1753-1920 yy) aslida mang'it urig'idan bo'lgan Muhammad Rahimxon o'zini "xon" deb atagan bo'lsada hukumronligidan boshlanib, sulola so'ngi vakili Amir Olimxonga qadar davom etdi. Ma'lumki sovet hokimiyati yillarida kommunistik mafkura va sinfiylik nazariyasi asosida ta'lim berilib, xon hamda amirlarni "savodsiz" "qonxo'r" "joxil" "boylik va mansabga mukkasidan ketgan" kabi g'ayriilmiy fikr mulohazalarni ongimizga sindirib kelishdi. Biroq, mahalliy, asl manbalar, qo'lyozma asarlar bilan tanishish asnosida amin bo'lindiki, hukumdorlar ham rahbar va shahs sifatida imkon qadar ijobiy jihatlarni o'zlarida namoyon qilishgan.

Ushbu maqolada Buxoro mang'it amirlaridan Muhammad Rahimhon (1753-1758 yy), Amir Shohmurod (1785-1800 yy), Amir Haydar (1800-1826 yy), Amir Abdulahad (1885-1910 yy), Amir Olimxon (1910-1920 yy) kabilarda shahsiy, ijobiy xislatlarning ta'lim-tarbiyadagi ibratli jihatlarni bir qadar tahlil qilishga harakat qildik. Mang'itlar hukumdorligi davri tarixshunoslaridan Muhammad Sharif, Mirzo Sodiq Munshiy, Mir Abdulkarim, Mir Husayn Miriy, Muhammad Yoqub Doniyolbiy, Xumuliy, Mirzo Shams Buxoriy, Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Hashmat, Sadridin Ayniy, kabilarning tarix va ta'lim-tarbiyaga qaratilgan asarlarida amirlar haqida bildirilgan ijobiy baholar mavjudligiga amin bo'linadi. Mang'itlar sulolasining birinchi vakili Muhammad Rahimhon islomiy ma'naviyat va ma'rifatdan mukammal xabardor bo'lmasada, qat'iyatli irodali, boshlagan ishini ohiriga yetkazadigan, mahoratli harbiy qo'mondon, imkon qadar adolat bilan ish ko'radigan shahs bo'lgan [6.309-310] Muhammad Rahimhon diniy va dunyoviy ilmlarni egallash bobida qanchalik shahsiy tashabbus ko'rsatmasin, harbiy harakatlar va davlat boshqaruv ishlari bilan ko'p vaqt band bo'lib, o'z maqsadlariga erisha olmagan. U inson tarbiyasida jismoniy chiniqish, iroda kuchini ko'rsatish jihatlari e'tibor qaratib, bu borada shahsiy namuna ko'rsatgan.

Uning jiyani Shohmurod tarihchi Miriyning yozishicha, 8 yoshida Karmana, keyinchalik Qarshi begi bo'lgan. Muhammad Doniyolbiy otaliqdan harbiy san'at sirlarini o'rgangan. U kunning birinchi yarmida fiqh (islom huquqi) ilmi bilan, tushdan so'ng esa, "Qur'on"ning sura va oyatlarini yod olish bilan shug'ullangan, 8 yoshida "Qur'onni" yod olgan edi. [6.321.325. 3.150.162] Amir Shohmurod yoshligidanoq fiqh (islom huquqshunosligi) bilan shug'ullanib, kamolga yetganidan so'ng islom fiqhining Hanafiya mazhabiga oid bo'lgan barcha fatvolar va qoidalarni o'zida mujassamlashtirgan "Fatvoyi ahli Buhoro" va "Ayn ul - Hikma" nomli to'plamlarni yaratdi. Ushbu majmualar o'sha davr huquq meyorlarini tizimlashtirishda muhim rol o'ynadi. Ushbu to'plamlar davlatchilik tarixi nuqtai nazaridan hamon o'rganilgan emas va fors tilidan o'zbek tiliga tarjima etilmagan. Shohmurod tashkil etgan "Majlisi amir" anjumani aholining huquqiy savodxonligini oshirishda muhim rol o'ynadi [9.20-21].

Amir Shohmurod oddiylik, kamtarinlik inson ziynati ekanligi, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, alloh ato etgan ne'metlarni qadriga yetish, tejankor, kamxarj bo'lib yashashni shahsiy hayotida ko'rsata olgan. Uning oilasidagi bir kunlik harajat 7 tangadan ortmagan va jizya (jon solig'i) hisobidan kelgan daromaddan yashar edi [6.595].

Amir Shohmurod olumu-fuzalolarga g'amxo'rlik qilgan. U tarihda "Amiri shohsun" – byegunoh amir nomini olgan. Ushbu amir haqida XIX asr ohiri - XX asr boshlarida yashagan buhorolik tarihchilardan Ahmad Donish (1827-1897 yy) Sadridin Ayniy (1878-1954 yy), Abdurauf Fitrat (1886-1938 yy) kabilar ham ijobiy fikr-mulohazalar bildiradilar. Ahmad Donish o'zining "Tarihi salotini mang'itiya" (Mang'it amirlari tarihi) nomli kitobida: "Har ming yilda bitta ulug' hukumdor tahtga kelib, keyingi rivojlanishni boshlab beradi. Ushbu ming yilning besh yuz yili ijobiy o'zgarishlar, keyingi besh yuz yilida tanazzul yuz beradi. Har yuz yilning o'zaro nisbati ham ellik yildandir. Musulmon (hijriy) taqvimi bilan XIII asrda Amir Temur hukumronlik qildi, XVII asrda Amir Shohmurod islomiy rivojga hissa qo'shdi" - deb yozgandi. Sadridin Ayniy esa: "Shohmurod o'quvchi va olimlarga g'amxo'rlik qildi, mamlakatda intizom o'rnatdi"- mazmunidagi ijobiy fikrlar bildirgandi [6.414.415].

Amir Shohmurod adolatsiz, poraho'r, zulm va zo'ravonlik bilan davlatni boshqarishda xalq va ulus qahru-g'azabiga uchragan qozikalon hamda qushbegini qatl ettirgan. Uning bu qat'iy tadbiri

xalq oldidagi obroʻ-etiborini oshirgandi. Uning vorisxoʻri, oʻgʻli Amir Haydar diniy ilmlarni Quroni karim, hadisi – sharif, islom fiqhi, islom kalomi, tasavvuf va hokozolarni oʻrganishga yoshligidanoq qatʼiy ahd qilgan. U xotin – qizlarga mehr-oqibat koʻrsatish, qatʼiy irodasi, diniy va dunyoviy malumot olishga intiluvchanligi bilan oʻz amaldorlariga ibrat namuna boʻlgan. U madrasada 11 yil talim olib, malum muddat mudarrislik (oʻqituvchilik) ham qilgan. Amir Haydar islom dini qoidalaridan 1000 tagacha ilmu toliblarga saboq bergan. Uni mullavachchalar orasida 400-500 nafar shogirdlari boʻlgan. Madrasalarda tahsil olayotgan ilmu toliblarni shahsan oʻzi imtihondan oʻtkazib turgan. Ular atroflicha va chuqur bilim olishlari uchun Istanbul (Usmoniylar saltanati) dan kitoblar yuborishlarini soʻrab shahsan murojatlar qilgan. Istanbulga yuborgan elchilariga dunyoviy va diniy ilmlarga oid kitob va qoʻllanmalar keltirish vazifasini ham yuklagan. U ilm va olingan taʼlim natijasini sinovdan oʻtkazish vositasi distut (munozara) qilish deb bilgan, shu sababli diniy ulamolar bilan munazaraga kirishib, vaqt – vaqti bilan oʻzi egallagan bilimlarni imtihondan oʻtkazib turgan. XIX asr tarihchilari Amir Haydar diniy va dunyoviy ilmda shayboniy va ashtarxoniy hukumdorlardan ustun boʻlganligini qayd etishadi. [6.103 104. 105] U halqning talabi bilan mamlakatda maktab, maschit, xonaqoh, madrasalar qurishga koʻp mablagʻ sarflagan. Ushbu amir davrida oddiy halq orasidan ham ancha savodli kishilar yetishib chiqqan. Buhoro Amir Haydar davrida islom ilmlarining markaziga aylangan.

Amir Abdulahad (1885-1910 yy) Buhoro amirlari orasida eng yuqori mavqega ega boʻlgan, general-adyutant maqomiga erishgan shaxs edi. Uning hukumronligi davrida Rossiya imperiyasi hukumati bilan mahoratli diplomatik munosabatlar olib borildi. Amir Abdulahad bunyodkorlik ishlariga katta eʼtibor berdi. Hatto, horijda ham binolar bunyod etishdek vazifalarni uddalab, Yaltada saroy, Sankt-Peterburgda maschit, Makka va Madinada xonaqoh, doʻkon, tegirmonlar barpo etdi. Uning davrida saroyda “bedilxonliklar” tashkil etildi, oʻzi ham “Ojiz” tahallusi bilan sherlar yozdi [10.45,48].

Amir Abdulahad jamiyatda keng tarqalgan tamagirlik, porahoʻrlik, giyohvandlik, bachchavozlik, kaptarvozlik, oshiq oʻyini, bedanabozlik, qimorbozlikka qarshi kurashgan. Ushbu illatlar inson maʼnaviyatining tubanligi ekanligini chuqur anglab sud-huquq tizimini tartibga soluvchi farmonlar chiqargan. U tamagir, porahoʻr amaldorlarni mansabidan chetlatdi. Nasha chekish, koʻknor istemol qilish, bachchabozlik, qul savdosi, qatl qilish, tan jazosi kabilarni bekor qilgan. 1886 yilda zindonlarning bir qismini yopdi, Buhoro shahridagi kanaxona koʻmib tashlandi. Abdulahadon davrida ilk jadid maktablari ochilib, ularda zamonaviy taʼlim –tarbiya, dunyoviy bilimlar berildi. 1897 yilda Mulla Joʻraboy maktabi, 1097 yilda tatar ziyolisi Nizomiddin Sobitov maktabi, shuningdek, 1908 yilda mahalliy jadidlardan Abduvohid Munzim, Sadridin Ayniy maktablari ochilgan. Ushbu maktablar mutaassib mullalar tazyiqi bilan yopilgan boʻlsada, Amir Abdulahad davrida kechqurun bolalar va yoshlarni toʻplab xususiy uy maktablarida oʻqitish davom etdi [8.14-15].

Mangʻit hukumdorlarining soʻnggi vakili Amir Sayid Olimxon faoliyati haqida bir qadar kengroq toʻxtalib oʻtishni lozim topdik. Amir Sayid Olimxon oʻzining xotira kitobida 1896 yilgacha Rossiya imperiyasi poytahti Sankt-Peterburgda paj (kadet)lar maktabida harbiy bilim olganligini qayd etadi. Harbiy bilim yurtida oʻqish muddati 7 yil boʻlib, ushbu dargohni boʻljak amir 3 yilda yani muddatdan oldin bitirgan va muvaffaqiyatli imtihonlar topshirgan. U otasi Amir Abdulahadxondan davlatni idora qilish ilmini oʻrganadi. Karmana va Qarshi bekliklarini boshqarib, bu borada yetarlicha tajriba orttirgan. [4.7,8.]

Amir Sayid Olimxon soved davri adabiyotlarida yozilganidek, aysh-ishratga berildi – degan aqidadan voz kechib, tarih haqiqatiga murojaat qilsak. Uning yozishicha: “Buhoroyi sharif arki yaqinida Baloyu havuz deyilgan joyda oʻz nomimga bir ibodatga maschit bino qildirdim. Buxoro minorasining past tomonida, bozorning ichki tomonida oʻz nomimdan Dor-ul-ulum – Bilim uyi boʻlgan bir madrasa qurdirdim, har xil ilmdan dars beruvchi muallimlar tayin ettirdim. Mazkur madrasada istiqomat qiladigan talabalar sarf-xarajatlari, maosh va kiyim-kechak ham oʻz tarafimdan belgilanib, unga bir nafar nozir tayin ettirdim. Bozor va yoʻl obodligiga koʻp harakat qildim, uch yil ichida (1911-1914 yy) Buxoro mamlakati ancha obod boʻldi, unga zeb –ziynat va

92 tartib –intizom o‘rnatdim. Mening sayi harakatimdan Buhoro aholisi va butun mamlakat mamnun bo‘ldi”. [4.8.5.48]

Obodonchilik va qurilish ishlariga e‘tibor berish bilan birga Amir Olimxon 1910-1916 yillarda mamlakatning iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy yuksalishiga hukumat nomidan bir qator fatvo, farmonlar chiqardi. O‘sha paytlarda boy amaldorlar va savdogarlar dabdabali to‘ylar qilib, ming-minglab pullarini havoga sarflar edilar. Yirik savdogarlar to‘ydan so‘ng uch kungacha “savdogar to‘yi” qilar, to‘y-marakalarda ko‘pkari, uloq berish (uloq o‘yini) “kiyimlik berish” “qand va qandolot tarqatish” marosimlarini tugatishga alohida e‘tibor qaratib, 1911 yilning martida “Juda isrofli to‘ylarni tugatish to‘g‘risida” farmon, 1916 yil 5 iyunda to‘ylardagi isrofgarchiliklar, hususan qand tarqatishni sharoitga zid, deb fatvo chiqardi. Bu farmon va fatvo bilan to‘y kunlari qisqartirildi uloq o‘yinlari, qand tarqatish, chopon kiydirish kabilar to‘xtatilib, marakalarda “meva tarqatish ” 4-5 xil ovqat pishirish ta‘qiqlandi. Amir Olimxon sog‘liqni saqlash sohasida alohida, ayniqsa xotin qizlar salomatligiga alohida e‘tibor qaratib, xotin-qizlar salomatligiga e‘tibor qaratdi. 1911-1912 yillarda bevosita amir hukmi bilan Buxoroda ayollar ishfaxonasi va tug‘ruqxona ochildi. 1913-1916 yillarda Buxoroning o‘nlab bekliliklarida ambulatoriya va kasalxonalar qurildi.

Amir Olimxon xarbiy soha bilimdoni sifatida Rossiya imperiyasining imperatori Nikalay II (1894-1917 yy) dan general harbiy unvonini oldi. Aksariyat Rossiya shaharlarida rus amaldorlari va zobitlari bir necha bor uni hurmat-izzat bilan kutib oldilar hamda unga munosib hurmat ko‘rsatdilar.

Amir Olimxon yoshlar ta‘limiga ham alohida e‘tibor berdi. U 1911 yil mart oyida “Ta‘lim to‘g‘risida”gi farmonini imzoladi. Farmonga ko‘ra madrasa talabalariga turli hoshiyalar o‘qitilmasligi, tafsir va hadis rasmiy dars sifatida o‘qitilishi, davlat xazinasiga olingan vaqflardan yig‘ilgan pullarga shaharni turli yerlarida maktablar qurilishi hamda ularga muallimlar tayinlash, ularga maktablarning vaqflaridan tashqari davlat xazinasidan yillik 120 so‘mdan maosh tayinlash va u har oy maktabni taftish qilib amirga hisobot berishi belgilab qo‘yildi. [8.16,17] Amir Olimxon xukumronligi davrida Yevropa va Sharq memorchiligi uyg‘unligining yorqin namunasi bo‘lgan yozg‘i saroy Moxi-Xossa nafaqat memoriy inshoot, qurdirdiki u qolaversa, inson aql-zakovati bilan yoritilgan nodir sana‘t namunasidir. Ushbu binoni barpo etishda yuksak estetik did ma‘naviy-aqliy salohiyat talab qilinishi isbotga muxtoj emas.

1920 yil sentabrda Buxoroda amir tartibi bolsheveklar tomonidan ag‘darilganidan so‘ng, Amir Sayid Olimxon Sharqiy Buxoro (hozirgi Surxandaryo viloyati va Tojikiston Respublikasi-O.A)ga chekinib, olti oy davomida sovetlarga qarshi kurash olib bordi. Noteng janglarda yengilgan amir 1921 yilning 4 martida Panj va Vaxsh daryolari qo‘shiladigan Chubek irmog‘idan Tojikistondan 100 minglab kishilar bilan qo‘shni Afg‘oniston hududiga o‘tdi va o‘sha yilning may oyida Qobulga keldi. Shundan so‘ng uning 23 yillik muhojirlik davri boshlandi. [2.193-196] Amir Olimxon Kobul yaqinidagi Fatuh qal‘asida yashab, 37 ta o‘g‘il va qiz farzandlar ko‘rdi. Amir Olimxon Afg‘onistonda aslida “uy qamog‘i”da yashadi. Unga Kobuldan 11 km uzoqlikka chiqish mumkin emasdi. Amirning har bir harakati va faoliyati ham ingliz, ham sovet hukumati ayg‘oqchilari nazoratida bo‘lgan. Amir Olimxon 16 nafar o‘g‘li, 21 nafar qizini (1990 yillar boshida amirning 12 nafar o‘g‘li, 10 nafar qizi hayot edi-O.A) savodli, ma‘lumotli bo‘lishlari uchun Britaniya Hindistondan Xo‘ja Karomatulloh, Xo‘ja Rahmatulloh ism – sharifli ingliz tili muallimlarini yollagan. Hozirda Afg‘oniston, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Pokiston, Eron, Germaniya, AQShda istiqomat qilayotgan amirning farzandlari va naberalari orasida (amir avlodlari xorijda 3 mingta ekanligi bilan bog‘liq tegishli ma‘lumotlar bor-O.A) shoir va yozuvchi, jurnalist, tibbiyot xodimi, iqtisodchi va tijoratchi kasblarida faoliyat ko‘rsatayotgan ziyolilar mavjud. Amir Olimxon xarakterida salbiy xususiyatlar mavjud emasdi, degan da‘vodan yiroqmiz. Biroq undan ibrat olsa arziydigan fazilatlar ham talaygina ekanligi malum. Amir qat‘iyatli, bir so‘zli, irodasi mustahkam shaxs bo‘lgan. Afg‘oniston poytaxti Kobulda har yili mamlakat mustaqilligi bayrami (Jushon bayrami-O.A) nishonlangan. Afg‘oniston amiri Omonullahon (hukumronligi 1919-1929 yy) bu kabi bayramlarga yevropacha kiyimda ishtirok etish tartibini joriy etgandi. Amir Olimxon buxorocho milliy kiyimda bayram tantanalariga borgan va bir so‘zda

turgan, u milliy kiyimda yurishni yoqtirgan, kuchli mergan bo'lgan, Fatuh qalasada "ijodiy kechalar" "bedilxonliklar" tashkil etgan. [1. 410,420,445] Amir Sayid Olimxon milliy musiqa san'atining ixlosmandi bo'lib, dutor, tanburda mumtoz kuylarni mahorat bilan ijro etgan, bir umr Vatan muhabbati va sog'inchi bilan yashagan.

Xullas, Buxoro mang'it amirlari shahsini sovet hokimiyati yillarida yozilgan adabiyotlar talqinidagi qora bo'yoqlardan izlash kerak iborat emas. Ular haqidagi haqiqiy ma'lumotlarni mahalliy tarixchilarning qo'lyozma asarlarini atroflicha o'rganish orqali anglab olish mumkin. Istiqbolda ushbu hukumdorlarning ibrat bo'ladigan qirralari haqida yangi tadqiqotlar yaratiladi, degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev Q.N. Ot Sinszyana do Xorosana. Iz istorii emigratsii XX veka-Dushanbe; Irfon, 2009. – 572.str.
2. Abdullayev Q.N. Buxarskaya poslerevolyusionnaya emigratsiya (k istoriografim problemy //Veb: Oktabrskaya revolyusiya v Sredney Azii i Kazaxstane: Teoriya, problemy, perspektivy izucheniya-T.; Fan; 1991.-S 187-196.
3. Agabekov.G.S. Sekretniy terror: zapiski razvedchika-M.: Terra-Knijny klub; 1998-336 str.
4. Amir Sayid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. Forsiydan A. Irisov tarjimasi.-T.; Fan, 1991-32bet.
5. Bobojonova F.Q. Buxoro amirligida ta'lim tizimi.-T.; "Adib", 2014.-128 bet.
6. Anke Fon Kyugyelgin. Legitimatsiya sredneaziatskoy dinastin mangitov v proizvedeniya ix istorikov (XVIII-XIX v.v) Almaty, Dayk-Press, 2004.- 516 str.
7. Jumanazar Abdusattor. Buxoro ta'lim tizimi tarixi-T.; Akademnashr, 2017. -592 bet.
8. Jamolova D.M. Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati (XIX asr oxiri – XX asr boshlari): Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.-Toshkent-2019.-54 bet.
9. Shodiyev J.M. Buxoro amirligining tashkil topishi va davlat tuzumi. Yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferat.-Toshkent-2008.-25 bet.
10. Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro - Turkiston beshigi. (fors tilidan tarjima, tarjimon nomidan so'zboshi va ayrim izohlar muallifi H.To'rayev) Buxoro - 2004.-128 bet.
11. Shodmonovich A. O. Education in the emirate of bukhara (based on the life and work of the rulers) //Academicia: an international multidisciplinary research journal. – 2020. – T. 10. – №. 12. – C. 1224-1227.
12. Ahmadov O. Бухоро амирлигида янги усул мактаблари фаолияти. Ютуқлари ва муаммолар //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
13. Ахмедов О. III. Образование в бухарском эмирате (на основе жизни и творчества правителей) //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 6 (131). – С. 10-13.
14. Ahmadov O. Buxoro bosmaxona va nashriyotlariga texnika sohasidagi yangiliklarning kirib kelish tarixidan (1920-1924-yillar) //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

Shabon Muhamadovna Farmonova

Buxoro davlat universiteti
pedagogika kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

O'QUVCHILARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHDA BAHOLASHNING O'RNI

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarni intellektual rivojlantirish jarayonida baholash tizimining tutgan o'rni tahlil etiladi. Baholash nafaqat o'quv natijalarini aniqlash vositasi, balki o'quvchilarning fikrlash salohiyatini, tahliliy va tanqidiy yondashuvlarini rivojlantirish omili sifatida ham qaraladi. Unda zamonaviy baholash usullari, shu jumladan, formatif va summativ baholash turlari orqali o'quvchilarning bilimini chuqurlashtirish va mustaqil fikrlashga undash imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada shuningdek, baholash orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularning qobiliyatlarini aniqlash va individual yondashuvni shakllantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishda baholashning muhim vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, intellektual, Baho, didaktik, bilim, ko'nikma, malaka, DTS, kompetensiya.

РОЛЬ ОЦЕНКИ В ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОМ РАЗВИТИИ УЧАЩИХСЯ

Аннотация: В данной статье анализируется роль оценочной системы в процессе интеллектуального развития учащихся. Оценка рассматривается не только как средство определения результатов обучения, но и как фактор развития мыслительных способностей, аналитического и критического подходов учащихся. В нем освещаются возможности углубления знаний учащихся и стимулирования самостоятельного мышления с помощью современных методов оценки, включая формирующие и итоговые типы оценок. В статье также уделяется особое внимание вопросам повышения мотивации учащихся посредством оценки, выявления их способностей и формирования индивидуального подхода. Результаты исследования подтверждают, что оценка является важным инструментом в повышении интеллектуального потенциала учащихся.

Ключевые слова: учитель, интеллектуальный, оценочный, дидактический, знания, умения, компетентность, ДТС, компетентность.

THE ROLE OF ASSESSMENT IN STUDENTS' INTELLECTUAL DEVELOPMENT

Abstract: This article analyzes the role of the assessment system in the process of intellectual development of students. Assessment is considered not only as a means of determining learning outcomes, but also as a factor in developing students' thinking abilities, analytical and critical approaches. It highlights the possibilities of deepening students' knowledge and stimulating independent thinking through modern assessment methods, including formative and final assessment types. The article also pays special attention to the issues of increasing students' motivation through assessment, identification of their abilities and the formation of an individual approach. The results of the study confirm that assessment is an important tool in increasing the intellectual potential of students.

Keywords: teacher, intellectual, evaluative, didactic, knowledge, skills, competence, DTS, competence.

Kirish.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantirish bilan birga, ularning intellektual rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda baholash tizimi muhim vositalardan biri bo'lib, nafaqat o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlaydi, balki ularning fikrlash salohiyatini, mantiqiy va tanqidiy yondashuvlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. An'anaviy baholash yondashuvlarining o'rnini bosayotgan zamonaviy formatif va summativ baholash metodlari o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyati va ijodiy salohiyatini aniqlash va rivojlantirishga imkon yaratadi. Yosh avlodning har tomonlama etuk, bilimli, yuksak ma'naviyatli, barkamol, vatanparvar shaxslar bo'lib etishishini ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining eng asosiy bo'g'ini sifatida pedagog xodimlarning yuqori ilmiy metodik bilimlarga, yuksak mahoratga ega bo'lishi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bugungi kunda ta'lim jarayonini tashkil qilishda didaktik baho o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda alohida pedagogik imkoniyatlarga ega. Baho pedagogik, falsafiy hamda psixologik mohiyat kasb etib, o'quvchi faoliyati, xulqiga bo'lgan tashqi va ichki munosabatni ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda baho ob'ektiv hamda sub'ektiv xarakterga ega. Baho yordamida o'quvchining xulq-atvori va o'zlashtirish darajasi muayyan talablar va axloq me'yorlariga qay darajada mos kelishi aniqlanadi. O'qituvchilar va ota-onalar o'quvchi faoliyatiga baho berishi natijasida uning ruhiyati hamda harakatlarida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bugun o'qituvchilik kasbi nufuzi sezilarli ravishda oshishi bilan muallimalarning faolligi va o'quvchilar ta'lim-tarbiyasiga e'tibori kuchaygani bor gap. Ammo joriy yilda o'tkazilgan xalqaro PISA tadqiqoti dasturida o'zbekistonlik o'quvchilarning salbiy natija ko'rsatganini qanday izohlaysiz?

Ma'lumki, PISA tadqiqotlari har bir mamlakatga o'zining kuchli va zaif tomonlarini dunyo ta'lim tizimi bilan qiyoslash imkonini beradi. Mamlakatimizda ta'limni isloh qilish ustuvor vazifalardan biriga aylangan ekan, uning samarsini xalqaro mezonlarda baholashga ehtiyoj yuzaga kelgani tabiiy. Binobarin, bugun davlatimiz rahbarining qat'iy irodasi bilan yurtimiz xalqaro maydonda o'z mavqei va nufuzini ochiq namoyon etmoqda. 2022-yilda o'tkaziladigan PISA baholash dasturida 85 davlat qatori O'zbekiston ham ilk marotaba qatnashdi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning tadqiqotga munosib tayyorgarlik ko'rishini talab etadi. Chunki PISA tadqiqotida baholashning asosi, bu – matematika, o'qish, tabiiy fanlar va qator innovatsion sohalar bo'yicha jahon miqyosida muvofiqlashtirilgan topshiriqlar to'plami. Bunday baholash har 3 yilda ishtirokchi mamlakatlarning 15 yoshli o'quvchilari o'rtasida tasodifiy tanlov asosida o'tkaziladi.

Baholash deganda o'qish jarayonida o'quvchi oldiga qo'yilgan vazifalarni o'quv predmetlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlari talablari bilan solishtirish orqali erishilgan darajani aniqlash tushuniladi. Baholashda o'quvchining bilimi, ko'nikmasi va malakasi aniqlanadi.

Bugungi kun talablari nuqtai nazaridan yondashganda baho – o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalar hamda shaxsiy sifatlarni egallaganlik darajasiga o'qituvchi tomonidan bildirilgan munosabatdir. Bahoning ta'lim tizimida o'quvchini rivojlantirish bilan bog'liq imkoniyatlari nazariy jihatdan hanuzgacha ochib berilmagan. Pedagogika va psixologiyada baho tushunchasiga nisbatan turlicha ilmiy yondashuvlar mavjud. Bir guruh olimlar uni o'quv jarayoni natijasining bahosi sifatida o'rganganlar. SHu ma'noda olimlar ta'lim natijasining sifati ta'lim jarayoni oldiga qo'ygan vazifalarga mos kelishi zarurligini ta'kidlaydilar. O'quvchilarning bilish imkoniyatlari jamiyat talablarini qondirish uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallashlariga ko'maklashishi kerak. Bu esa o'quv jarayonining bosqichlari, o'quvchilar tomonidan egallangan bilimlar, ko'nikmalar hamda malakalar va ularning madaniyatlik darajalari, ma'naviy kamolotlarini ko'rsatuvchi asosiy didaktik vosita sifatida namoyon bo'lishi lozim. Mavjud pedagogik adabiyotlarda bahoning ikki xil imkoniyati ko'rsatilgan. Bular: tashqi va ichki reflektiv imkoniyatlardir. Uning ichki yoki reflektiv imkoniyati esa, o'quvchining o'zi-o'zini baholashida namoyon bo'ladi. O'quvchining o'zini-o'zi baholashi o'quv-biluv faoliyati va uning natijalarini ifodalashdan iboratdir.

Metodlar. O'quvchining o'quv faoliyati natijasini baholash uning xato va kamchiliklarini tushunishi va bartaraf etishiga imkoniyat yaratadi. Bu esa, uni intellektual rivojlanish sari

yoʻllaydi. Oʻquvchining oʻquv faoliyati natijasini baholash yordamida u oʻzining kelajakda bajarishi lozim boʻlgan ishlarini aniqlaydi va rejalashtiradi. SHu tariqa har bir oʻquvchining rivojlanish yoʻnalishlari belgilanadi. Baho yordamida oʻqituvchi oʻquvchilarning oʻquv faoliyatlarini kuzatish va ularning rivojlanish yoʻllarini rejalashtirish imkoniyatiga ega boʻladi. SHu bilan bir qatorda, baho oʻquvchini ragʻbatlantiruvchi, rivojlantiruvchi kuchga ham ega. SHu maʼnoda u ajdodlarimiz tajribasida mustahkam oʻrnashib didaktik qadriyatga aylangan. Oʻquvchilarni intellektual rivojlantirish — bu ularning mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish, tahlil qilish, sintez qilish va xulosalash kabi kognitiv koʻnikmalarini rivojlantirish demakdir. Baholash – bu oʻquvchilarning bilim, koʻnikma va intellektual salohiyatini aniqlash, ularni oʻrganish jarayonida yuzaga kelgan muvaffaqiyatlar va kamchiliklarni aniqlash hamda kelajakdagi oʻqitish strategiyasini belgilashga xizmat qiluvchi jarayon.

Intellektual rivojlanishni baholash oʻquvchining aqliy qobiliyatlarini, fikrlash jarayonini, ijodkorligini va mantiqiy tafakkurini oʻlchashga qaratilgan.

Toʻgʻri tashkil etilgan baholash jarayoni quyidagilarga erishishga yordam beradi:

1. **Tanqidiy va mantiqiy fikrlashni shakllantirish** – savollarga erkin javob berish, ochiq javobli topshiriqlar, muammoli vazifalar orqali oʻquvchilarning mustaqil tahlil qilish koʻnikmalari rivojlanadi.

2. **Ijodiy fikrlashni ragʻbatlantirish** – alternativ yechimlarni topish, loyihaviy ishlar, esse yozish kabi topshiriqlar orqali oʻquvchi oʻz fikrini erkin ifoda etishga oʻrganadi.

3. **Oʻz-oʻzini baholash va refleksiya** – oʻquvchilarning oʻz ustida ishlash madaniyati shakllanadi, ular oʻz kamchiliklarini tahlil qilish va bartaraf etish orqali oʻz intellektual salohiyatini oshiradilar.

4. **Individual yondashuvni taʼminlash** – baholash natijalari orqali har bir oʻquvchining kuchli va zaif jihatlari aniqlanadi, natijada oʻqituvchi har bir oʻquvchi bilan individual ishlash imkoniyatiga ega boʻladi.

Oʻquvchilar oʻquv faoliyati natijalarini baholash quyidagi vazifalarni bajarishi nazarda tutiladi:

1. Oʻquvchilarning oʻzlashtirish darajalari, oʻquv faoliyati natijalarini joriy, oraliq va bosqichli nazorat orqali tekshirish va aniqlash;

2. Oʻquvchilarning taʼlim tayyorgarlik darajalarini sertifikatlash, oʻquvchilarning oʻquv faoliyati natijalarini davlat taʼlim standartlariga mosligini tasdiqlash;

3. Oʻquvchilarni oʻqitish va oʻrgatish, ushbu funksiya faqat oʻquvchi egallagan bilim, koʻnikma va malakalarni belgilab bermasdan, uning bilimlari oldingi darajaga nisbatan kengayganligini koʻrsatadi;

4. Oʻquvchilarni tarbiyalash, oʻquvchilarning oʻz-oʻzlariga baho berish koʻnikmalari va oʻquv faoliyati natijalariga javobgarlik hissini tarkib toptirish;

5. Oʻquvchilarning oʻquv faoliyatlarini ragʻbatlantirish, oʻquvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda oʻquv-biluv jarayonida ularni rivojlantirish imkoniyatini taʼminlash. Baholash natijasida oʻquvchi aqliy faoliyatining surʼati jadallashishi va sekinlashishi mumkin.

6. Oʻquv jarayoni va oʻquvchilar faoliyati natijalarini tashxislash va unga tuzatishlar kiritish, bunda oʻqitish jarayonida oʻquvchining oʻzlashtirgan bilim, koʻnikma va malakalari darajalari uzluksiz oʻlchab borilib, DTS talablaridan chetlashish holatlari vujudga kelganda, ularni bartaraf etish;

7. Oʻqituvchining pedagogik faoliyati samaradorligini aniqlash, buning natijasida oʻqituvchi oʻz faoliyatini takomillashtirib, unga tuzatishlar kiritish imkoniyatiga ega boʻladi;

Oʻquv-tarbiya jarayoni sifatini takomillashtirish va kafolatlangan natijaga erishishni taʼminlash, taʼlim jarayonida kafolatlangan natijaga erishish uchun bir qator didaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- uzluksiz taʼlim tizimining har bir bosqichida oʻquvchini intellektual rivojlantirishga erishishni taʼminlash;

- o'quv-biluv jarayoni sub'ektlari bu jarayonda kafolatlangan natijaga erishishdan manfaatdor bo'lishlari va ushbu maqsad yo'lida hamkorlikda harakat qilishlari;

- ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsi intellektual rivojlanish darajasining munosib baholanilishiga erishilishi;

- o'quv-biluv jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari hamda intellektual rivojlanish darajalarini baholashda ilg'or metod va yondashuvlarning qo'llanilishi;

- o'qituvchilarning o'quvchilar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari hamda intellektual rivojlanish darajalarini haqqoniy, demokratiya va insonparvarlik tamoyillari asosida nazorat qilishlari va baholashlariga erishilishi kabilar.

Bugungi kunga kelib turli sohalarida erishilgan natijalarni o'lchash metodikalari mavjud. Biroq, ta'lim jarayonida o'quvchilarning intellektual rivojlanish darajalari, baholash vositasida ularni rivojlantirish parametrlari maxsus tatqiq etilmagan.

O'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni baholashda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

1. Bilimlarni tanish va o'z onglarida qayta aks ettirish;
2. O'zlashtirgan bilimlarni tanish vaziyatlarda berilgan namunaga qarab qo'llay olishlari;
3. O'zlashtirgan bilimlarini yangi, notanish vaziyatlarga ko'chirgan holda qo'llay olishlari;
4. O'quvchilarning intellektual hamda ijodiy faoliyat ko'rsata olish ko'nikmalarining sifatini baholash.

• Yuqorida ko'rsatilgan parametrlarga asoslangan holda o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hamda intellektual faoliyat tajribasi sifatini nazorat qilish va baholash uchun yangicha tamoyilga ega bo'lgan o'lchovlardan foydalanish taqozo qilinmoqda. SHunga ko'ra, o'quvchilar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalar va intellektual faoliyat tajribalarini muayyan birliklar orqali baholash bilan bir qatorda, ularning rivojlanish darajalarini ham ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida baholashning o'quvchini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini ochish, pedagogik nazoratning didaktik imkoniyatlarini kengaytirishni taqozo qiladi. Buning uchun:

- davlat ta'lim standartlari talablariga ko'ra o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning o'quv dasturlari va darslarilarda to'liq qamrab olinishini ta'minlash hamda shu asosda ularning o'zlashtirish darajalarini ob'ektiv baholash;

- o'quvchilar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalar va intellektual faoliyat tajribasini baholashda eng qulay va samarali metodlardan foydalanish, toki mazkur baho o'quvchilarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lsin;

- o'quvchilarda o'z faoliyatlarini natijalarini haqqoniy baholash ko'nikmasini shakllantirish orqali, ta'lim sub'ektlari orasida o'zaro hamjihatlik, insonparvarlik va demokratiyaga asoslangan do'stona munosabatni tarkib toptirish lozim.

Yuqorida keltirilgan har bir sohada psixolog yoki sohalarga qiziquvchi mutaxassislar ma'lum diagnostik ishlarni amalga oshiradilar. Har bir sohada o'ziga xos diagnostik ishlar olib boriladi va bu ishlarning mazmuni psixologik va pedagogik diagnostikaning yo'nalishlarni tashkil qiladi. Tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish - bu yo'nalish o'quvchilarning tarbiyalanganligini, ularning xulq-atvorini, odob-ahloqini, tarbiyalanuvchiligini (tarbiyaviy ta'sirlarga berilishi) ni o'rganishdan iboratdir. Tashkiliy-metodik diagnostika - pedagoglarning kvalifikatsiyasini, o'quv jarayonining uslubiy ta'minlanganlik darajasini baholashdir. O'quvchilarning og'zaki va yozma javoblarini, javoblardagi tipik xatolarni, ularning sabablarini, o'quv faoliyatidagi salbiy o'zgarishlarni, o'quvchilardagi o'quv, mehnat malaka va ko'nikmalarining rivojlanganlik darajasini, ta'lim olishga nisbatan moyilliklari diagnostika qilinadi.

Natijalar. Intellektual jihatdan faol o'quvchilar yangi axborotlar taqdim etilgach, ko'plab savollar bera boshlaydilar yoki tushunmagan holatlarini keyinchalik so'rab aniqlash uchun yozib

98 boradilar. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar esa, o'quv matreillari o'quv topshiriqlarni tushunmaginliklari haqida o'ylab ham ko'rmaydilar. Ular taqdim etilgan bilimlarni o'zlashtirish jarayonida, yangi ma'lumotlarni oldingilari bilan o'zaro qiyoslaydilar va o'z bilimlarini boyitishga muvaffaq bo'ladilar. Ularda yangi tushuncha va tasavvurlar hosil bo'lishi uchun oldin va keyin o'zlashtirilgan bilimlar orasida muayyan zanjir, o'zaro aloqadorlik vujudga keladi. Bu esa o'quvchilarning intellektual sohalarini tizimli rivojlantirish imkonini beradi. Taqdim etilgan bilimlarni idrok etish, ular ustida mushohada yuritish natijasida o'quvchilarning intellektual sohaları rivojlanadi, o'quv ko'nikmalari mustahkamlanadi, tayanch va fanga oid kompetensiyalarini o'zlashtirish jarayoni shakllanadi. Bu o'quvchilarning intellektual faolliklarida namoyon bo'ladi. O'zlashtirilgan bilimlarni idrok va mushohada qilish bosqichida, o'quvchilar muayyan o'quv maqsadlariga erishishlari lozim. Buning uchun ular, birinchi navbatda, o'zlashtirgan yangi ma'lumotlarga tayangan holda muayyan buyumlar, voqea-hodisalar haqida aniq tasavvurga ega bo'ladilar. Mazkur bosqichining muhim maqsadlaridan yana biri, o'qituvchi bilan o'quvchilar, o'quvchilar bilan o'quvchilar orasida dialog muhitini vujudga keltirishdan iborat. Bu esa o'quvchilarning intellektual sohalarini faollashtirish, bilimlarini boyitish, ilmiy dunyoqarashlarini kengaytirish uchun qulay sharoit yaratadi. o'quvchilarning intellektual rivojlanishida baholash tizimining o'rni beqiyosdir. U nafaqat natijalarni aniqlash, balki o'quvchilarni rivojlantirish, o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish va mustaqil fikrlashga yo'naltirish vositasidir. Shunday ekan, zamonaviy o'qituvchi uchun baholash — bu nazorat vositasi emas, balki ta'lim jarayonining integral, ya'ni ajralmas qismi hisoblanadi.

Xulosa. Ta'lim faoliyatini baholash tizimi bevosita ta'sir qiladi maktab o'quvchisini faoliyat sub'ekti sifatida shakllantirish va uning shaxsini rivojlantirish egallagan bilimlarini baholash faoliyatini tashkil etish sharoitida motivatsion va operativ maqsadli shakllantirish komponentlar, o'quvchilarda ko'rsatkich sifatida baholashga bo'lgan munosabati shakllanadi. Ta'lim faoliyatida o'z yutuqlari va kamchiliklarini ko'rib boradi. Ta'lim jarayonida zamonaviy o'quv-didaktik vositalar asosida o'qitish, ularning ta'lim tizimidagi faoliyatlarini to'g'ri baholash o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ularning mustaqil ishlash qobiliyatlari va amaliy ko'nikmalarini o'rganish darajalarini rivojlantirishda ijobiy samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni -T.: "O'zbekiston", 2020 yil 23 sentabr.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017, 488 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", 1-ilovasi, 9- bandi.

4. Abdullayev, A. Ta'limda baholash va uning pedagogik ahamiyati. — Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti. 2018.

Povarnitsyna Anna Gennadevna OTSENKA KAK KOMPONENT UCHEBNOY DEYATELNOSTI I EE ROL V RAZVITII LICHNOSTI SHKOLNIKA Nijniy Novgorod – 2001

5. Sadikov, D. & Xolmatov, R. (2022). O'quvchilarning intellektual darajasini aniqlashda test usullarining samaradorligi. — Toshkent: Ilmiy maqolalar to'plami.

6. Farmonova Shabon Muxamadovna Umumiy o'rta ta'lim maktablarida an'anaviy va zamonaviy nazorat turlaridan foydalanish tizimi. Monografiya Buxoro "Durdona" 2023.157b

7. Farmonova Shabon Muxamadovna PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF UPDATING THE CONTENT OF PRIMARY EDUCATION Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence Volume: 02 Issue: 05 | 2023 <https://univerpubl.com/index.php/horizon> ISSN: 2835-3064

8.Farmonova Shabon Muxamadovna - STEAM TA'LIMINING QO'LLANISHI, SAMARADORLIGI VA AFZALLIKLARI Yangi O'zbekiston - Uchinchi Renessans" shiori ostida xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan o'quv materiallarini uzluksiz ta'lim tizimiga keng joriy etishni optimallashtirish" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman MATERIALLARI NOKIS-2023

9.Yuldasheva, T. A. (2020). BOSHLANG'ICH SINFDAN IZOHLI O'QISH JARAYONINI QO'LLASH. Science and Education, 1(Special Issue 2)

10.Yuldasheva, T. A. (2021). VIDY KOMMUNIKATSII I KOMMUNIKATIVNIE BARERY V MEJKULTURNOM OBICHENII STUDENTOV INOYAZYICHNYX GRUPP. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(4), 2027-2030.

11.Azimov Yunus Yusupovich, Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich. O'QUVCHILARNI XALQARO BAHOLASH (PIRLS) TIZIMIGA TAYYORLASH "BOSHLANG'ICH TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH: O'QUV DASTURI-O'QITUVCHIBAHOLASH"XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

MATERIALLARI 2023-yil 19-oktabr

12.Xusenova Aziza SHaripovna. MEJDUNARODNIY OPIYT V OPREDELENIY UROVNYA CHITATELNOY GRAMOTNOSTI UCHASHIXSYA NACHALNYX KLASSOV V ISSLEDOVANIYAX PIRLS BOSHLANG'ICH TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH: O'QUV DASTURI-O'QITUVCHIBAHOLASH"XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI 2023-yil 19-oktabr

13.Normurodova Nafosat Baxtiyor qizi.Baho vositasida o'quvchilarning intellektual - ma'naviy darajasini rivojlantirish. April 2023 / Volume 4 Issue 4

14.Qurbonova O' ta'lim tizimida baholash mazmuni //sentra nauchnykh publikatsiy (buxdu. uz). – 2020. – T. 1. – №. 1

MAKTAB MUSIQA MADANIYATI O'QITUVCHISI KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabda musiqa madaniyati fani o'qituvchisi kasbiy mahoratini rivojlantirish, pedagogik mahorat muammolari va bu borada olib borilgan izlanishlar, musiqa o'qituvchisi pedagogik mahorat komponentlari, ularning mazmun-mohiyati, pedagogik mahoratni rivojlantirishning ta'lim sifatini yanada oshirishdagi o'rni xususida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy mahorat, ta'lim-tarbiya ishlari, pedagogik mahorat, kasbiy sifatlar, musiqiy-pedagogik jarayon, pedagogik qobiliyat, pedagogik ijod, pedagogik takt, pedagogik madaniyat.

ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ ШКОЛЬНОГО УЧИТЕЛЯ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В данной статье даны комментарии о развитии профессионального мастерства учителя музыкальной культуры в школе, проблемах педагогического мастерства и проводимых в этой связи исследованиях, составляющих педагогического мастерства учителя музыки, их содержании, роли развития педагогического мастерства в дальнейшем повышении качества образования.

Ключевые слова: профессиональное мастерство, воспитательная работа, педагогическое мастерство, профессиональные качества, музыкально-педагогический процесс, педагогические способности, педагогическое творчество, педагогический такт, педагогическая культура.

BASICS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL SKILLS OF A SCHOOL TEACHER OF MUSICAL CULTURE

Abstract. This article provides comments on the development of the professional skills of a music culture teacher at school, the problems of pedagogical skills and the research carried out in this regard, the components of the pedagogical skills of a music teacher, their content, and the role of the development of pedagogical skills in further improving the quality of education.

Key words: professional skills, educational work, pedagogical skills, professional qualities, musical and pedagogical process, pedagogical abilities, pedagogical creativity, pedagogical tact, pedagogical culture.

Respublikamizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar maktab musiqa madaniyati fanini o'qitishni yanada takomillashtirish va o'qituvchining kasbiy faoliyatini takomillashtirishga katta imkoniyat yaratmoqda. Zero, mamlakat taraqqiyotida "Pedagog kadrlarning kasbiy mahorati, sifat va saviyasini uzluksiz yuksaltirish oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish bo'yicha eng muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan[1].

Zamonaviy musiqa – pedagogikasi sohasi uchun musiqa o'qituvchisining kasbiy mahoratini rivojlantirish katta ahamiyatga egadir. Maktab musiqa o'qituvchisi - bu o'ziga xos ijodiy kasb sohibi bo'lib, o'zining musiqiy-ijrochilik va pedagogik mahoratiga ega bo'lishi, o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishi uchun musiqiy faoliyatlarni metodik

jihatdan to'g'ri samarli tashkil etishi hamda pedagogik boshqara olishi kerak. Zero, o'quvchilarning musiqiy ta'limda fan kompetensiyalarini egallashi darajasi o'qituvchining pedagogik malaka sifatiga, kasbiy mahoratiga bog'liq bo'ladi.

O'qituvchi kadrlarni kasbiy qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish - respublika viloyatlaridagi pedagogik markazlarda amalga oshiriladi. Unda o'qituvchi o'z kasbi uchun zaruriy bo'lgan bilim, mahorat ko'nikmalari, kasbiy hamda shaxsiy fazilatlarini, qobiliyatlarini yanada takomillashtirishga erishadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida qayd qilinishicha, "Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog-xodimlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadi, o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro'sini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi"[2].

"Pedagogik mahorat" tushunchasi idmiy va uslubiy adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Jumladan, "turli kelib chiqadigan pedagogik vaziyatlarga munosabat"[3], "o'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish";[4], "o'qituvchi-tarbiyachining pedagogik qobiliyati", "o'qituvchining muomala madaniyati va nutq san'ati"[5], "pedagogik nazokat, odob va ahloq"[6], "madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatkichi", "o'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi", "pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi"[7], kabi iboralar bilan ta'riflanadi. Demak, pedagogik mahoratga ega musiqa ta'limi o'qituvchisi kasbiy, shaxsiy sifatlar bilan birga yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, musiqaning boshqa san'atlar ilmi va turlari bilan o'zaro uyg'un bog'liqlik jihatlarini yaxshi tahlil eta oladigan, musiqiy tarbiya-ta'lim metodikasini mukammal o'zlashtirgan hamda ta'lim jarayonlarida tatbiq etadigan mutaxassisdir.

Yuqorida qayd etib o'tilgan va pedagogik mahoratga berilgan ta'rif, hamda o'qituvchi-tarbiyachining professiogrammasi xususiyatlari barchasi yaxlit holda pedagogning kasbiy malakalarining mazmunini ifodalaydi.

Pedagogik mahorat - pedagogik jarayonda tarkib topadi. Pedagogik jaraen esa kasbiy va shaxsiy tayyorgarlikni yo'lga qo'yib, bo'lajak mutaxassisni mehnatga, haetga tayirlash uchun davlat, jamiyat, millat va kelajak avlod oldida javob beradigan mutaxassislarni tayirlashga xizmat qiladi. Shuning uchun, pedagog shaxsiy va kasbiy fazilatlar egasi bo'lishi lozim.

Musiqa o'qituvchisi pedagogik mahorat tushunchasining mazmun-mohiyatini to'g'ri anglashi, uning barcha komponentlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lib, ularning o'zaro bog'liqligi, yaxlitligi, izchilligini ta'minlashi lozim.

Musiqa madaniyati fani o'qituvchisi pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi, musiqa o'qitish metodikasi, musiqaning boshqa san'at turlari va fanlari bilan o'zaro bog'liqligini, o'zbek adabiy tili va adabiyotini, pedagogika, psixologiya, fiziologiya, fanlarini mukammal o'zlashtirishi hamda insoniylik, mehnatsevarlik va fidoyilik singari ma'naviy - axloqiy fazilatlarini o'zida tarkib toptirishi lozim.

Har bir musiqa o'qituvchisi o'z pedagogik faoliyatini turli xil shart-sharoitlarda va imkoniyatlar ta'sirida amalga oshiradi. Bu esa asta-sekin uning pedagogik mahoratini shakllanib, rivojlanishiga olib keladi. Zero, pedagogik texnika o'qituvchining ta'lim berish, ta'sir ko'rsatish, ta'lim tarbiya oluvchilarga o'z his-tuyg'ulari, bilimlari, ijobiy axloqiy fazilatlarini singdirishini ifoda etsa, kasbiy faoliyatining pedagogik muomala vositasida o'qituvchi, ta'lim - tarbiya jaraenida o'quvchilar bilan o'zaro ta'sir hamda hamkorlikni amalga oshiradi.

Pedagogik ijod - o'qituvchining mahoratini oshirishda musiqiy ijrochilik va ijodkorlik, pedagogik boshqaruvchilik, tashkilotchilikka undaydi. Bunda albatta, o'qituvchining pedagogik qobiliyati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki musiqiy faoliyatlar jarayonlarida o'quvchilarning ruhiy holati, his-tuyg'ulari, intellektual-irodaviy jihatlarini, bilimdonligini va musiqiy-ijodiy jarayonlarda ularning bir-biriga bog'liqligini hamda yaxlitlik kasb etishini

102 ta'minlaydi.

Musiqqa ta'limi o'qituvchisining pedagogik madaniyati uning ta'lim-tarbiya berish mas'uliyati va kasbiy burchi, qadr-qimmat, vijdoni, axloqiy qarashlari, talabchanligi, adolatlilik va boshqa sifatlarini ifodalaydi.

Pedagogik (nazokat) takt – o'qituvchining musiqiy faoliyatlari jarayonida o'quvchilar bilan amalga oshiriladigan o'zaro muloqotlarda mavjud axloqiy tamoyillar, hulq-atvor qoidalari rioya qilishi malakalariga egaligini bildiradi.

Pedagogik bilimdonlik o'qituvchi kasbiy tayyorgarligini muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, o'qituvchi uchun muhim bo'lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishni, ya'ni innovatsion tayyorgarlikni talab etadi.

O'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun muntazam ravishda pedagogik fikrlash, pedagogik o'ylash, pedagogik ish tutish lozim bo'ladi. O'z kasbiy faoliyatidagi pedagogik hodisalarni, vaziyatlarni tahlil qilish, ularning bir-biri bilan bog'lanish jihatlarini anglashga intilish, natijalarni mustaqil ravishda tahlil qilishi, to'g'ri xulosaga kelishi, ta'lim-tarbiyani rivojlantirishga doir g'oyalarni ishlab chiqishi va amaliyotga tatbiq qilishi lozim bo'ladi.

Pedagogik mahoratning qayd qilingan tarkibiy qismlari o'qituvchining faoliyati va tajribaga ega bo'lishga kirishganidan boshlab uning kasbiy xususiyatlarini boyitadi va pedagogik mahorat malakalarining tarkib topishiga erdam beradi.

Zamonaviy pedagogika ta'limi tizimining maqsadi o'qituvchining uzluksiz umumiy va kasbiy kamolotga erishishini ta'minlashdan iborat, chunki umumiy o'rta ta'lim maktabi musiqqa madaniyati fani o'qituvchisi oldiga, uning kasb malakasiga va shaxsiy sifat, xislat, fazilatlariga nisbatan yuksak talablarni ko'ymoqda.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash joizki, musiqqa o'qituvchisining pedagogik mahorati - bu maxsus musiqiy-nazariy bilim, ko'nikma va malakalar, tashkilotchilik qobiliyatiga egalik, kasbiy tayyorgarlikning yuqori darajasi, kasbda o'z-o'zini anglash, doimiy o'z-o'zini takomillashtirib borish, musiqiy ta'lim jarayonlarida har bir o'quvchiga to'g'ri yondashuvni topish qobiliyatlarini namoyon qilishidir. Bu uning pedagogik faoliyatiga bo'lgan ulkan qiziqishi, o'z oldida turgan vazifasini tushunishi, maktab san'at ta'limidagi o'rni, yuksak shaxsiy madaniyati va kasbiy ishtiyoqi orqali yo'lga qo'yildigan pedagog sifatidagi kasbiy qobiliyatlarining namoyon bo'lishi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi PF-4947 –sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.- Toshkent. 2020-yil. 23-sentabr. O'RQ-637-son. – B. 25-26.
3. Azizxodjayeva N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent. "O'qituvchi", 2008. – B -5.
4. Asqarova M., Xayitboyeva M., Nishonov M. Pedagogika. "Talqin" nashriyoti. Toshkent., 2008-yil. – B.-37.
5. Очилов М. Ўқитувчининг нутқ маданияти ва педагогик назокат. – Тошкент. "Ўқитувчи", 2004. – Б -13.
6. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent., "Meros", 2008. – B.-74.
7. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik. - Toshkent-2021. - B.11.

TALABALARDA KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY ME'MORCHILIKNING TA'LIMiy AHAMIYATI

Annotasiya. Maqolada me'morchilik tarixi va zamonaviy me'morchilikning ta'limiy ahamiyati hamda zamonaviy me'morchilik asosida talabalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishda ta'lim salohiyatining o'rni va ahamiyati, yondashuv va usullari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: me'morchilik, estetik did, kreativ tafakkur, fazoviy tafakkur, estetik sezgi, ijodiy yondashuv, loyihaviy metod.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ АРХИТЕКТУРЫ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В статье освещается образовательная значимость истории архитектуры и современной архитектуры, а также роль и значение образовательного потенциала, подходов и методов в развитии творческого мышления студентов на основе современной архитектуры.

Ключевые слова: архитектура, эстетический вкус, творческое мышление, пространственное мышление, эстетическая интуиция, творческий подход, метод проектирования

THE EDUCATIONAL IMPORTANCE OF MODERN ARCHITECTURE IN DEVELOPING CREATIVE THINKING IN STUDENTS

Annotasion. The article highlights the educational significance of the history of architecture and modern architecture, as well as the role and importance of educational potential, approaches and methods in developing creative thinking in students based on modern architecture.

Keywords: architecture, aesthetic taste, creative thinking, spatial thinking, aesthetic intuition, creative approach, design method.

Zamonaviy ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri-ijodiy va mustaqil fikrlaydigan, estetik didga ega, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni amaliyotga joriy etishga tayyor kadrlarni tayyorlashdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, zamonaviy me'morchilik nafaqat moddiy-madaniy muhitni shakllantirish vositasi, balki ta'lim jarayonida talabalarni kreativ tafakkurga yo'naltiruvchi muhim pedagogik resurs sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa, ta'lim jarayonida ijodiy tafakkurni rivojlantirish ta'lmini insonparvarlashtirish usuli sifatida, talabalarni hayotga estetik munosabtda tarbiyalashga xizmat qiladi. Dunyoga estetik munosabat esa, san'atning asosi bo'lib, bunda zamonaviy me'morchilikning ahamiyati katta hisoblanadi.

Kreativ tafakkur (ijodiy fikrlash) –bu mavjud bilimlar asosida yangi g'oyalar, yechimlar va innovatsion yondashuvlar yaratishga qaratilgan tafakkur jarayonidir[6;198-b.]. YUNESKO va boshqa xalqaro ta'lim tashkilotlari ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida kreativ tafakkurni rivojlantirishga alohida urg'u berilayotgani, talabalarning mustaqil fikrlash ko'nikmasini oshirishga, yangi loyihalar ishlab chiqishda tashabbuskorlikni kuchaytirishda, kasbiy kompetensiyalarni chuqurlashtirishga ahamiyatli sanaladi.

Arxitektura atamasi yunoncha arxitekton quruvchi, qurilishni yaratuvchi, tashkillashtiruvchi ma'nosini anglatadi. Ilm fan, texnika va madaniyatning uncha taraqqiy etmagan

davrlarda u arxitektor, injenerlik (muhandislik) ish yurituvchi, va ko'pincha rassom va haykaltaroshlik vazifalarini ham bajarib kelgan[1; 120-b.].

Za'monaviy me'morchilik-bu estetik, funktsional va ekologik jihatlarni o'zaro uyg'unlashtirgan holda, inson hayot faoliyati uchun qulay va zamonaviy muhit yaratishga qaratilgan me'moriy yo'nalishdir. Me'morchilik – bu nafaqat bino va inshootlar qurilishi san'ati, balki inson hayoti uchun fazoviy, estetik, funksional va madaniy muhit yaratish vositasidir [1; 135-b.]. Bunda innovatsion texnologiyalar, ekologik dizayn, modulli tizimlar va yangi materiallardan foydalanish muhim o'rin tutadi.

Insoniyat tarxida me'morchilik turli davrlarda o'ziga xos uslub va shakllarda namoyon bo'lgan. Masalan, Misr ehromlari, Mesopotamiya ziyoratgohlari zamonaviy modernizm, futurizm, konstruktivizm va xay-te usulblari bu yo'nalishlarning boy tarixiy evolyutsiyasidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz har tomonlama rivojlanayotgan bir paytda arxitektura va dizayn sohasi ham orqada qolayotgani yo'q. Arxitekturada dizaynning o'tmishi va hozirgi kuni madaniyati bilan bog'lanib ketgan. Markaziy Osiyo me'morchiligi o'zining qadimliliigi va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bir necha asrlar muqaddam ota - bobolarimiz tomonidan qurilgan mahobatli, muhtasham binolar hanuzgacha o'z jilosini, go'zalligini saqlab qolgan. Har bir me'moriy yodgorlik yangicha va o'zgacha go'zallikka ega bo'lib individuallikni saqlagan holda ishlangan. Binoni loyihalash jarayonida uning atrof muhitga, tabiatga bog'liqligi, foydalanish maqsadiga katta e'tibor qaratilgan. Qadimgi O'rta Osiyo me'morchiligida binoning nafaqat tashqi dizayniga balki ichki bezagi xam e'tiborsiz qolmagan. Xonalar, hujralar, yotoqxona, qabulxona, oshxona, arzxona, ichkari va tashqari hovlilarning har biri o'zgacha bezak turlariga va ko'rinishlarga ega bo'lgan. Xonalardagi nafis naqsh nigorlar, devorlarning pastki qismiga o'rnatilgan marmar toshlarning o'ymakor naqshlari qadimgi me'morchilikda dizaynning qanday yuksak darajada bo'lganligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda esa, me'morchilik o'zining yangicha bosqichiga kirib kelgan bo'lib, talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirishda kuchli ta'limi salohiyatga ega bo'lib, o'z mohiyatiga ko'ra kreativ yondashuvni talab qiladi. Chunki har bir bino-bu ijod mahsuli, bu muayyan funksional, texnologik va estetik talablarni uyg'unlashtirgan loyihadir. Demak, aytishimiz mumkinki, zamonaviy me'morchilik naqat o'z tarixini bilish balki, bu orqali talabalarda quyidagi kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi:

Fazoviy tafakkur-makon bilan ishlash ko'nikmasi-bu insonning atrofdagi makonni ongida tasavvur qilish, uni analiz qilish, tuzish va o'zgartirish qobiliyatidir. Bu tafakkur turi ayniqsa arxitektura, dizayn, muhandislik, shaharsozlik, geografiya, haykaltaroshlik va san'at sohalarida juda katta ahamiyat kasb etadi. Fazoviy tafakkur-bu kreativ tafakkurni asosiy komponentlaridan biri sifatida, talabalarni innovatsion loyihalar yaratishga, estetik va funksional uyg'unlikni topishga, yangi shakl va strukturalarni ixtiro qilishga, makon bilan vizual va amaliy eksperimentlar o'tkazishga undaydi.

Talabalarda fazoviy tafakkurni rivojlantirishda quyidagi yondashuvlar qo'llanilishi maqsadga muvofiq sanaladi:

Loyihaviy metod-talabalar real yoki nazariy loyihalarni ishlab chiqish orqali makon tuzish ko'nikmalarini shakllantiradilar;

3D-modellash-kompyuter grafikasi yordamida fazoviy obyektlar yaratish va modellashni o'rganadilar;

Chizma va grafik ishlar-geometrik figuralarni chizish, kesim, proyeksiya, aksonometriya bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar;

Maketsozlik-real inshootlar yoki binolarning kichik modellari orqali fazoni idrok etishni rivojlantiradilar;

Vizual reallik texnologiyalari-immersiv muhitda makon bilan ishlash to'g'ridan to'g'ri "ishlash" imkoniyatlaridan foydalanishni o'rganadilar.

Estetik-sezgi-shakl, rang, material uyg'unligini his qilish- bu insonning go'zallikni anglash, uni his qilish, baholash va estetik mezonlar asosida qaror qabul qilish qobiliyatidir. Bu

sezgi, ayniqsa, san'at, dizayn, arxitektura va madaniyat sohalarida muhim ahamiyatga ega bo'lib, talabalarning kreativ tafakkurini rivojlantirishda hal qiluvchi omillardan biri sifatida talabalarda, shakl, rang va materiallar uyg'unligini ilg'ash, go'zallik va funksional uyg'unlashtirish, ijodiy qarorlar qabul qilishda o'ziga xos yondashuvga ega hisoblanadi. Talabalarda estetik sezgini rivojlantirishda,

talabalarni san'at va arxitektura namunalarini taxlil qilish (tarixiy va zamonaviy me'moriy asarlarni o'rganish);

ranglar nazariyasi bo'yicha mashg'ulotlar (rang uyg'unligi, kontrast muvozanatni tushunish);

materiallar bilan ishlash-(turli tabiiy va sun'iy materiallarning vizual va taktil xususiyatlarini o'rganish);

kreativ topshiriqlar (plakat, interer, maket, moda dizayn yoki grafika orqali estetik qarorlar ishlab chiqish);

subyektiv fikr bildirish va tahlil qilish (o'z va boshqalarning ishlari ustidan estetik fikr bildirish orqali tanqidiy qarashni rivojlantirish) usul va yo'llaridan foydalanish psixologik va estetik did ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Muammolarni hal qilish-dizayn vazifalarni o'ziga xos yondashuv bilan bajarish- bu insonning mavjud vaziyatda to'g'ri, samarali, innovatsion yechim topishga qaratilgan tafakkur jarayonidir. Bu jarayon odatda, muammoni aniqlash va tahlil qilish, maqsad qo'yish, g'oyalar va variantlar ishlab chiqish, variantlarni baholash va optimal tanlash, qarorni amalga oshirish va natijalarni tahlil qilish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Bu bosqichning har biri ijodiy fikrlash va kreativev tafakkurni talab qiladi va ta'lim jarayonida talabalarini muammoli topshiriqlar asosida o'qitish, mustaqil fikrlash (talabalar muammoni o'z kuchi bilan tahlil qiladi va qaror chiqaradi), ijodiy yondashuv-har bir muammoni turli burchaklardan ko'rib, noodatiy yechimlar izlaydi), tahliliy fikrlash (mavjud holatni chuqur o'rganadi, sabab-oqibat munosabatlarini tushunadi), tashabbuskorlik (muammoga nisbatan faol va ma'suliyatli mughnosabat shakllanadi), loyiha fikrlashi (konkret amaliy g'oya yoki loyiha asosida yechim ishlab chiqiladi) kabi pedagogik afzalliklarni keltirib chiqaradi.

Jamiyat ehtiyojlarini aniqlash-ijtimoiy buyurtmalarni tushunish va o'z g'oyasida ifodalash- talabalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishda, avvalo real hayotga, atrof-muhitga, odamlarning turmush tarziga, muammolarga e'tibor qaratishni talab qiladi. jamiyat ehtiyojlarini o'rganish orqali talabalarda, kuzatuvchanlik rivojlanadi, empatiya shakllanadi.

Zamonaviy me'morchilik nafaqat jamiyaning moddiy muhitini shakllantiruvchi fan, balki, talabalarda kreativ tafakkur, estetik dunyoqarash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va mustaqil qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi ta'limiy resurs sifatida talabalarda:

Ijodiy yondashuvni rivojlantiradi - bunda talabalar loyihalar orqalimustaqil g'oyalar yaratishni o'rganadilar;

Vizual tafakkurni kuchaytiradi – makon, shakl va rang uyg'unligini sezish qobiliyati;

Kross-fanlararo integratsiyani ta'minlaydi-fizika, matematika, ekologiya, san'at va texnologiyalar bilan bog'liq bilimlar uyg'unlashadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy me'morchilik talabalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Me'morchilikning tarixiy ildizlari va zamonaviy dizayn yondashuvlarning uyg'unligi talabalarda fazovaiy fikrlash, muhandislik bilimlari, estetik did, ekologik ong va ijtimoiy ma'suliyatni rivojlantiradi. Bugungi kunda me'morchilik sohasi jamiyat taraqqiyotiga hamohang tarzda rivojlanmoqda va bu jarayonda talabalarining ijodiy salohiyatini o'sishida muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Абдуллаев Ш. Архитектура тарихи. -Т.: Чўлпон номидаги NMIU, 2018. - 276 б.
- 2.Аҳмедов М.Қ. Ўрта Осиё меморчилиги тарихи .-Т.: "Ўзбекистон", 1995.- 215с

3.Маноев С.Б. Ўзбекистон замонавий шаҳарсозлигида меъморий ансамбль ва комплекслар.

4.Мирюсупова С. А. Архитектура ва шаҳарсозлик тарихи. Қадимги дунё ва ўрта асрлар даври архитектураси. 2001 й. ТАҚИ.

5.Сайфуллаев Н. (2021). Юртимиз бадий таълим соҳасининг эртанги ривож учун яна бир муҳим асос яратилди . Камолиддин Беркзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти ахборотномаси илмий-амалий журнали, 5(01).

6.Эрназарова Г.О., Якубова М.Ю. Талабаларда креатив тафаккурни шакллантиришнинг педагогик асослари// Педагогические и лингвopsихологические особенности развития, формирования и становления личности врача, сборник тезисов Международной конференции, Самарканд, 2021 г. 198-199 стр.

7. Турдиева М. Олий таълим муассасалари талабаларида педагогик тафаккурни шакллантириш. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2008. – 38-42-б.

8.Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

Turdiyeva Mohira Juraqulovna
 Renessans ta'lim universiteti
 pedagogik ta'lim va psixologiya
 kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD),
 Turon fanlar akademiyasi faxriy dotsenti

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotasiya. Mazkur maqolada maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirishda xalqaro tajribalarning o'rni va ularning O'zbekiston sharoitida tatbiq etilish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada Finlandiya, AQSH va Yaponiya kabi davlatlarning muvaffaqiyatli tajribalari misolida inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari, metodlari va infratuzilmalari o'rganilgan. O'zbekistonda ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar, mavjud muammolar, statistika va tadqiqot natijalari asosida tahlil qilingan. Maqola yakunida mavjud muammolarning yechimiga doir takliflar bildirilgan va O'zbekistonda milliy inklyuziv ta'lim modelini shakllantirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston ta'lim tizimi, maxsus ehtiyojli bolalar, ta'limda tenglik, inklyuziv ta'lim, xalqaro tajriba, global model, ta'lim strategiyasi, pedagogik yondashuv, ta'limda integratsiya, ijtimoiy adolat.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ДОШКОЛЬНОМ И НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В данной статье анализируется роль международного опыта в развитии инклюзивного образования детей дошкольного и младшего школьного возраста и возможности его внедрения в условиях Узбекистана. Также рассматриваются основные принципы, методы и инфраструктура инклюзивного образования на примере успешного опыта таких стран, как Финляндия, США и Япония. На основе имеющихся проблем, статистических данных и результатов исследований анализируются реформы, проводимые в этом направлении в Узбекистане. В конце статьи даются предложения по решению существующих проблем и обосновывается необходимость формирования национальной модели инклюзивного образования в Узбекистане.

Ключевые слова: Система образования Узбекистана, дети с особыми потребностями, равенство в образовании, инклюзивное образование, международный опыт, глобальная модель, образовательная стратегия, педагогический подход, интеграция в образовании, социальная справедливость.

METHODOLOGY OF USING FOREIGN EXPERIENCE IN DEVELOPING INCLUSIVE EDUCATION IN PRESCHOOL AND PRIMARY EDUCATION

Abstract. This article analyzes the role of international experience in the development of inclusive education for preschool and primary school children and the possibilities of its implementation in the context of Uzbekistan. It also examines the basic principles, methods and infrastructure of inclusive education using the successful experience of countries such as Finland, the USA and Japan. Based on existing problems, statistical data and research results, the reforms carried out in this direction in Uzbekistan are analyzed. At the end of the article, proposals are given for solving existing problems and the need to form a national model of inclusive education in Uzbekistan is substantiated.

Keywords: Education system of Uzbekistan, children with special needs, equality in education, inclusive education, international experience, global model, educational strategy, pedagogical approach, integration in education, social justice.

Bugungi kunda dunyo miqyosida inklyuziv ta'limni rivojlantirish masalasi ijtimoiy va pedagogik siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. UNESCO tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjatlarda har bir bolaning sifatli ta'lim olish huquqi bosh masala sifatida ta'kidlanadi. Dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlari ushbu ta'lim tizimini keng joriy etgan bo'lib, tajriba va yondashuvlar xilma-xil va ijobiy natijalarga boy. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda ham inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich rivojlantirish, barcha bolalar, jumladan, jismoniy va psixologik rivojlanishida turli xildagi cheklovlarga ega o'quvchilarni umumiy ta'lim jarayonida keng jalb etish davlat siyosatining ystivor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim g'oyasi har bir bolaning o'ziga xosligini, salohiyati va rivojlanish sur'atlarini inobatga olgan holda, ularni umumiy ta'lim muhitida to'laqonli ishtirok etishiga yo'l ochadi. Bu nafaqat inson huquqlari, balki demokratik va barqaror jamiyat qurish uchun ham zarurdir.

Inkluziv ta'lim g'oyasi XX asrning 2-yarmida rivojlanib, BMT va UNESCO hujjatlarida mustahkamlab qo'yildi. UNESCOning 1994-yilda qabul qilingan Salamanka deklaratsiyasida barcha bolalarni umumiy ta'lim muassasalarida o'qitish zarurligiga alohida qayd etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni ham har bir bolaning teng ta'lim olish huquqini ta'minlaydi.

Respublikamiz olimlari M.Qodirova, S.Tursunova, A.Abdullayevlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida ta'kidlashlaricha, boshlang'ich ta'limda inklyuziv yondashuv maxsus ehtiyojga ega bolalarda bilim olish motivatsiyasini kuchaytiradi, ijtimoiy integratsiya jarayonini tezlashtiradi hamda ularning to'laqonli shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Hozirgi kunda inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari quyidagi jadvalda (1-jadval) ko'rsatilgan:

1-jadval

	Tamoyillar	Tamoyillar tasnifi
1	<i>Teng imkoniyatlar yaratish</i>	Barcha bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash
2	<i>Individuallashtirilgan yondashuv</i>	Har bir bolaning qobiliyati, qiziqish va imkoniyatlarini hisobga olish
3	<i>Hamkorlik tamoyili</i>	Pedagog, ota-ona va jamiyatning birgalikdagi mas'uliyati
4	<i>Moslashuvchanlik</i>	O'quv dasturlarini bolalarning ehtiyojlariga mos ravishda yangilash
5	<i>Bag'rikenglik tamoyili</i>	Jamiyatda ijodiy ijtimoiy muhitni shakllantirish

O'zbekistonda ham inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich joriy etib, xalqaro standartlarga yaqinlashmoqda. 2009-yilda mamlakatimiz BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya"ni ratifikatsiya qilgan. 2021–2025-yillar uchun mo'ljallangan inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi asosida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Respublikaning ko'plab hududlarida maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv sinflar tashkil etilgan. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning intellektual, ijtimoiy, ma'naviy va ruhiy shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. Shu bois, aynan maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish nafaqat maxsus ehtiyojga ega bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlaydi, balki sog'lom o'quvchilarni ham bag'rikenglik va insoniylik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Biroq shu bilan birga, mavjud statistika va ijtimoiy so'rovlar shuni ko'rsatadiki, ushbu yo'nalishda bir qator pedagogik, tashkiliy va ijtimoiy muammolar mavjud.

Muammolar tahlili

Pedagogik muammolar. Maktabgacha va boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar ko'pincha defektologiya, logopediya yoki maxsus pedagogika bo'yicha bilimlarga ega pedagog yordamiga muhtoj bo'lishadi. Afsuski, o'qituvchilarning hammasi ham defektologiya, logopediya yoki

maxsus pedagogika bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emas. Shu sababli ular maxsus ehtiyojga ega bolalar bilan ishlashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bundan tashqari, guruh yoki sinflarda bolalar sonining ko'pligi individual yondashuvni qiyinlashtiradi. Pedagoglarning ko'pchiligi inklyuziv metodlardan samarali foydalana olmaydi.

Metodik va resurs muammolari. Maxsus ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan o'quv dasturlari, qo'shimcha didaktik materiallar va darsliklarning yetarli emasligi katta muammo hisoblanadi. MTT va maktablarda Braille yozuvida kitoblar (ko'rishida nuqsoni bor bolalar uchun), audiokitoblar va maxsus dasturiy vositalar deyarli mavjud emas. Shuningdek, ko'plab ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi maxsus ehtiyojga ega bolalarga moslashtirilmagan.

Ijtimoiy-psixologik muammolar. Jamiyatda inklyuziv ta'limga nisbatan yetarli darajada ijobiy qarash shakllanmagan. Ba'zi ota-onalar farzandining maxsus ehtiyojga ega bola bilan bir guruhda yoki sinfda o'qishini istashmaydi. Bu holat maxsus ehtiyojli bolalarda o'zini kamsitilgan his qilishga olib keladi. Shuningdek, sog'lom bolalarning ayrim holatlarda ularga nisbatan haqoratli sozlar bilan yoki jismoniy nuqsonlarini ta'kidlagan holda salbiy munosabatda bo'lishlari ham kuzatiladi.

Tashkiliy-huquqiy muammolar. O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'lim bo'yicha bir qancha qaror va hujjatlar qabul qilingan bo'lsada, ularning amaliy ijrosi sust kechmoqda. Mablag' yetishmasligi sababli barcha ta'lim muassasalarida zarur sharoitlar yaratilmagan. Defektolog, logoped va psixolog kabi mutaxassislarning yetishmasligi ham muammoning dolzarbligini ko'rsatadi.

Xalqaro tajribalarga nazar tashlasak, Finlandiya, Italiya, AQSH va Yaponiya kabi mamlakatlar inklyuziv ta'limni to'g'ri tashkil etishda yetakchilik qilmoqda. Masalan, Finlandiyada har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga mos o'qitish uslublari qo'llaniladi. U yerda inklyuziv ta'lim oddiy maktablar doirasida amalga oshiriladi va alohida maxsus ta'lim muassasalariga ehtiyoj sezilmaydi. Shu bilan birga, defektolog, logoped, ijtimoiy pedagog, psixologlar doimiy ravishda o'quvchilarga yordam beradi. Italiyaning tajribasi shundan iboratki, barcha bolalar umumiy maktablarda ta'lim oladi va ular uchun alohida maxsus maktablar mavjud emas. Bunda jamiyatda to'liq integratsiyalashuvga erishiladi. AQSHda esa "Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ta'lim to'g'risidagi qonun" asosida Individual Ta'lim Rejasi joriy qilingan bo'lib, har bir bola uchun alohida o'quv dasturi tuziladi. Yaponiyada innovatsion texnologiyalar keng joriy etilgan: braille yozuvli darsliklar, maxsus sensor qurilmalar, video-o'rgatish vositalari orqali nogiron bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishi va ishtiroki rag'batlantiriladi.

Maqolani o'qiyotgan har bir insonda "Bizning mamlakatimizda-chi?" -degan haqli savol tug'ilishi tabiiy, 2023 yilda taqdim etilgan rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 30 mingdan ortiq imkoniyati cheklangan bola mavjud bo'lib, ularning faqat 12 foizi umumta'lim maktablaridagi inklyuziv sinflarda o'qimoqda. O'qituvchilar orasida olib borilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, ularning 68 foizi inklyuziv ta'lim bo'yicha deyarli hech qanday maxsus malaka oshirish kurslarida qatnashmagan.

Ushbu holat, eng avvalo, kadrlar tayyorlash tizimida kamchiliklar borligidan dalolat beradi. Defektolog, psixolog, logoped va surdotarjimon kabi mutaxassislar yetishmaydi. Ta'lim muassasalari infratuzilmasi ham to'liq moslashtirilmagan: ko'pchilik maktablar va bog'chalar jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar uchun qulay sharoitlarga ega emas. Hali-hanuz jamiyatda inklyuziv ta'limga nisbatan tushunmovchilik va salbiy stereotiplar mavjud. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy integratsiyani susaytiradi va bolalarning o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga to'sqinlik qiladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolarni hal etish yo'llari 2-jadvalda ko'rsatilgan:

2-jadval

	Muammolar	Hal etish yo'llari
1	Pedagogik muammolar	O'qituvchilar malakasini oshirish - pedagoglarni maxsus tayyorlash, defektologiya va logopediya bo'yicha kurslar tashkil etish
2	Metodik va resurs muammolari	Moslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish - o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos o'quv dasturlari, darsliklar va metodik qo'llanmalar yaratish.

		Texnik vositalar bilan ta'minlash - MTT va maktablarni braille yozuvi printerlari, auduokitoblar, interaktiv vositalar va maxsus kompyuter dasturlari bilan jihozlash
3	<i>Ijtimoiy-psixologik muammolar.</i>	Jamiyat a'zolarining qarashlarini ijobiy tomonga o'zgartirish - keng ko'lamli targ'ibot ishlari orqali inklyuziv ta'limning ijobiy jihatlarini ommalashtirish
4	<i>Tashkiliy-huquqiy muammolar.</i>	Moliyaviy qo'llab-quvvatlash - davlat byudjeti, nodavlat tashkilotlar va xalqaro fondlar orqali qo'shimcha mablag' jalb qilish. Mutaxassislarini jalb qilish - ta'lim muassasalarida defektolog, logoped, psixolog, ijtimoiy pedagog hamda reabilitologlar shtatlarini joriy etish

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'limdagi muammolarni hal etish uchun bir nechta asosiy yo'nalishlar bo'yicha harakat qilish zarur. Birinchidan, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim bo'yicha alohida kurslar va modullar joriy qilinishi lozim. Bu kelajakdagi o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlaydi. Ikkinchidan, maktablar maxsus texnik vositalar: nogironlar aravachasi uchun rampalar, liftlar, eshitish vositalari, braille yozuvli darsliklar bilan jihozlanishi kerak. Uchinchi va eng muhim yo'nalish – bu ijtimoiy ongning o'zgartirishidir. Jamiyat a'zolari, ota-onalar, pedagoglar va hatto o'quvchilarning o'zlari ham inklyuziv ta'limning zarurligini anglab yetishi lozim. Buning uchun ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va madaniy-ma'rifiy tadbirlar orqali ijobiy obrazlar yaratish, tajriba almashish va targ'ibot ishlari kuchaytirish muhim.

Shuningdek, mavjud normativ-huquqiy hujjatlarni izchil va uyg'unlashtirilgan tarzda ishlab chiqish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish (masalan, UNESCO, AQSH elchixonasi, Jahon banki va boshqalar) orqali zarur resurslar va tajriba almashinuvi ta'minlanishi lozim. Har yili inklyuziv ta'lim bo'yicha monitoring va baholash tizimini yo'lga qo'yish ham mazkur sohaning samaradorligini oshiradi.

Bu jarayon nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiy hayotga integratsiyalashuviga, balki sog'lom tengdoshlarning ham bag'rikenglik va insoniylik ruhida tarbiyalanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2020 y.
2. UNESCO. Inclusive Education: Guidelines and Practice Materials. – Paris, 2020.
3. Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. – UNESCO, 1994
4. Karimova R.M. O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish istiqbollari // "Pedagogika va psixologiya" ilmiy-amaliy jurnali. – 2023. – №2. – B. 45–50.
5. UNICEF Uzbekistan. Inclusive Education in Uzbekistan: Situation Analysis Report. – Tashkent, 2021.
6. Yusupova M.Yu. Maxsus pedagogikaning nazariy asoslari. – Toshkent: TDPU, 2020.
7. Turdieva M. J. The Role of the 'First Step' State Curriculum in the Preschool Education Sistem // International Journal Of Multidisciplinary Research And Analysis. Volume-2. 216-224.
8. Juraqulovna T. M. et al. TYPES OF PERSON-CENTERED TECHNOLOGY IN THE EDUCATIONAL PROCESS // E-Conference Globe. – 2021. – C. 105-107.
9. Turdieva M. J. Modern development of creative abilities of preschool children on the basis of pedagogical creativity // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – C. 814-819.

Imanov Baxtiyor Berdiyevich

Termiz davlat pedagogika instituti,
 texnologiya va geografiya kafedrası
 dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi
baxtiyar1957Imanov@mail.com

Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna

Termiz davlat pedagogika instituti
 o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha
 falsafa doktori (PhD)
Khurshida1977Kulmamatova@gmail.com

TEKNOLOGIYA FANI DARS VA DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARIDA AMALIY TOPSHIRIQLAR BAJARISHNI TEXNIK KREATIV RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnologiya fani mavzularini o'quvchilarga qiziqarli va sifatli o'qitishda amaliy topshiriqlardan samarali foydalanish tushintirilgan. Shuningdek, o'quvchilarni texnologiya faniga bo'lgan qiziqishni oshirish, layoqati, yangi g'oyalari, ijodiy fikrlashi, mustaqil ishlarni bajara olishida dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: amaliy, topshiriq, kreativ, loyiha, qiziqish, pedagogik, psixologik, dars, to'garak, mustaqil ta'lim, vosita, jihozlar, texnika, tushuncha.

ТЕХНИЧЕСКОЕ КРЕАТИВНОЕ РАЗВИТИЕ ВЫПОЛНЕНИЯ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАДАНИЙ НА УРОКАХ И ВНЕКЛАСНЫХ ЗАНЯТИЯХ ПО ТЕХНИКЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается эффективное использование практических заданий при обучении учащихся технологиям в интересной и качественной форме. Также подчеркивается важность развития практических навыков на уроках и во внеклассной работе для повышения интереса учащихся к технологиям, их компетентности, новых идей, творческого мышления и способности к самостоятельной работе.

Ключевые слова: практический, задание, креатив, проект, интерес, педагогический, психологический, урок, кружок, самостоятельное обучение, инструмент, оборудование, методика, концепция.

TECHNICAL CREATIVE DEVELOPMENT OF PRACTICAL TASKS IN TECHNOLOGY LESSONS AND EXTRACURRICULAR ACTIVITIES

Abstract. This article explains the effective use of practical tasks in teaching technology subjects to students in an interesting and high-quality way. It also highlights the importance of developing practical task skills in lessons and extracurricular activities to increase students' interest in technology, their competence, new ideas, creative thinking, and ability to perform independent work.

Keywords: practical, task, creative, project, interest, pedagogical, psychological, lesson, circle, independent learning, tool, equipment, technique, concept.

Kirish. Hozir kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashabbuslari bilan qabul qilingan qaror va Farmonlariga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablarida 64 xil kasb-hunarlar fan to'garaklari tashkil etildi. Mamlakatimizda xorijiy tillar va kasb-hunar ta'limi tizimini rivojlantirish maqsadida samarali ishlar amalga oshirildi. Jumladan, tuman va mahallalarning xususiyatlaridan kelib chiqib, maktablarning o'zida o'quvchilarga turli xil kasb-hunarlar o'rgatilmoqda. Mahalliy davlat hokimiyatlari tomonidan tanlab olingan 2000 dan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasb-hunarlar ta'limi o'quv ustaxonalari tashkil etildi, jihozlandi va zarur buyumlar bilan ta'minlandi. Unga yoshlarning etakchilari, ishbilarmonlari va texnologiya fan o'qituvchilari jalb qilindi.

Bugungi kunda ta'lim olayotgan yoshlar mustaqil yurtimizning kelajagi hisoblanadi. Ularni har tomonlama etuk insonlar qilib tayyorlash, texnik kreativligini rivojlantirish ta'lim-tarbiya muassasalarining asosiy vazifalaridan biridir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o'quvchilarga o'rgatish jarayonida qiziqarli mashg'ulotlarni tashkil etish, mashg'ulotlarni o'tkazishda yangi pedagogik va axborot iqtisodiyotini qo'llash o'quv uslubiy ta'minot muammolariga qaratilgan bir necha yangiliklarni amalga oshirilmog'i lozim. Shu jumladan, amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy qo'llanmalarni takomillashtirish hamda ularning o'quv-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalar asosida tadbiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tahlil va natija. Bugungi kunda jahon bozorida tabiiy mahsulotlarga bo'lgan talablar juda ko'p. Shu bois Respublikamizda mahalliy tabiiy xomashyodan ishlab chiqariladigan tikuvchilik mahsulotlari hajmini ko'paytirish, kiyim strukturasini yanada takomillashtirish, sifatini yaxshilash, raqobatbardosh va xaridorgir mahsulotlarni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun mamlakatimizning engil sanoat bazalarini yaratish yangi texnika va ilg'or texnologiyani joriy etish, yangi majmuadagi mexanizasiyalashtirilgan jarayonlarni qo'llash, yangi materiallardan foydalanish zarur. Shu bilan birga texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish hamda ish o'rinlarini yaratish uchun yangi kichik korxonalar barpo etish ishlarini yo'lga qoyish dolzarb muammolarni hal qilishda talab qilinadi. Tayyor mahsulotlarini yuqori sifatli va ishlab chiqarish jihatidan samarali bo'lishi uchun unga loyihalash va tinimsiz ishlash zamin yaratish lozim. Bunday jarayonlar badiiy konstruktorlik va texnik vazifalarning echimini o'z ichiga qamrab oladi. Etakchi tarmoqlar tajribasidan ma'lumki, avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarini yaratish va amaliyotda qo'llash jarayoni takomillashtirishning taraqqiyoti va perspektiv asosi hisoblanadi.

Ta'lim metodlari muayyan pedagogik jarayonda ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo'lgan vazifalarni amalga oshirish uchun qo'llaniladi. Texnologiya darsi va darsdan tashqari mashg'ulotlar turli xil ish usullari va ta'lim shakllaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu ishlarni amalga oshirishning shakllangan, amaliyotda qo'llanilgan har xil usullar va shakllar asosida ko'plab ta'lim metodlari bu jarayonlarda foydalaniladi. Shuningdek, buyumlar tayyorlash uchun amaliy topshiriqlarni dars jarayonida qo'llash orqali texnik kreativlikni rivojlantirish orqali samarali natijalarga erishiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf o'quvchilariga texnologiya fani ikki yo'nalishda: texnologiya va dizayn hamda servis xizmati bo'yicha o'qitiladi. Ushbu o'quv darsligida yillik o'quv taqvim rejasiga bo'yicha mavzular ajratilgan. Bularga: "milliy hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash texnologiyasi, ishlab chiqarish va ro'zg'orshunoslik asoslari, elektronika asoslari, ijodiy loyiha tayyorlash texnologiyalari va kasb tanlashga yo'llash" deb nomlangan boblar kiritilgan.

9-sinf o'quvchilariga umumiy darslar texnologiya fanidan yillik taqvim rejasiga ko'ra 34 soat bo'lib, haftalik yuklama bo'yicha esa 1 soatdan o'tiladi. Texnologiya fanidagi mavzularni umumta'lim maktabining moddiy-texnik bazasidan foydalangan holda samarali va maqsadli o'rgatish talab etiladi.


O'quvchilarga bichish-tikish turlaridan ijodiy loyihalarni tayyorlash texnologiyalarini, milliy hunarmandchilik turlarini va turli xildagi kasblarni tanlash bo'yicha yo'llanmalar berishda texnologiya fani o'qituvchilari hamda ishlab chiqarish ta'lim ustalarining o'rni muhim hisoblanadi. Tarqatma materiallar, har xil chizmalar, sxemalar, o'quv vositalari, ko'rgazmali qurollar, buyumlarning chizma va andozalarini turlaridan mavzuga mos tanlash, aynan darsni qiziqarli, shu bilan birga sifatli tashkil etishda alohida o'ringa ega.

Amaliy topshiriqlarni tanlash mezonlarini ishlab chiqish uchun o'qituvchilardan pedagogik mahorat, yetarli tajriba va o'quvchilarni faniga qiziqtirish kompetensiyalari talab etiladi. Metallarga, gazlamalarga, yog'ochlarga shu bilan bir qatorda, turli xildagi uy-ro'zg'or buyumlariga alohida ishlov berish jarayonlari orqali stanoklar, tikuv mashinalaridan foydalaniladi. Texnologiya fanidan 9-sinf o'quv rejasida berilgan mavzular asosida o'quvchilarga bilimlarini mukammal egallashi uchun amaliy topshiriqlardan foydalaniladi.

Texnikalardan (stanoklar, tikuv mashinalar, dazmollar, issiqlik pechlari va hokazolardan) unumli foydalanib ijodkorlik ishlari bo'yicha har xil buyumlar hamda jihozlar tayyorlash texnologiyasi o'quvchilarga o'rgatiladi. Bunday paytda fan o'qituvchisi dars o'tishi davomida turli usuldagi nazorat ishlari va topshiriqlarni o'quvchilarga vazifa qilib beradi.

Ammo hozirgi vaqtda texnologiya fani darslarining amaliy mashg'ulotlarida o'quvchilar texnikalardan foydalanib, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ko'nikmalarni shakllantirishda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning tayyorgarligi metodik jihatdan talab darajada emasligi kuzatildi. Umumta'lim maktablarining ayrim o'quv ustaxonalarini moddiy-texnika bazasidagi ko'pgina tikuv mashinalari, o'quv vositalari, stanoklar, shuning bilan birga kompyuter uskunalari yetarli emasligi, eskirganligini ko'rishimiz mumkin.

Texnologiya darslarida foydalaniladigan topshiriqlar 1-rasmدا berilgan bo'lib, bular ikki turga bo'linadi:



1-rasm. Texnologiya fanidan topshiriqlarning turlari.

Texnologiya fanidan 9-sinfning o'quvchi qizlarga "Servis xizmati" yo'nalishi uchun o'tiladigan darslarning mavzusiga ko'ra amaliy topshiriqlarni bajarishning farqli tomonlari mavjud. Texnologik operatsiyalardan olib boriladigan darslarda andozalar tayyorlash, gazlamalarni bichish, buyumlarning chizmalarini chizish hamda alohida tikish ishlari va pardozlash, shu bilan bir qatorda, asosiy dazmollash ishlari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunda o'quvchi qizlar har bir vazifani bajarishlari uchun ularga amaliy topshiriqlar beriladi.

Texnologiya fani o'qituvchisi yuqori bilim salohiyatiga ega bo'lishi, keng fikrlay olishi, shuningdek, o'z kasbi va mutaxassislik fanini chuqur bilishi lozim.

Fan o'qituvchisiga qo'yiladigan bir qancha talablar mavjud, ularga asosan quyidagilar kiradi:

- kasb mahoratini chuqur egallaganligi;
- inson omilini ta'minlovchi, o'quv va tarbiyalar jarayonida shaxsiy fazilatlarni shakllantirib olganligi;
- kasb mahorati orqali texnik vositalardan samarali va unumli foydalanishga egaligi;
- namunaviy amaliy topshiriqlar tayyorlab mashg'ulotlarda bevosita o'quvchilarga bajarishni o'rgata olishi;
- o'quvchilarni turli xil kasb va hunarlarga qiziqtirishi hamda yo'naltirishi;
- o'quvchilarning bilimlarini adolatli, xolisona baholay olishi va nazorat qila olishi.

Texnologiya fanidan 9-sinfning o'quv taqvim rejasiga ko'ra amaliy topshiriqlarni quyidagi mavzular uchun tayyorlash mumkin:

1. Ayollar shimini bichish va tikish.
2. Burmali yostiqlar tikish texnologiyasi.
3. To'qishning murakkab usullari va hokazolar.
4. Ko'ylakni zamonaviy uslubda bichish va tikish.
5. Dizayn va modellashtirish.
6. Karving san'ati.

Yuqorida qayd etilgan mavzulardan foydalangan holda o'quvchilarga amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish metodlarini ishlab chiqishimiz zarur. Metod, shakl hamda vositalardan unumli foydalanagan holda biz o'tiladigan amaliy darslarning rejasini aniqlashirib, shu bilan ilmiy-tadqiqot ishidan ko'zlangan maqsadimizga erishishimiz lozim.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, texnologiya fanini 9-sinf o'quvchilariga o'qitishda amaliy topshiriqlarni bajarish usullarini o'rgatish nafaqat texnologik bilimlarni o'zlashtirishda, balki ularni real hayotdagi buyumlarni tayyorlashda ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu jarayonda o'quvchilarning fikrlashi, ko'nikmalar shakllanishida tezkor qarorlar qabul qilishni, o'zaro hamkorlikda ishlashni, texnik kreativlikni va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga yordam beradi. O'qituvchilar dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda amaliy topshiriqlarni samarali tashkil qilish orqali o'quvchilarning texnologiyaga bo'lgan qiziqishini oshirishi va ularni kelajakdagi muvaffaqiyatli yutuqlarga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Beshta muhim tashabbusi". Toshkent, "Xalq so'zi" gazetasi 21 mart 2019 yil. №55 (7285) 1-bet.
2. R.M.Sarsenbayeva "Mehnat ta'limi negizida o'quv-tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishning ilmiy-metodik asoslari". Avtoref.dis. ...ped. fan. nom.-T.:2004. -20 b.
3. O.O.To'hirov "Texnologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar moduli bo'yicha" O'quv-uslubiy majmua. Toshkent. 2018 yil.
4. Yu.K.Babanskiy "Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari". O'quv qo'llanma. Toshkent. O'qituvchi, 1990 yil.
5. Иманов Б.Б. Урок Как Фактор Повышения Качества Образования SCIENCE AND WORLD International scientific journal. №7 (83), 2020.
6. Qulmamatova X.A. O'quvchilar tikuvchilik operatsiyalarini bajarishda amaliy topshiriqlardan foydalanishning ahamiyati. Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. ISSN 2181-8274. – Toshkent, 2023. 6-son. –B 529-531.
7. Qulmamatova X.A. O'quvchilar texnologiya fanini o'qitishda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun topshiriq tanlash // Globalashuv jarayonida innovatsion ta'lim va milliy tarbiya: integratsiyaga xos muammolar, bahslar va yechimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. –Termiz, -2023.
8. Z.Sattorova, N.Abdusalomova, N.Ahmedova "Texnologiya" Toshkent.. "O'zbekiston" 2019 y. 9-sinf uchun darslik.

Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna
 Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
 boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası
 dotsenti, pedagogika fanlari falsafa doktori
 (PhD)
mahliyoxabibullayevna1988@mail.com

SUN'IY INTELLEKTNING MAGISTRATURA TALABALARINING ILMIY PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIRI

Annotatsiya. Ilmiy-pedagogik kompetensiyalar talabaning ilmiy izlanish olib borish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, ta'lim jarayonini boshqarish va uni innovatsion metodlar bilan boyitish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu kompetensiyalarni shakllantirishda sun'iy intellekt vositalari katta yordam beradi. Mazkur maqolada ham sun'iy intellekt texnologiyalarining magistratura bosqichida ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiqi, ilmiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o'rni va imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, magistratura, ilmiy-pedagogik kompetensiya, raqamli ta'lim, innovatsion texnologiya.

ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА РАЗВИТИЕ НАУЧНО- ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ АСПИРАНТОВ

Аннотация. Научно-педагогические компетенции включают в себя способность студента проводить научные исследования, сочетать теоретические знания с практикой, управлять образовательным процессом и обогащать его инновационными методами. Инструменты искусственного интеллекта оказывают значительную помощь в формировании этих компетенций. В статье также анализируется применение технологий искусственного интеллекта в образовательном процессе магистратуры, их роль и возможности в развитии научно-педагогических компетенций.

Ключевые слова: искусственный интеллект, магистратура, научно-педагогическая компетентность, цифровое образование, инновационные технологии.

THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON THE DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL COMPETENCIES OF MASTER'S STUDENTS

Abstract. Scientific and pedagogical competencies include the student's ability to conduct scientific research, combine theoretical knowledge with practice, manage the educational process and enrich it with innovative methods. Artificial intelligence tools greatly help in the formation of these competencies. This article also analyzes the application of artificial intelligence technologies to the educational process at the master's level, their role and opportunities in the development of scientific and pedagogical competencies.

Keywords: artificial intelligence, master's degree, scientific and pedagogical competence, digital education, innovative technology.

Kirish. Sun'iy intellekt (SI) - bu inson intellektual faoliyatining ayrim xususiyatlarini modellashtiruvchi va mustaqil ravishda murakkab masalalarni hal etishga qodir bo'lgan dasturiy va apparat tizimlar majmuasidir. U o'rganish (learning), mulohaza yuritish (reasoning), tabiiy tilni qayta ishlash (natural language processing), qaror qabul qilish (decision-making) kabi jarayonlarni amalga oshira oladi. SI texnologiyalari orqali mashinalar inson fikrlashiga o'xshash tarzda ma'lumotni tahlil qiladi, o'rganadi va yangi sharoitlarda moslashuvchan qarorlar qabul qila oladi.

B.Mo'minov fikricha, "sun'iy intellekt - bu insonning intellektual faoliyatini ma'lum darajada modellashtiruvchi va mustaqil ravishda murakkab masalalarni hal etishga qodir bo'lgan dasturiy va apparat vositalari majmuasi hisoblanadi. U o'qitish, o'rganish, tahlil qilish, qaror qabul qilish kabi jarayonlarni amalga oshira oladi".

Ilmiy-pedagogik kompetensiya deganda, magistrantning ilmiy izlanish olib borish, o'quv jarayonini samarali tashkil etish, innovatsion metodlardan foydalanish va ta'limni boshqarish qobiliyati tushuniladi. Sun'iy intellekt esa ushbu ko'nikmalarni shakllantirishda yordam beruvchi kuchli mexanizm sifatida maydonga chiqmoqda. Masalan, natural language processing texnologiyalari ilmiy matnlarni qisqa referatlar va annotatsiyalarga ajratib bera oladi, ilmiy maqolalardan asosiy g'oyalarni chiqarib olish imkonini yaratadi, statistik tahlillarni avtomatlashtirish orqali ilmiy izlanish jarayonini tezlashtiradi. Shuningdek, magistrantlar uchun individual ta'lim trayektoriyasini yaratish imkoniyati ham mavjud bo'lib, bu talabning qiziqishlari va bilim darajasiga qarab moslashtirilgan kurslarni tanlashni osonlashtiradi.

Sun'iy intellektdan foydalanishning eng muhim jihatlardan biri - bu ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlashdir. AI yordamida bibliografik ro'yxatlarni tez va to'liq shakllantirish, ilmiy manbalarni tahlil qilish, zamonaviy tadqiqot tendensiyalarini kuzatish mumkin. Bundan tashqari, AI vositalari o'qituvchi va talabalar uchun pedagogik faoliyatni optimallashtirishda ham keng qo'llanilmoqda: avtomatlashtirilgan test tizimlari, virtual laboratoriyalar, masofaviy monitoring vositalari ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, o'qituvchilarning metodik yukini kamaytiradi.

Shu bilan birga, sun'iy intellektdan foydalanishning ayrim muammolari ham mavjud. Bular orasida plagiat va akademik halollikning buzilishi, talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatining pasayishi, texnologiyaga haddan ortiq qaramlik va o'qituvchi hamda talaba o'rtasida jonli muloqotning qisqarishi kabi xavf-xatarlarni ko'rsatish mumkin. Bu omillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishda muvozanatni saqlash va insoniy qadriyatlarga tayanish zarur.

Xalqaro tajribalar ham shuni ko'rsatmoqdaki, sun'iy intellekt vositalari AQSh, Janubiy Koreya, Singapur va boshqa davlatlarda magistratura ta'limiga keng joriy etilmoqda va bu ilmiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishda sezilarli ijobiy natijalar bermoqda.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ham AI vositalarini qo'llash bo'yicha dastlabki tajribalar mavjud bo'lib, kelgusida bu jarayonning kengayishi kutilmoqda.

Sun'iy intellekt masalasi so'nggi yillarda O'zbekiston ilmiy va ta'limiy muhitida eng dolzarb yo'nalishlardan biriga aylandi. Raqamli transformatsiya jarayonlari kuchayib borayotgan bir davrda SI nafaqat texnologik rivojlanishning, balki ta'lim va ilmiy tadqiqotlarning ham asosiy ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Birinchidan, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda SI sohasiga oid monografiyalar, o'quv qo'llanmalar va maqolalar soni tobora ortib bormoqda. Jumladan, B.B.Mo'minovning "Sun'iy intellekt" nomli o'quv qo'llanmasida SI tushunchasi, uning nazariy asoslari, dasturiy va apparat yechimlari keng tahlil qilingan bo'lib, unda ta'limdagi qo'llanilishi alohida yoritilgan. Shuningdek, N.T.Mirzaxolovning "Sun'iy intellekt - fan-texnika taraqqiyotining yuksak bosqichi (ijtimoiy-falsafiy tahlil)" maqolasida SI falsafiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan o'rganilib, uning jamiyat hayotiga ta'siri keng yoritilgan.

Ikkinchidan, amaliy tadqiqotlarda SI texnologiyalarining kutubxonachilik, axborot xizmati va ta'lim jarayoniga tatbiqi haqida maqolalar chop etilgan. Masalan, G.A.Sharipova va Sh.J.Sharipovning "Sun'iy intellekt ishtirokidagi kelajak kutubxonalari" maqolasida SI texnologiyalarining foydalanuvchi tajribasini shaxsiylashtirish va axborot jarayonlarini avtomatlashtirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shu bilan birga, M.D.Rahimbayeva Zamonaviy elektron o'quv resurslarini ishlab chiqishda SI imkoniyatlari mavzusida SIning ta'limdagi dasturiy vositalarini ishlab chiqish bo'yicha metodik tavsiyalar berishgan.

Uchinchidan, davlat siyosati darajasida ham SI bo'yicha izchil qadamlar tashlanmoqda. 2021-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli ta'lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi va unda sun'iy intellektni ta'lim sohasiga

joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Shuningdek, Toshkentda "Sun'iy intellektni rivojlantirish markazi" faoliyat boshladi va bu markaz SI bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish, kadrlar tayyorlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bilan shug'ullanmoqda.

To'rtinchidan, ilmiy-pedagogik kompetensiyalar rivoji nuqtayi nazaridan olib qaraganda, SI vositalaridan foydalanish bo'yicha tajribalar magistratura ta'limida ham kengayib bormoqda. AI asosidagi avtomatik baholash tizimlari, elektron testlar, bibliografik izlash platformalari va virtual laboratoriyalar o'qituvchilarning ilmiy-metodik yukini kamaytirib, talabalar salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda sun'iy intellekt masalasi hali to'liq o'rganilib bo'lingan emas, biroq oxirgi 5-7 yil davomida ilmiy izlanishlar, amaliy qo'llanmalar va davlat siyosati darajasida sezilarli siljishlar kuzatilmoqda. SI bo'yicha maxsus o'quv qo'llanmalar, falsafiy va pedagogik maqolalar, ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallari paydo bo'lishi, shuningdek, milliy ta'lim tizimida bu texnologiyani joriy etish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilayotgani uning O'zbekistonda jadal o'rganilayotganini ko'rsatadi.

Demak, sun'iy intellekt magistratura talabalari uchun ilmiy-pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishning muhim vositasidir. U talabalarning ilmiy izlanishdagi samaradorligini oshiradi, pedagogik faoliyatni yengillashtiradi, global ilmiy hamjamiyatga integratsiyani ta'minlaydi va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, undan oqilona foydalanish, akademik halollikka rioya qilish va insoniy qadriyatlarni asrab qolish magistratura bosqichidagi ta'lim jarayonining muhim talabi bo'lib qoladi.

AQSh, Janubiy Koreya, Singapur kabi mamlakatlarda AI ta'lim tizimiga keng joriy etilmoqda va magistratura bosqichida u o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiruvchi vosita sifatida qaralmoqda. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ham SI vositalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yilgan. Bu jarayon magistrantlarning ilmiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda katta istiqbollarga ega.

Tahlil va natija. Sun'iy intellektning magistratura ta'limiga joriy etilishi nafaqat ta'lim jarayonini yengillashtirish, balki uning sifat va mazmunini tubdan yangilash imkonini bermoqda. Magistrantlarning ilmiy-pedagogik faoliyati ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda ilmiy izlanish, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish, metodik yangiliklarni tatbiq etish hamda o'z-o'zini rivojlantirish elementlari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Shu jihatdan qaraganda, sun'iy intellekt texnologiyalari bu jarayonlarning har bir bosqichiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Avvalo, ilmiy izlanish faoliyatida AI vositalaridan foydalanish magistrantlarga ilmiy manbalarni tezkor qidirish, tanlab olish, tahlil qilish, statistik hisob-kitoblarni avtomatlashtirish va ilmiy xulosalarni qisqa muddatda ishlab chiqish imkonini bermoqda. Bu esa ularning ilmiy kompetensiyalarini sezilarli darajada kuchaytiradi va tadqiqot samaradorligini oshiradi.

Pedagogik faoliyatda esa sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan virtual laboratoriyalar, simulyatorlar, interfaol platformalar o'quv jarayonini yanada jonli, qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam bermoqda.

AI yordamida tuzilgan individual ta'lim trayektoriyalari magistrantlarning o'z qiziqishlari va tayyorgarlik darajalariga moslashgan holda bilim olishlarini ta'minlaydi.

Bu jarayon ta'limni shaxsiylashtirish va talabaning individual salohiyatini ochishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, avtomatik baholash tizimlari, elektron testlar va adaptiv o'quv dasturlari o'qituvchilarning mehnatini yengillashtirib, pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirmoqda.

Biroq sun'iy intellektning afzalliklari bilan bir qatorda muammoli jihatlari ham mavjud. Akademik halollik masalasi, ya'ni plagiatga moyillik, mustaqil fikrlashning zaiflashishi, insoniy muloqotning qisqarishi kabi xavf-xatarlar ehtiyotkorlikni talab qiladi. Shu sababli magistratura bosqichida AI vositalarini joriy etishda muvozanatni ta'minlash, ularni insoniy qadriyatlar va pedagogik mahorat bilan uyg'unlashtirish muhimdir.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, AQSh, Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlarda sun'iy intellekt texnologiyalaridan faol foydalanish natijasida magistrantlarning ilmiy-pedagogik kompetensiyalari keskin rivojlangan. O'zbekiston ta'lim tizimi ham ushbu yo'nalishda faol qadam tashlamoqda. Mahalliy sharoitda AI vositalarini milliy ta'lim konsepsiyasi, madaniy qadriyatlar va mavjud pedagogik an'analar bilan uyg'unlashtirish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

Shunday qilib, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt magistratura talabalari uchun ilmiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishda strategik omil hisoblanadi.

U ilmiy izlanishlarni samarali tashkil etishga, pedagogik jarayonni yengillashtirishga, talabalarning mustaqil fikrlashini qo'llab-quvvatlashga va global ilmiy hamjamiyatga integratsiya bo'lishiga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Natijaviy jihatdan aytganda, AI texnologiyalarini oqilona va muvozanatli qo'llash O'zbekiston oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh magistr kadrlarni tayyorlashning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Sun'iy intellekt magistratura talabalari uchun ilmiy-pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishning muhim vositasidir. U talabalarning ilmiy izlanish kompetensiyasini oshirish, pedagogik faoliyatni optimallashtirish va global ilmiy maydonga integratsiyasini ta'minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, undan foydalanishda akademik halollik, mustaqil fikrlash va insoniy qadriyatlarni saqlash muhimdir. Kelajakda sun'iy intellekt asosidagi ta'lim modellarini ommalashtirish O'zbekiston oliy ta'lim tizimining xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Russell S., Norvig P. *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. - 4th ed. - New Jersey: Pearson, 2021. - 1136 p.
2. Мўминов Б.Б. *Sun'iy intellekt: o'quv qo'llanma*. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2023. – 175 b. ISBN 978-9910-735-27-1.
3. UNESCO. *Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policymakers*. - Paris: UNESCO Publishing, 2021. - 236 p.
4. Ходжиева Н.К. *Замонавий педагогик технологиялар ва таълим жараёнида инновация*. - Тошкент: Фан ва технология, 2020. - 180 б.
5. Шарипова Г.А., Шарипова Ш.Ж. Sun'iy intellekt ishtirokidagi kelajak kutubxonalari: afzallik va kamchiliklar // *Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences*. - International scientific-online conference. - 2024. - C. 41-45. - DOI: [10.5281/zenodo.14616110](https://doi.org/10.5281/zenodo.14616110)
6. Мирзахолов Н.Т. Sun'iy intellekt - fan-texnika taraqqiyotining yuksak bosqichi (ijtimoiy-falsafiy tahlil) // *Ilmiy axborot*. - 2023. - №1. - B. 498-501.
7. Рахимбаева М.Д., Маратов М.Қ., Юсупова И.Р. *Zamonaviy elektron o'quv resurslarini va aqlli ilovalarni ishlab chiqishda sun'iy intellekt tizimlarining imkoniyatlaridan foydalanish* // *Ilm sarchashmalari*. - 2022. - №10 (184). - B. 96-98.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARINI INNOVATSION BOSHQARISHDA SINF RAHBARLARINING ROLI

Annotatsiya: Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion boshqarishda asosiy bo'g'inlardan biri bu o'quvchilar bilan doimiy hamnafas pedagog sinf rahbari hisoblanadi. Ushbu mavqeydagi pedagog eng avvalo yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan, salohiyatli, ilmiy va yoshlarga to'g'ri yo'l ko'rsata oladigan komil inson bo'lishi kerak bo'ladi. Ushbu maqolada maktab sinf rahbarlarining sifatlari, lavozim vazifalari, sinf rahbarlarini tanlashda nimalarga e'tibor berish kerakligi va o'quvchilar bilan ishlash jarayonlari to'g'risida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar. Maktab, jamoa, sinf, ta'lim, tarbiya, psixolog, zamonaviy ta'lim, ota-ona, xulq-atvor, innovatsion ta'lim texnologiyalari.

РОЛЬ КЛАССНЫХ РУКОВОДИТЕЛЕЙ В ИННОВАЦИОННОМ УПРАВЛЕНИИ ОБЩИМИ СРЕДНИМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ УЧРЕЖДЕНИЯМИ

Аннотация: Одним из основных звеньев инновационного управления средними образовательными учреждениями является классный руководитель – учитель, постоянно взаимодействующий с учащимися. Учитель, занимающий эту должность, должен, прежде всего, быть человеком с высокими моральными качествами, способным, эрудированным и умеющим направлять молодежь в нужное русло. В данной статье рассматриваются качества классных руководителей, их должностные обязанности, на что следует обращать внимание при выборе классных руководителей, а также особенности работы с учащимися.

Ключевые слова: Школа, сообщество, класс, образование, воспитание, психолог, современное образование, родители, поведение, инновационные образовательные технологии.

THE ROLE OF CLASS LEADERS IN INNOVATIVE MANAGEMENT OF GENERAL SECONDARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract: One of the main links in the innovative management of secondary educational institutions is the class teacher, a teacher who constantly interacts with students. A teacher in this position must, first of all, be a person with high moral qualities, capable, knowledgeable, and capable of guiding young people in the right direction. This article discusses the qualities of school class teachers, their job responsibilities, what to pay attention to when choosing class teachers, and the processes of working with students.

Keywords School, community, class, education, upbringing, psychologist, modern education, parents, behavior, innovative educational technologies.

Kirish. Har bir o'quvchi zimmasidagi mas'uliyatni to'liq anglamasligi, ilm olishning ahamiyati-yu o'zining qanday qobiliyatga egaligini bilmasligi mumkin. Shu bois o'g'il-qizlarimiz mustaqil hayot yo'lini tanlaguncha kattalar ko'magiga, g'am xo'rliciga muhtoj. Ularning asosiy vaqti maktabda o'tishni e'tiborga olsak, bu borada sinf rahbari zimmasidagi vazifalar ko'lami naqadar kengligi oydinlashadi. Ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish, sinfdagi ahil jamoani shakllantirish, qobiliyatini to'liq namoyon etishi uchun o'quvchilarga zarur sharoit yaratishda sinf rahbarining o'rni beqiyos. Chunki u yoshlar taqdiriga daxldorlar ota-onalar, fan

o'qituvchilari, maktab psixologi, umuman, har bir mas'ul odamning ta'lim -tarbiya maqsadlarini birlashtiruvchi asosiy vositachidir.

Adabiyot tahlili va metodologiyasi. Ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishning zamonaviy yondashuvlarini o'rganish bo'yicha ko'plab ilmiy manbalar, pedagogik tadqiqotlar va xalqaro tajribalar tahlil qilingan. Pedagogik boshqaruv, innovatsion menejment va raqamli ta'lim texnologiyalariga oid ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun an'anaviy va zamonaviy metodlarning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy adabiyotlarda R. A. Mavlonova, N. X. Rahmonqulova, B. A. Normurodova, K. O. Matnazarova "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" kabi pedagog olimlar tomonidan maktab ta'limida innovatsion yondashuvlar, ta'lim menejmenti va pedagogik texnologiyalar bo'yicha qator izlanishlar olib borilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining normativ hujjatlari ta'lim sohasida zamonaviy yondashuvlarni shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonini boshqarishda quyidagi asosiy yondashuvlar samarali hisoblanadi:

- *Innovatsion ta'lim texnologiyalari – raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va masofaviy ta'lim platformalari yordamida boshqaruvni tashkil etish.*

- *Pedagogik menejment – ta'lim muassasasi rahbarlari va o'qituvchilarning boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish va samaradorligini oshirish.*

- *Motivatsion yondashuv – o'quvchilar va o'qituvchilarning ichki motivatsiyasini oshirish orqali ta'lim sifatini yaxshilash.*

- *Kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va innovatsion yondashuvlarga moslashishini qo'llab-quvvatlash.*

Mazkur tadqiqotda ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishning zamonaviy yondashuvlarini o'rganish uchun quyidagi metodologik asoslar qo'llanildi:

1. *Nazariy-tahliliy usul – ta'lim menejmenti, innovatsion pedagogik texnologiyalar va zamonaviy o'qitish metodlari bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.*

2. *Empirik tadqiqot usullari – maktablarda ta'lim jarayonini boshqarish amaliyoti o'rganildi, o'qituvchilar, o'quvchilar va maktab rahbarlari o'rtasida so'rovnomalar o'tkazildi.*

3. *Tajribaviy usul – zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini sinovdan o'tkazish va ularning samaradorligini baholash uchun eksperimental dasturlar joriy etildi.*

4. *Komparativ tahlil – xalqaro tajriba va milliy ta'lim tizimi o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar o'rganilib, innovatsion metodlarning moslashtirilgan shakllari taklif qilindi.*

Ushbu metodologik yondashuvlar ta'lim jarayonini boshqarishning zamonaviy modellari va samaradorligini aniqlashga imkon yaratadi. Tadqiqot natijalari maktab ta'limini boshqarishda innovatsion yondashuvlardan foydalanishning ahamiyatini yanada chuqurroq tushunish va samarali boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Muhokama va natijalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni bilan tasdiqlangan Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 21-bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda umumiy o'rta ta'lim muassasasining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari va sinf rahbarlari faoliyati samaradorligini oshirish va ularning ish faoliyatini tizimli tashkil etish maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023 yil 27-iyun "Umumiy o'rta ta'lim muassasasi direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari va sinf rahbarlarining lavozim yo'riqnomasini tasdiqlash to'g'risida"gi 190-sonli buyrug'i chiqdi. Buyruqning 2-ilovasida Umumiy o'rta ta'lim muassasasi sinf rahbarining lavozim yo'riqnomasi keltirilgan.

Sinf rahbarining faoliyati ko'p qirrali va sarmazmundir. U o'zi rahbarlik qilayotgan sinf o'quvchilarini tarbiyalash bilan bir qatorda o'quv yili yoki chorak davomida nimalar qilish kerakligi, bolalar hayotini nima bilan band qilish va tanlangan ish turini qanday amalga oshirishni bexato aniqlash kabi ancha mu-rakkab muammoni yechadi. Bu borada sinf rahbariga turli xil manbalar yordam beradi. O'quvchilarning ayrim xatti-harakatlariga bu xatti-

harakatlar namoyon bo'lishining tashkil etishi tajribalarini o'rganish va tahlil qilish asosida o'quvchilarni o'rganishda amal qilishi lozim bo'lgan talablarni shunday ifodalamoq mumkin:

Bolalarni o'rganish ularga tarbiya va ta'lim berish sifatini oshirishga bo'ysindirmog'i lozim. O'quvchilarni muntazam tarzda o'rganish asosida boshlang'ich jamoaga hamda alohida o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning yanada samarali usul va metodlarni tanlab olishga ijodiy yondashish mumkin bo'ladi. O'quvchilarning individual xususiyatlari, mayllari hamda qiziqishlarini qayd qilib borish bilangina cheklanib qolish noto'g'ri. Bu o'rganish asosida o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, ular bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishni tashkil etish muhimdir. O'z o'quvchilarini yaxshi o'rganish, demak, tashqi tomoniga emas, balki ularning xulq-atvor sabablarini o'rganishga e'tibor bermoq darkor.

Tadqiqotni olib borish jarayonida ijtimoiy o'zgarishlar va ta'lim muassasalari, shu jumladan, umumiy o'rta ta'lim muassasalari rivoji o'rtasida yuzaga keluvchi nomuvofiqliklarni quyidagicha guruhlash mumkin degan fikrga kelindi:

1. Iqtisodiy voqeliklar o'rtasidagi nomuvofiqlik (byudjetni shakllantirish, uni moliyalashtirish tartibi hamda byudjetdan foydalanishda davlat kafolatlarining ustuvorligi bilan moliyaviy sarf-xarajatlar ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilishda qo'llanilayotgan yoki tavsiya etilayotgan optimal metodlarning mavjud emasligi o'rtasidagi nomuvofiqlik kabilar bilan tavsiflanadi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari tomonidan tadbirkorlik faoliyatining yo'lga qo'yilishi va bu yo'lda moliyaviy mablag'lar manbalarini izlashdagi mavjud qiyinchiliklar yuqoridagi kabi nomuvofiqliklarning oqibati deb hisoblash mumkin).

2. Umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi mavjud haqiqiy holat va pedagogik faoliyatda qo'llanilayotgan ta'limiy va tarbiyaviy metodlar o'rtasidagi nomuvofiqlik (masalan, o'quvchilarning fanlar bo'yicha bilimlari darajasi ta'lim muassasasida muayyan mezonlar bilan baholanib, ma'lum shartli belgilar – raqamlardan iborat ball yoki baholarda ifodalanadi. Biroq, baholash tizimi qisqacha yozma tahlil bilan to'ldirilsa, sinf rahbari va ota-onalar o'quvchilar (farzandlari)ning aqliy va ma'naviy-axloqiy kamoloti darajasini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lardilar. O'quvchilar esa shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlarini mustaqil baholay olardilar. Bu esa ularda o'ziga nisbatan talabchanlikni oshirishga yordam berardi).

Baholar, odatda, kundalik.com tizimida qayd etib boriladi, qisqacha yozma tahlilni esa "individual rivojlanish daftari"da ifodalash mumkin. Bunday daftarlarning dastlabki sahifasida o'quvchilar va ota-onalarning roziliklari bilan tasdiqlangan baholash mezonlari to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Qisqacha mazmunli tahlil "O'quvchining individual rivojlanish daftari"da quyidagi sxema asosida bayon etiladi

O'quvchining individual rivojlanish daftari" bo'limlari

Sana	Sinov (nazorat) mavzusi	Mazmunli tahlil	O'qituvchi imzosi	Ota- onalarning imzosi

Bizning fikrlarimizcha, "O'quvchining individual rivojlanish daftari" sinf rahbari hamda fan o'qituvchilari tomonidan kelgusi vazifalarning belgilanishiga, o'quvchi shaxsini rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi.

Tarmoq tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar ham muassasa innovatsion faoliyatini samarali tashkil etishda muhim manba sanaladi. Binobarin, ta'lim sohada ro'y berayotgan o'zgarishlar muassasaning yangi ish shakllari va metodlarini izlashga, mavjud shakl va metodlarni takomillashtirishga majbur qiladi.

Bu o'rinda pedagoglar va rahbarlarning tajribalariga asoslanuvchi innovatsiyalarni sinf rahbarlari faoliyati misolida yoritish maqsadga muvofiqdir.

Tahlillar natijasida sinf rahbarlari quyidagi vazifalarni bajarishga mas'ul ekanliklarini aniqlandi. Buni quyidagi sxemada ko'rishimiz mumkin:



Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion boshqarishda ta'lim muassasasining rahbari jamoada faoliyat yuritayotgan pedagoglar ichidan amaldagi meyoriy-huquqiy hujjatlar asosida sinf rahbarlarni tanlab ularni tayinlashi lozim. Bu eng muhim jihatlardan biri deb bilaman. Sababi o'quvchi yoshlar ustozining (sinf rahbari) yurish turishi, xarakterini doimiy kuzatadi va o'rganadi, lozim topsa unga havas qiladi. Demak, o'z-o'zidan ma'lumki rahbar o'quvchi yoshlar havas qiladigan nomzodni tayinlashi kerak. Sinf rahbarini tanlashda 17 yillik tajribamdan bilamanki yoshlar orzu-havas qilishlari uchun atroflaridan mukammal komil inson obrazini qidirishadi. Biz shu obrazni imkon qadar sinf rahbarida mujassam holda ko'rsatishimiz lozim.

Ta'lim muassasasi innovatsion faoliyatini boshqarishda, eng avvalo, maqsad va amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalarni aniqlab olish lozim. Boshqaruv tizimida barcha obyektiv va subyektiv omillarning bir-biriga bog'liqligini inobatga olgan holda ta'lim muassasasining rahbari o'z faoliyatini tartibli tashkil etishi, istiqbol vazifalarni oldindan belgilab olish kerak. Istiqbol faoliyati vazifalarini oldindan belgilab olishning bir qator samarali metodlari mavjud. Faoliyatning majmuaviy (kompleks) sintez tahlili. Tahlil umumiy voqea-hodisalar, obyektiv va subyektiv omillarni alohida qismlarga ajratish orqali ularning o'ziga xos xususiyatlari va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liq sabablarning aniqlanishidir. Sintez esa alohida voqea-hodisalar, obyektiv va subyektiv omillarni umumlashtirish asosida ularning juz'iy xususiyatlari negizida umumiy, yagona bog'liqni asoslashdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim muassasasi haqidagi umumiy ma'lumotlarni o'rganish. Muassasaning umumiy holati (portreti) haqidagi ma'lumotlarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil qilish maqsadga muvofiqdir:

- muassasaning moddiy-texnik asosi (ma'muriy binolar, o'quv xonalari, ishlab chiqarish ustaxonalari, tajriba maydonlari, sport inshootlari, kutubxona fondi, tibbiyot xonasi, oshxonalar, ichimlik suvi bilan ta'minlanishi, isitish va kanalizatsiya tizimlari) to'g'risidagi ma'lumotlar;

- muassasa mablag'i (joriy va kapital ta'mirlash, shuningdek, jihozlar uchun ajratilgan sarflar hajmi, ta'mirtalab obyektlar ro'yxati, mulk va moliyaviy resurslarni shakllantirish manbalari, ta'sischi mablag'lar; byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar, homiylik mablag'lar; xayriya mablag'lar; tabdirkorlik faoliyatini tashkil etishdan topilgan mablag'lar, kreditorlik qarzlari; oylik ish haqi; kommunal xizmat to'lovlari va boshqalar) to'g'risidagi ma'lumotlar;

- pedagogik jamoa (o'qituvchilar soni, ularning o'rtacha yoshi, etnik kelib chiqishlari, ijtimoiy-g'oyaviy e'tiqodlari, ma'lumotlari darajasi, mutaxassisliklari, ish stajlari, jinslari, o'rindoshlikda ishlayotgan o'qituvchilar soni, bo'sh ish o'rinlarining soni; mehnatni muhofaza

qilishga oid (kasbiy faoliyat – o'quv mashg'ulotlari, sport tadbirlari, ekskursiyalar, tanaffuslar, ijtimoiy-foydali mehnat, ta'lim jarayonida olingan jarohatlar ko'rsatkichi, muayyan muddatga ishga layoqatsizlik uchun to'lovlar va boshqalar) to'g'risidagi ma'lumotlar;

- muassasa o'quvchilari (ularning umumiy soni, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, etnik mansubligi, dinga munosabati, sog'lig'i, shuningdek, sinflar soni, kunning birinchi va ikkinchi yarmida ta'lim oluvchi o'quvchilarga birlashtirilgan sinflar soni, o'quvchilarning harakatlanishi (ya'ni maktabni tugatgan, o'qishga yangi qabul qilingan, o'qishdan chetlatilgan, uyda ta'lim oluvchi, boshqa ta'lim muassasasiga o'tgan hamda hududdan ko'chib ketgan o'quvchilar) to'g'risidagi ma'lumotlar;

- ta'lim muassasasining ish rejimi (o'quv mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmi, sinfdan va darsdan tashqari o'quv mashg'ulotlari (fan, badiiy va sport to'garaklari, musiqa studiyalari, klublar faoliyati) va ma'naviy-ma'rifiy ishlar (turli tadbirlar, qishki va yozgi ta'tillar davrida o'quvchilarning dam olishlarini tashkil qilish)ning taxminiy umumiy hajmi) to'g'risidagi ma'lumotlar;

- muassasada psixologik xizmat ko'rsatishning mavjud holati (psixologlar, logopedlar, psixoterapevtlar soni, psixologik xizmat ko'lam) to'g'risidagi ma'lumotlar;

- muassasa tomonidan ko'rsatilayotgan ijtimoiy-pedagogik xizmat (ijtimoiy-pedagoglarning soni, ularning ma'lumotlari darajasi, tayanch ma'lumotlari, kasbiy mahoratlari, ish tajribasi, shuningdek, tarbiyasida og'ish holatlari kuzatilayotgan, ota-onasi xorijda bo'lgan, ko'p bolali oilalardan bo'lgan, huquqni muhofaza qilish organlari, narkologik dispanserlarda ro'yxatga olingan, surunkali kasalliklar bilan og'rigan, jismoniy tarbiya darslaridan ozod qilingan, maxsus tibbiy guruhlarda shug'ullanuvchi, bolalikdan nogiron bo'lgan hamda ota-onasiz (yoki ularning birisiz) o'quvchilarning soni) haqidagi ma'lumotlar;

- so'nggi o'quv yildagi o'quv-tarbiya jarayonining yakuniy natijalari (ta'lim samaradorligining o'sish yoki pasayish dinamikasi, ta'lim muassasasini imtiyozli bitirayotgan o'quvchilarning soni, fan olimpiadalari va sport musobaqalarida qo'lga kiritilgan yutuqlar);

- maktabning boshqaruv tizimi tavsifi (tashkiliy mexanizm, rahbarlarning vazifaviy majburiyatlari va boshqaruv organlari faoliyati mazmuni);

- muassasaning boshqa ta'lim muassasalari (oliy, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalari) hamda ijtimoiy tashkilotlar bilan aloqasi to'g'risidagi ma'lumotlar;

- ta'lim muassasasi tomonidan amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlar.

Bizning fikrimizcha, mazkur majmuaviy ma'lumotlar ta'lim muassasasi faoliyatining muayyan yo'nalishlar bo'yicha imkoniyatlarini o'rganish, muassasa uchun qulay bo'lgan innovatsiyalarni belgilash hamda innovatsion faoliyatni samarali tashkil etishga to'squinlik qilayotgan obyektiv va subyektiv omillarni aniqlash uchun imkoniyat yaratadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini samarali innovatsion boshqarishga ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish umumiy vaziyatni obrazli tavsiflashga imkon beradi. Dastlabki bosqich yakuniga yetgach, hal etiladigan navbatdagi vazifalar salbiy ta'sirga ega omillarni kamaytirish va ijobiy ta'sir kuchiga ega omillarni ko'paytirishdan iborat.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, sinf rahbari faoliyatining samaradorligini oshirish, ta'lim-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va mavjud resurslardan samarali foydalanish orqali umumiy o'rta ta'lim muassasalarining rivojlanishini ta'minlash mumkin. Bu esa o'z navbatida, zamonaviy va raqobatbardosh avlodni tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi. ta'lim muassasalari faoliyatida innovatsion boshqaruv tamoyillarini joriy qilish, mavjud salohiyat va resurslardan oqilona foydalanish, pedagoglar iste'dodini to'laqonli ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Shuningdek, maktabning moddiy-texnik bazasi, moliyaviy holati, psixologik va ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi, rahbarlik tizimi, pedagogik jamoaning sifati, o'quvchilar kontingenti haqidagi to'liq ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish orqali innovatsion faoliyatga to'squinlik qilayotgan omillar aniqlanadi va ularni bartaraf etish choralari belgilanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.A.Mavlonova, N.X.Rahmonqulova, B.A.Normurodova, K.O.Matnazarova "Tarbiyaviy ishlar metodikasi".T.: 2014. –B 256
2. Xolmurotov Sh. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida samarali boshqarishni tashkil etish yo'llari.(o'quv qo'llanma). Jizzax. «Poytaxt exculsive».2024.-B.252
3. Днепроvская Н.В.Янковская Е.А,Шевсова И.В.Понятные основы концепции смарт-образования//Открытое образования.. 2015. № 6. S. 43–51.
4. Karabayeva Z " Pedagogila".T.: "Moliya".2007.-B 155
5. SH.M.G'aybullayev. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini innovatsion boshqarish mexanizmlari / «Maktabgacha ta'lim klasterlarini tashkil etish ning zamonaviy tendensiyalari: xorij tajribasi» xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari 2023
6. Sh.M.G'aybullayev. MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AND PEDAGOGICAL INNOVATIONS AS A TOOL FOR EDUCATION QUALITY MANAGEMENT // CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD Volume Ol Issue 10, 2024
7. Sh.M.G'aybullayev. Ta'lim sifatini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning pedagogik xususiyatlari // Pedagogika 2024 yil 6-son 8-12 betlar.
8. Sh.M.G'aybullayev. Yoshlarga ta'lim berishda muhim pedagogik yondashuvlar // "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal №5 2024
9. Sh.M.G'aybullayev. TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVI // Ta'limda istiqbolli izlanishlar - xalqaro ilmiy-metodik jurnal

ZAMONAVIY TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA SADRIDDIN AYNIYNING ILMIY MEROSIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek ilm-ma'rifatida o'zining yetuk ilmi orqali beqiyos hissa qo'shgan ustoz Sadriddin Ayniyning ilmiy merosi orqali talabalarni o'quv motivlarini shakllantirish, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida foydalanish, jadidchilik harakati namoyondalarining ta'limiy tarbiyaviy ishlari orqali zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, adabiyot, tarix, pedagogik faoliyat, bola, vatanparvarlik, "Esdaliklar" asari, mardlik, jasorat, olijanoblik, mehr-shafqat, umuminsoniy qadriyat, pedagogika, tarbiya fani, ma'rifat, jadid namoyandasi, hurfikrlilik, madrasa, ilm-fan, ajdodlar merosi, ma'naviyat, malaka, iftixor, jaded.

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ САДРИДДИНА АЙНИ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В данной статье освещается научное наследие мастера Садриддина Айни, внесшего неоценимый вклад в Узбекское научное образование через свою зрелую науку, его использование в целях формирования мотивов обучения студентов, эффективной организации учебно-воспитательного процесса, влияние на современный учебно-воспитательный процесс через образовательную работу представителей джадидистского движения.

Ключевые слова: социально-образовательные и правовые взгляды, литература, история, педагогическая деятельность, ребенок, патриотизм, "мемуары", мужество, отвага, благородство, сострадание, общечеловеческая ценность, педагогика, наука о воспитании, просвещение, джадидский деятель, хурфикрлик, медресе, наука, предки наследие, духовность, квалификация, гордость, джадид.

ADVANTAGES OF USING THE SCIENTIFIC HERITAGE OF SADRIDDIN AINIY IN THE PROCESS OF MODERN EDUCATION

Annotation. This article covers the impact of the educational process of students on the modern educational process through the educational educational educational educational work of the exponents of the jadidism movement, the formation of educational motives, the effective organization of the educational process of students through the scientific heritage of the teacher Sadriddin Aini, who has made an invaluable contribution to Uzbek science through his mature

Keywords: socio-educational and legal-moral views, literature, history, pedagogical activity, child, patriotism, the work "Memoirs", courage, courage, Highness, compassion, universal value, pedagogy, educational science, enlightenment, jadid representative, hurficrity, madrasa, science, ancestral heritage, spirituality, competence, iftikhor, jaded.

Kirish. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 29-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta'lim va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, innovatsion loyiha va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish borasida qator vazifalar belgilangan. Ta'lim-tarbiyaning dolzarb muammolarini aniqlash jadidchilik davri adabiyoti namoyondalarining ijodiy merosini ilmiy tadqiq qilish, bugungi avlodning axloqiy-

tarbiyaviy, tarixiy-nazariy bilimlarining boyitishda tutgan o'rnini kabi masalalar, shuningdek, jadidchilik harakati namoyondalarining hayot faoliyatini yoritilishi rejalashtirilgan. Shu bilan birga o'qitish jarayonida jadidlartajribasidan o'rnak olish, ular ko'zlagan maqsad va yangi hayotni bugungi kunda ham alohida e'tiborga olish, amaliyotga tadbqiq qilish, o'quvchi-yoshlarga buni yangicha metodlar asosida yetkazib berish maqsad qilingan. Jadidlar ta'lim-tarbiyani faqat maktabda o'rgatiladigan vosita emas, balki bu o'quvchida mustaqil fikrlash va ijodkorlik ruhini kashf etish, deb hisoblagan. Ular an'anaviy fanlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarga ham urg'u beradigan yangi turdagi jadid maktablarini Toshkent, Buxoro, Qo'qon kabi yirik shaharlarda tashkil etdilar. Jadidchilik harakatining eng yirik namoyandalaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining "Risolayi asbobi savod" va "Kitabul atfol" nomli asarlarida an'anaviy o'qitish usullarini isloh qilish bilan birgalikda zamonaviy ta'lim tizimini amalga qo'llash zarurligini ta'kidlagan. U pedagoglarni o'quvchida mustaqil fikrlash va atrof olamni savolga tuta olish qobiliyatini rivojlantirishga chaqirdi. Jadid me'rosining yana bir muhim jihati ularning ta'lim sohasida sekulyarizm – dunyoviylikni targ'ib etishidir. Ular jamiyatda, eng avvalo, yoshlar orasida turli diniy e'tiqodlarni hurmat qiladigan, bag'rikenglik muhitini yaratish muhimligiga urg'u berishgan. Munavvarqori Abdurashidxonov "Taraqqiy" jurnalidagi maqolasida bag'rikenglik va inklyuzivlikni targ'ib qiluvchi ta'lim tizimi zarurligini ta'kidlab: "Ta'lim diniy aqidalar va xurofotlardan holi bo'lishi, o'quvchilarning o'z bilimlarini oshirishi va dunyoqarashini shakllantirishi mumkin bo'lgan makonni ta'minlashi kerak", degan edi.

Tadqiqot metodologiyasi Jadidlar ta'limni modernizatsiya qilish, ma'rifatparvarlik ruhini targ'ib qilish yo'lidagi fidoyiliklari tarixda o'chmas iz qoldirdi. Bugungi kunga kelib jadidlarni tadqiq qilishga yo'l ochilishi biz, yoshlarning ular tasvirlagan va o'stirishga intilgan avlod bo'lishimizga undaydi. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lamydi - bu sharqona qarash sharqona hayot falsafasidir. Shu jumladan, avval madrasada jadid va domlalar ta'lim va tarbiyani uzviy bergan bo'lsa endi bu maktabda ham o'z o'rnini topgan. Chunki maktab milliy madaniyat, milliy urf-odatlar va qadriyatlarimiz asosini o'rgatadigan asosiy maskandir. Madrasalarda jadidlar o'z faoliyati darajasidan kelib chiqqan holda o'quvchilarga ilm o'rgatganlar. Jadidlar o'z asarlarida ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, xalq farovonligi yo'lida qo'llanmasa, u o'likdir degan fikrni aytgan. Shuning uchun ular yoshlarni ilm olishga, uning sirlarini bilishga, hodislar mohiyatini yechishga, kitob mutolaa qilishga chaqiradi. Har tomonlama yetuk insonni tarbiyalash, yomonlikdan qaytarib, yaxshilikka chorlash bevosita va bilvosita ta'lim-tarbiyaga bog'liq. Uning yuqorida ta'kidlab o'tgan asaridatarbiyani ilmni targ'ib qiladi. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy, muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir" Muallim nafaqat dars o'tuvchi, balki tarbiya beruvchi shaxs sifatida qaralgan. Buxoro ma'rifatparvar-jadidlari ta'lim-tarbiya sohasida quyidagi usullarni joriy qilishni targ'ib qilishgan. Jumladan, yangi usuldagi maktablar ochish (usuli jadida), zamonaviy fanlarni targ'ib qilish, milliy va diniy uyg'onish g'oyalari, maqolalar, dramalar va kitoblar yozish orqali jamiyatni ma'rifatga chorlash, ayollar ta'limini himoya qilish, Buxoro amirligidagi islohotlarni talab qilish va boshqalar. Jadidlar Islom dinining bag'rikenglikka chaqiruvchi asosiy tamoyillarini ilgari surar ekan, boshqa din va e'tiqodlarga ham hurmat bilan munosabatda bo'lishni o'rgatishgan. Bugungi globallashuv jarayonlarida turli din va e'tiqod vakillari o'rtasidagi hamjihatlik, bag'rikenglik va o'zaro hurmatni shakllantirish masalasi jamiyat taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yosh avlod ongida dinlararo bag'rikenglikni tarbiyalash milliy ma'naviyat va ta'lim siyosatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada Buxoro jadidlari qoldirgan ma'rifiy va pedagogik merosni o'rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga egadir. Jadidlarning ta'lim tizimida insonparvarlik, adolat, bag'rikenglik, mulohazali fikr yuritish va boshqalarning fikriga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish ustuvor ahamiyat kasb etgan. Ular madrasalarda faqat diniy bilimlarni emas, balki dunyoviy fanlarni ham o'qitish orqali keng fikrlaydigan, boshqa din va madaniyatlarga ochiq munosabatda bo'ladigan avlodni tarbiyalashni maqsad qilganlar. Buxoro jadidlari pedagogik qarashlarida ta'limning asosiy

vazifasi insoniyatni ma'rifatga yetaklash, zulmatdan chiqarish, fikriy mustaqillikka erishishdan iborat ekanini ta'kidlashgan. Shu jihatdan, ularning g'oyalari bugungi kunda ham tolerantlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buxoro jadid ziyolilarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari zamonaviy pedagogika uchun muhim ilmiy va amaliy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Erkin fikrlash, fikrlar xilma-xilligini qabul qilish va muloqot madaniyatini tarbiyalash orqali jadidlar kelajak avlodni demokratik, bag'rikeng, taraqqiyparvar jamiyat fuqarosi sifatida shakllantirishni maqsad qilganlar. Ularning bu boradagi merosi bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida faol tatbiq etilishi lozim. Jadidlarning pedagogik maqsadlari va tolerantlik g'oyalari nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki bugungi kunda ham zamonaviy ta'lim tizimi uchun dolzarbdir. Ular shakllantirgan g'oyalar ma'rifatparvarlik, erkin fikr, bag'rikenglik va zamonaviy bilimlarga intilgan shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Sadridin Ayniyning "Odobnoma" asarida millat, din va urf-odatlar xilmaxilligi tabiiy hol sifatida qabul qilinib, yoshlarga boshqalar fikrini hurmat qilish, tinch va mulohazali muloqotga kirisha olish ko'nikmalarini o'rgatish tavsiya etilgan. Jadidlar ta'limoti – o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni o'z ketidan ergashtira oladi. Jadidlar voyaga yetgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi bo'lib yetishishi kerakligini uqtirdilar va bunda ular har xil illatlardan xalos bo'lishlarini ta'kidlaydilar. Misol uchun, Mahmudxo'ja Behbudiy yosh yigitchalarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o'quvchilarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o'quvchilarni xabardor qilgan va Samarqandda ruslar tomonidan ochilgan pivo dokonlarini qattiq tanqid ostiga oladi.³ Uning fikricha, bunday do'konlar masjid va madrasalarning yaqinida bo'lib, bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy barchani kelajak avlodni sog'lom o'stirishga chorlaydi. Sog'lom aqlli, bilimli farzandlarimiz o'sib ulg'ayib, o'qib, ilm egallab, Turkistonga xizmat qiluvchi shifokor, xuquqshunos, iqtisodchi va boshqa zamonaviy mutaxassislar yetishib chiqishini o'rzu qilgan. Yosh avlodning maktabdagi tarbiyasiga ham alohida e'tibor berish kerakdir, degan g'oyga ham jadidlar alohida e'tibor berganlar. Chunki, jadidlar yosh avlodni ozodlik, istiqloq, mustaqillik uchun kurashganlar, Vatanning kelajagi, ravnaqi deb qaraydilar. Shuning uchun ham ular bolalar va Vatan taqdiri masalasiga alohida e'tibor beradilar. Shuni ta'kidlash kerakki, jadidlar o'z maktablari orqali yosh avlodga faqat milliy ruhining emas, balki umuminsoniy qadriyat, baynalmillatlik, Vatan ravnaqi, go'zalligini ham singdirishga harakat qilganlar. Ular, bolalar, yoshlartarbiyasi uchun birgina maktab emas, balki ularning o'zlari mustaqil ravishda zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotdan ogoh bo'lmoq kerakligini tadbiq etgandir. Olimning xalq og'zida tarbiyaviy hikmatlar sifatida yashab kelayotgan bir ibрати zamon va makon tanlamay, yuksak ma'nolarni o'zida jamlagan. Sadridin Ayniyning o'g'li va qizi Moskvada o'qib yurgan kezlari o'g'liga oz pul yuborar, qiziga esa – ko'p. Buning sababini so'rganlarida, shunday tushuntirish beribdi: o'g'il bolani to'qchilik buzadi, qiz bolani yo'qchilik. Ayniy farzand tarbiyasida ota-ona, oilaviy munosabatlar, ustoz va atrifidagi shaxslarni o'zaro muloqoti muhim rol o'ynaydi deb ta'kidlaydi. Jamiyatda farzandlarni ilm orqali yuksak marralarga erishishi, ularning zamon talabi asosida o'qitilishi uchun avvalo pedagoglarning ma'suliyatini oshirishi, ular avvo ustozlaridan o'rnak olib keyin shuni hayotga tadbqiq etadi deydi.

XX asrning birinchi dekadasi mobaynida Buxoroda "jadidlar" va "qadimchilar" harakatlari orasida nizolar vujudga kela boshlaydi. Asrlar davomida Sharq mamlakatlari va dunyo hamjamiyatiga Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Al-Buxoriy, Xorazmiy kabi yetuk allomalarni yetishtirib bergan madrasalarning ta'lim tizimi so'nggi davrlarga kelib ichi bo'sh po'kak singari samarasi kamayib borgan. Ayniqsa, Ayniy ta'biri bilan aytganda: "bundan uch-to'rt asr ilgari gacha o'z vaqtiga munosib islom olamining ilmiy markazlaridan sanalgan" Buxoroning mavqeyi so'nggi vaqtga kelib "ilmiya va diniyasi Turkiston xalqi oldida quruq bir shuhratdangina iborat bo'lib qoldi". Bunga ko'pgina sabablar bo'lgani holda, Ayniy ham bir nechtasini ko'rsatadi. Chunonchi, Abdullaxon 1585-yil Buxoroda o'z nomi berilgan madrasani qurdiradi. Xon ta'sir doirasini ulamolar orasida ham mustahkamlash yo'lini topadi, ya'ni madrasaga mudarris tayinlashda buxorolik Mavlaviy Sadridin bilan sherozlik musofir Mavlaviy Mirzajon o'rtasida munozara tashkil etadi. Natijada, Mavlaviy Mirzajon mudarris etib tayinlanadi. U Buxoroning boshqa

mullalaridan ustun chiqib, dars jadvallarini ixtiyoriy o'zgartiradi, bora-bora hadis va tafsir kabi darslar rasmiy jadvaldan chiqadi va hisob, handasa, tarix, tabiblik va bularga o'xshagan fanlar butunlay yo'qolib ketadi. Uzoq vaqt mobaynida Sadriddin Ayniyni o'ylantirib kelgan maktab-madrasalardagi o'quv dasturi muammosi uni jadidchilik harakati faollaridan biriga aylantiradi. Safdoshlari Abdulvohid, Homidxo'ja va Ahmadjon maxzum bilan ramazon oyidan keyin bir maktab ochishni rejalashtirishadi. "1326-yil hijriy (milodiy 1908) shavval oyining o'nida Buxoro shahrining ichida Darbozai Salohxona guzarida Mirza Abdulvohid uyida forsiy tilda birinchi martaba buxoroliklarga maxsus usuli jadid maktabi ochdi". Maktabning muallimi etib Mirza Abdulvohid Munzimni tayinlashadi. Ikki oy muddatda maktabda o'quvchilar soni 12 taga yetadi. Biroq tashkilotchilar darslik yo'qligi, tizim mukammal emasligi, darslarni tashkil etishning yangicha usullaridan to'laqonli xabardor emasliklari uchun bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ayniy tatar mullasi Nizom Sobitidan yordam so'rab, biror darslik topib berishini so'raydi. Mulla Nizom Attor madrasasi ro'parasida Xolid Burnashyev degan kishi uyida yangi usul tatar maktabi borligi, darslik va muallimlik bo'yicha maslahatlarni undan olishi mumkinligini aytadi. Ayniy: "Biz maktabchilar shu kunga dovur Buxorodagi tatar maktabidan xabarsiz edik", – deydi va fursatni boy bermay, tezda u yerga boradi.

Natija va munozara: Maktabda Buxoroda yashovchi tatar bolalari bilan mahalliy buxorolik bolalar ham bor edi. Ular tatar tilini bilmagan holda u yerda o'qishayotgan edi. 1908-yil bahorida Ayniy va Hamidxo'ja Mehriy birinchi marta Samarqandga kelishadi, bu vaqtda Mirzo Abdulqodir Munzim Demurov bosmaxonasida ishlayotgan edi. Ushbu safar davomida Ayniy Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Rahmatullazoda, Mahmudxo'ja Behbudiylar bilan tanishadi. Shakuriyning Samarqanddagi Rajabamin qishlog'idagi yangi usul maktabiga tashrif buyuradi va shundan so'ng har yili ushbu maktabning imtihonlariga keladigan bo'ladi. Ayniy, Mehriy, Munzim yangi usul maktablari bilan tanishishga Toshkentga boradilar. Qaytgach, Ayniy Buxorodagi tatar maktabida muallimining ruxsati bilan haq olmay, olti oy mobaynida tarjimonlik qilib, bolalarga darslarni tojik tiliga, ayni paytda ularning tilini tatarchaga tarjima qilib beradi (Ayniy tatar tilini matbuot orqali o'rgangan edi). U yerda o'rganganlarini, Samarqand va Toshkent safaridan olgan taassurotlarini o'zlarining maktablariga tatbiq etib, anchagina muvaffaqiyatga erishadi. Endigi navbat darslik yaratish edi. Bu haqda Ayniy shunday yozadi: "Shuning uchun kitob hozirlamoq orzusi bilan o'z oramizda bir shirkat tuzdik. Shirkatning ismi "Shirkati Buxoroyi sharif" edi. Shirkatimiz 1327 hijriy rabulavval oyining o'rtasida (milodiy 1909-yilning mart oyi) ta'sis qilinib, birinchi navbatda tajvid qoidalarini "Tartil ul-Qur'on" ismida nashr qilishga qaror berildi". Mazkur kitob Ayniyning dastlabki darslik asari edi. So'ng "Tahsib-us-sibyon" va "Zaruriyyoti diniya" darslik kitoblari ham nashr etilgan. "Tahsib us-sibyon"da dunyoviy va diniy bilim asoslari, amaliyot va nazariya, nasr va nazm qorishiq tarzda tushuntirilgan. Sadriddin Ayniyning yana bir islom olamida o'ziga xos obro'-e'tiborga ega bo'lgan asari "Zaruriyyoti diniya"dir. O'zbek adabiyotining daho ijodkorlari ham uni hurmat ila "Ustod", "Ustoz" yoki buxoroliklarga ko'ra, "Domla" deb atashardi. G'afur G'ulom, Mirmuhsin, Chingiz Aytmatov, Ibrohim Mo'minov, Mirzo Tursunzoda, Komil Yashin, Jalol Ikromiy, Vohid Abdullaev, Quadrat Xo'jaev, Ozod Sharafiddinov, bu qatorni uzoq davom ettirish mumkin, kabi davrning daho ijodkorlari ham haqli ravishda USTOD, deya e'tirof va ehtirom etishgan.

Xulosa: S.Ayniyning ilmiy, ijodiy va umuman hayot faoliyati xalqimizning ulkan ma'naviy merosiga aylandi. Bu meros kelajak avlod uchun ham ma'naviy ham ilmiy qimmatini yo'qotmagan holda xizmat qilib kelmoqda. Uning asarlari bizga o'sha davrning muhitini, uning havosini sof holatda etkazishi bilan ajarib turadi. Agar bunday qarashlar debochasini XIX asrda Ahmad Donish kabi ma'rifatparvarlar boshlab bergan bo'lsa, ularning g'oya va qarashlarini Sadriddin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Mirkomil Burxonov, Usmonxo'ja Po'latxo'jaev, Xolidxoji Mehri, Mulla Vafo, Abdurauf Fitrat kabi millatparvar ziyolilar rivojlantirdi. Jadidlarning bunday qarashlari hozirgi jamiyat uchun ham dolzarb sanaladi. To'yhashamlarda ortiqcha dabdababozlik natijasida oilalar moddiy qiyinchiliklar girdobiga tushib borayotganligi hechkimga sir emas. Bunday odatlarni imkon darajada cheklash hukumatning siyosiy irodasi bilan bo'lishi zarurdir. Jadidlar tomonidan Turkistonda uzoq yillar mustamlakachilikka qarshi olib borilgan

ma'naviy-mafkuraviy, siyosiy kurashlar milliy davlatchiligimiz tarixida o'chmas iz qoldiradi. Asrlar davomida jaholat va tubanlik bilan ro'baru yashagan xalqlarning qismat taqdiri bobolarimiz ogoh etganlaridek ayanchli mustalaka o'pqnida qolishligini yana bir bora tasdiqladi. Va bu tarixiy voqealiklar yangi avlod olishi lozim bo'lgan birinchi saboq. Ikkinchi saboq, Jadid bobolarimiz qoldirgan. siyosiy va ma'naviy tajribalar amaliyoti bugunda ham dolzarbdir. Muxtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: —Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Zotan, erk, milliy g'urur, sha'n va qadr-qimmatni himoya etish milliy ruhiyatning ma'rifatidan hosil bo'ladi. Sadriddin Ayniy xalqning osoyishtalikda, farovon baxtli yashashida va elni odilona boshqarishda eng asosiy ta'sir etuvchi omillardan biri bilim, ma'rifat, ilmfan sohalarini rivojlantirish deb hisoblagan. Aqliy tarbiya, diniy va dunyoviy ilmlar insonni har taraflama rivojlanishida katta ahamiyatga egaligini yaxshi tushungani uchun madaniyat, ma'rifat, ma'naviyat gullab-yashnagan. Bilimdonlikni insondagi yaxshi fazilat deb, soni ko'p, aql tajribasi oz odamlardan bilim - tushunchasi, tajribasi takomillashgan bitta inson xizmatining o'zi ulug' ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Xalqimiz orasida matalga aylanib ketgan uning: "Bilagi zo'r - birni yiqar, bilimi zo'r – mingni" deb aytgan dono fikr ayniqsa e'tiborga molik. Ayol ilmli bo'lsa, jamiyatda iffat, hayo yuksaladi. Jamiyatda iffat priaritetlar qatoriga qo'shilarkan, zino, faxsh yo'qoladi. Ajrimlar kamayadi. Jamiyatga Allohning rahmati, sakinati tushadi, barokoti yog'iladi. Odamlar iqtisodiy yo'qsillik, fikriy qoloqlik va ruhiy tushkunlikka mahkum etilgandi. Ilmsizlik, jaholat va mutelikdan tug'ilgan fojialarni sanab adog'iga yetib bo'lmasdi. Shafqatsiz hayotning kulfat va qiyinchiliklari, kundalik turmush mashaqqatlari bilan bolaligidayoq yuzmayuz kelgan Ayniy ma'nan juda erta ulg'aygandi. Uning irodasi g'am-anduh, hasrat va armon, qashshoqlik va nochorlik panjasida toblangan, desa aslo xato bo'lmaydi. Insof bilan aytganda, Ayniy bosib o'tgan hayot yo'li – matonat va qahramonlik yo'li. U shunday qaltis va tahlkali holatlarni boshdan o'tkazganki, Olloh inoyati va Buxoro madadisiz ulardan qutulish yoxud omon qolishga aql aslo bovar etmaydi. Ayniy bularning barchasini asarlarida, xususan, "Esdaliklar"ida aql va tabdir, ilm va irodaning kuch-quvvatiga ishongan har bir shaxsning qismatida uchrashi mumkin bo'lgan hodisa o'laroq tasvirlab beradi. Chunki Ayniy Buxoroning kulfat va musibatlari oldida o'zining qayg'u va musibatlari bir tomchi ham emasligini bilar, uni o'lim ta'qib etgan chog'larda ham aziz Buxorosining mehr va shafqatidan umid uzmas, shu boisdan ham tushkunlikka berilmasdi. Taniqli tojik adibi Jalol Ikromiy haqqoniy ta'kidlaganidek, "Ayniyning Buxoroga oshiqi beqaror yuragi uning uchun achinar, najot istardi. Ayniy Buxoroning dardu jafolariga qalban sherik, chinakam vatanparvari edi". Ana shu oshiqlik hissi, vatanparvarlik burchi va hamdardlik holi donishmand Ayniyni oxirgi nafasgacha tark qilmagandi. Agar Sadriddin Ayniyning ko'nglini Buxoro ishq, Buxoro ilm-ma'rifatining nuri charog'on etmaganida, agar u ham Ibn Sino, Ahmad Donish yoki Abdurauf Fitratlarga o'xshab orif Buxoroning qondosh va jondosh muhibiga aylanmaganida, shak-shubhasizki, u mo'rt bir adabiy shaxsiyat bilan o'rtamiyonachilik chegarasidan bir odim ham nari o'tolmasdi. Holbuki, Ayniy dunyo diqqat-e'tiborini Buxoro va buxoroliklar qismatiga qarata oldi. To'g'ri, Ayniy tasvirlaridagi Buxoro va buxoroliklar hayoti o'quvchi dilini ko'proq fojia va qayg'uga oshno etadi, uni bir-biridan og'ir, biri-biridan yoqimsiz voqea-hodisotlar bilan yuzlashtiradi. Haqiqat bilan uchrashganda odam qancha qiynalsa, muhokama-mulohazalarida nechog'lik faollashib, ezgulik va insoniylik sharafiga qanchalik inonsa, Ayniy asarlarini o'qiganda ham taxminan xuddi shu zaylda qiynalish, faollashish va ishonch hosil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 22-dekabr kuni o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishi
- 2.Saidov A. Inson qadrini konstitutsiyaviy ulug'lash va Yangi O'zbekistonni barpo etishda parlament mas'uliyati // "Yangi O'zbekiston", 2022-yil 24-dekabr, 2662-son.
- 3.Karimov D. Ta'limdagi yangilanish va sifat // "Xalq so'zi", 2022 yil 30 sentyabr

4. Norboyeva T. Ayol baxtli bo'lsa, oila va jamiyat ham albatta baxtli bo'ladi // "Xalq so'zi", 2022 yil 6 sentyabr
5. Sattor Jabborning Ertoy nomi bilan "Turkiston" gazetasining 1924-yil 2- sentabr soni 2-3- sahifa.
6. S.Ayniy "Tahsib-us-sibyon". Nashrga tayyorlan Sohib Tabarov. Dushanbe, 1994, B -29-30
7. S.Ayniy Qisqacha tarjimai holim. / Asarlar. 8 jildlik. 1-jild. T: O'zdavrnashr, 1963.
8. T.Mirzayev. Sadriddin Ayniy ijodini o'rganishning ayrim masalalariga doir // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2003. № 5. – B. 3-4
9. B.Valixo'jayev. Ustod Ayniy merosi // O'zbek tili va adabiyoti. // – Toshkent, 2003. № 5. – B. 13-17;
10. A. Hayitmetov. Zabardast navoiyshunos // O'zbek tili va adabiyoti // адабиёти. – Toshkent, 2003. № 5. – B. 18-21;
11. S.Ayniy Musulmonlar hayoti. // Turkiston viloyatining gazetasi 1906. 16-19 iyun
12. Hayoti va ijodi / tuzuvchi M.Hasanniy T- O'qituvchi. 1994 B -7
13. S.Ayniy Qiz bola yoxud Xolida (noshir: Abdulvohid Munzim).– Berlin.1924
14. S.Ayniy Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar.–Samarqand Toshkent:
15. S.Ayniy Eski maktab. –Toshkent: G'afur G'ulom, 1988-yil

Eltazarova Shoxida Sardorbek qizi
 Urganch davlat pedagogika instituti
 ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 mutaxassisligi magistranti

GRAMMATIK TUSHUNCHA VA UNI BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada grammatik tushuncha va uni boshlang'ich ta'lim ona tili darslarida o'zlashtirish bosqichlari haqida fikr yuritildi. Unda grammatik tushunchalarni o'zlashtirish jarayoni shartli ravishda to'rt bosqichga ajratilib, har bir bosqich uchun mo'ljallangan topshiriqlardan namunalar keltirildi.

Kalit so'zlar. Boshlang'ich ta'lim, ona tili ta'limi, grammatika, grammatik tushuncha, mavhum tafakkur, nutqiy kompetensiya, yozma nutq, grammatik tushunchani o'zlashtirish bosqichlari.

ПОНЯТИЕ ГРАММАТИКИ И ЭТАПЫ ЕЕ ОСВОЕНИЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В данной статье рассматривается грамматическое понятие и этапы его освоения на уроках родного языка в начальной школе. Процесс освоения грамматических понятий подразделяется на четыре этапа и приводятся примеры заданий для каждого этапа.

Ключевые слова. Начальное образование, обучение родному языку, грамматика, грамматическое понятие, абстрактное мышление, речевая компетенция, письменная речь, этапы освоения грамматических понятий.

GRAMMATICAL CONCEPT AND STAGES OF ITS MASTERY IN PRIMARY EDUCATION

Abstract. This article discusses the grammatical concept and the stages of its mastery in the mother tongue lessons of primary education. It divides the process of mastering grammatical concepts into four stages, and provides examples of tasks for each stage.

Keywords. Primary education, mother tongue education, grammar, grammatical concept, abstract thinking, speech competence, written speech, stages of mastering grammatical concepts.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xususan, boshlang'ich ta'limning mazmun va metodikasini takomillashtirishga qaratilgan davlat siyosati, ona tili darslarining ahamiyatini yanada oshirdi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz." Boshlang'ich sinf o'quvchisining tafakkuri va nutqini rivojlantirish, savodli yozuv va mantiqiy fikrlash malakalarini shakllantirish, ona tilini chuqur va ongli o'zlashtirish bilan chambarchas bog'liq.

Har bir til o'zining grammatik qurilishiga ega. Grammatika borliqdagi predmetlarni, voqealarni emas, balki nutq jarayonida predmet va voqealarning ifodasi bo'lgan so'zlar orasida vujudga keladigan umumiy munosabatlarni, bir so'z bilan ikkinchi so'zning bog'lanishini ifodalaydi.

So'zlar borliqdagi o'xshash konkret narsalar va hodisalarni o'z ma'nolari orqali umumlashtiradi, abstraktsiyalaydi. Grammatika esa ana shu umumlashmalar, abstraktsiyalar orasidagi munosabatni umumlashtiradi. Binobarin, grammatika lug'at tarkibiga nisbatan keng va oliy darajadagi abstrakt hodisadir.

Maktabda tildan nazariy bilimni o'rganishdan maqsad fikrni og'zaki va yozma tarzda grammatik to'g'ri va uslubiy aniq ifodalash uchun undan ongli foydalanish sanaladi. Biroq nazariy bilimni amalda qo'llashni esa maqsadga muvofiq va muntazam o'rgatib borish talab etiladi. Bu borada o'quvchilarda grammatik tushunchalarni shakllantirish muhim hisoblanadi.

Grammatika tilning asosiy qismi sifatida nutqdagi so'zlar orasidagi bog'lanishlarni, ularning morfologik va sintaktik xususiyatlarini umumlashtirib, tizimli bilim sifatida namoyon bo'ladi. Boshlang'ich ta'limda grammatik tushunchalar o'zlashtirilishi o'quvchilarning mavhum tafakkurini rivojlantirish, nutqiy kompetensiyasini shakllantirish va yozma nutqni grammatik jihatdan to'g'ri ifodalash ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limda grammatik tushunchalarni o'zlashtirish jarayoni shartli ravishda to'rt bosqichga ajratish mumkin:

1. Tahlil va mavhumlashtirish bosqichi – o'quvchilarga til hodisasining muhim belgilari ko'rsatilib, ularning farqli va umumiy tomonlari aniqlanadi.

2. Umumlashtirish va atama berish bosqichi – ajratilgan belgilar o'rtasidagi bog'lanish aniqlanadi, natijada ilmiy atama kiritiladi.

3. Ta'rif va mazmunni anglash bosqichi – tushuncha mazmuni aniqlanib, uni nutqda qo'llash imkoniyati o'rganiladi.

4. Tatbiq bosqichi – o'quvchilar yangi o'zlashtirilgan grammatik bilimlarni mustaqil qo'llash orqali amaliy mashqlar bajaradilar.

Endi bu bosqichlarning bevosita amaliy jihatlariga to'xtalamiz.

Tahlil va mavhumlashtirish bosqichida o'quvchilar berilgan til materialini tahlil qiladilar, so'z va gaplarning muhim belgilarini ajratadilar. Maqsad – umumiy va farqli xususiyatlarni ko'rsatish orqali mavhumlashtirishga o'rgatish hisoblanadi. Masalan,

1-topshiriq

Darslikdan quyidagi so'zlar tanlanadi: kitob, daftar, qalam, bola, daraxt.

Savol: "Bu so'zlar nimani bildiradi? Qaysilari jonli, qaysilari jonsiz narsani bildiradi?"

O'quvchilar ajratadilar va umumiy belgi – narsaning nomini bildirish ekanini anglaydilar.

2-topshiriq

Gaplar beriladi: O'quvchilar darsga keldi. Bog'da gullar ochildi.

O'quvchilar gapdagi so'zlarni ajratib, ularning ma'nosini tushuntiradilar (kim? nima qildi? qayerda?).

O'quvchilar tahlil va mavhumlashtirish aqliy amalini bajarishni o'rganadilar.

Umumlashtirish va atama berish bosqichida ajratilgan belgilar umumlashtiriladi, ularning o'rtasidagi bog'lanish aniqlanadi va natijada ilmiy atama (masalan, "ot", "fe'l") beriladi. Masalan:

1-topshiriq:

O'qituvchi yana so'zlar beradi: aka, opa, qiz, shifokor, dehqon.

Savol: "Bu so'zlar ham nimani bildiradi?"

O'quvchilar odamlarni bildiradi deyishadi.

O'qituvchi umumlashtiradi: "Demak, narsani, odamni, hayvonni, joyni bildirgan so'zlar bir xil guruhga kiradi. Bu guruh 'ot' deb ataladi."

O'quvchilar taqqoslash va umumlashtirishni o'rganadilar, ilmiy atama bilan tanishadilar.

Ta'rif va mazmunni anglash bosqichida o'quvchilar tushuncha ta'rifini eslab qoladilar va uni nutqda to'g'ri qo'llashni o'rganadilar. Masalan,

1-topshiriq

Savol: "Ot qanday so'z turkumi?"

O'quvchi javob beradi: "Ot – narsaning, odamning, hayvonning, joyning nomini bildiradigan so'z turkumi".

2-topshiriq

Gap beriladi: Bolalar bog'da o'ynayapti.

Vazifa: Gapdagi otlarni ajrating va ularning so'roqlarini bering (kim? qayerda?).

3-topshiriq

Har bir o'quvchi o'zi tuzgan gapdan otni topadi va uning o'rnini boshqa ot bilan almashtirib gapni qayta o'qiydi.

Bu topshiriqlarni bajaraishda o'quvchilar tushuncha mazmunini anglaydi, grammatik qoidani mustaqil ayta oladi va amalda qo'llaydi.

Tatbiq bosqichida o'quvchilar yangi bilimni mustaqil qo'llaydilar, mashqlar bajaradilar va ilgari o'rganilgan bilimlar bilan bog'lashadi. Masalan,

1-topshiriq

Matn beriladi: Bahorda dalalar yam-yashil bo'ldi. Dehqonlar ekin ekdilar. Bolalar quvonch bilan dalaga chiqib o'ynadilar.

Vazifa: Matndan 5 ta otni ajratib yozing, ularning so'roqlarini bering.

2-topshiriq

O'quvchi 3 ta yangi gap tuzadi, ularning har birida kamida bitta ot bo'lishi shart.

3-topshiriq

Guruh bilan ishlash: har bir guruh 5 ta ot topadi, ularni jonli va jonsiz deb ajratadi, so'ng ularni doskada taqdim qiladi.

Bu bosqich o'quvchilar bilimni mustaqil qo'llash, tahlil qilish, umumlashtirish va taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'quvchilar bilan muntazam ravishda yuqoridagi bosqichlarda ishlash quyidagi natijalarga olib keladi:

- grammatik tushunchalar bo'yicha ongli bilim shakllanadi;
- til hodisalarini umumlashtirish, taqqoslash, sintez qilish kabi aqliy amallar rivojlanadi;
- nutqni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish, mantiqiy bayon qilish malakalari mustahkamlanadi;

- ona tili va o'qish savodxonligi bo'yicha PIRLS baholash mezonlariga mos ravishda

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida grammatik tushunchalarni o'zlashtirish qiyinchilik tug'dirishi tabiiy jarayondir, chunki bu mavhum tafakkur bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun o'qituvchi didaktik materialni bosqichma-bosqich, ko'rgazmalilik va qiziqarli metodlar asosida o'rgatishi zarur. Masalan, fe'l mavzusini o'rgatishda faqat harakatni bildiruvchi so'zlarni emas, balki holatni, belgining o'zgarishini bildiruvchi so'zlarni ham tahlil qilish lozim.

Shuningdek, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan topshiriqlar (so'zlarni guruhlarga ajratish, so'roq qo'yish, yangi gap tuzish) grammatik tushunchaning ongli o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, grammatik tushunchalarni o'zlashtirish boshlang'ich ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu jarayon o'quvchilarda nutqiy kompetensiya, mantiqiy fikrlash va yozma nutqni grammatik jihatdan to'g'ri qurish malakalarini shakllantiradi. Tahlil, umumlashtirish, ta'riflash va tatbiq bosqichlari asosida olib borilgan izchil ishlar o'quvchilarni til hodisalarini chuqur tushunishga va ularni amaliy nutqda qo'llay olishga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.- <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyevning-oqituvchi-va-murabbiylar-kuniga-bag'ishlangan-tantanali-marosimdagi->

2. Roziqov O., M.Mahmudov, Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi.- Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005. -388 b.

3. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, "Nosir", 2009.-351 b.

4. Kuronov S.D. Ona tili. 2-sinf. II qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. - Toshkent: "Novda edutainment", 2023.- 88 b.

5. Baynazarova D.D. Ona tili. 3-sinf. II qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. - Toshkent: "Novda edutainment", 2023.- 88 b.

Jumayev Ruzokul Xoliqulovich

Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari falsafa doktori (PhD)

jumayevruzokul@buxdpi.uz

TALABALARNING MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISHDA LOYIHAVIY METODNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada talabalar mustaqil ishini tashkil etishda loyihaviy metodning mohiyati va afzalliklari yoritilgan. Ushbu metod talabalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, amaliy ko'nikma va mas'uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, AKT bilan integratsiyalash orqali ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: loyihaviy metod, mustaqil ta'lim, talabalar mustaqil ishi, ijodkorlik, tanqidiy tafakkur, amaliy ko'nikmalar, pedagogik texnologiya, innovatsion yondashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim samaradorligi.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПРОЕКТНОГО МЕТОДА В ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В статье раскрываются сущность и преимущества проектного метода в организации самостоятельной работы студентов. Данный метод способствует развитию у студентов самостоятельного мышления, креативности, практических навыков и чувства ответственности. Также показаны возможности повышения эффективности обучения за счёт интеграции теоретических знаний с практикой и использования ИКТ.

Ключевые слова: проектный метод, самостоятельное обучение, самостоятельная работа студентов, креативность, критическое мышление, практические навыки, педагогическая технология, инновационный подход, информационно-коммуникационные технологии, эффективность обучения.

THEORETICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL OPPORTUNITIES OF THE PROJECT METHOD IN ORGANIZING STUDENTS' INDEPENDENT WORK

Annotation. The article reveals the essence and advantages of the project method in organizing students' independent work. This method contributes to the development of independent thinking, creativity, practical skills, and a sense of responsibility among students. It also demonstrates the possibilities of enhancing learning effectiveness through the integration of theoretical knowledge with practice and the use of ICT.

Keywords: project method, independent learning, students' independent work, creativity, critical thinking, practical skills, pedagogical technology, innovative approach, information and communication technologies, learning effectiveness.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etish masalasi dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining mazmuni faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim jarayoniga innovatsion metodlarni joriy etish, xususan, loyihaviy metoddan foydalanish o'zining samaradorligi bilan ajralib turadi.

Loyihaviy metod talabalarni muayyan muammo yoki topshiriqni hal qilish jarayoniga faol jalb etib, ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqishini oshirish, amaliy ko'nikmalarini

rivojlantirish va mustaqil ishlash malakasini shakllantirishga xizmat qiluvchi ta'limiy yondashuvdir. Ushbu metod orqali talaba nafaqat bilim oladi, balki uni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashni ham o'rganadi.

Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish, talabalarning raqobatbardoshligini ta'minlash hamda ularni mustaqil ijodiy faoliyatga yo'naltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib bormoqda. Shu bois loyihaviy metod asosida tashkil etilgan mustaqil ishlar talabaning shaxsiy faolligi, tashabbuskorligi va mas'uliyatini kuchaytirib, o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Metodologiya. XX asrning birinchi yarmida D. Dyui pragmatik pedagogikasi asosida ishlab chiqilgan loyihaviy metod zamonaviy axborot jamiyatida ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda. Loyihaviy metod ta'lim amaliyotida 1918-yilda amerikalik pedagog V. Kilpatrikning "Loyihaviy metod" maqolasi chop etilishidan ancha oldin qo'llanilgan edi. Ushbu maqolada u bu tushunchani "jon-dildan bajariladigan reja" deb belgilagan [3].

Loyihaviy metod jahon pedagogikasida mutlaqo yangi hodisa emas. U o'tgan asrning boshlarida AQShda paydo bo'ldi. Uni, shuningdek, "muammo metodi" deb ham atashgan va u insonparvarlik yo'nalishidagi falsafa hamda ta'lim g'oyalari bilan bog'liq bo'lib, bu g'oyalar amerikalik faylasuf va pedagog J. Dyui hamda uning shogirdi V.X. Kilpatrik tomonidan ishlab chiqilgan edi.

J. Dyui o'qitishni faol asosda qurishni, ya'ni o'quvchini o'z shaxsiy qiziqishiga mos ravishda maqsadga yo'naltirilgan faoliyatga jalb qilishni taklif etgan. Shu boisdan ham bolalarga ular olgan bilimlarning shaxsiy qiziqishlari bilan qanday bog'liq ekanini ko'rsatish nihoyatda muhim edi. Chunki bu bilimlar ularning hayotida qo'l kelishi va amaliy ahamiyat kasb etishi mumkin va shunday bo'lishi ham kerak. Buning uchun esa hayotiy muammo zarur bo'lib, u bolaga tanish va ahamiyatli bo'lishi, uni hal etishda mavjud bilimlarni qo'llash hamda yangi bilimlarni o'zlashtirish talab etilishi lozim edi [1].

AQSh, Buyuk Britaniya, Belgiya, Finlandiya, Germaniya, Italiya, Braziliya, Niderlandiya va boshqa ko'plab mamlakatlarda J. Dyui ta'limga nisbatan insonparvarlik yondashuvi g'oyalari hamda uning loyihaviy metodi keng tarqaldi va katta mashhurlikka erishdi. Chunki u nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirib, o'quvchilarning atrof-muhitdagi real muammolarni jamoaviy faoliyatda hal qilishiga imkon yaratdi.

Natijalar. "Men bilgan hamma narsani nima uchun o'rganishim kerakligini va bu bilimlarni qayerda va qanday qo'llashim mumkinligini bilaman" – mana zamonaviy loyihaviy metodning asosiy mazmuni. Shu jihati bilan u ko'plab ta'lim tizimlarini o'ziga jalb qilmoqda. Chunki u akademik bilimlar bilan birga pragmatik ko'nikmalar o'rtasida oqilona muvozanat topishga intilayotgan ta'lim tizimlari uchun nihoyatda mos keladi [1].

Olimlarning ta'kidlashlaricha, loyihaviy metodning keng tarqalishini cheklab turgan muammo loyihaviy topshiriqlarni ta'lim standartlari talablari bilan uyg'unlashtirishdagi qiyinchiliklardir. Amalda loyihaviy topshiriqlarni shunday shakllantirish deyarli imkonsizki, unda talabalar topshiriqlarni bajarishda standart bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llashga (aniqrog'i – ularga ehtiyoj sezishga) majbur bo'lsin [2].

Loyihaviy metodning asosiy maqsadi – o'quvchilarga amaliy topshiriqlarni yoki muammolarni hal etish jarayonida, turli fan sohalaridan bilimlarni integratsiya qilishni talab etadigan sharoitda mustaqil bilim olish imkonini berishdir.

O'quv loyihalari individual va guruh, lokal va telekommunikatsion (o'quvchilar guruhi Internet orqali loyiha ustida ishlaydi) turlarga bo'linadi. Talaba adabiyot manbalari haqida ma'lumot berib, ularni mustaqil izlashni tashkil etishda yordam beradi. Talabalar o'qituvchi va bir-birlari bilan hamkorlikda zarur bilimlardan foydalanib o'quv topshiriqlarini, muammolarni hal etadi va belgilangan natijaga erishadi. Shu tariqa, butun muammo ustida ishlash jarayoni loyihaviy faoliyat shaklini oladi.

Ta'lim jarayonida loyihaviy metod g'oyasi ba'zi o'zgarishlarga uchradi. Agar dastlab u erkin tarbiya g'oyasidan paydo bo'lgan bo'lsa, hozirgi paytda u mukammal ishlab chiqilgan va strukturaga ega ta'lim tizimining integratsiyalashgan komponentiga aylandi [5].

Ilmiy adabiyotlarda o'quv loyihalarining quyidagi tipologiyasi va belgilarini uchratish mumkin:

1. Loyihada ustunlik qiluvchi faoliyat turi: tadqiqot, qidiruv, ijodiy, rolli, amaliy (amaliy yo'naltirilgan); tanishtiruvchi yo'naltiruvchi (tadqiqot, o'yin, amaliy-yo'naltirilgan, ijodiy).
2. Mavzu sohasi: mono-loyiha (bir fan doirasida), tarmoqlararo loyiha.
3. Loyihani muvofiqlashtirish turi: bevosita (qat'iy, moslashuvchan), yashirin (bevosita ishtirokchi sifatida ko'rinmaydigan, telekommunikatsion loyihalarga xos).
4. Ishtirokchilar orasidagi aloqalar turi: bitta OTM, guruh, shahar, mintaq, mamlakat, dunyoning turli mamlakatlari.
5. Ishtirokchilar soni.
6. Loyiha davomiyligi.

Loyihaviy va tadqiqot metodini amaliyotda qo'llash o'qituvchining pozitsiyasini o'zgartiradi: u tayyor bilimlar tashuvchisidan o'z talabalarining bilish, tadqiqot faoliyati tashkilotchisiga aylanadi. Shuningdek, o'quv guruhidagi psixologik muhit ham o'zgaradi, chunki o'qituvchi o'zining o'quv-tarbiyaviy ishini va talabalar ishini o'quvchilarning turli mustaqil faoliyatiga, izlanish, qidiruv, ijodiy faoliyat ustuvor bo'ladigan ishga yo'naltirishi lozim bo'ladi.

Loyihalarni tashqi baholashni tashkil etishni unutmash kerak, chunki faqat shu yo'l bilan ularning samaradorligini, xatoliklarni va o'z vaqtida tuzatish zaruratini aniqlash mumkin. Baholashning xarakteri ko'p jihatdan loyiha turiga, uning mavzusiga (mazmuniga), o'tkazilish sharoitiga bog'liq. Bu tadqiqot loyihasi bo'lsa, u bosqichlarga bo'linadi va butun loyiha muvaffaqiyati ko'p jihatdan alohida bosqichlarda to'g'ri tashkil etilgan ishga bog'liq bo'ladi [4].

Individual mustaqil tayyorgarlik rejimida ishlash imkoniyati individual o'quv loyihalarini yaratish orqali ta'lim sifatini oshirish uchun real istiqbollarni ochadi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan loyihaviy ta'lim tizimining asosiy qadriyati shundaki, u o'quvchilarni mavzuni o'rganishga emas, balki ta'limiy mahsulot yaratishga yo'naltiradi.

Guruhiy yoki individual o'quv loyihasi konsepsiyasini, o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullarini muhokama qilish joyi sifatida "munozara klubi" xizmat qilishi mumkin, u o'quv-metodik majmua doirasida tashkil etilishi va faoliyat yuritishi mumkin.

Ilmiy adabiyot tahlili ko'rsatadiki, o'quv loyihalarini amalga oshirish talabalarning ijodiy imkoniyatlarini maksimal darajada ochishga va ularning ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirishga imkon beradi. Masofaviy ta'lim jarayonida talaba va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik offline va online texnologiyalar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

A.V. Xutorskoyning fikriga asosanib, biz o'quv loyihasini ma'lum vaqt oraliqida barcha ishtirokchilarining ta'limiy mahsulot olishga qaratilgan kompleks faoliyat shakli deb tushunamiz.

Albatta, Ahmad Donishning oila masalalariga qarashlari juda tor, bir yoqlama va shariat va ma'naviy yuksalish doirasida chegaralangan, chunki muallif yosh avlod tarbiyasi jarayonining ahamiyatini hisobga olmagan. Ko'pgina misollardan ko'rinib turibdiki, ota-onaning olijanob va mo'tabar farzandi yetarlicha ta'lim olmasa, u yuz yoshga to'lguncha eshak bo'lib qoladi. Farzandsiz ota-onalar ota-onalarining kelib chiqishi haqida hech narsa bilmasdan, bolalarni mehribonlik uylari yoki tug'ruqxonalardan asrab olishlari, ularni qunt bilan o'stirishlari va o'qitishlari, asrab olingan farzandlarini o'z farzandlaridek hurmat qilishlari va hurmat qilishlari va ularni juda hurmatli va odobli insonlar qilishlariga misollar keltirishimiz mumkin. Aytish kerakki, ayniqsa, bu masalada Ahmad Donish islom dini va idealistik falsafa aqidalaridan bir qadam ham chetga chiqmaydi.

Muallif farzandlarini haqorat qiladigan onalar haqida shunday izoh beradi: "Axir, men sizni ko'kragim bilan boqdim!" ("N-v", 55).

Kutilayotgan natija. Oilada farzand tarbiyasi haqida Ahmad Donish, birinchidan, er oila boshlig'i bo'lishi kerakligidan boshlaydi. Ikkinchidan, farzandlaringizni mehr bilan seving, ularga mehr bilan munosabatda bo'ling va ular bilan o'ynang. Biroq, shu bilan birga, mo'tadil qattiqqo'llik va hokimiyatni saqlang, chunki Sharq pedagogikasida kuzatilganidek, jiddiylik va iroda bolalarni tarbiyalashda asosiy elementlardan biridir.

Xulosa. Ahmad Donish asarlarining konsepsiyasini tarbiya tashkil etadi. Ahmad Donish asarlarida jamiyatda har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim o'rin tutgan tarbiyaviy falsafa yashiringan. Bizningcha, Ahmad Donish alohida o'rin tutgan Buxoro xalqining atoqli mutafakkirlari pedagogik qarashlarining evolyutsion jarayonlarini o'rganmasdan turib, o'zbek pedagogikasining shakllanishi va rivojlanishi tarixining to'liq tasvirini tiklab bo'lmaydi. Ahmad Donishning ilg'or g'oyalari, pedagogik jihatlari va konsepsiyasidan foydalanishning ahamiyati, ularning pedagogika fani tarixini yetarli darajada o'rganmaganligidan kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmad Donish. Tanlangan asarlar..-"Navodirul vaqoye" Stalinobod, 1959.B-286.
2. Бертелс э. Э. Ахмади Кале асарларининг қўлёзмалари. Тож материаллари. СССР Фанлар Академиясининг асослари, 3-жилд, - Москва, Наука. 1936, Б-10-28.
3. Bartold V.V. Fors madaniyati va uning boshqa mamlakatlarga ta'siri: 9 jildda to'plangan asarlar. - T.6. - Moskva: Nauka, 1996. - B. 174-188.

SPORT FANIDAGI TRANSFORMATSIYA: KLASSIK PARADIGMALARDAN RAQAMLI MONITORING VA BILIMLAR TRANSFERIGACHA

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy sport fanining nazariy-metodologik va empirik asoslarining tanqidiy tahlili keltirilgan. Maqolada ilmiy fikrning klassik postulatlaridan murakkab, fanlararo modellarga bo'lgan evolyutsiyasi kuzatilgan. Tadqiqot paradigmalarining an'anaviy miqdoriy yondashuvlardan sifat va aralash metodlarga o'tishi, statistik tahlilda "effekt hajmi" konsepsiyasining ahamiyati ko'rib chiqilgan. Shuningdek, sportchilarning holatini ob'ektiv monitoring qilishda (GPS, YUQO'/HRV) texnologik inqilobning roli, pedagogik nazoratning jismoniy sifatlarni o'lchashdan o'yin intellektini baholashgacha (GPAI) rivojlanishi tahlil qilingan. Maqolada psixologik tayyorgarlikning (PST) ahamiyati va uni o'lchash uchun psixometrik vositalar (TOPS-2, ACSI-28, MTQ-48) muhokama qilingan. Asosiy muammolardan biri sifatida ilmiy bilimlar va amaliyot o'rtasidagi uzilish ("research-to-practice gap") ko'rsatilib, uni yengishda integratsiyalashgan bilimlar transferi (iKT) va "olim-amaliyotchi" mutaxassislarni tayyorlash zaruriyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: sport fani, metodologiya, miqdoriy tadqiqotlar, sifat tadqiqotlari, aralash metodlar, pedagogik nazorat, sport metrologiyasi, psixologik ko'nikmalar mashg'uloti (PST), yurak urish tezligi o'zgaruvchanligi (YUQO'/HRV), GPS-monitoring, "fan-amaliyot" bo'shlig'i, integratsiyalashgan bilimlar transferi (iKT).

ТРАНСФОРМАЦИЯ В СПОРТИВНОЙ НАУКЕ: ОТ КЛАССИЧЕСКИХ ПАРАДИГМ К ЦИФРОВОМУ МОНИТОРИНГУ И ТРАНСФЕРУ ЗНАНИЙ

Аннотация. В данной статье представлен критический анализ теоретико-методологических и эмпирических основ современной спортивной науки. В статье прослеживается эволюция научной мысли от классических постулатов к комплексным, междисциплинарным моделям. Рассматривается переход исследовательских парадигм от традиционных количественных подходов к качественным и смешанным методам, а также значимость концепции «размера эффекта» (effect size) в статистическом анализе. Также анализируется роль технологической революции в объективном мониторинге состояния спортсменов (GPS, BCP/HRV) и развитие педагогического контроля от измерения физических качеств до оценки игрового интеллекта (GPAI). В статье обсуждается значимость психологической подготовки (PST) и психометрические инструменты для ее измерения (TOPS-2, ACSI-28, MTQ-48). В качестве одной из ключевых проблем указывается разрыв между научными знаниями и практикой («research-to-practice gap»), и для его преодоления обосновывается необходимость интегрированного трансфера знаний (IKT) и подготовки специалистов «ученых-практиков».

Ключевые слова: спортивная наука, методология, количественные исследования, качественные исследования, смешанные методы, педагогический контроль, спортивная метрология, тренировка психологических навыков (PST), вариабельность сердечного ритма (BCP/HRV), GPS-мониторинг, разрыв «наука-практика», интегрированный трансфер знаний (IKT).

TRANSFORMATION IN SPORTS SCIENCE: FROM CLASSICAL PARADIGMS TO DIGITAL MONITORING AND KNOWLEDGE TRANSFER

Abstract. *This article presents a critical analysis of the theoretical-methodological and empirical foundations of modern sports science. The article traces the evolution of scientific thought from classical postulates to complex, interdisciplinary models. It examines the shift of research paradigms from traditional quantitative approaches to qualitative and mixed-methods, and the significance of the "effect size" concept in statistical analysis. Furthermore, the article analyzes the role of the technological revolution in the objective monitoring of athletes' condition (GPS, HRV) and the development of pedagogical control from measuring physical qualities to assessing game intelligence (GPAI). The article discusses the importance of Psychological Skills Training (PST) and the psychometric tools for its measurement (TOPS-2, ACSI-28, MTQ-48). The "research-to-practice gap" is highlighted as a key problem, and the necessity of Integrated Knowledge Translation (IKT) and the training of "scientist-practitioners" to overcome it is substantiated.*

Keywords: *sports science, methodology, quantitative research, qualitative research, mixed-methods, pedagogical control, sports metrology, Psychological Skills Training (PST), Heart Rate Variability (HRV), GPS monitoring, research-to-practice gap, Integrated Knowledge Translation (IKT).*

Kirish. Zamonaviy sport fani o'zining rivojlanishida chuqur transformatsiya davrini boshdan kechirmoqda. Ilmiy fikrning evolyutsiyasi pedagogika, psixologiya va fiziologiya kabi alohida fanlardan ularning integratsiyasiga asoslangan murakkab, fanlararo modellarga o'tish bilan tavsiflanadi. Bu o'zgarishlar, bir tomondan, texnologik innovatsiyalar, ikkinchi tomondan, yuqori natijalar sportida murakkab amaliy vazifalarni hal qilish zarurati bilan bog'liq. Ushbu transformatsion jarayonning markazida laboratoriya tadqiqotlarining yuqori ichki validlikni ta'minlovchi qat'iy nazorati va dala sharoitida o'tkaziladigan tadqiqotlarning real hayotga yaqin bo'lgan ekologik validligi o'rtasidagi doimiy dialektik ziddiyat yotadi. Shuningdek, ilmiy bilimlarni murabbiylar va sportchilarning kundalik faoliyatiga tatbiq etishdagi fundamental muammo, ya'ni "fan va amaliyot o'rtasidagi uzilish" (research-to-practice gap) ushbu sohaning eng dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada sport fanining klassik yondashuvlardan bugungi kundagi ilg'or texnologiyalar va bilimlar transferi modellarigacha bo'lgan transformatsion yo'li batafsil tahlil qilinadi.

Sport fanining ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishi an'anaviy, pozitivistik fanning qat'iy tamoyillariga asoslangan. Bu yondashuv obyektivlik, verifikatsiya, takrorlanuvchanlik va sabab-oqibat aloqalarini o'rnatishga intilish bilan tavsiflanadi.

Ingliz tilidagi an'anada Jon Kresuellning (John Creswell) "Ta'lim tadqiqotlari: miqdoriy va sifatli tadqiqotlarni rejalashtirish, o'tkazish va baholash" asari tadqiqot dizaynlarini, ma'lumotlar yig'ish usullarini va ularni tahlil qilish tartiblarini tizimlashtirib, ilmiy amaliyotni standartlashtirishga imkon berdi [5]. Jismoniy faollik sohasida J.R. Tomas, J.K. Nelson va S.J. Silvermanlarning "Jismoniy faollikdagi tadqiqot usullari" kitobi tadqiqotchilar uchun dasturilamal bo'lib xizmat qildi [9].

Ilmiy maktablarda E.V. Berezhnova va V.V. Krayevskiyning "Talabalarning o'quv-tadqiqot faoliyati asoslari" asari talabalarni ilmiy izlanishlarga jalb qilishning metodologik va pedagogik asoslarini yaratdi [1]. Ushbu klassik ishlar gipotetik-deduktiv metodga asoslangan miqdoriy tadqiqotlar uchun "oltin standart"ni yaratdi. Kuch, tezlik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlarni o'lchash va texnik harakatlarni tahlil qilish aynan shu metodologik qoidalar asosida mumkin bo'ldi.

Biroq, sport fani rivojlangan sari, faqat miqdoriy yondashuvning cheklanganligi oydinlasha boshladi. U "nima?" va "qancha?" degan savollarga javob bergani holda, ko'pincha "qanday?" va "nima uchun?" kabi savollarni ochiq qoldirardi. Qaror qabul qilish, jamoaviy hamkorlik, motivatsiya kabi murakkab hodisalarni faqat sonlar bilan to'liq ifodalash imkonsiz edi. Bu esa tadqiqot paradigmasining o'zgarishiga va sifatli hamda aralash metodli (mixed-methods) yondashuvlarning tan olinishiga olib keldi. Aralash metodlar miqdoriy ma'lumotlar (NIMA?) va sifatli ma'lumotlarni (QANDAY va NIMAGA?) birlashtirib, o'rganilayotgan hodisani yaxlit,

hajmli tushunishni ta'minlaydi. Masalan, G. Raiola va F. D'Eliaoning tadqiqotida talabalarning tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishda miqdoriy baholash bilan birga ularning sifatli tahlili ham qo'llanilgan [7].

Statistik tahlilda ham transformatsiya yuz berdi. O'nlab yillar davomida hukmron bo'lgan statistik ahamiyatlilik ($p\text{-value} < 0.05$) kulti tanqid ostiga olindi. Asosiy muammo shundaki, $p\text{-value}$ effektning amaliy ahamiyati yoki kattaligi haqida hech qanday ma'lumot bermaydi. Masalan, yangi mashg'ulot dasturi 100 metrga yugurish natijasini "statistik ahamiyatli" darajada yaxshilashi mumkin, lekin agar bu yaxshilanish atigi 0.001 soniyani tashkil etsa, murabbiy va sportchi uchun u ma'nosizdir. Bunga javoban, "effekt hajmi" (effect size) konsepsiyasi keng tarqaldi (Jadvalga qarang).

Jadval 1

Sport fanida metodologik paradigmalarning evolyutsiyasi

Paradigma	Fundamental nazariyotchilar	Asosiy metodlar	Sport fanidagi maqsadi	Cheklovlar
Pozitivizm / Miqdoriy	K. Popper, D. Kempbell	Eksperiment, kvazieksperiment, korrelyatsion tadqiqot, so'rovnoma	Yuklamaga fiziologik, biomexanik va psixologik reaksiyalarni tushuntirish va bashorat qilish. Umumiy qonuniyatlarni o'rnatish.	Individual tajriba va ijtimoiy kontekstni e'tiborsiz qoldirish. Reduksionizm. Murakkab, dinamik hodisalarni o'rganishdagi qiyinchiliklar.
Interpretivizm / Sifatli	I. Linkoln, E. Guba	Etnografiya, fenomenologiya, keystadi, narrativ tahlil, chuqurlashtirilgan intervyu	Sportchilar va murabbiylarning subyektiv tajribasini, ularning o'z faoliyatiga yuklagan ma'nolarini va ijtimoiy kontekstni chuqur tushunish.	Interpretatsiyalarning subyektivligi, natijalarni umumlashtirish (generalizatsiya) murakkabligi, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishning mashaqqatliligi.
Pragmatizm / Aralash	J. Kresuell, A. Tashakkori, Ch. Teddli	Konvergent, ketma-ket tushuntiruvchi, ketma-ket tadqiqot dizaynlari	Miqdoriy (NIMA?) va sifatli (QANDAY va NIMAGA?) ma'lumotlarni integratsiya qilish orqali aralashuvlar samaradorligini kompleks baholash. Amaliy muammolarni hal qilish.	Tadqiqotchidan har ikki paradigmadagi ham kompetensiyani talab qiladigan yuqori metodologik murakkablik. Katta vaqt va resurs sarflari.

O'lchovlar Inqilobi. Raqamli Monitoring va Nazorat:

1. Pedagogik Nazorat Kanoni. V.M. Zatsiorskiy Merosidan Kognitiv Baholashgacha Har qanday fan o'lchovlardan boshlanadi. V.M. Zatsiorskiyning "Sport metrologiyasi" asari sportda o'lchovlarning ishonchligi (natijalarning barqarorligi), validligi (testning o'lchanayotgan sifatga mosligi) va obyektivligi (natijalarning eksperimentator shaxsiga bog'liq emasligi) kabi fundamental tushunchalarni tizimlashtirib, bu sohada ilmiy tilni yaratdi [3]. Bu g'oyalar

168 keyinchalik V.P. Gubaning ishlarida rivojlantirildi [2]. Mazkur klassik yondashuvning eng qiziqarli transformatsiyasi murakkab kognitiv jarayonlarni, xususan, taktik fikrlash va o'yin intellektini o'lchashga urinish bo'ldi. Oslin, Mitchell va Griffin tomonidan ishlab chiqilgan Game Performance Assessment Instrument (GPAI) kabi vositalar "o'yin samaradorligi"dek mavhum tushunchani aniq, kuzatiladigan komponentlarga ajratish imkonini berdi [6]. GPAI bir nechta komponentlarni baholaydi. Bularga qaror qabul qilish, ya'ni o'yin vaziyatida maqsadga muvofiq harakatni tanlash; mahoratni ijro etish yoki tanlangan harakatni texnik jihatdan samarali bajarish; va qo'llab-quvvatlash, ya'ni to'psiz o'yinchining sherigiga yordam berish uchun to'g'ri pozitsiyani egallashi kiradi. Natijada, taktik mahorat sirli "san'at" bo'lishdan to'xtab, maqsadli rivojlantirish va obyektiv nazorat qilish mumkin bo'lgan o'lchanadigan pedagogik konstruktga aylandi.

2. Psixologik-kognitiv konstruktarni o'lchash. Sport psixologiyasi psixologik ko'nikmalarni mashq qildirish (Psychological Skills Training - PST) deb nomlanuvchi yaxlit paradigmaga aylandi. Bu sohaning fanga aylanishi valid va ishonchli psixodiagnostik vositalar yordamida mumkin bo'ldi (Jadvalga qarang).

Jadval 2

Sportchilarning psixologik ko'nikmalarini baholash uchun psixodiagnostik vositalarning qiyosiy tahlili

Vosita	Mualliflar	Asosiy konstrukt	O'lchanadigan subshkalalar (misollar)	Amaliy qo'llanilishi
TOPS-2	Thomas, Murphy, & Hardy [10]	Psixologik strategiyalardan foydalanish	Maqsad qo'yish, Tasavvur qilish, O'z-o'ziga gapirish, Relaksatsiya, Hissiyotlarni nazorat qilish	Mashg'ulot jarayonini optimallashtirish uchun qo'llaniladigan strategiyalarni baholash; mashg'ulotdagi ko'nikmalar va ularning musobaqada qo'llanilishi o'rtasidagi farqni aniqlash.
ACSI-28	Smith, Schutz, Smoll, & Ptacek [8]	Stressni yengish ko'nikmalari	Qiyinchiliklarni yengish, Bosim ostida eng yuqori natija ko'rsatish, Bezovtalikdan xoli bo'lish, Ishonch	Stressni yengishdagi kuchli va zaif tomonlarni tashxislash; natijadorlikni bashorat qilish; PST aralashuvlarini rejalashtirish.
MTQ-48	Clough, Earle, & Sewell [4]	Psixologik barqarorlik (Mental Toughness)	Nazorat (hayotiy, hissiy), Jalb qilinganlik, Chaqiruv, Ishonch (qobiliyatlarga, shaxslararo)	Liderlik sifatlarini rivojlantirish va uzoq muddatli adaptatsion salohiyatni bashorat qilish uchun umumiy "ruhiy chiniqish" darajasini baholash.

3. Raqamli Monitoring Davri: Tashqi va Ichki Yuklama XXI asrda taqiladigan sensorlar, jumladan global pozitsiyalash tizimlari (GPS) va inertial o'lchov modullari (IMU), sportdagi monitoringda inqilob yasadi. Bu texnologiyalar sportchining tashqi yuklamasini (umumiy bosib o'tilgan masofa, yuqori tezlikdagi yugurish, tezlanishlar soni) real vaqt rejimida yuqori aniqlikda o'lchash imkonini berdi.

Biroq, tashqi jismoniy yuklama ("doza") sportchining organizmida qanday reaksiya ("javob") uyg'otishini bilish muhimroqdir. Bu savolga javob berish uchun ichki yuklamani baholash vositalari kerak bo'ladi va bu borada eng samarali, noinvaziv usul Yurak urish tezligining o'zgaruvchanligi (YUQO' yoki HRV) tahlilidir. YUQO' vegetativ asab tizimining simpatik ("ur yoki qoch") va parasimpatik ("dam ol va hazm qil") bo'limlarining o'zaro ta'sirini aks ettiradi. Yuqori YUQO' yaxshi tiklanish va yuklamaga tayyorlikni, past YUQO' esa charchoq, stress yoki ortiqcha mashg'ulot holatini ko'rsatadi (Jadvalga qarang).

Jadval 3

Sportchining holatini kompleks monitoring qilish tizimining tuzilmasi

Monitoring domeni	Asosiy metrikalar	Texnologiyalar / Vositalar	Amaliy qo'llanilishi
Tashqi yuklama	Umumiy masofa, PlayerLoad, tezlanishlar/ tormozlanishlar soni	Taqiladigan datchiklar (GPS, IMU-akselerometrlar, giroskoplari)	Mashg'ulotlar hajmi va intensivligini boshqarish. Ortiqcha yuklamadan kelib chiqadigan jarohatlarning oldini olish.
Ichki yuklama	LnRMSSD (YUQO'), tinch holatdagi YUQ, laktat konsentratsiyasi	EKG, fotopletizmografiya (HRV-monitorlar, pulsometrlar)	Yuklamaga tayyorlikni baholash. Tiklanish va adaptatsiyani monitoring qilish. Ortiqcha mashg'ulotning oldini olish.
Psixologik holat	Ishonch, diqqat, motivatsiya ballari	Psixometrik so'rovnomalar (TOPS-2 [10], ACSI-28 [8], MTQ-48 [4])	Ruhiy salomatlikni monitoring qilish, PST dasturlari samaradorligini baholash.
Subyektiv baholar	RPE (qabul qilingan zo'riqish), uyqu sifati, mushaklardagi og'riq	Elektron kundaliklar, mobil ilovalar, so'rovnomalar	Obyektiv ma'lumotlarni kontekstualizatsiya qilish. Asboblari qayd etmaydigan muammolarni erta aniqlash.

Sport fanidagi barcha yutuqlarga qaramay, eng o'tkir muammolardan biri ilmiy tadqiqotlar natijalarini real amaliyotga tatbiq etishdagi uzilish bo'lib qolmoqda. Buning bir nechta tizimli sabablari mavjud. Birinchidan, madaniy va lingvistik to'siqlar tufayli olimlar va amaliyotchilar turli tillarda "gaplashadi" hamda turli maqsad va qadriyatlarga ega bo'ladi. Ikkinchidan, amaliyotchi murabbiylarda ilmiy maqolalarni o'qish, tanqidiy baholash va moslashtirish uchun vaqt va maxsus bilimlar kabi resurslar cheklangan. Uchinchidan, relevantlik muammosi ham mavjud, chunki ko'plab akademik tadqiqotlar steril laboratoriya sharoitida va norelevant tanlanmalarda (masalan, sportchi bo'lmagan talabalarda) o'tkaziladi.

Bu muammoni hal qilishga qaratilgan yondashuvlar ham o'z transformatsiyasini boshdan kechirdi. Dastlabki "Dalillarga asoslangan amaliyot" (Evidence-Based Practice - EBP) modeli o'rniga, ancha zamonaviy va istiqbolli "Integratsiyalashgan bilimlar transferi" (Integrated Knowledge Translation - IKT) modeli taklif qilindi. Uning asosiy g'oyasi amaliyotchilarni (murabbiylar, sportchilar) tadqiqot jarayoniga eng boshidan, ya'ni tadqiqot savolini shakllantirish bosqichidanoq jalb qilishdir. Bu olim va amaliyotchini bilimni birgalikda yaratuvchi teng huquqli hamkorlarga aylantiradi.

Ushbu muammoning tub yechimi esa ta'lim sohasida yotadi. Buning uchun bir vaqtning o'zida ham "olim", ham "murabbiy" bo'lgan, ya'ni "olim-amaliyotchi" (scientist-practitioner) deb ataluvchi yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash kerak. Bu modelning amaliyotdagi eng samarali ko'rinishi "jamoaga biriktirilgan olim" (embedded scientist) konsepsiyasidir. Bunda tadqiqotchi

170 universitet laboratoriyasida emas, balki bevosita sport jamoasi yoki tashkiloti ichida faoliyat yuritadi.

Sport fanining transformatsiyasi oddiy, bir o'ldiruvchi yondashuvlardan murakkab, ko'p qirrali va integratsiyalashgan modellarga o'tishni o'z ichiga oladi. Klassik miqdoriy metodlar sifatli va aralash yondashuvlar bilan to'ldirildi. Oddiy pedagogik testlar o'rni sportchining tashqi va ichki holatini har tomonlama aks ettiruvchi raqamli monitoring tizimlari egalladi. Biroq, bu transformatsiyaning eng asosiy va qiyin bosqichi to'plangan ulkan ilmiy bilimlarni amaliyotga samarali tatbiq etishdir. "Fan va amaliyot o'rtasidagi uzilish"ni bartaraf etish uchun integratsiyalashgan bilimlar transferi modellarini joriy etish va fundamental tadqiqot ko'nikmalariga ega amaliyotchi mutaxassislarni tayyorlash XXI asr sport fanining fundamental vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бережнова, Е. В. Основы учебно-исследовательской деятельности студентов : учебник для студ. сред. учеб. заведений / Е. В. Бережнова, В. В. Краевский. – 6-е изд., стер. – М. : Издательский центр «Академия», 2012. – 128 с.
2. Губа, В. П. Спортивная метрология : учебник / В. П. Губа, М. П. Шестаков, Н. Б. Бубнов, М. П. Борисенков. – М. : Спорт, 2016. – 328 с.
3. Зацюрский, В. М. Спортивная метрология : учебник для ин-тов физ. культ. / В. М. Зацюрский. – М. : Физкультура и спорт, 1982. – 256 с.
4. Clough, P. J. Developing mental toughness: From research to practice / P. J. Clough, D. Strycharczyk. – London : Karnac Books, 2015. – 226 p.
5. Creswell, J. W. Educational research: Planning, conducting, and evaluating quantitative and qualitative research / J. W. Creswell. – 4th ed. – Boston, MA : Pearson, 2012. – 649 p.
6. Oslin, J. L. The Game Performance Assessment Instrument (GPAI): Development and preliminary validation / J. L. Oslin, S. A. Mitchell, L. L. Griffin // Journal of Teaching in Physical Education. – 1998. – № 17(2). – P. 231–243.
7. Raiola, G. Sport education and research competency. The role of the reflective practice in the training of physical education teachers / G. Raiola, F. D'Elia // Journal of Human Sport and Exercise. – 2021. – № 16(2proc). – P. 343–353.
8. Smith, R. E. Development and validation of an inventory for measuring athletic coping skills / R. E. Smith, R. W. Schutz, F. L. Smoll, J. T. Ptacek // Journal of Sport and Exercise Psychology. – 1995. – № 17(3). – P. 379–415.
9. Thomas, J. R. Research methods in physical activity / J. R. Thomas, J. K. Nelson, S. J. Silverman. – 7th ed. – Champaign, IL : Human Kinetics, 2015. – 504 p.
10. Thomas, P. R. The Test of Performance Strategies (TOPS): Instrument development and initial validation / P. R. Thomas, S. M. Murphy, L. Hardy // The Sport Psychologist. – 1999. – № 13(1). – P. 47–68.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ETNOPEDAGOGIKA NAMUNALARIDAN FOYDALANISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi va an'analar asosida shakllangan etnopedagogika namunalari foydalanishning ahamiyati, ularni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish va ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan ilg'or yondashuvlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: etnopedagogika, boshlang'ich ta'lim, zamonaviy texnologiyalar, milliy qadriyatlar, AKT, didaktik vositalar.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРИМЕНЕНИИ ЭЛЕМЕНТОВ ЭТНОПЕДАГОГИКИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В данной статье раскрывается значение использования элементов этнопедагогике, сформированных на основе национальных ценностей, устного народного творчества и традиций в процессе начального образования. Также рассмотрены возможности интеграции этих элементов с современными информационно-коммуникационными технологиями. Проанализированы передовые подходы, направленные на формирование национального самосознания у учащихся, усиление духовно-нравственного воспитания и повышение эффективности обучения.

Ключевые слова:

этнопедагогика, начальное образование, современные технологии, национальные ценности, ИКТ, дидактические средства.

THE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN APPLYING ELEMENTS OF ETHNOPEDAGOGY IN PRIMARY EDUCATION

Annotation. This article highlights the importance of using elements of ethnopedagogy, formed on the basis of national values, oral folk art, and traditions, in the process of primary education. It also explores the possibilities of integrating these elements with modern information and communication technologies. The article analyzes advanced approaches aimed at fostering national identity in students, strengthening spiritual and moral education, and increasing the effectiveness of the educational process.

Keywords: ethnopedagogy, primary education, modern technologies, national values, ICT, didactic tools.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida har bir xalq o'z milliy o'zligini saqlab qolish, yoshlarga boy ma'naviy merosni yetkazish borasida ta'lim-tarbiya tizimi orqali faol harakat qilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga milliy qadriyatlar asosida bilim berish va ularni zamonaviy texnologiyalar orqali yetkazish dolzarb masalaga aylangan. Bu jarayonda **etnopedagogika** — xalqning tarbiyaviy tajribasi asosida shakllangan pedagogik qarashlar tizimi muhim o'rin tutadi.

Etnopedagogikaning boshlang'ich ta'limdagi o'rni beqiyos. Etnopedagogika - bu xalqning ko'p asrlik tarbiyaviy tajribasiga asoslangan, ma'naviy, madaniy va axloqiy qadriyatlarini ilmiy jihatdan o'rganadigan pedagogika sohasi bo'lib, u xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, an'analar va

172 turmush tarzida mujassam bo'lgan tarbiyaviy g'oyalarni o'z ichiga oladi. U bolani jamiyatga, hayotga tayyorlashda xalqning o'zi yaratgan, asrlar davomida sayqallangan va tajribadan o'tgan usullarga tayangan holda shakllanadi.

Etnopedagogika quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- **Xalq og'zaki ijodi** - ertaklar, maqollar, topishmoqlar, dostonlar, afsonalar orqali bolaga axloqiy saboqlar berish.

- **Urf-odatlar va marosimlar** - milliy bayramlar, to'ylar, bolani beshikdan boshlang'an tarbiyasi, navro'z marosimlari orqali ijtimoiy muhitga singdirish.

- **Mehnat tarbiyasi** - xalq hunarmandchiligi, dehqonchilik, chorvachilik kabi kasblar orqali bolani mehnatsevarlikka o'rgatish.

- **Axloqiy-estetik qarashlar** - kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, tabiatga mehr, odob-axloq, halollik, diyonat, sabr-toqat kabi fazilatlarni shakllantirish.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi - bu bolaning shaxsiyati shakllana boshlaydigan, ma'naviy-axloqiy poydevori quriladigan eng muhim davrdir. Shu boisdan ham aynan shu bosqichda etnopedagogik yondashuvlardan foydalanish o'ta dolzarb hisoblanadi. Chunki bu yoshdagi bolalar hayotni obrazlar, hikoyalar, jonli voqealar orqali idrok etadi. Shu sababli ertaklar, maqollar, topishmoqlar orqali berilgan tarbiyaviy g'oyalar ularga tezroq yetib boradi va ongida mustahkam o'rtnashadi.

Masalan, ertaklar orqali bolaga ezgulik va yovuzlik, to'g'rilik va yolg'onchilik, halollik va hiyla-nayrang o'rtasidagi farqni tushuntirish mumkin. "Zumrad va Qimmat", "Bo'z bolakay", "Qizil shapkacha" kabi ertaklar har bir harakatning oqibati bo'lishini o'rgatadi.

Topishmoqlar esa bolalarda mantiqiy fikrlash, e'tibor va xotirani rivojlantiradi. Ayniqsa, ular raqobat muhitida, o'yinlar shaklida tashkil etilganda, bolalarda ishtiyoq va rag'bat kuchayadi.

Maqollar va matallar orqali esa qisqa, ammo chuqur ma'noli hikmatlar orqali axloqiy g'oyalar beriladi. Masalan: "Odam bo'lsang, odam bo'l", "Yaxshilik qil, qaytmasa ham qaytadi" kabi maqollar bolada ong osti darajasida yaxshi fazilatlarni singdiradi.

Shuningdek, xalq urf-odatlari va marosimlari bilan tanishtirish orqali o'quvchilarni o'z milliy madaniyati, urf-odatlari, tarixiy ildizlariga bog'lash, ularni Vatan, xalq va ota-bobolar merosiga hurmat ruhida tarbiyalash mumkin. Masalan, Navro'z, Qurbon hayiti, Mustaqillik bayrami kabi tadbirlar orqali o'quvchilarda umumxalq qadriyatlariga sadoqat hissi shakllanadi.

Etnopedagogika asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni:

- o'quvchini o'z madaniyati bilan bog'laydi,
- uning shaxsiy va ijtimoiy faolligini oshiradi,
- mustahkam axloqiy asoslarni shakllantiradi,
- zamonaviy global muhitda o'zligini anglashiga yordam beradi.

Shunday qilib, etnopedagogika boshlang'ich ta'limda nafaqat tarbiyaviy, balki didaktik, estetik va madaniy ahamiyatga ham ega bo'lib, bolalarning shaxs sifatida barkamol voyaga yetishida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Uni zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashtirib qo'llash esa o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi, ta'lim samaradorligini ta'minlaydi.

Zamonaviy texnologiyalar va ularning imkoniyatlari

Zamonaviy ta'limda quyidagi texnologiyalar keng qo'llaniladi:

- **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT):** kompyuter, interaktiv doska, planshetlar.
- **Multimedia vositalari:** video, animatsiyalar, audio materiallar.
- **Elektron darslik va test tizimlari.**
- **Masofaviy ta'lim platformalari (Zoom, Google Classroom, Moodle).**

Ushbu texnologiyalar yordamida etnopedagogik materiallar quyidagi shakllarda taqdim etilishi mumkin:

- Ertaklarni audio yoki animatsion shaklda ko'rsatish;
- Maqollar va topishmoqlar asosida interaktiv testlar tuzish;
- Milliy urf-odatlar haqidagi videodarslar;

- Raqamli o'yinlar orqali milliy madaniyatni o'rgatish.

Amaliy misollar

1.Topishmoqlar orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish:

Interaktiv testlar yordamida o'quvchilar topishmoqlarga javob beradilar. Masalan, Quizizz yoki Kahoot platformalari orqali.

2.Ertaklar asosida audio-vizual darslar:

"Zumrad va Qimmat", "Tilla baliqcha", "Sholg'om" kabi ertaklar asosida animatsion videolar ko'rsatiladi va muhokama qilinadi.

3.Maqqollar bilan axloqiy darslar:

Maqqollarni muayyan hayotiy vaziyatlarga bog'lab, interaktiv slaydlar asosida fikr almashiladi.

Ilg'or pedagogik yondashuvlar

Konstruktiv yondashuv – o'quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb etish;

Raqamli pedagogika – darslarni texnologiyalar asosida olib borish;

Integrativ yondashuv – fanlararo bog'liqlik orqali milliy qadriyatlarni chuqur o'zlashtirish.

Xulosa

Boshlang'ich ta'limda etnopedagogika namunalaridan foydalanish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish nafaqat o'quvchilarning bilim olishiga, balki ularning tarbiyaviy va ma'naviy rivojiga ham katta hissa qo'shadi. Bunday yondashuvlar bolalarda Vatanga sadoqat, milliy g'urur va ijtimoiy faollikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A. "Etnopedagogika asoslari", Toshkent, 2020.
2. Karimova M. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar", Toshkent, 2021.
3. Begmatov A. va boshqalar. "Boshlang'ich ta'lim metodikasi", Samarqand, 2022.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-sonli farmoni.
5. Pedagogik internet resurslar: edu.uz, ziyonet.uz

Xo'janiyozova Gulhayo Ilhom qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH TA'LIM ONA TILI DARSLARIDA KO'RGAZMALI VOSITALARDAN FOYDALANISHNING METODIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili darslarida ko'rgazmali vositalardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritiladi. O'quvchilarning nutqiy, fikriy va ijodiy rivojlanishida ko'rgazmalilikning o'rni, ularning mustaqil tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdagi metodik imkoniyatlari va uning ahamiyati ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar. Boshlang'ich ta'lim, ona tili, korgazmalilik tamoyili, ko'rgazmali vositalar, o'quv jarayoni, axborot texnologiyasi.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАГЛЯДНЫХ ПОСОБИЙ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические основы использования наглядных пособий на уроках родного языка. Показана роль наглядных пособий в речевом, интеллектуальном и творческом развитии учащихся, их методические возможности и значение в формировании у них навыков самостоятельного анализа, обобщения и умозаключения.

Ключевые слова. Начальное образование, родной язык, принцип наглядности, наглядные пособия, образовательный процесс, информационные технологии.

METHODOLOGICAL POSSIBILITIES OF USING VISUAL AIDS IN PRIMARY EDUCATION MOTHER TONGUE LESSONS

Abstract. This article discusses the theoretical and practical foundations of the use of visual aids in native language lessons. The role of visual aids in the speech, intellectual and creative development of students, their methodological capabilities and importance in the formation of their skills of independent analysis, generalization and conclusion are shown.

Keywords. Primary education, native language, the principle of visual aids, visual aids, educational process, information technology.

Ta'lim tizimidagi rivojlanish jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biridir. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni global axborot makoniga moslashtirish dolzarb vazifaga aylandi. Bu jarayonda innovatsion pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va, ayniqsa, ko'rgazmali vositalardan samarali foydalanish muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Farzandlarimizni mustaqil fikrlashga, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun doimo dolzarb masaladir". Ushbu maqsadlarga erishishda ta'lim jarayonida ko'rgazmalilik tamoyilini to'g'ri tashkil etish, ko'rgazmali vositalardan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Ko'rgazmalilik – bu o'quvchilarda bilish jarayonining tabiiy ravishda kechishini ta'minlaydigan didaktik tamoyil bo'lib, bilimlarni ongli o'zlashtirishga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tasavvur, his-tuyg'u va obrazlar orqali fikrlash xos

bo'lganligi sababli, darsda ko'rgazmali vositalar asosiy o'quv materialini tushunishni osonlashtiradi. Ko'rgazmalilik tamoyili o'qituvchi oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

1) o'quv materialini hissiy idrok qilish imkoniyatlarini yaratish;

2) qaysi ko'rgazmali vosita yoki axborot texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqligini belgilash;

3) o'quvchining mavjud narsalar va hodisalarni tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantirish;

4) bilimlarni umumlashtirish va ularni tizimlashtirish uchun shart-sharoit yaratish.

Shu jihatdan, ko'rgazmali vositalar nafaqat darsni qiziqarli qiladi, balki tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish jarayonlarini osonlashtiradi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning dunyoqarashi va bilish jarayonlarini shakllantirishda hal qiluvchi davr hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili darslarida ko'rgazmali vositalardan foydalanish o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi, tushunchalarni tezroq va chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Ta'lim tizimida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, til hodisalarini anglash va nutqda qo'llashga o'rgatishda interaktiv usullar va ko'rgazmali vositalarning o'rni beqiyosdir.

Ona tili darslarida ko'rgazmali vositalarni qo'llashda quyidagi metodik jihatlarga e'tibor qaratilishi lozim bo'ladi:

1. Tizimlilik va ketma-ketlikni ta'minlash. Har bir yangi mavzu uchun mos ko'rgazma tanlanadi, u oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich qo'llanadi.

2. O'quvchini faol ishtirokchi qilish. Faqat o'qituvchi ko'rsatishi emas, balki o'quvchilarning o'zlari ham ko'rgazma tayyorlash va tahlil qilishda qatnashishlari lozim. Masalan, "Fasllar" mavzusida o'quvchilar rasm va rasmlar orqali fasllarni taqqoslaydi.

3. Ko'rgazmali vositani darsning maqsadi bilan bog'lash. Har bir slayd, rasm yoki predmet o'quv maqsadiga xizmat qilishi shart, aks holda u diqqatni chalg'itishi mumkin.

4. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash. Videodarslar, interaktiv taqdimotlar, 3D-modellar, AR/VR elementlari orqali o'quvchilarning bilish faolligini oshirish mumkin.

Ona tili darslarida ko'rgazmali vositalardan samarali foydalanish o'quv jarayonida quyidagi natijalarni ta'minlaydi: 1) mavzuni oson va tushunarli yetkazadi; 2) o'quvchilarni faol fikrlash va izlanishga undaydi; 3) ularning diqqat va xotirasini mustahkamlaydi; 4) mavzuni hayotiy misollar bilan bog'lash imkonini beradi.

Ko'rgazmali vositalar sifatida: rasm, jadval, sxema, plakat, audio-video materiallar, slaydlar, kartochkalar va elektron interaktiv taqdimotlardan foydalanish mumkin.

Ona tili darslarida ko'rgazmali vositalarni qo'llash jarayoni quyidagi bosqichlarda samarali bo'ladi:

1. Tahlil va mavhumlashtirish bosqichi – til hodisasi rasmlar, sxemalar orqali ko'rsatiladi va o'quvchilar bilan muhokama qilinadi.

2. Umumlashtirish va atama berish bosqichi – kuzatish asosida qoidani o'quvchilar o'zlari chiqarishadi, o'qituvchi esa ilmiy atamani kiritadi.

3. Ta'rif va mazmunni anglash bosqichi – tayyor ta'rif kartochka yoki slayd orqali ko'rsatiladi, o'quvchilar uni yodda saqlash va qo'llashni o'rganadilar.

4. Tatbiq bosqichi – mustaqil mashqlar, didaktik o'yinlar, interfaol topshiriqlar yordamida yangi bilim amaliyotga tatbiq qilinadi.

Ko'rgazmali vositalardan foydalanish PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) baholash mezonlariga ham uyg'un keladi, chunki ular o'quvchilarning axborotni aniqlash qobiliyati – ko'rgazmadagi ma'lumotni tez va to'g'ri topish; mazmunni tushunish qobiliyati – ko'rsatilgan obyekt, diagramma yoki jadval asosida xulosa qilish; tahlil va baholash qobiliyati – turli manbalar asosida taqqoslash va fikr bildirish; ijodiy qo'llash qobiliyati – o'z hayotiy tajribasida qo'llash imkoniyatini baholaydi.

Misol tariqasida 2-sinf uchun ona tili darsida ko'rgazmali vositalardan foydalanishga asoslangan namunaviy dars ishlanmasini keltiramiz:

Fan: Ona tili

Sinf: 2-sinf

Mavzu: Ot soʻz turkumini mustahkamlash

Dars shakli: Koʻrgazmali vositalarga tayangan interaktiv dars

Dars turi: Yangi bilimlarni mustahkamlash darsi

Koʻrgazmali vositalar: Rangli kartochkalar, predmet rasmlari, sxemalar, elektron slayd.

Darsning maqsadi

Taʼlimiy:

- Otlarning kim? va nima? soʻroqlariga javob berishini takrorlash va mustahkamlash.

- Otlarni maʼno va shakliga qarab toʻgʻri guruhlashni oʻrgatish.

Tarbiyaviy:

- Tabiatni sevisish, narsalarga eʼtiborli boʻlishga oʻrgatish.

- Jamoada ishlash, fikrni asoslab aytish madaniyatini rivojlantirish.

Rivojlantiruvchi:

- Kuzatuvchanlik, tahlil va umumlashtirish koʻnikmalarini shakllantirish.

- Ogʻzaki nutq va mustaqil fikrlashni rivojlantirish.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism (3 daqiqa)

Salomlashish, davomatni tekshirish.

“Bugungi darsimizda rasmlar va rangli kartochkalar yordamida yangi bilimlarni mustahkamlaymiz” degan motivatsiya berish.

2. Oʻtgan mavzuni takrorlash (5 daqiqa)

Slaydda turli rasmlar koʻrsatiladi: bola, qush, kitob, oʻqituvchi, daraxt.

Savollar: “Bu nima?”, “Bu kim?” — oʻquvchilar javob beradi.

Natija: “Demak, bular otlar, ular kim? va nima? soʻroqlariga javob beradi” degan xulosa chiqariladi.

3. Yangi bilimlarni mustahkamlash (15 daqiqa)

1-topshiriq (Tahlil bosqichi):

Stol ustiga turli predmetlar rasmlari qoʻyiladi (maktab, sigir, qalam, mushuk, shifokor, gul).

Oʻquvchilar rasmlarni kim? va nima? soʻroqlariga qarab 2 guruhga ajratadilar.

Xulosa chiqaradilar: “Kim? — tirik mavjudotlar; Nima? — jonsiz narsalar.”

2-topshiriq (Umumlashtirish bosqichi):

Doskaga sxema chiziladi:

Chap tomonda “Kim?”, oʻng tomonda “Nima?” soʻroqlari.

Oʻquvchilar sxema asosida soʻzlarni yozib joylashtiradi.

Atama mustahkamlanadi: “Bular ot soʻz turkumi deyiladi.”

3-topshiriq (Nutqiy rivojlantirish):

Har bir oʻquvchi bitta rasm tanlaydi va uning ishtirokida gap tuzadi:

“Sigir oʻtlayapti” yoki “Maktab katta”.

4. Mustahkamlash (7 daqiqa)

PIRLS mezonlariga mos mashq: Rasmi matn (gulzor rasmi + matn) beriladi.

Savollar: 1. Matndagi 3 ta otni toping. 2. Ularning soʻroqlarini ayting. 3. Shu otlar bilan yangi gap tuzing.

Bu topshiriq oʻquvchilarning axborotni aniqlash, tahlil qilish va ijodiy qoʻllash koʻnikmalarini rivojlantiradi.

5. Yakunlash va baholash (5 daqiqa)

“Kim? – nima?” soʻzlaridan tezkor viktorina oʻtkazish (oʻqituvchi soʻz aytadi, oʻquvchilar darhol soʻroqni aytadilar).

Eng faol qatnashgan oʻquvchilar ragʻbatlantiriladi.

Uyga vazifa: Uy atrofida koʻrgan 10 ta otni yozib keling va ularni ikki guruhga ajrating.

Bu dars oʻquvchilar otlarning kim? va nima? soʻroqlariga javob berishini mustahkamlaydi; soʻzlarni guruhlariga ajratish va xulosa chiqarish koʻnikmasi shakllantiradi; rasm asosida gap

tuzish, matn yaratish malakasi rivojlanadi; dars jarayonida ko'rgazmalilik orqali diqqat va qiziqish oshadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ko'rgazmali vositalardan oqilona foydalanish boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi. Har bir o'qituvchi ta'limning ko'rgazmalilik tamoyili mohiyatini chuqur anglab, dars jarayoniga zamonaviy ko'rgazma vositalarini integratsiya qilishi lozim. Bu esa nafaqat dars samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarni kelajakdagi hayotiy va kasbiy faoliyatga puxta tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Umumiy pedagogika.- Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
2. Sarsenbayeva R.M. Darslarda ko'rgazmali va tarqatmali materiallardan foydalanish texnologiyasi // Zamonaviy ta'lim, 2015, 2-son, 36-45-betlar.
3. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar.- Toshkent: "Ilm ziyo" nashriyot uyi, 2004.- 78 b.
4. Matchonov S., Bakiyeva H., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Xolboyeva G. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi.- Toshkent: "Ishonchli hamkor", 2021.- 740 b.
5. Kuronov S.D. Ona tili. 2-sinf. III qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. - Toshkent: "Novda edutainment", 2023.- 96 b.

AHMAD DONISHNING MA'NAVY-AXLOQIY QARASHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asrning taniqli ma'rifatparvari, adib va mutafakkiri Ahmad Mahdum Donishning "Navodir-ul-vaqoe'" asari asosida uning ma'naviy-axloqiy qarashlari tahlil etiladi. Asarda ilgari surilgan qanoat, beozorlik, bag'rikenglik, kechirimlilik, axloqiy yetuklik va fitrat asosidagi nasihatlar bugungi kun ijtimoiy hayoti uchun ham dolzarb ekani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Axloq, qanoat, beozorlik, fitrat, pandu-nasihat, ma'rifatparvarlik.

ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ АХМАДА ДОНИША

Аннотация. В этой статье анализируются его духовные и моральные взгляды на основе известного просветителя XIX Center, Ahmad u Mutaafakki Ахмада Махдума Дониша. Удовлетворенность, возбуждение, прощение, прощение и аспиранты, которые продвигаются в пьесе, будут основаны на актуальности для социальной жизни сегодняшнего дня.

Ключевые слова: мораль, удовлетворенность, оправдание, фитра, советы, предоставляющие.

AHMAD DONISH'S SPIRITUAL AND MORAL VIEWS

Annotation. This article analyzes the spiritual and moral views of the prominent 19th-century educator, writer, and thinker Ahmad Mahdum Donish, based on his work *Navodir-ul-vaqoe'*. The relevance of such ethical concepts as contentment, nonviolence, tolerance, forgiveness, moral maturity, and fitrah-based counsel is substantiated in the context of contemporary social life.

Keywords: Ethics, contentment, nonviolence, fitrah, moral advice, enlightenment.

XIX asr o'zbek adabiyotining yetuk vakillaridan biri, ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan o'z davri va keyingi avlod adabiy jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan ijodkor – Ahmad Mahdum Donish (1826–1897)dir. U o'zining serqirra ijodi va chuqur ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan zamonasining ilg'or tafakkur sohibi sifatida tanilgan.

Ahmad Donish o'z zamonasida ma'naviy yuksalishning asosiy omili sifatida ilm, tarbiya va adolat tamoyillarini ilgari surgan. U adabiyot orqali jamiyatni uyg'otishga intilgan, xalqni ogohlik va bilimga, hukmdorlarni esa adolatparvarlik va rahmdillikka chaqirgan. Donish o'z asarlarida jamiyatning turli qatlamlariga qaratilgan murakkab ijtimoiy masalalarni ko'tarib chiqqan va ularning yechimini axloqiy-me'yoriy tamoyillar asosida izlagan.

Ahmad Donish qalamiga mansub ko'plab asarlar ichida eng mashhuri – "Navodir-ul-vaqoe'" asaridir. Mazkur asar o'zining g'oyaviy mazmuni, tarbiyaviy jihatlar va ijtimoiy-falsafiy tafakkuri bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda muallif inson hayotiga daxldor dolzarb muammolarni tahlil etadi, ularning yechimida axloq, adolat va ma'naviy komillikni asosiy mezon sifatida ilgari suradi. Asarning kompozitsion tuzilmasi muqaddima, 23 bob va xotimadan iborat bo'lib, unda Donish uzoq yillar davomida to'plagan hayotiy tajribalarini umumlashtirgan. Asarning dastlabki sahifalari murakkab tilda yozilgan bo'lsa-da, mazmuni o'quvchini o'ziga tortadi va uni davomli o'qishga undaydi. Donish ushbu asarni yozishda tarixiy manbalar, shaxsiy kuzatishlar va o'zining hayotiy tajribasiga tayangan.

Ahmad Donishning ma'naviy-axloqiy qarashlari asarning eng muhim g'oyaviy jihatlaridan biri bo'lib, u pandu-nasihat shaklida bayon etiladi. Muallifning fikricha, inson o'z mehnatining

natijasiga egalik qilishga haqlidir, ammo birovning mol-mulkiga ko'z tikish, hatto u arziyas bo'lsa ham axloqiy nuqtayi nazardan nomaqbul hisoblanadi. U bu kabi xatti-harakatlarni ijtimoiy muhitda do'stlik va ishonchni buzuvchi salbiy omil sifatida baholaydi.

Donish ta'kidlaydiki, ortiqcha tama' va ochko'zlik – inson sha'niga zid illatlardir. U bunday hatti-harakatlarning oqibatida insonni xalq orasida qadrdan tushirishi, uning obro'siga putur yetkazishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, Donish pandu-nasihatlarida do'stlar o'rtasidagi o'zaro hurmat, rozilik va muloyim munosabatning ahamiyatini alohida qayd etadi.

Ahmad Donish o'z qarashlarida insonlar o'rtasida diniy yoki etnik tafovutlarni inkor etib, har bir insonni uning ma'naviy qiyofasi va axloqiy xatti-harakatlari orqali baholash kerakligini ilgari suradi. U boshqa millat va din vakillari bilan munosabatda ham hurmat va bag'rikenglikni asosiy tamoyil sifatida ko'radi. Shuningdek, behuda bahs-munozaralardan tiyilish, faqat aql-idrokka suyanilgan suhbatlarga kirishish lozimligini ta'kidlaydi. Donish tomonidan ilgari surilgan eng muhim g'oyalardan biri – qanoat va osoyishtalik masalasidir. U mehnat bilan topilgan halol rizqni qadrlash, tinchlik va rohat-farog'atni ortiqcha boylikdan ustun qo'yishni targ'ib qiladi. "Osoyish bilan yegan quruq non, mashaqqat bilan topilgan halvodan afzal", degan g'oya orqali muallif mehnatni qadrlash bilan birga, ortiqcha hirs va tamagirlikdan voz kechishga chaqiradi.

Shuningdek, "Navodir-ul-vaqoe'"da qayta-qayta tilga olinadigan g'oyalardan biri – bu beozorlik prinsipidir. Donish hech bir mavjudotga ozor yetkazmaslikni, balki aksincha, ularga yordam qo'lini cho'zishni insoniy fazilat deb hisoblaydi. Asarda keltirilgan misollar orqali u beozorlikning real hayotdagi aksini ko'rsatadi va bu tushunchaning chinakam insoniy burch sifatida qabul qilinishi lozimligini uqtiradi. Shuningdek, kechirimlilik va bag'rikenglikni insoniy fazilatlar ichida eng ulug'laridan biri sifatida talqin qilinadi. U dushman kechirim so'rasa, uni kechirish – bu insoniy kamolot belgisidir, deb hisoblaydi. Bu orqali Donish nafaqat ijtimoiy yarashuv, balki ichki ruhiy poklanish va ma'naviy yuksalish yo'lini ko'rsatadi.

Donishning fikricha, har bir inson o'ziga xos tabiatga ega bo'lib, ularning axloqiy-ruhiy qiyofasi bir-biridan farq qiladi. Fitrat tushunchasi muallif ta'limotining asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, u pandu-nasihatning samarasini ham insonning ichki holatiga bog'liq deb tushuntiradi. U quyidagi misralar orqali bu fikrni ifodalaydi:

Bo siyahdil chi sud guftani vaz'?

Naravad mexi ohanin dar sang.

Bu bayt orqali muallif axloqiy tarbiyada individuallikni e'tiborga olish, har bir inson bilan uning fitratiga mos tarzda munosabatda bo'lish zarurligini uqtiradi.

Ahmad Donishning "Navodir-ul-vaqoe'" asari o'z mazmun-mohiyati va unda ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy qarashlari:

Pandu-nasihat mavzusi doimo dolzarb bo'lgan bo'lsa-da, Ahmad Donish bu yo'nalishda o'ziga xos yondashuv va chuqur falsafiy qarashlar bilan ajralib turadi.

Inson o'z haq-huquqini talab qilishda haqli, ammo birovning moliga ko'z tikish axloqan qabul qilinmaydigan xatti-harakatdir.

Qanoat – osoyishtalikning kalitidir, ortiqcha hirs esa insonni tashvish va iztirobga muhtalo qiladi.

Beozorlik – eng yuksak insoniy fazilat bo'lib, har qanday mavjudotga nisbatan muloyimlik bilan munosabatda bo'lish lozim.

Dushmanga ham kechirimli bo'lish – chin insoniylik mezoni sanaladi.

Yaxshilikka yomonlik bilan javob berish insoniy qadriyatlarga zid keladi.

Har bir inson fitrati turlicha bo'lgani bois, nasihatlar ham individuallikka asoslanmog'i zarur.

Donish o'z asarlarida ilgari surgan g'oyalarni amalda qo'llagan, o'z hayoti bilan bu qarashlarning samarasini namoyon etgan. Ahmad Donishning ma'naviy-axloqiy qarashlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan bo'lib, ular hozirgi jamiyatda insoniy fazilatlarini qaror toptirish, axloqiy tarbiyani mustahkamlash va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Donish A. Navodir-ul-vaqoe'. – Toshkent: Fan, 1990.
2. Qayumov A. Ma'rifat va ma'naviyat darg'asi – Ahmad Donish. – Toshkent: O'zbekiston, 1985.
3. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. G'afurov B. O'zbek adabiyoti tarixida axloqiy-etik qarashlar. – Samarqand, 2015.
5. Umurov Z.L. Ta'limi «Navodir-ul-vaqoe'» dar maktabhoi miyonai to'chik. SOKROVISHNIST A NAUKI/VESTNIK INSTITUTA, 2021, № 2. MATERIALI nauchno-prakticheskoy mejdunarodnoy aprelyskoy on-layn i off-layn konferentsii, na temu «Aktualnie problemi obchestvenno-gumanitarnix, tochnix i yestestvennix nauk v sovremennuyu epoxu», 26 aprelya 2021 goda v Tadjikskom pedagogicheskom institute v gorode Pendjikent. – Pendjikent, 2021, 697-699 –s.

DAVLAT TASHKILOTLARIDA FAOLIYAT YURITADIGAN O'RTA YOSHLI XODIMLARNI SOG'LOMLASHTIRISHNING MUHIM OMILLARI

Maqolada ijtimoiy salomatlik inson salomatligining eng oliy darajasi hisoblanadi va uning muayyan jamiyatdagi hayoti va faoliyatini, ijtimoiy turmushining asosini tashkil etuvchi axloqiy prinsiplari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: salomatlik, keksalik, jismoniy holat, gigena, organizim, erkak, ayol, psixologik holat, kasallik.

В статье социальное здоровье рассматривается как высший уровень здоровья человека и рассматривается в контексте его нравственных принципов, составляющих основу его жизни и деятельности в конкретном обществе, его социальной жизни.

Ключевые слова: здоровье, старость, физическое состояние, гигиена, организм, мужчина, женщина, психологическое состояние, болезнь.

In the article, social health is considered as the highest level of human health and is considered in the context of his moral principles, which form the basis of his life and activities in a particular society, his social life.

Keywords: health, old age, physical condition, hygiene, body, man, woman, psychological condition, disease.

Insonning salomatligi unda biror kasallik yoki muayyan jismoniy yetishmovchilikning bor-yoqligi bilan izohlanmaydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti salomatlikni insonning jismoniy, ma'naviy, ijtimoiy to'kis holati sifatida e'tirof etadi, bunday holatda kishi organlari, butun tanasi atrofdagi ishlab chiqarish va ijtimoiy muhit bilan uyg'unlikda yashaydi. Bu ta'rifda salomatlikni tashkil etuvchi uch xil – jismoniy, psixologik va ijtimoiy jihat mavjud.

Jismoniy salomatlik – barcha organlar va butun organizmning to'kis ishlab turgan tabiiy holati.

Psixologik salomatlik inson tafakkuri darajasi va sifati, diqqat-e'tibori va xotirasining rivoji, ruhiy barqarorligi va irodasining nechog'lik mustahkamligi bilan belgilanadi.

Salomatlik – odamlar turmush darajasi, tarzi va sifatining ko'rsatkichidir. Shu bois u inson salohiyatining rivoji bilan chambarchas bog'liq.

Inson salomatligi va uning uzoq umr ko'rishi organizmning ruhiy hamda fiziologik holati bilan chambarchas bog'liqdir.

Uzoq yillar davomida olimlar va tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlar natijalari shuni ko'rsatdiki, keksa yoshdagi kishilar bilan ularning salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlar, jismoniy mashg'ulotlar va mashqlarni o'tkazishda anotomik hamda fiziologik holatlari va xususiyatlarini hisobga olish zarur.

M.D.Aleksandrova fikricha, qarish davrida organizmning morfologik, funksional va biokimyoviy holati va xususiyati uning asosiy funksiyasi ichki va tashqi ta'sirchanligiga bog'liq bo'ladi [1, 44]. Yosh o'tishi bilan muhitning odatiy faktorlariga moslanuvchanlikning pasayishi turli qo'zg'atuvchilar ta'sirida kamayib boradi. Bunda ro'y beradigan barcha holatlar gomeostazning o'zgarishi va doimiy stress reaksiyasining rivojlanishiga olib keladi.

Markaziy asab tizimi funksional holatining kuchsizlanishi yuzaga kelib, retseptorlar funksiyalari buzila boshlaydi, bu o'z navbatida ko'rish, eshitish, sezish organlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Harakat reaksiyasi sekinlashib, mushak tonusi susayadi. Ichki sekresiya bezlari orqali amalga oshiriladigan gormanal muvazanat salbiy tomonga o'zgaradi. Yog'lar

almashinuvining buzilishi oqibatida xolesterin miqdori ko'payadi va skleroz rivojlanadi. Shunday qilib, endokrin bezlar funksiyasining pasayishi keksalar uchun odatiy bo'lgan 3 ta kasallik: giperadaptoz (stress holatlariga yuqori ta'sirchanlik), klimaks va semirishga olib keladi.

Yurak-qon tomir tizimidagi o'zgarishlar o'z navbatida skleroz va aterosklerozga olib keladi. Yurak-qon tomir tizimidagi kasalliklarning rivojlanishi uglevod hamda lipidlar almashinuvining buzilishi, harakat faolligining yetishmovchiligiga bog'liq bo'ladi. Morfologik o'zgarishlar kardiogemodinamikaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Sistolik (SB) va diastolik (DB) bosim ko'paygan sari, puls tezligi susayadi. Kexsa yoshdagi kishilarning daqiqalik qon hajmi o'rta yoshdagi kishilarnikiga qaraganda 15-20% ga kamayadi. Ko'pchilik holatda, yurak mushaklari qisqarishi funksiyasining yomonlashuvi miokard holatining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Keksayish davrida mushak faoliyatining yuqori harakatiga bo'lgan ehtiyojni ta'minlash maqsadida nafas olish organlari moslashuvchanlik holatida bo'ladi. Ammo, vaqt o'tishi bilan o'pkaning tiriklik sig'imi kamayib, nafas olish organlarida siqilish, bo'g'ilish, kislorod yetishmasligi holatlari kuzatiladi.

Organizmning qarishi biologik holat bilan bir qatorda ruhiy holatga ham ta'sir ko'rsatadi. Ruhiyat tizimidagi involyusion jarayonlarning xarakteri murakkab bo'lib, insonning o'ziga xos xususiyatlari, u yoki bu kasallikka chalinish ehtimoli, hayot tarzi, hamda shaxsiy faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Psixik jarayonlardagi o'zgarishlar turli yosh davrlarda o'ziga xos tarzda ro'y berishi mumkin.

Umuman olganda qarilik va keksayish jarayonining faqat salbiy tomonlari bor deb hisoblanmasligi kerak. Bu yosh davrining ijobiy tomonlari ham bor. Hamma narsa insonning o'ziga va faol hayot tarziga bog'liq bo'lib, butun hayoti davomida to'plangan boy amaliy tajriba va egallangan ko'nikma, malakalarni kelajak avlodga yetkazishda namoyon bo'lib, keksalarning jamiyat faoliyatida keraklilik hissini hosil qilishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan inson sog'ligini yaxshilash, salomatligini tiklash, hayotini uzaytirish hamda ishchanlik samaradorligini oshirishda harakat faolligi muhim ahamiyat kasb etadi. Kam harakatli turmush tarzida yoshga bog'liq o'zgarishlar 30-40 yoshdayoq namoyon bo'la boshlaydi. Ilmiy adabiyotlar hamda "Butun dunyo sog'liqni saqlash" tashkiloti (1963 yili) tomonidan

-45 yoshdan 59 yoshgacha bo'lgan insonlar o'rta yoshlilar;

-60 yoshdan 74 yoshgacha keksa yoshlilar;

-75 yoshdan 89 yoshgacha qariyalar;

-90 yoshdan katta yoshdagilar uzoq umr ko'ruvchilar deb qabul qilingan.

Keksalik va qarish - tabiiy ravishda yuzaga keladigan fiziologik jarayon hisoblanadi.

Inson organizmining qarish jarayonlarida organ va to'qimalardagi o'zgarishlarga tashqi muhit ta'sir qiladi. Keksalikdagi o'zgarishlar fiziologik jarayon bo'lib, ko'pchilik olimlar fikriga ko'ra kasallik hisoblanmaydi, lekin organizmning funksional qobiliyatining cheklanishiga va tashqi zararli omillarga chidamliligining pasayishiga olib keladi. Ko'p hujayrali murakkab organizmlar hayoti davomida biologik va funksional jihatdan ma'lum bir o'zgarishlarni boshidan kechiradi. Bu o'zgarishlar yosh o'tgan sari ularning tashqi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Keksalikda yuz terisi quruq, burishgan, serajin, rangi past, yupqalashganligi natijasida teri ostidagi tomirlar bo'rtib ko'rinib turadi. Bosh qismidagi soch tolalari oqargan, siyraklashgan, ko'zlari nursiz, og'iz bo'shlig'ida tishlar yetishmaydi, umurtqa pog'onasi bukchaygan, harakatlari sustlashgan bo'ladi. Bu belgilar qarilikka xos bo'lgan belgilardir. Ko'rish va eshitish organlilarining funksiyasi qarilikda pasayadi. Kexsa odam tez-tez junjikadi. Buyi va vazni ham kamayadi. Erkaklar bo'yi 50-85 yoshlar o'rtasida kamida 3 santimetrغا, ayollar buyi esa 4 santimetrغا pasayadi. Normada erkaklarda tana vazni 40 yoshda, ayollarda 50 yoshda maksimal holatda bo'ladi.

Yoshning davriyligi – inson hayotini biologik, qisman ijtimoiy va iqtisodiy tavsiflarga asosan alohida bosqichlarga bo'lish demakdir. Sodda va keng qamrovli (universal) tasnif o'z ichiga 3 ta davrni oladi: bolalik, o'smirlik, qarilik.

Ma'lumki, yoshlik davridan yetuklik davriga o'tishda inson hayotini pasayib borish davri 30-35 yoshdan boshlanadi, lekin sezilarli o'zgarishlar 45 yoshdan so'ng boshlanadi. Nafaqa yoshiga to'g'ri keluvchi 45-59 yoshni fiziologik va ijtimoiy xususiyatlarga ko'ra «o'rta» yosh deb qarash tavsiya kilinadi. Bu davrda odatda turli endokrin o'zgarishlar kuzatilib, klimaks rivojlanishi va qarilik jarayonlariga ta'sir qilishi erkaklarga nisbatan ayollarda kuchliroq namoyon bo'ladi.

Qarish jarayonida kanserogenez kuchayadi, autoimmun buzilishlar yuzaga keladi. Bu patologik holatlarni rivojlanishi yosh oshgan sari kuchayadi. Qarilikka xos bo'lgan o'zgarishlarning organizmda erta boshlanishi kasallik kelib chiqishining yanada rivojlanishga olib keladi. Bundan xulosa shuki, kasallik qarishni tezlashtiradi.

Qarilik esa kasallikni avj oldiradi. Demak, fiziologik qarish determinirlangan biologik jarayon hisoblanadi, erta qarish esa – tabiiy jarayon kechishini turli omillar bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishidir.

Erta qarishga olib keluvchi moyil omillar quyidagilar: gipodinamiya, uzoq va tez-tez qaytariluvchi asabiy-emotsional zo'riqish, tartibsiz ovqatlanish, surunkali kasalliklar, zararli odatlar va nasliy moyillik.

Keksayishga bag'ishlangan fanlarning asosiy masalalaridan biri qarish jarayoni – normal, fiziologik xolat yoki kasallik ekanini o'rganishdir. Galen qarilik – kasallik emas, balki organizmning alohida bir holati, lekin yoshlikka xarakterli bo'lgan sog'liq emas degan. U qarilikni sog'liq va kasallik orasida deb bilgan. Seneka esa «qarilik – bedavodir» deb ta'kidlagan.

Inson 60—70 yoshga to'lganda yoki undan oshgan chog'ida yetuklikning kechikkan davriga kirib keladi deb hisoblaydi. Shu yoshdagi odamlarning o'limini XVIII asrdagi tengdoshlari bilan taqqoslansa, ularning yashash va mehnat qilish imkoniyati 75 yoshgacha uzayishi mumkin. Chunki hozirgi kunda nafaqani belgilash haqiqiy biologik qarish yoshidan 15—20 yil ilgari ketgan. Bu hol aqliy mehnat bilan shug'ullangan ziyoli odamlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. I.V.Davidovskiyning [10] fikricha, uzoqumr ko'ruvchilar asosan ozg'in, faol, harakatchan odamlar bo'lib, havodan erkin nafas olishni juda yoqtiradilar, organizm faoliyatiga daxldor tinka quritir kasalliklardan holi bo'ladilar.

Rus olimi P.P.Lazerev 1928 yilda umr o'tishi bilan ko'rish organlarining buzilishi va markaziy etnologiyasining xiralashuvini aytgan edi. 1967 yilda amerikalik olim Gregori bu fikrni tajribadan o'tkazdi va inson keksayishi bilan retseptor apparatining optik funksiyasi zaiflashadi, ko'ruv sezgisi va idrokini xiralashtiradi, dedi. Ko'zning rang sezishi yoshi ulgayishi bilan o'zgarib boradi, hatgo, rangni ajratish qobiliyati sezilarli darajada pasayadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, rang ajratish, spektr nurlarining yoyilishi Ibn Sino tomonidan tushuntirib berilgan, fan olamida esa bu kashfiyot Gel'mgolsga qiyos beriladi. Ko'rishning pasayishi geteroxron xususiyat kasb etib, spektrning qisqa va to'kis qismida (ko'k va qizil rangda) aniqroq aks etadi.

Insonning biologik qarishi ruhiy jarayonlar, holatlar, xususiyatlar va hatti-harakatlarda keskin o'zgarishlarni vujudga keltiradi. Ko'pchilik sezgi organlari zaiflashadi, asab tizimi kuchsizlanadi, ma'lumotlarni qabul qilish (xotira) va ularni qayta ishlash, mohiyatini anglash (tafakkur), u yoki bu holatlarga nigohini to'plash va unda muayyan muddat tutib turish (diqqat) qiyinlashadi.

Irodaning kuchsizlanishi og'riq sezgilariga nisbatan bardoshlilik tuyg'usini kuchsizlanira boshlaydi. Natijada tashqi ta'sirni qabul qilishda diqqatni saralash xususiyati o'z ahamiyatini yuqotib borishi sababli keksa kishi bola tabiatli arazchan, ko'ngli bo'sh, hissiyotga beriluvchan xarakterli bo'lib qoladi. Shuning uchun ular bilan muloqotga kirishishda mazkur shaxsning sifatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Xotiraning zaiflashuvi qariyalarda xayolparastlik illatini keltirib chiqaradi, ko'pincha esda olib qolish, esda saqlash va esga tushirish o'rtasida ko'pgina sabablarga ko'ra nomutanosiblik tug'iladi, natijada unutish jarayoni kuchayadi. Diqqatni muayyan obektga to'play olmaslik oqibatida biron faoliyat turi ustida uzoq mashg'ul bo'la olmaslik vujudga keladi. Narsa va jismlarni noto'g'ri idrok qilish, ya'ni illyuziyalar ko'proq o'rin egallaydi.

Inson salomatligini ruhiy holat darajasida mustahkamlash maqsadida 4 xil mashqlar: autogen, psixoregulyatsiya, ruhiy-mushak hamda ideomotor mashqlardan foydalaniladi.

O'zini ishlantirish maqsadida autogen mashqlardan foydalanish ham yuqori samara beradi.

Autogen mashq [yun. autogenes – o'zi bajaradigan], autotrening – ichki a'zolar faoliyati, harakat faoliyati buzilganda o'z-o'zini ishlantirish va o'z-o'zini boshqarish orqali shu holatdan forig' bo'lishga olib keladigan psixoterapiya (ruhiy davolash) usuli. Autogen mashq biror texnik moslama (xotira, diqqat trenajyori va boshqa(lar) yoki kishining o'z xohish-irodasi bilan amalga oshirilishi mumkin. Bunda bemorni oyoq-qo'larini bo'sh qo'yishga, hech narsani o'ylamaslik, faqat sog'ayib ketishga ishlantirishga harakat qilinadi. Bu usul boshqa ruhiy davolash usullari bilan birga qo'shib olib borilganda yaxshi naf beradi. Asosan, nevroz, ayniqsa, uyqu buzilganda qo'llaniladi. Qisqa muddatli dam olish va boshqa hollarda sog'lom kishilar ham undan foydalanadilar.

Keksa yoshdagi kishilar bilan o'tkaziladigan jismoniy mashqlar asosidagi mashg'ulotlar quyidagi asosiy vazifalarni yechishga qaratilgan bo'lishi lozim:

- 1) asab tizimiga maromli ta'sir ko'rsatishi;
- 2) yurak-qon tomir hamda nafas olish tizimlari funksiyalarini doimiy ravishda rag'batlantirishi;
- 3) moddalar almashinuvi jarayonini yaxshilashi
- 4) mushak tizimini mustahkamlab, bo'g'imlardagi harakatchanlikni oshirishi;
- 5) hayotiy zarur harakat xususiyatlari, ko'nikmalari va malakalarining to'liq amalga oshirishini qo'llab-quvvatlashi.

Jismoniy harakatlar turli organ va tizimlarning hayotiy faoligini mo'tadillashtirib stimullaydi: miokardni qisqaruvchanligini oshiradi, koronar qon aylanishini yaxshilashini kapillyar qon tomirlarning kengayishi bilan boradi, o'pka ventilyatsiyasi oshadi, kichik qon aylanishi tizimi ishini yaxshilaydi, ko'krak qafasi xarakatlarini normallashtiradi. Me'da ichak yo'llarini silliq mushak motorikasini yaxshilaydi. Mushak tizimini, uning bog'lovchi apparatini, bo'g'imlardagi harakatlarini normallashtirib ish harakatini uzoq muddatgacha saqlab turadi. Quyidagi jadvalda yosh o'zgarishi bilan insonlarning individual xususiyatlari o'zgarishini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Keksa yoshdagi kishilarning erkak va ayollar bo'yi (Kettle bo'yicha), sm

Yosh davri	Erkaklarning bo'yi	Ayollar bo'yi	Ikkala jinslar bo'yi uzunligi orasidagi farq	Yil davomida bo'yning o'sish darajasi	
				erkaklar	ayollar
25	168,2	157,8	10,4	1,2	0,4
30	168,6	158,0	10,6	0,4	0,2
40	168,6	158,0	10,6	0	0
50	168,6	158,0	10,6	0	0
60	167,6	157,1	10,5	-1,0	-0,9
70	166,0	155,6	10,4	-1,6	-1,5

Qarish jarayoni uchun ijtimoiy sharoitlar katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy muhit qarish jarayonini yo'naltirishini, insonni keksayguncha ijobiy moslashishini saqlab qolishi mumkin. Buning uchun qari kishilarning turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash chora tadbirlarini ishlab chiqish, ularni jamoat ishlariga jalb qilish, ularni qarishga o'z vaqtida tayyorlash, qarish jarayonini faoliyatga yo'naltirish, qariyalarga tibbiy, ijtimoiy, madaniy xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish lozim.

Har bir inson har bir yosh davrida uning kuchi, tajribasi jamiyatga kerakligiga ishonchi komil bo'lishi lozim. Ayniqsa, qari kishilar xalq xo'jaligida katta ahamiyatga ega bo'lgan tajribaga egalar.

Qarishning psixogigienik jihatlarini qarab chiqishda quyidagilarga e'tibor berish lozim.

a) yosh inson tomonidan kechirilgan umr bilangina belgilanmay, hayot tarzi bilan ham belgilanadi, shuning uchun turli kishilarda har xil vaqtda kechadi. Qarish tug'ilish bilan boshlanadi, faqatgina jismoniy ish qobiliyati kamaya boshlagandagina anglana boshlaydi. Qarishning boshlang'ich fazasida inson atrof-muhitga talablarini kamaytirishi kerak. Inson pasayayotgan ish qobiliyatini hisobga olgan holda o'z faoliyatini tashkil etish va boshlangan jarayonni kuch bilan, zo'riqish bilan ushlab turishga intilmasligi lozim. Zo'riqish bilan ushlab turishga intilish esa qarish jarayonini tezlashtiradi, jismoniy va psixik buzilishga olib kelishi mumkin.

b) o'spirinlikdan boshlab, doimiy jismoniy va ruhiy mashq qilish sog'lom qarilik gashtini surish garovidir. Sport va har xil aqliy mehnat qari kishilarning kundalik hayotida ma'lum rol o'ynashi lozim.

d) Qarilikka tayyorlanish va ichki ustanovka bu hodisani xursandchilik bilan kutib olish imkonini beradi.

e) yolg'iz yashaydigan insonga nisbatan jamoada yashaydigan inson tez qarimaydi. Shuning uchun qariyalarni jamoa ishlariga jalb qilish kattta ahamiyatga ega.

Jahon Sog'liqni saqlash tashkilotining hisobotlarida qayd qilinishicha yer yuzi aholisi orasida qariyalar soni tobora oshib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri qilib ko'pgina davlatlar va elatlarda yashash sharoitlarining oldingi davrlardagiga nisbatan yaxshilanib borayotganligi deb ko'rsatilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda ham qariyalar soni ko'payib, ular uchun turmush darajasi tobora yaxshilanmoqda, ya'ni nafaqa miqdori yildan yilga oshirilmoqda, maxsus davolanish markazlari, sanatoriya va dam olish uylari tashkil qilinmoqda va hakazo. Biolog olimlarning hisob-kitob-lariga qaraganda odam o'z umri davomida potensial aqliy qobiliyatining ko'pi bilan 30% ni sarflar ekan xolos. Tibbiyot ilmining asoschisi, buyuk alloma Abu Ali ibn Sino "Kishi keksargan sari beli, qo'l va oyoqlaridan kuchi ketsa-da, aqlu idroki tobora to'lishib boradi» deb e'tirof etgan. Shunday ekan ularni asrab avaylash, ulardagi aqliy imkoniyatlardan iloji boricha to'liqroq foydalanish chora-tadbirlarini ko'rish kunning muhim vazifalaridan biridir. Bu borada ularning to'g'ri (ratsional) ovqatlanishi muhim omil hisoblanadi. Qariyalarning me'yoriy ovqatlanishi bo'yicha tegishli tavsiyanomalar mavjud bo'lsada, ulardan Respublikamiz sharoitida to'liq ravishda unumli foydalanish ancha qiyin. Chunki har bir xudud o'zida mavjud oziq-ovqat mahsulotlari, ularning zaxirasi, tarkibi, sifati bilan aynan o'ziga xos xususiyatlariga ega. Qayd qilish mumkinki, 60-74 yoshli erkaklarda oqsilga bo'lgan talab 87 % ga, yog'larga 107 % ga, uglevodlarga esa 128 % ga qondirilgan. Xuddi shu ko'rsatgichlar ushbu yoshdagi ayollarda quyidagicha ko'rinish olgan: oqsillar 81 %, yog'lar 96 %, uglevodlar 120 %. 75-90 yoshli ayollarda ham asosiy oziq moddalarga bo'lgan talab me'yorida qondirilmagan: oqsillar 70 %, yog'lar 74,5 % va uglevodlar 118 %. Xuddi shu yoshdagi erkaklarda bu raqamlar tegishli ravishda 75; 80,6 va 105 % ga teng ekani kuzatuvlar davomida aniqlandi. Demak, asosiy oziq moddalar ichida oqsillar va yog'larga bo'lgan talab keksalarda yetarlicha qondirilmagan. Shunga o'xshash holatlarni vitaminlar va mineral moddalar misolida ham kuzatish mumkin. 60-74 yoshli erkaklarning kunlik ratsionida eng kam miqdordagi vitaminlar sirasiga D (71,2 %), V1 (71,4 %) va V12 (75,3 %) larni kiritish mumkin. Mineral moddalardan esa ko'proq Sa (82,3 %) va Fe (81,6%) yetishmasligi kuzatiladi. Xuddi shu yoshdagi ayollarning kunlik ratsionida vitaminlar va mineral moddalar miqdori ham me'yoridan kamroq. Masalan, D (72,8 %), V1 (72,3 %) kabi vitaminlar hamda kalsiy (71 %), fosfor (76%) va temir (76,2 %) kabi mikroelementlardir. 75-90 yoshli tekshiriluvchilarda esa ba'zi bir asosiy va qo'shimcha oziq moddalarga bo'lgan talab yanada pastroq qondirilgan. Masalan, shu yoshdagi erkaklarda oqsillarga bo'lgan talab 75 % ga, yog'larga bo'lgan talab 80,6 % ga qondirilgan. Uglevodlarga bo'lgan talabning qondirilishi esa 105 % ni tashkil etadi. Ayollarda esa ushbu oziq moddalarga bo'lgan talab quyidagicha: oqsillar 70 %, yog'lar 74,5 % va uglevodlar 118 %.

Ushbu guruhdagi kishilarning ba'zi vitaminlar va mineral moddalarga bo'lgan talabi ham yetarlicha bo'lmagan. Xususan erkaklarda D (67 %), A (78 %) va Ye (77,3 %) vitaminlar, kalsiy (66 %), temir (71 %) kabi mikroelementlar, ayollarda esa D (56 %), V1 (65,4) va V12 (63,6 %) vitaminlar, kalsiy (58 %), temir (65 %) kabi mikroelementlar me'yoridan ancha kam qabul qilingan. Ushbu holatlarning izohi haqida shuni ta'kidlab o'tish mumkinki, keksa kishilar organizmida yuzaga keladigan bir qator o'zgarishlar ularning ovqatlanish xususiyatlariga ta'sir etmay qolmaydi. Masalan, ularda oshqozon-ichak yo'lidagi funksional faoliyatlarining sezilarli darajada susayishi iste'mol qilingan oziq moddalarning hazmlani-shini qiyinlashtiradi. Sekretor faoliyatning buzilishi oziq moddalarning parchalanishini susaytirs, motor faoliyat ularning ichaklar bo'ylab harakatini qiyinlashtiradi, so'rilish jarayonining buzilishi esa parchalangan oziq moddalarning ichaklardan qonga o'tishini yomonlashtiradi. Keksa kishilarning ovqatlanish holatiga ularda umumiy moddalar va energiya almashinuvinining susayganligi ham ta'sir etmasdan qolmaydi. Umuman olganda keksa organizmlarda ontogenetik taraqqiyot davomida yuzaga keladigan turli morfologik va funksional o'zgarishlar ularning ovqatlanish holatiga jiddiy darajada ta'sir ko'rsatadi.

Keksa kishilarning ushbu ovqatlanish tamoyillariga rioya qilishlari ularning uzoq umr ko'rishlarida, aqliy va jismoniy ish qobiliyatlarini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Keksa kishilar maksimal darajada jismoniy ish qilganlarida yurak urish, nafas olish funksiyalari unchalik kuchaymaydi. Veloergometrda maksimal yuklama bajarish yosh organizmda kislorod o'zlashtirilishini 4,4 l/min gacha olib borsa, keksa odamlarda bu ko'rsatkich 2,1-2,5 l/min. dan oshmaydi. Ularda yurak urish chastotasi ham unchalik oshib ketmaydi. Bir tadqiqotchi maksimal ish bajarish bilan yurak urish sonini o'lchab, 36-70 yosh orasida o'zida tajriba o'tkazib borgan. Natija shuni ko'rsatganki, 36 yoshli paytida maksimal ish bajarish oqibatida yurak urish chastotasi 172 ga ko'tarilgan bo'lsa, 70 yoshga kelib bunday yuklama yurak urishini 150 gacha ko'targan, xolos.

Keksalar uchun eng yaxshi jismoniy mashqbu siklik o'rta quvvatli ishdur (unchalik og'ir bo'lmagan davomli yurish, chopish, velosiped haydash, suzish va boshqalar). Bunday harakatlar yana suyak-musku bo'g'inlarini ham mustahkamlab, ularning davomli ishlashini ta'minlaydi. Bu yoshda statik kuchlanishdan (og'irlik ko'tarish, biron noqulay holatda uzoq vaqt turib qolish) saqlanish kerak.

Keksalar tomonidan bajariladigan jismoniy mashqlar ularning yoshi hamda alohida xususiyatlarini hisobga olgan holda bo'lishi kerak. Mana shunday qilinganda ularning yurak qon tomirlari, nafas olish tizimi ishlari hamda moddalar va energiya almashinuvi yaxshilanib boradi. Bundan tashqari surunkali jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish atrofiyalana boshlagan muskullarni o'z massasiga qaytaradi, tanada harakatlar koordinatsiyasini mukammallashtiradi [2].

Keksayish jarayoni shaxsning o'rta yoshdan qari yoshlilar guruhiga o'tishi bilan xarakterlanadi.

Jismoniy tarbiya nazariyasida umumiy pedagogik prinsiplar (onglilik, faollik, tushunarlilik, ko'rgazmalilik) bilan bir qatorda maxsus ya'ni jismoniy tarbiyaning o'ziga xos qonuniyatlarini ifodalovchi prinsiplar ham mavjud.

Bular:

- shaxsni har tomonlama barkamol rivojlantirish prinsipi;
- jismoniy tarbiyaning hayot bilan bog'liqligi prinsipi;
- jismoniy tarbiyaning sog'lomlashtiruvchi yo'nalganligi prinsipi;
- uzluksizlik va tizimlilik;
- jismoniy yuklama va dam olishning mutanosibligi;
- rivojlantiruvchi, mashq qildiruvchi harakatlarni asta-sekin kuchaytirib borish;
- mashg'ulotlarni bosqichma-bosqich tashkil etish;
- jismoniy mashg'ulotlarning yosh davrlariga mosligi;

Jismoniy tarbiya prinsiplaridan tashqari sport mashg'ulotlarining ham xususiy prinsiplari mavjud:

- yuqori darajadagi yutuqlarga erishishga yo'naltirilganlik,

- umumiy va maxsus tayyorgarlikning birligi,
 -maxsus dasturlar asosida mashg'ulotlar jarayonining uzluksizligi,
 -jismoniy yuklamalarni kuchaytirib borishda izchillik va ma'lum chegeralarga rioya qilish [3].

Keksalar bilan sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni o'tkazishda ularning motivatsiyasini hisobga olish nihoyatda zarur. Motivatsiyadan mashg'ulot shakli va unda qo'llaniladigan metodlar va vositalarning yoqimlilik va xohish-istak asosida tashkil etilishi bog'liq bo'ladi.

Keksa yoshdagi insonlar uchun muskullarni rivojlantirish, ularning kuch sifat imkoniyatlarini kengaytirish, turli musobaqalarda, marafonlarda qatnashish unchalik ham qiziqtmaydi, ammo ular hayotda yashashning asosiy boyligi bu sog'lik ekanligini tushungan holda, mashg'ulotlardan organizmlari uchun faollik, yaxshi kayfiyat, holsizlikning oldini olish kabi holatlarning hosil bo'lishini istaydilar.

Bu keksalar bilan istalgan jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil etishning asosiy va muhim prinsipi hisoblanadi. Keksalar o'z navbatida jismoniy madaniyat tizimida o'ziga xos "maxsus kishi"lar hisoblanib, keksalarning individual xususiyatlarini hisobga olish prinsipi buzilganda, ular bilan optimal harakat faoliyati tizimini rivojlantirish maqsadida olib boriladigan mashg'ulotlar sog'lik uchun xavfli va zararli bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Aleksandrova M.D. Starenie: sotsialno-psixologicheskiy aspekt // Psixologiya starosti i stareniya: Xrestomatiya / Sost. O.V. Krasnova, A.G. Liders. - M.: Akademiya, 2003. -s. 189.
2. **Alperovich V.** *Problemy stareniya: Demografiya, psixologiya, sotsiologiya.* - M.: Astrel; AST, 2004. - 352 s.
3. **Amosov N.M.** *Fizicheskie uprajneniya // Preodolenie starosti.* - M.: Bud zdorov, 1996. -s. 45.
4. Anisimov V.N. Sredstva profilaktiki prejdevreemennogo stareniya (geteroprotektory) // "Uspehi gerontologii". — 2000. — Вып. 4. — S. 275 -277.
5. Ансыферова L.I. Psixologiya starosti: osobennosti razvitiya lichnosti v period pozdney vzroslosti. // Psixol. j. — 2001. — t. 22, № 3. — S.Z -15.
6. Artyunina G. P. Osnovy meditsinskix znaniy i zdorovogo obraza jizni. – Pskov, 2009. – Akademicheskii proekt. – 766 s.
7. Veselkova I.N., Zemlyanova Ye.V. Problemy zdorovya i mediko-sotsialnogo obslujivaniya pojilyx lyudey // Psixologiya starosti i stareniya: Xrestomatiya / Sost. O.V. Krasnova, A.G. Liders. - M.: Akademiya, 2003. - S.289-294.
8. Vinogradov P.A., Dushanin A.P., Joldak V.I. Osnovy fizicheskoy kultury i zdorovogo obraza jizni. – M.: Sovetskiy sport, 1996. – 588 s.
9. **Gamezo M.V., Gerasimova V.S., Gorelova G.G., Orlova L.M.** *Vozrastnaya psixologiya: Lichnost ot molodosti do starosti.* - M., 1999. -s.467.
10. Davidovskiy I.V. Gerontologiya. — M.: Meditsina — 1966 — s. 300.
11. Dubrovskiy V. I. Lechebnaya fizkultura i vrachebnyy kontrol: Ucheb. dlya stud. vyssh. ucheb. zavedeniy. – M.: Meditsinskoe informatsionnoe agentstvo, 2006. – 600 s.
12. Donsov V. I., Krutko V. N., Podkolzin A. A. Starenie: mexanizmy i puti preodoleniya. - M.: 1997. - 176s.

INGLIZ TILI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada muammoli ta'lim texnologiyasining shakllanishi, pedagogik xususiyatlari va komponentlari nazariy jihatdan tahlil etilgan. Hamda muammoli ta'lim texnologiyalarini ingliz tilini o'qitish jarayonida samarali qo'llash bo'yicha metodikalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ekspressiv va retseptiv ko'nikma, illyustrativ ta'lim, integral asos, zamonaviy gnoseologiya, psixologiya, didaktika, kibernetika, nutqiy kompetensiya.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПРОВЕДЕНИЯ ПРОБЛЕМНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ОБУЧЕНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. В данной статье теоретически анализируются формирование, педагогические особенности и компоненты технологии проблемного обучения. В статье обсуждаются методики эффективного применения проблемных технологий обучения в процессе преподавания английского языка.

Ключевые слова: экспрессивные и рецептивные навыки, иллюстративное обучение, интегральная основа, современная эпистемология, психология, дидактика, кибернетика, речевая компетенция.

DIDACTIC CHARACTERISTICS OF IMPLEMENTING PROBLEM-BASED LEARNING TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH

Annotation. This article theoretically analyzes the formation, pedagogical characteristics, and components of problem-based learning technology. And the article discusses methodologies for effectively applying problem-based learning technologies in the process of teaching English.

Keywords: expressive and receptive skills, illustrative teaching, integral basis, modern epistemology, psychology, didactics, cybernetics, speech competence.

Bugungi zamonaviy ta'limni interfaol metodlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Dars mazmunini ochib beruvchi faol usullar ham talabaga ham pedagogga amaliy ko'makchi vazifasini o'tamoqda. An'anaviy darsdan farqli o'laroq metodlar dars jarayoniga jon kiritib, eng muhimi talaba ongni o'stirmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda o'qituvchiga, yosh avlodni tarbiyasiga katta imtiyoz va imkoniyatlar berilmoqda. Shu sababli oliy ta'lim oldida talaba yoshlar jamoasiga bilimli, ma'naviyatli hamda o'zbek millatiga xos tafakkurga ega bo'lgan yoshlarni qabul qilish, ularni zamonaviy bilim bilan qurollantirish va yuqori ma'noda buyuk inson darajasiga yetkazish kerakdir. Buni bajarishda fan o'qituvchilarining xizmati munosib o'rindadir. Har bir fan o'qituvchisi o'z fani bo'yicha mukamal bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. Ingliz tili o'qituvchisi fanga oid bilimlar va o'qitishning amaliy uslublaridan tashqari bolalarning yoshiga qarab psixologiyasini bilishi va oldindan bilim berishning hamma bosqichlarini amalga oshirish texnikasini mukammal egallashi kerak. Ingliz tili fanining didaktik asoslarini shakllantirib, bilimni berish umumiy uslublarini bolalar yoshlarini hisobga olib, o'zining hayotiy tajribasiga asoslanib bilimni yetkazishi lozim. Pedagog o'z tajribasini rivojlantirishda boshqalar tajribalarini quruq nusxa qilmasdan, o'zining tajribasi bilan to'ldirishi zarur va natijada o'quv jarayoni mukamallashadi chunki har bir inson o'ziga xos uslub va shaxsiy dunyoqarashga xislatlarga ega. Fanni o'qitishda turli o'qitish metodlari, texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanish,

o'quvchi va talaba yoshlarda bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda samarali asos bo'la oladi. Bundan tashqari, respublikamizda ko'plab taniqli olimlar mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan, ilmiy asoslangan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim tizimi amaliyotida qo'llashga intilmoqda.

Muammoli ta'lim texnologiyasining asosiy maqsadi bilim oluvchilarning mustaqilligi va faolligini oshirish, tafakkurini rivojlantirish, o'zlashtirilgan bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishini kuchaytirishdan iborat. Pedagogik-psixologik adabiyotlarda muammoli ta'limning ilmiy-nazariy asoslari haqida gap borganda, uni ta'lim metodi, prinsipi yoki alohida tizim deb hisoblash holatlari uchraydi. Muammoli ta'limni qanday nomlashdan qat'iy nazar, uning asosiy xususiyati - bilim oluvchining aqliy faolligini oshirish, mustaqil ijodiy izlanish, o'zi uchun yangi bilim, ko'nikma va malakalarni kashf etishdan iborat. Ma'lumki, muammoli ta'lim 20-asr boshlarida (J. Bruner, K. Dunker, J. Dyui, G. Polya va boshqalar), xorijiy (V. Okon) va mahalliy tadqiqotchilar (A. V. Brushlinskiy, A.A. Verbitskiy, T.V. Kudryavtsev, I.Ya. Lerner, M.I. Maxmutov) nazariy asoslarini ishlab chiqish orqali paydo bo'lgan. Olimlar o'z tadqiqotlarida muammoli vaziyatni fikrlash jarayonining boshlanishi deb belgilab, bu jarayonning bosqichlarini ko'rib chiqdilar (S.L. Rubinshteyn), fikrlash va o'rganishda muammoli vaziyatning rolini o'rgandilar (A.M. Matyushkin), muammoli vaziyatlarning turlarini ishlab chiqdilar, (A.V. Brushlinskiy, T.V. Kudryavtsev, V.T. Kudryavtsev, A.M. Matyushkin, M.I. Maxmutov), muammoli vazifalarning tasnifi (V. Okon), muammoli vaziyatlar tizimi, muammolar va muammoli vazifalar (I.Ya. Lerner) va boshqa ko'plab jihatlari o'rganib chiqdilar. Shunday qilib, muammoli ta'lim nazariyasida tadqiqotchilarni qiziqtirgan masalalardan biri A.M. Matyushkin tomonidan belgilangan muammoli vaziyat tushunchasini tahlil qilishda ob'ekt (ob'ektdagi noma'lum) va sub'ekt (sub'ektning kognitiv va kommunikativ ehtiyojlari va imkoniyatlari) pozitsiyasidan kelib chiqib o'rganib chiqqan.

Muammoli ta'lim texnologiyasini chet tilini muammoli o'qitishning birligi sifatida, xususan, chet tili grammatikasini o'qitishda samarali qo'llash mumkin. Grammatikani til tizimida strukturaviy-semantik tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, chet tilini muammoli o'qitishning o'ziga xos ob'ekti sifatida tavsiflash mumkin. Grammatika tafakkurni rivojlantiradi va ongni tartibga soladi, chunki uning qoidalari va algoritmlari bor. Grammatik hodisalar shakli, ma'nosi va qo'llanilishiga ega bo'lib, ularning o'zaro bog'liqligi turli tillarda o'quv jarayonida aniqlangan qarama-qarshiliklarni aniq ko'rsatishi mumkin.

Shunga ko'ra, o'quv muammosini hal qilish jarayonida qarama-qarshilik yo'q qilinadi, uni yo'q qilish orqali o'quv materialining samarali rivojlanishi (to'g'rilik, hajm, shakllarning xilma-xilligi mezonlariga ko'ra) sodir bo'ladi.

V. Okon muammoli ta'limning ta'rifini muammoli ta'limni samarali o'qitish usuli sifatida talqin etar ekan, muammoli ta'lim bilimlarning barqarorligini saqlashga imkon beradi, ko'nikma, malaka va kognitiv qiziqishni rivojlantiradi, shuningdek, katta tarbiyaviy ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Muammoli ta'lim samaradorligi haqida gapirar ekan, A.M. Matyushkin, xuddi V. Okon kabi, bu mashg'ulotning tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatadi. Muallif ta'kidlaganidek, muammoli ta'lim sharoitida assimilyatsiya jarayoni to'xtaydi. Faqat intellektual jarayon bo'lib, shaxsiy jarayonga aylanadi. Shuning uchun u bizga ta'lim va tarbiya jarayonini, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini va talabaning dunyoqarashini shakllantirish jarayonini birlashtirishga imkon berishini ta'kidlaydi. [1]. Shu bilan birga, A.M. Matyushkin muammoli o'qitishning katta samaradorligiga qaramay, undan foydalanish mutlaq bo'lishi mumkin emas deb hisoblaydi. Shunday qilib, A.M. Matyushkin shunday yozadi: "Muammoli o'qitish usulini psixologik asoslash va uning pedagogik samaradorligini o'rganish hech qanday holatda o'qitishning barcha sharoitlari va turlari uchun uning mutlaqligiga olib kelmasligi kerak. Shu bilan birga, shunga qaramay, boshqa o'qitish usullaridan farqli o'laroq, muammoli o'qitish usuli nomini saqlab qolish juda muhim" [2]. I.Ya. Lerner ta'limning zamonaviy kontseptsiyalarini o'rganar ekan. Muammoli ta'lim g'oyalariga e'tibor berilmasa, yo'nalishlarning hech biri zamonaviy o'quv jarayonini to'liq shaklda qura olmaydi" deb ta'kidlaydi. Shuning uchun muammoli ta'lim butun ta'limning integral asosi hisoblanadi. Shunga ko'ra, muammoli ta'lim uchta funktsiyani bajarishi kerak:

- 1) ijodiy salohiyatni rivojlantirish va ijodiy faoliyat tuzilmalarini shakllantirish;
- 2) bilim va faoliyat usullarini ijodiy o'zlashtirish;
- 3) zamonaviy fan usullarini ijodiy egallash.

Ushbu funktsiyalarni amalga oshirish muammoli ta'lim usullari (turlari) yordamida bajariladi albatta. Shu munosabat bilan I.Ya. Lerner shunday deb yozadi: "Haqiqiy amaliyot o'qituvchi va talaba uchun o'ziga xos harakat tizimi, ya'ni o'qitish usullari bilan tavsiflangan muammoli ta'limning uch xil turini keltirib chiqaradi". Shuni ta'kidlash kerakki, olim shu nuqtai nazardan usul va turni sinonim sifatida ishlatadi. Shunday qilib, I.Ya. Lerner muammoli ta'limning uchta usulini ajratib ko'rsatadi:

- 1) muammoni taqdim etish;
- 2) qisman izlash yoki evristik usul;
- 3) tadqiqot usuli.

Muammoli ta'limni hisobga olgan holda, T.V. Kudryavtsev shunday yozadi: "O'zining muhim xususiyatlariga ko'ra fikrlash jarayonini modellashiruvchi va faol qidiruv xarakteriga ega bo'lgan o'quv jarayonini tushuntirish - illyustrativ ta'lim turidan farqli ravishda muammoli ta'lim deb atash mumkin. Muammoli ta'lim talabalar uchun muammoli vaziyatlarni yaratish (tashkil etish), bu vaziyatlarni talabalar va o'qituvchilarning birgalikdagi faoliyati jarayonida birinchisining maksimal mustaqilligi va ikkinchisining umumiy rahbarligi ostida tan olish va hal qilishdan iborat" [3].

A.V. Brushlinskiyning fikricha, muammoli "o'qitish usuli talabani "kashfiyotchi", "tadqiqotchi" holatiga olib kelish, uning uchun mumkin bo'lgan savollar va muammolarga duch kelishga qaratilgan". A.V. Brushlinskiy muammoli ta'limni "rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, chunki u insonning aqliy rivojlanishining umumiy darajasini sezilarli darajada oshiradigan" o'qitish metodi sifatida ta'riflaydi. [4].

M.I.Maxmutov muammoli ta'lim turi va tizimi sifatida ta'riflab, muammoli ta'lim "muammoli vaziyatlar tizimi bilan belgilanadigan o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro bog'liq faoliyatning alohida turi ekanligini ta'kidlaydi. Bu mashg'ulot zamonaviy gnoseologiya, psixologiya, didaktika, sotsiologiya, kibernetika va pedagogik amaliyot yutuqlari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan texnika va o'qitish metodlari tizimi bilan ajralib turadi. Bu didaktik tizimning yangiligi shu faktga asoslanadi. Shu paytgacha o'z-o'zidan va intuitiv, amaliy o'rganish jarayonida qo'llanilgan muammoli bilimlarni o'zlashtirish printsiplari ongli ravishda qo'llaniladigan printsiplarga aylanadi, uning qat'iy mustahkamlovchi xususiyati ta'siri ostida didaktik printsiplar tizimining funktsional maqsadi o'zgaradi.

Muallifning fikricha, muammoli ta'lim turi "barcha ta'lim-tarbiya muammolarini hal eta olmaydi, shuning uchun u ta'lim jarayonini tashkil etishning har xil turlari, usullari va shakllarini o'z ichiga olgan butun ta'lim tizimini o'rnini bosa olmaydi. Ammo umumiy ta'lim tizimi muammoli ta'limsiz chinakam rivojlana olmaydi sababi uning asosini muammoli vaziyatlar tizimi tashkil etadi" [5].

O'z navbatida V.T. Kudryavtsev quyidagi ta'rifni beradi: " muammoli ta'lim - rivojlantiruvchi ta'lim turi bo'lib, uning mazmuni turli darajadagi murakkablikdagi muammoli vazifalar tizimi bilan ifodalanadi. Bunday muammolarni hal qilish jarayonida talabalar o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatida va uning umumiy rahbarligida yangi bilim va harakat usullarini o'zlashtiradilar va bu orqali - ijodiy qobiliyatlarni, ya'ni samarali fikrlash, tasavvur qilish, kognitiv motivatsiya, intellektual his-tuyg'ularni shakllantiradilar " [6].

Muammoli ta'limning mohiyatini T.A. Ilyina birinchi navbatda talabaning kognitiv faoliyati jarayonining tashkiliy tuzilishida ko'radi. Shu sababli, uning fikricha, "muammoli ta'lim boshqa metodlar doirasida qo'llanilganligi sababli uni maxsus o'qitish usuli (I.Ya.Lerner fikricha) ham, qandaydir yangi o'qitish tizimi (M.I.Maxmutov) sifatida ham ko'rib bo'lmaydi. Bu masala bo'yicha, bizning fikrimizcha, M.N. Skatkin buni o'qitishni tashkil etishga alohida yondashuv deb hisoblaydi, bu birinchi navbatda talabalarning kognitiv faoliyati tabiatida namoyon bo'ladi". [7] Shunday qilib, pedagogik nuqtai nazaridan muammoli ta'lim yondashuv (T.A.Ilyina), metod

(A.V.Brushlinskiy, I.Ya.Lerner, A.M.Matyushkin, V.Okon), ta'lim turi va tizimi (V.T.Kudryavtsev, T.V.Kudryavtsev, M.I.Maxmutov) sifatida izohlanadi.

S.F. Shatilovga ko'ra chet tili grammatikasini o'qitish mazmuni umuman chet tilini o'qitish mazmuni kontekstida ko'rish mumkin. Chet tilini o'qitish mazmunining tarkibiy qismlari, S.F.Shatilovning fikricha, til materiali, uni ishlatish qoidalarini bilish materiali, ko'nikma va malakalar, matnlar mavzulari, talabalarning hissiy sohasini tarbiyalashdan iborat. Grammatikani o'qitishning asosiy maqsadi, S.F. Shatilov, "talabalarda nutq, tinglash, o'qish va yozish ko'nikmalarining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida grammatik nutq malakalarini shakllantirish" [8]. S.F. Shatilov grammatik ko'nikmalarni nutq faoliyatining ekspressiv - nutq va yozish va retseptiv – o'qish va tinglash turlarida ko'rib chiqadi.

Bir qator tadqiqotchilar grammatikani o'qitishda P.Ya. Galperinning aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasiga asoslangan yondashuvga asoslanadi. Chet tillarini o'qitishda aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasini qo'llash, L.V. Skopova ko'nikma va malakalarni shakllantirishning uch bosqichini aniqlaydi: tanishish, o'qitish, amaliyot [9]. Birinchi bosqich o'qituvchi tomonidan olib boriladigan evristik suhbat yordamida talabalarning harakatlari uchun indikativ asos yaratishga qaratilgan. Ikkinchi bosqich individual operatsiyalarda, so'ngra operatsiyalar guruhida mashq qilinadigan grammatik ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlaydi. Uchinchi bosqich o'qituvchi tomonidan taklif qilingan suhbat mavzusi doirasida muloqot sharoitida ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan. Shunday qilib, L.V. Skopova nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni bosqichma-bosqich shakllantirish haqida gapiradi, balki evristik suhbat yordamida grammatik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonida bevosita muammoli yondashuvni amalda qo'llash xususiyatlarini ochib beradi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, ingliz tilini o'qitishda talabalarda grammatik va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyasining turli xil metodlaridan unumli foydalanish o'qitish samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Quyida evristik intervyu metodi bo'yicha namuna keltiramiz.

Sizning muxbir do'stingiz musiqachidan intervyu olishi kerak. Do'stingiz sizdan yordam so'raydi. Unga intervyu savollarini yaratishga yordam bering va keyin maqola yozing.

- Interviewer: ...?
- Dennis: I was 5 years old when I began to work on my music.
- Interviewer: ... ?
- Dennis: I don't remember much about it. I remember singing at the top of my voice, dancing with real joy and working too hard for a child.

- Interviewer ... ?
- Dennis No, I didn't. I had no time to play with other children.
- Interviewer: ... ?
- Dennis: I made my first record 10 years ago and it didn't do very well. But my next record reached number one.

- Interviewer: ...?
- Dennis: I read books, go to the swimming pool, watch soap operas.

Shunga ko'ra, ingliz tilidagi suhbatni evristik savol-javoblar orqali davom ettirilishi asosida nutqiy ko'nikmalarini samarali rivojlantirish mumkin

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, pedagogik jihatdan ingliz tilini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasi komponentlari o'qituvchi uchun - talabalarning tafakkurini faollashtirish, bilish qobiliyatini, qiziqishini va motivatsiyasini rivojlantirish, talabalarning bilim faoliyatini boshqarish vositasi, o'quv materialini talabalar tomonidan o'zlashtirilishini nazorat qilish vositasi sifatida xizmat qilsa, talaba uchun - fikrlashni faollashtirish uchun stimul, o'quv materialini o'zlashtirish va kognitiv qobiliyatni rivojlantirish usuli va o'quv materialining o'zlashtirilishini o'z-o'zini nazorat qilish usuli sifatida namoyon bo'ladi.

1. Матюшкин А.М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении/ А.М. Матюшкин. - М.: Педагогика, 1972. - 95 с.
2. Матюшкин А.М. Актуальные вопросы проблемного обучения // Послесловие к кн. В. Оконя. Основы проблемного обучения. - М.: Просвещение, 1968. -200 с.
3. Кудрявцев Т.В. Психология технического мышления (процесс и способы решения технических задач)/ Т.В. Кудрявцев. - М.: Педагогика, 1975. - 281с.
4. Брушлинский А.В. Психология мышления и проблемное обучение/ А.В. Брушлинский // Новое в жизни, науке и технике. Сер. «Педагогика и психология. - М.: Знание, 1983. - № 6. - 91 с.
5. Махмутов М.И. Проблемное обучение: основные вопросы теории/ М.И. Махмутов. - М.: Педагогика, 1975. - 337 с.
6. Кудрявцев В.Т. Проблемное обучение: истоки, сущность, перспективы/ В.Т. Кудрявцев. - М.: Знание, 1991. - 49 с.
7. Ильина Т.А. Проблемное обучение - понятие и содержание/ Т.А. Ильина // Вестник высшей школы. - М., 1976 - №2. — 47с.
8. Шатилов С.Ф. Методика обучения немецкому языку в средней школе/ С.Ф. Шатилов. - М.: Просвещение, 1986. - 108 с.
9. Скопова Л.В. Методика обучения грамматике французского языка в 5-6 классах средней школы: Автореф. дис. канд. пед. наук: 13.00.02 / Л.В. Скопова; Московский гос. Пед. ун-т. - М., 1994. - 7 с.

MAKTABDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Bugungi kunimizni internet va axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Shunday ekan, o'quvchilarning darsga har tomonlama qiziqishini oshirish, ayniqsa maktab darslarida har bir fan o'qituvchisi o'z mutaxassisligi bo'yicha axborot texnologiyalari yutuqlaridan foydalanishi zarur. So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi barcha sohalarida yangi yondashuvlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Xususan, ta'lim va pedagogik texnologiyalar sohasida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanish bo'yicha tajriba to'planmoqda.

Kalit so'zlar: Informatika va axborot texnologiyalari darsligi, sun'iy intellekt, axborot texnologiyalari, Internet, umumiy o'rta ta'lim.

ПРИМЕНЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФОРМАТИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ШКОЛЕ

Аннотация. Трудно представить наш сегодняшний день без Интернета и информационных технологий. Поэтому, чтобы повысить интерес учащихся к урокам во всех аспектах, особенно на школьных занятиях, каждый учитель-предметник должен использовать достижения информационных технологий по своей специальности. В последние годы развитие технологий искусственного интеллекта привело к появлению новых подходов во всех сферах. В частности, накапливается опыт использования элементов искусственного интеллекта в сфере образования и педагогических технологий.

Ключевые слова: учебник информатики и информационных технологий, искусственный интеллект, информационные технологии, Интернет, общее среднее образование.

APPLICATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN TEACHING INFORMATION TECHNOLOGY AT SCHOOL

Abstract. It is difficult to imagine our present day without the Internet and information technologies. Therefore, in order to increase students' interest in lessons in every aspect, especially in school classes, every subject teacher should use the achievements of information technology in his specialty. In recent years, the development of artificial intelligence technologies has led to the emergence of new approaches in all fields. In particular, the experience of using elements of artificial intelligence is being accumulated in the field of education and teaching technologies.

Key words: textbook of computer science and information technology, artificial intelligence, information technology, Internet, general secondary education.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ilm-fan va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir davrda, ta'lim tizimining transformatsiyasi muhim zaruratga aylanmoqda. Xususan, informatika va axborot texnologiyalari (AT) sohaları insoniyat hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib kelganligi bois, ularni maktab o'quv dasturlariga chuqur integratsiya qilish, o'quvchilarning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ularning ta'lim sohasiga ta'siri ushbu fanlarni o'qitish jarayoniga yangicha yondashuvlarni joriy etish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Sun'iy intellekt (AI – Artificial Intelligence) — bu inson aql-idroki, fikrlashi, o'rganishi, muammoni hal qilishi, qaror qabul qilishi, tilni tushunishi kabi intellektual faoliyatlarni bajarishga qodir bo'lgan dasturiy yoki texnik tizimdir.

Akademik ta'rifga ko'ra, sun'iy intellekt — bu:

"Inson aqliga xos faoliyatlarni avtomatlashtirishga mo'ljallangan matematik va dasturiy model asosidagi texnologiyalar majmuasidir."

Sun'iy intellektning turlari

Sun'iy intellekt uch asosiy turga ajratiladi:

Kuchsiz (narrow AI / ANI) – faqat bitta vazifani bajarishga ixtisoslashgan (masalan, ovoz tanish, yuzni aniqlash, shaxmat o'ynash).

Kuchli (general AI / AGI) – inson kabi umumiy aqlga ega bo'lib, turli muammolarni hal qila oladi (hozircha nazariy bosqichda).

Super intellekt (superintelligence) – inson aqlidan ancha ustun bo'lgan, faraziy texnologik bosqich.

Sun'iy intellektning asosiy yo'nalishlari:

Yo'nalish	Tavsifi
Mashinali o'rganish (ML)	Kompyuter tizimining tajriba orqali o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyati
Chuqur o'rganish (DL)	Neyron tarmoqlar asosida murakkab naqshlarni aniqlash
Kompyuter ko'rishi	Tasvir va videoni analiz qilish va anglash
Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)	Inson tili bilan ishlash, tarjima, chatbotlar yaratish
Ekspert tizimlar	Ma'lumotlar bazasiga asoslangan tahliliy qaror tizimlari
Rejalashtirish va optimallashtirish	Qarorlar qabul qilish, muammolarni hal etish
Robototexnika	Sun'iy intellekt asosida ishlaydigan mexanik qurilmalar

Sun'iy intellektidan foydalanish sohalari

Ta'limda – moslashtirilgan o'quv dasturlari, avtomatik baholash, virtual o'qituvchilar.

Tibbiyotda – kasalliklarni erta aniqlash, genetik tahlil, davolash ssenariylari.

Transportda – avtomatik boshqaruv tizimlari, yo'l harakati oqimini bashorat qilish.

Sanoatda – aqlli ishlab chiqarish liniyalari, nosozlikni prognozlash.

Moliyaviy sohada – kredit tahlili, firibgarlikni aniqlash, algoritmik treyding.

Huquq va xavfsizlikda – yuzni tanish, kuzatuv tizimlari, jinoyat tahlili.

Sun'iy intellektning afzalliklari

Yuqori aniqlik va tezlik bilan katta hajmdagi axborotni qayta ishlaydi.

Charchamaydi, xatolik darajasi juda past.

Yangi bilimlarni mustaqil o'rganish imkoniyatiga ega (o'z-o'zini o'rgatuvchi tizimlar).

Odamlar uchun xavfli yoki og'ir ishlarni bajaradi (masalan, kosmosda, shaxtalarda).

Kamchilik va xavf-xatarlar

Etik muammolar – masalan, AI qarorlarining shaffof emasligi.

Ish o'rinlarini qisqartirish – avtomatlashtirish natijasida ayrim kasblar yo'qolishi mumkin.

Nazoratdan chiqish ehtimoli – kuchli SI nazorat qilinmasa, global xavfga aylanishi mumkin.

Ma'lumotga bog'liqlik – noto'g'ri ma'lumotlar asosida noto'g'ri qarorlar qabul qilinishi mumkin.

Sun'iy intellekt XXI asrning eng ilg'or texnologiyalaridan biri bo'lib, jamiyatning deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. U inson faoliyatining ko'plab jabhalarida samaradorlikni oshiradi, avtomatlashtirishni kuchaytiradi va yangi innovatsion imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarining mas'uliyatli va nazorat ostida qo'llanilishi, etik va huquqiy me'yorlar asosida rivojlantirilishi zarur. Yaqin yillarda SI texnologiyalarining ta'siri yanada ortib boradi va u butun insoniyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biriga aylanadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida informatika va axborot texnologiyalarini o'qitish nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga, balki ularning tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, algoritmik tafakkur va ijodiy yondashuv kabi muhim kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday texnologiyalar o'quv jarayonining interaktivligini, moslashuvchanligini va samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida individual yondashuvga asoslangan o'quv modeli, adaptiv baholash, avtomatik topshiriqlar tuzish, gamifikatsiya, virtual laboratoriyalar, muloqotli botlar kabi sun'iy intellekt yechimlari katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim siyosatida raqamli texnologiyalarni joriy etish, sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha konsepsiyalar va davlat dasturlarida ko'rsatilgan ustuvor yo'nalishlar aynan shu yo'nalishda faol harakatlarni amalga oshirishga undamoqda. Bu esa maktab bosqichida informatika va AT fanlarini sun'iy intellekt vositalari bilan boyitishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Biroq, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston maktablarida sun'iy intellekt texnologiyalarini informatika darslarida joriy etish hali ham tizimli yondashuvni, metodik asoslarni, texnologik infratuzilmani va o'qituvchilarning malakasini rivojlantirishni talab etmoqda. O'qituvchilarning ko'pchiligi ushbu texnologiyalarni chuqur tushunmasligi, ularni darsga integratsiya qilish metodikasining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, o'quv materiallarining sun'iy intellekt asosidagi formatda yetarli emasligi – bu boradagi asosiy muammolar sirasiga kiradi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu ilmiy maqolada umumta'lim maktablarida informatika va axborot texnologiyalari fanini sun'iy intellekt vositalari orqali o'qitish imkoniyatlari, metodik yondashuvlar, amaliy mexanizmlar, texnologik yechimlar, o'quvchilar bilimlarini baholash va motivatsiyasini oshirishdagi afzalliklar keng yoritiladi. Bundan tashqari, maqolada sun'iy intellekt asosidagi o'quv muhitlarini loyihalash, mavjud platformalar (ChatGPT, Scratch AI, Google Teachable Machine, Canva AI va b.)dan foydalanish metodikasi, o'qituvchilar malakasini oshirish muammolari va hal etish yo'llari tahlil qilinadi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi, birinchidan, umumta'lim maktablarida raqamli savodxonlik darajasini oshirish, zamonaviy kasblar uchun zarur bo'lgan IT va SI ko'nikmalarini erta bosqichdan shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj bilan belgilanadi. Ikkinchidan, bu sohada hali yetarlicha ilmiy-metodik asoslar ishlab chiqilmaganligi, ayniqsa, sun'iy intellektni dars jarayoniga to'laqonli integratsiyalash bo'yicha milliy tajriba yetishmasligi bilan bog'liq.

Shuningdek, maqolada zamonaviy pedagogik konsepsiyalar – konstruktivizm, konnektivizm, blended learning, adaptiv ta'lim kabi yondashuvlar kontekstida sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi tahlil qilinadi. Nazariy asos sifatida sun'iy intellektning ta'limdagi modellari (ITS – Intelligent Tutoring System, AIED – Artificial Intelligence in Education) va ularning informatika faniga moslashuvi asoslab beriladi.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda sun'iy intellekt asosida informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishning quyidagi muhim jihatlari birinchi marta kompleks yondashuvda yoritiladi:

Informatika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalarining didaktik-motivasion ahamiyati;

O'quvchi shaxsini rivojlantirishda SI texnologiyalarining moslashuvchanligi va individual yondashuvga imkon beruvchi afzalliklari;

O'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar va AI vositalaridan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish modeli;

SI asosida avtomatlashtirilgan baholash tizimlari va ularning samaradorlik tahlili;

Eksperimental maktablar misolida sun'iy intellekt qo'llanilgan darslarning ta'siri va sifat ko'rsatkichlari.

Shu orqali maqola nafaqat ilmiy-nazariy masalalarni tahlil qiladi, balki amaliy metodik yondashuvlar, real o'quv muhiti misolida sinovdan o'tkazilgan tajribalar asosida taklif va tavsiyalarni ishlab chiqadi.

Umuman olganda, ushbu maqola informatika va axborot texnologiyalari ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalarining samarali qo'llanilishi bo'yicha ilmiy, nazariy va metodik asoslarni

chuqur tahlil qilish, amaliy takliflar ishlab chiqish, mavjud muammolarga yechim taklif etish, shuningdek, milliy ta'lim tizimida raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda yangi yondashuvlarni ilgari surishga qaratilgan.

Asosiy qism. Maktab Informatika va axborot texnologiyalari kursida 8-sinfda SMM(Ijtimoiy media marketing), bobi o'qitiladi. Mazkur bob 5 ta yangi mavzu, 5 ta amaliy topshiriqdan iborat.

O'qituvchi yangi mavzularni tushuntirishda odatda darslikdagi materiallardan foydalanadi. Darslikdan tashqari ma'lumotlardan foydalanish mavzuni yanada qiziqarli bo'lishi hamda o'quvchilar faolligiga ijobiy ta'sir qilishi mumkin. Yangi mavzuni tushuntirish uchun o'quv materiallarini tayyorlashda o'qituvchi SI dasturlaridan g'oyalar so'rashi va tavsiya qilingan ma'lumotlardan foydalanishi mumkin. Masalan, Chat GPT dasturidan "Maktabda informatika va axborot texnologiyalari darsligida SMM da platformalar bilan ishlashda Facebook tarmog'ini tushuntirishda qanday g'oyalardan foydalanish mumkin?", deb so'ralganda sun'iy intellekt tomonidan quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Bredingizni ommaviy tarmoqlarda tashkil etish: O'quvchilar Facebook tarmog'ini o'rganish orqali o'zlarining brendlarini yaratish va uni ommaviy tarmoqlarda qo'llashni o'rganishlari mumkin. Bu g'oya, ularning brendlarini ko'rsatish, kompaniya haqida ma'lumotlar taqdim etish, mahsulotlarni ko'rsatish va mijozlar bilan aloqada bo'lish imkonini beradi.

2. Reklama kompaniyalari o'rnatish: O'quvchilar Facebook tarmog'ini o'rganish orqali reklama kompaniyalarni o'rnatishni o'rganishlari mumkin. Bu g'oya, ularning tuzilgan ma'lumotlarga e'tibor qaratib, reklama xabarlarini yaratish, ajratilgan auditoriyaga yo'naltirish va kompaniya natijalarini baholash imkonini beradi.

3. Mijozlar bilan aloqada bo'lish: O'quvchilar Facebook tarmog'ini o'rganish orqali mijozlarning talablarini tushunish va ular bilan interaksiya qilishni o'rganishlari mumkin. Bu g'oya, ularning so'rov-javoblar bilan aloqada bo'lish, sharhlar qoldirish va mijozlarni qiziqtirish imkonini beradi.

4. Statistik ma'lumotlarni analiz qilish: O'quvchilar Facebook tarmog'ini o'rganish orqali statistik ma'lumotlarni ko'rish va analiz qilishni o'rganishlari mumkin. Bu g'oya, ularning qancha odamning sahifaga kirganini, qancha odamning maqolalarni ko'rganini, qancha odamning reklamalarni ko'rganini va boshqalarini o'rganishga yordam beradi.

5. O'quvchilarning o'zlashtirish proyektlarini amalga oshirish: O'quvchilar Facebook tarmog'ini o'rganish orqali o'zlarining o'zlashtirish proyektlarini amalga oshirishlari mumkin. Bu g'oya, ularning o'zlarini tanitish va ommaviy tarmoqlarda turli proyektlarni ko'rsatish imkonini beradi.

Shuningdek, Facebook tarmog'ining foydalanishini o'quvchilarga amaliy mashg'ulotlar orqali o'rgatish, virtual darslar, vebinarlar va qo'shimcha onlayn materiallardan foydalanish kabi usullar bilan ta'minlash mumkin. Bu usullar orqali o'quvchilar Facebook tarmog'ini amaliy ravishda tushunishadi va uni o'zlarining SMM bilan ishlashida qo'llashadi [1,2].

Bundan tashqari sun'iy intellektidan mavzuni tashkil etish bo'yicha ham yoki o'quvchilarga mavzu yuzasidan mustahkamlash uchun qo'shimcha savollar so'rash va yana shu mavzuga doir masalalarni ham so'rash mumkin. Masalan mavzuni tashkil etish bo'yicha, ya'ni darsni qanday tashkil etishni ko'rib chiqaylik. Bunda SI bizga quyidagi tavsiyalarini berdi.

1. Maqsad va mavzu belgilash: Darsni o'qituvchi o'quvchilarga maqsad va mavzuni tushunishini ta'minlashi kerak. Maqsadlar darsning umumiy maqsadini ifodalash va o'quvchilarga qaysi mavzulardan foydalanishni ko'rsatish orqali aniqlanishi mumkin.

2. Rejalashtirish: Darsni to'liq rejalashtirish juda muhimdir. Darsning boshlanishi, o'rtasi va oxirgi qismi uchun belgilangan vaqtlarni belgilash, faoliyat turlarini tartibga solish, o'quvchilarni qatnashishni va hamkorlik qilishlarini tashkil etishga intilish kerak.

3. O'quv materiallari: Dars davomida ishlatiladigan o'quv materiallarini tayyorlash va tashkil etish juda muhimdir. Bu o'quvchilarni qiziqtirish, o'rganishni oshirish va materialni qulaylik bilan o'rganishlarini ta'minlash uchun kerak.

4. Interaktivlik va amaliyotlar: Darslarning interaktiv va amaliyot asosida bo'lishi o'quvchilarning qatnashishini oshiradi. O'quvchilarning fikrlash, masalalar yechish, guruh ishlarida ishtirok etish vaqtlarini tashkil etish juda muhimdir.

5. O'quvchilarning baholash va ma'lumotlarni baholash: Darsning oxirida o'quvchilarni baholash, ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish va o'quvchilarga yordam berish uchun vaqt ajratish ham juda muhimdir. Bu, o'quvchilarning o'zlarining nima o'rganishlarini tushunish, qanday yordam kerakligini bilish va yuqori natijalarga erishishlariga yordam beradi [3-8].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda SI texnologiyalari barcha sohalarida bo'lgani kabi umumiy o'rta maktablarda informatika va axborot texnologiyalari fanida ham ta'lim sifatini tubdan o'zgartirish va o'quvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish uchun o'zining juda katta hissasini qo'sha oladigan texnologiya sanaladi. Bu texnologiyalar kelajakda barcha sohalariga kirib borib, ularni yanada yaxshilashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Informatika va axborot texnologiyalari": umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik: M. R. Fayziyeva, D. M. Sayfurov. - Toshkent: "Tasvir", 2020. - 112 b.
2. Mustafoev U.R., Narzullayev U.A. Comparative Analysis of 6th Grade Natural Science Textbooks of Uzbekistan and Turkey// International Journal of Formal Education 2:3 (2023), p. 114-120.
3. Mustafoev O'R. 6-sinf "Tabiiy fan" darsligida namoyishli tajribalarning o'rni va roli//Innovations in technology and science education 2:17 (2023), p. 253-261.
4. Daminov M.I., Mustafoev O'R. Fizikadan maktab o'quvchilari uchun zamonaviy darsliklar yaratishda xorij tajribasidan foydalanish//ta'lim sifatini oshirish: muammo, yechim va istiqbol 1:1(2020), p. 683-685.
5. M.I. Daminov, S.K. Kakhkhorov, U.R. Mustafayev Studying the basis of nanotechnology in the school program physics// scientific reports of bukhara state university 3:4(2020), p. 320-324.
6. Jabborova, G. S. (2022). Vektor fazolarda operatorlar va ularning asosiy xossalari haqida. Science and Education, 3(11), 17-32.
7. Jabborova G.S. Hayitova X.G'. (2023) "Uchburchakli panjarada aniqlangan diskret Shryodinger operatorining xossalari" Tadqiqotlar jahon ilmiy – metodik jurnali, 6(14), 118-126.
8. Mustafoev O'R. (2024). Maktab fizika darslarida o'quvchilar faolligini oshirishda Sun'iy intellektning o'rni. Pedagogik akmeologiya, 2(10), 218-221.
9. Selwyn, N. (2019). *Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education*. Polity Press.
10. Luckin, R. et al. (2016). *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education*. Pearson Education.
11. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. Center for Curriculum Redesign.
12. Russell, S., & Norvig, P. (2021). *Artificial Intelligence: A Modern Approach* (4th ed.). Pearson.
13. Woolf, B. P. (2010). *Building Intelligent Interactive Tutors: Student-Centered Strategies for Revolutionizing E-Learning*. Morgan Kaufmann.
14. Yu, Z., & Hwang, G.-J. (2022). *Developing an AI-based self-regulated learning model to improve students' learning performance*. Computers & Education, 181, 104452.
15. OECD. (2021). *AI and the Future of Skills, Volume 1: Capabilities and Assessments*. OECD Publishing.
16. Sa'diev, O. (2021). Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt vositalarining ahamiyati. O'zbek tilida ilmiy-texnikaviy jurnali, 1(12), 85–90.
17. Tan, C.W. et al. (2022). *AI-supported formative assessment in secondary schools: a systematic review*. Computers and Education: Artificial Intelligence, 3, 100066.

UMUMIY O'RTA TA'LIMDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH TEKNOLOGIYALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish sifatini oshirish jarayonida rejalashtirish va loyihalashtirish texnologiyasining o'rni va ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Pedagogik jarayonni samarali tashkil etishda ta'lim maqsadlari, metodlari, vositalari va natijalarini tizimli yondashuv asosida belgilash zarurligi asoslanadi. Xulosa sifatida, umumiy o'rta ta'limda rejalashtirish va loyihalashtirish texnologiyalarini samarali tatbiq etish o'qituvchilar kompetensiyasini oshirish, o'quvchilarni xalqaro talablar darajasida tayyorlash va ta'lim sifatini kafolatlashda muhim metodologik asos ekani ta'kidlandi.

Kalit so'zlar: umumiy o'rta ta'lim, ta'lim sifati, rejalashtirish, loyihalashtirish texnologiyasi, pedagogik jarayon, innovatsion metodlar, xalqaro standartlar.

ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЩЕМ СРЕДНЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В данной статье на научной основе анализируются роль и значение планово-проектных технологий в процессе повышения качества образования в общеобразовательных школах. Обосновывается необходимость определения целей, методов, средств и результатов образования на основе системного подхода в эффективной организации педагогического процесса. В заключении отмечено, что эффективное внедрение планово-проектных технологий в общее среднее образование является важной методической основой повышения компетентности педагогов, подготовки учащихся на уровне международных требований и обеспечения качества образования.

Ключевые слова: общее среднее образование, качество образования, планирование, проектно-проектные технологии, педагогический процесс, инновационные методы, международные стандарты.

TECHNOLOGIES FOR MANAGING THE QUALITY OF EDUCATION IN GENERAL SECONDARY EDUCATION

Abstract. This article analyzes the role and importance of planning and design technology in the process of improving the quality of education in general secondary schools on a scientific basis. The need to determine the goals, methods, means and results of education based on a systematic approach in the effective organization of the pedagogical process is justified. In conclusion, it was noted that the effective implementation of planning and design technologies in general secondary education is an important methodological basis for improving the competence of teachers, preparing students at the level of international requirements and guaranteeing the quality of education.

Keywords: general secondary education, quality of education, planning, design technology, pedagogical process, innovative methods, international standards.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimining asosiy maqsadi nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash va innovatsion qarorlar qabul qilish ko'nikmalariga ega barkamol shaxs sifatida tayyorlashdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan ta'limga oid davlat dasturlari, xususan,

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va Milliy o’quv dasturi konsepsiyasi umumiy o’rta ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan keng ko’lamli islohotlarni ko’zda tutadi. Bu jarayonda o’qitish sifatini rejalashtirish va loyihalashtirish texnologiyalarini tatbiq etish muhim metodologik asos bo’lib xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida rejalashtirish - bu o’quv dasturlari, dars rejasi va metodik yondashuvlarni tizimli ravishda ishlab chiqish jarayoni bo’lsa, loyihalashtirish texnologiyasi o’quvchilarning o’zlashtirish jarayonini natijaga yo’naltirilgan tarzda tashkil etish usulidir. Jahon tajribasi shuni ko’rsatadiki, rejalashtirilgan va loyihalashtirilgan ta’lim jarayoni o’quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ularning o’zlashtirish samaradorligini ta’minlaydi va xalqaro ta’lim standartlariga mos keladigan natijalarni kafolatlaydi. Shu bois, mazkur maqolada umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’qitish sifatini rejalashtirish va loyihalashtirish texnologiyasining mohiyati, afzalliklari va amaliy natijalari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Adabiyotlarni o’rganilganlik darajasi. Mustaqillik yillarida yurtimizning yetakchi pedagog olimlari M.S.Saidov bolalar tafakkuriga mo’ljallab tuzilgan o’quv topshiriqlarini ona tili ta’limiga tatbiq qilish yo’llari, T.T.G’aniyev ona tilidan mashq bajarish jarayonida o’quvchilarning bilish faolligini oshirish masalalarini tadqiq qilgan. Shuningdek, tadqiqot mavzusiga yaqin ishlar sifatida olimlardan o’quvchilarning o’quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, ta’limda o’quvchilarning faolligi va mustaqilligini tarbiyalash muammosi I.A.Allayorov, O.R.Roziqov, R.Ibragimov, B.R.Adizov, M.H.Mahmudovlar tomonidan tadqiq etilgan. Respublikamizda ta’lim-tarbiya jarayoni, uning sifatini boshqarish masalalari R.X.Djurayev, R.Sh.Ahliddinov, U.I.Inoyatov, N.Muslimov, M.B.Urazovalar tomonidan tadqiq etilgan.

Metodologiya. So’ngra, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, loyiha asosida o’qitish, kompetensiyaga yo’naltirilgan yondashuv, differensial ta’lim va raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatlari o’rganildi.

Shuningdek, xalqaro baholash dasturlarining (PISA - o’quvchilarning savodxonligi bo’yicha xalqaro tadqiqot, TIMSS - matematika va tabiiy fanlardan bilimlarni baholash, PIRLS - boshlang’ich sinf o’quvchilarining o’qish savodxonligini baholash) natijalari asosida ta’lim sifatini rejalashtirish va loyihalashtirishning samaradorlikka ta’siri o’rganildi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida o’quvchilar bilan loyiha asosida ta’lim tashkil etildi. Masalan, biologiya fanida “Atrof-muhitni muhofaza qilish”, geografiyada “Mintaqamiz tabiiy resurslari”, informatika fanida esa “Raqamli texnologiyalar hayotimizda” mavzularida loyihalar amalga oshirildi. Ushbu jarayonlar o’quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, mustaqil fikrlash va amaliyotga tatbiq etish ko’nikmalarini shakllantirish imkonini berdi.

Tahlil va natija. Umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’qitish sifatini rejalashtirish va loyihalashtirish texnologiyasi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi eng muhim omillardan biridir. Chunki zamonaviy pedagogika nazariyasi va amaliyotida ta’lim sifatini boshqarish, uni aniq reja asosida tashkil etish va shu rejalarni loyiha ko’rinishida ishlab chiqish orqali natijaga erishish g’oyasi yetakchi o’ringa ega. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida o’quv jarayonini faqat an’anaviy dars metodlari asosida tashkil etish yetarli emas, balki ta’limning har bir bosqichida maqsad, vazifa, vosita, metod va kutilayotgan natijalarni aniq belgilash, ularga erishish strategiyasini ishlab chiqish va ularni monitoring qilish zarurdir. Shu sababli rejalashtirish va loyihalashtirish texnologiyasi o’qituvchilar, ta’lim menejerlari va metodistlar uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

O’qitish sifatini rejalashtirishning asosiy mohiyati ta’lim jarayonini tizimli yondashuv asosida qurishdan iboratdir. Bunda o’quvchi shaxsining rivojlanishi, bilim olish dinamikasi va ta’limiy ehtiyojlari markaziy o’rinda turadi. O’quv rejalari va dasturlarining mazmuni davlat ta’lim standartlari asosida shakllansa-da, uni amalda samarali qo’llash ko’proq o’qituvchi kompetensiyasiga bog’liqdir. Rejalashtirishning muhim bosqichlaridan biri o’quv dasturlarida ko’zda tutilgan bilim, ko’nikma va malakalarni bosqichma-bosqich egallash mexanizmlarini ishlab chiqishdir. Masalan, matematika fanidan funksiyalar mavzusini o’qitishda o’qituvchi faqat nazariy bilimlarni yetkazish bilangina cheklanib qolmasligi, balki ularni amaliy vazifalar bilan

bog'lab rejalashtirishi lozim. Bunda o'quvchi o'zlashtirish jarayonida analitik fikrlash, masala yechish, modellashtirish, mantiqiy umumlashtirish kabi ko'nikmalarni ham shakllantiradi.

Loyihalashtirish texnologiyasi esa ta'lim jarayonini natija yo'naltirilgan shaklda tashkil etish imkonini beradi. Har bir loyiha ma'lum maqsadga erishishni ko'zda tutadi va u o'quv jarayonining yakuniy samaradorligini kafolatlaydi. Maktab ta'limida loyiha asosida ishlash o'quvchilarni mustaqil izlanishga, ijodiy fikrlashga va jamoada ishlashga o'rgatadi. Masalan, biologiya fanidan "Ekologik muammolar va ularning yechimlari" mavzusida loyiha tayyorlash jarayonida o'quvchilar ekologik vaziyatni o'rganadi, ma'lumotlarni tahlil qiladi, tadqiqot natijalarini taqdim etadi va o'z takliflarini ishlab chiqadi. Bu jarayon nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Loyihalashtirish texnologiyasi o'quv jarayonida integratsiyani ham talab etadi. Fanlararo bog'lanish asosida tuzilgan loyihalar o'quvchilarda keng qamrovli dunyoqarashni shakllantiradi. Masalan, "Raqamli texnologiyalar hayotimizda" mavzusidagi loyiha informatika, matematika, texnologiya va hatto ijtimoiy fanlar bilan integratsiyada amalga oshirilishi mumkin. Bu esa ta'limning samaradorligini yanada oshiradi.

Shuningdek, rejalashtirish va loyihalashtirish texnologiyasida ota-onalar hamkorligi ham muhim ahamiyatga ega. Ota-onalarning ta'lim jarayoniga jalb qilinishi, ularning fikrlari va takliflarini inobatga olish o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Shu bilan birga, maktab va jamiyat o'rtasidagi hamkorlik ham loyihalashtirishning muhim qismidir. Chunki ta'lim sifati faqat maktab doirasida emas, balki keng ijtimoiy makonda shakllanadi.

O'qitish sifatini rejalashtirish va loyihalashtirish texnologiyasi kelajakda ta'lim tizimini innovatsion yo'nalishda rivojlantirish uchun ham asos bo'ladi. Chunki u o'quvchilarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini shakllantiradi, ularni kreativ fikrlashga, muammolarni hal qilishga, yangilik yaratishga yo'naltiradi. Shu ma'noda, mazkur yondashuv ta'lim jarayonining raqobatbardoshligini ta'minlash, barkamol shaxsni shakllantirish va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Demak, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish sifatini rejalashtirish va loyihalashtirish texnologiyasi o'quv jarayonining barcha bosqichlarini tizimli ravishda boshqarishga imkon beradi. U nafaqat o'qituvchi faoliyatining samaradorligini, balki o'quvchilar bilim olish jarayonining sifatini ham kafolatlaydi. Bu yondashuv o'quvchining shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ta'lim mazmunini yangilash, zamonaviy metodlarni joriy etish va natijada ta'lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli rejalashtirish va loyihalashtirish texnologiyasi umumiy o'rta ta'limda barqaror rivojlanish va yuqori natijadorlikka erishishning eng muhim metodologik asosi sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish sifatini rejalashtirish va loyihalashtirish texnologiyasini samarali tatbiq etish nafaqat ta'lim mazmunini boyitadi, balki o'quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini shakllantiradi. O'qituvchi bu jarayonda markaziy shaxs bo'lib, u faqat bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonining tashkilotchisi, motivatori va baholovchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida ta'lim sifatini ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki bugungi globalashuv davrida o'quvchilarni faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy faoliyatga yo'naltirish, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va hayotiy kompetensiyalar bilan qurollantirish talab etiladi [1]. Shu bois o'qitish sifatini rejalashtirish va loyihalashtirish texnologiyasi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Rejalashtirish pedagogik jarayonni tizimli tashkil etishni anglatadi. O'qituvchi dars rejasi, ta'limiy maqsadlar va metodlarni puxta ishlab chiqishi natijasida o'quvchilar bilim olish jarayonida bosqichma-bosqich rivojlanadi. Har bir fan bo'yicha o'quv dasturlarini rejalashtirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik ehtiyojlari va individual imkoniyatlari inobatga olinishi lozim [2].

Loyihalashtirish texnologiyasi esa ta'lim jarayonini natijaga yo'naltirilgan shaklda tashkil etishni taqozo etadi. O'quvchilar dars jarayonida mustaqil izlanish, tadqiqot olib borish, statistik

ma'lumotlarni tahlil qilish va amaliy yechimlarni ishlab chiqish orqali faol ishtirok etadilar. Masalan, biologiya fanidan "Ekologik muammolar" mavzusida loyiha tayyorlagan o'quvchilar atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq masalalarni o'rganib, o'z takliflarini ilgari suradilar [3].

Ta'lim sifatini oshirishda interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar va xalqaro baholash dasturlari bilan uyg'unlashtirilgan rejalashtirish va loyihalashtirish texnologiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, PISA va TIMSS tadqiqotlari natijalariga ko'ra, loyiha asosida o'qitilgan o'quvchilar mustaqil fikrlash va amaliy masalalarni yechishda yuqori natijalarga erishgan [4].

Biroq bu jarayonda ayrim muammolar ham mavjud: barcha o'qituvchilar yetarli darajada loyiha asosida ishlash ko'nikmalariga ega emas, raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatlari chegaralangan va ota-onalarning hamkorligi yetarli emas [5]. Shu sababli, o'qituvchilar malakasini oshirish, ta'lim jarayonini raqamlashtirish va maktab-jamiat hamkorligini kuchaytirish zarur.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosi to'g'risidagi tasavvurlarni umumlashtirish o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirishning tarkibi, pedagogik amaliyotdagi o'rni, uni hal etish kabi qator savollar mazkur mavzuning o'rganilishiga metodik asos vazifasini bajaradi. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosi tashkiliy tizim bo'lib, o'ziga xos qator sifatlariga ega: eng avvalo, ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish didaktika va xususiy metodika fanlari sohasida o'tkaziladigan tadqiqotlar bilan uzviy bog'liq [8].

Demak, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish sifatini rejalashtirish va loyihalashtirish texnologiyasi o'quvchilarni xalqaro standartlarga mos darajada tayyorlash, ta'lim samaradorligini oshirish va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi barkamol shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish sifatini rejalashtirish va loyihalashtirish texnologiyasi ta'lim samaradorligini oshirishning eng muhim metodologik asoslaridan biridir. Tadqiqot natijalariga ko'ra, rejalashtirish jarayonining tizimliliigi, loyiha asosida o'qitishning natijaga yo'naltirilganligi va innovatsion metodlarning qo'llanishi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka va hayotiy kompetensiyalarga yo'naltiradi. Shuningdek, xalqaro baholash dasturlari tajribasi rejalashtirish va loyihalashtirish texnologiyalarini keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Shu sababli, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qituvchilarni tayyorlash, o'quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish va ta'lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish orqali o'qitish sifatini yangi bosqichga ko'tarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - Toshkent: TDPU, 2021.
2. Ziyomammedov B. Pedagogik innovatsiyalar va ta'lim sifati. - Toshkent: Fan, 2020.
3. Jonbekov I. O'qitishda loyiha metodidan foydalanish. - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2019.
4. OECD. PISA 2018 Results. - Paris: OECD Publishing, 2019.
5. Mullis I.V.S., Martin M.O. TIMSS 2019 International Results in Mathematics and Science. - Chestnut Hill, MA: IEA, 2020.
6. PIRLS 2021 International Results in Reading. - Boston: IEA, 2022.
7. Xo'jayev Q. Pedagogik psixologiya. - Toshkent: Universitet, 2022.
8. Хамроев А.Р. Она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштириш: Педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент : Бухоро давлат университети, 2020. – 42 б.

Shermatova Uljamol Shopulat qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi
uljamol2193@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning zamonaviy metodik asoslarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Ekologik muammolarning kuchayib borishi yosh avlodda ekologik ong, mas'uliyat va madaniyatni erta bosqichda shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Muallif maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik-pedagogik xususiyatlarini inobatga olgan holda ekologik tarbiyaga oid samarali metod va vositalarni tahlil qiladi hamda ularni o'quv jarayoniga integratsiyalash bo'yicha takliflar beradi. Shuningdek, dars va darsdan tashqari faoliyatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan o'yinli, amaliy, axborot texnologiyalariga asoslangan yondashuvlar asoslab beriladi. Maqola maktab boshlang'ich ta'lim tizimida ekologik tarbiyani kuchaytirishga xizmat qiladi va pedagoglar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, ekologik ong, metodik asoslar, darsdan tashqari faoliyat, o'quvchilarni tarbiyalash, innovatsion metodlar, tabiatga mehr, ekologik faoliyat, o'yinli metodlar, amaliy mashg'ulotlar.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИЧЕСКИХ ОСНОВ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В данной статье освещаются вопросы совершенствования современных методических основ формирования экологической культуры у учащихся начальных классов. Усиление экологических проблем вызывает необходимость формирования экологического сознания, ответственности и культуры у подрастающего поколения с раннего возраста. Автор статьи анализирует эффективные методы и средства экологического воспитания с учетом психолого-педагогических особенностей младших школьников и предлагает пути их интеграции в образовательный процесс. Также обоснованы подходы, основанные на игровых, практических и информационно-технологических методах, которые можно применять как на уроках, так и во внеурочной деятельности. Статья способствует укреплению экологического воспитания в системе начального образования и имеет практическое значение для педагогов.

Ключевые слова: Начальное образование, экологическое воспитание, экологическая культура, экологическое сознание, методические основы, внеурочная деятельность, воспитание учащихся, инновационные методы, любовь к природе, экологическая деятельность, игровые методы, практические занятия.

IMPROVING THE METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF FORMING ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. This article explores the issues of improving modern methodological foundations for the formation of ecological culture among primary school students. The growing severity of environmental problems highlights the need to foster ecological awareness, responsibility, and culture in the younger generation from an early age. The author analyzes effective methods and tools of ecological education, taking into account the psychological and pedagogical characteristics of primary schoolchildren, and offers proposals for their integration into the educational process. In addition, the article substantiates approaches based on play-based, practical, and information technology methods that can be used both in lessons and

extracurricular activities. The article contributes to strengthening ecological education in the primary school system and has practical significance for educators.

Key words: *Primary education, environmental education, ecological culture, ecological awareness, methodological foundations, extracurricular activities, student upbringing, innovative methods, love for nature, ecological activities, play-based methods, practical exercises.*

Kirish. Dunyoda tabiatni muhofaza qilish jahon hamjamiyatining muhim global muammosiga aylandi. Jumladan, o'tgan davr mobaynida dunyo jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh qilish barobarida, insonlarga ekologik barqaror hayot sharoitini yaratish har bir davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ayni paytda ekologik inqiroz va halokatlar oldini olishning tarixiy zaruriyati bu qarashlarni nazariy ong darajasiga ko'tardi. Shu munosabat bilan umumbashariy, mintaqaviy va mahalliy ekologik xavf, uning kelib chiqish sabablari, inson va tabiat, jamiyat orasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish, ekologik halokatga yo'l qo'ymaslik hozirgi kunning muhim muammolaridan hisoblanadi.

Tahlil va natija. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy masala sifatida aholi o'rtasida ekologik madaniyatni yanada keng targ'ib qilishni hamda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ekologik ta'lim-tarbiya berish sifatini yaxshilash, shu o'rinda insonning tabiatga nisbatan ijtimoiy ekologik munosabatlari asosida axloqiy-madaniy mazmunga ega bo'lishi keltirilgan. Mazkur vazifalar umumta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni takomillashtirish mazmunini yanada rivojlantirishni taqozo etadi.

Darhaqiqat, Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni so'zsiz amalga oshirish, Respublika hududlaridagi ekologik muammolar yechimiga ta'lim tizimini yanada rivojlantirish orqali hissa qo'shish, o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik tafakkur va ekologik madaniyatini shakllantirish, ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishdan iboratdir [8].

Xususan, o'quvchi yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish bugungi kunning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Ekologik madaniyatning asosini, shubhasiz, ekologik ta'lim - tarbiya tashkil etadi. Bugungi ekologik holat ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini ya'ni maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib oily ta'lim bosqichlarini ham qamrab oladi. Chunki, muayyan aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ekologik ta'lim - tarbiya natijasida o'quvchi yoshlarning ekologik madaniyatini shakllantirish, ularda tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo'lish malakalarini tarkib toptirish, ekologik madaniyatni tizimli va izchillikda olib borish dolzarb masalalardan biri sifatida nazarda tutish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning ahamiyati nihoyatda beqiyos. Bugungi kunda tabiatdan ongli ravishda foydalanish va o'quvchilar qalbida tabiatga mehr-muhabbat uyg'otish hamda tejamkorlikka o'rgatish muhim sanaladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, yosh avlod qalbida atrof-olamga nisbatan hurmat hissini rivojlantirish muhim jarayon hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida, biz pedagoglar zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi.

O'quvchilarga ekologik madaniyatni singdirishning ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiq etgan holda amaliy - tarixiy bilimlar tizimi bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlash zarur. Bu yondashuv pedagogikada ekologik madaniyatni shakllantirishning zamini bo'lib xizmat qilgan holda, ekologik ta'lim konsepsiyasiga muvofiq tabiat bilan o'zaro munosabatlarni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirishga imkon bergan holda "Ekologik madaniyat" omilining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.

Ekologik madaniyat - bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo'llay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko'rsatkichi, ongli va ma'suliyatli yondashuvdir.

Jumladan, ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni bu - atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik tizim barqarorligini ta'minlash, aholi hayoti va salomatligini saqlash, iqlimning

o'zgarishi, suv resurslarining kamayib ketishi, atmosferaning ifloslanishi, tuproq degradatsiyasi, cho'llashuv jarayonlari bioxilma-xillik va o'rmonzorlarning qisqarishi, tabiiy boyliklarning sifat va miqdorini oshirish va tabiatni muhofaza qilish bugungi kunning ustuvor masalalaridan biri hisoblanadi.

Ekologik madaniyatni o'zlashtirgan o'quvchi o'z faoliyatini atrof-muhitni oqilona boshqarish talablariga bo'ysundiradi, atrof-muhitni yaxshilash to'g'risida g'amxo'rlik qiladi, uning yo'q qilinishiga va ifloslanishiga yo'l qo'ymaydi hamda atrof-muhitga inson tomonidan yetkaziladigan zararlarni kamaytirish borasida zaruriy ishlarni amalga oshiradi. Albatta bu jarayon inson salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatib qolmasdan, bolalarni ham bu borada sog'lom fikr yuritishga undaydi.

Ta'lim jarayonida milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarashni boyitish imkoniyati vujudga keladi. Bu esa ta'lim jarayonini mazmunan takomillashtirish va uning samaradorligini ta'minlashga ko'maklashadi.

Shuningdek, ma'naviyatli inson o'zining hayotiy faoliyati mohiyatini anglovchi, o'z-o'zini tahlil qilishga moslashgan, muntazam ravishda o'zini takomillashtirishga moyil, o'z-o'zini rivojlantirishga intiladigan, aqliy jihatdan o'sishga harakat qiladigan shaxsdir. Uning ehtiyojlari atrof-muhit, tabiiylik, mehr-muhabbat, go'zallikka bo'lgan munosabatini belgilaydi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ekologik madaniyatni takomillashtirish vositasi sifatida maydonga chiquvchi yaratuvchilik nimanidir o'zgartirishga, yangilik yaratishga, fikrlashga majbur qiluvchi ehtiyoj hisoblanib, u o'quvchilarda mustaqil ta'lim olish, ya'ni mustaqil o'rganish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zini- o'zi anglash va o'zligini ifodalashga bo'lgan ehtiyoj o'quvchilarni o'z faoliyatida ma'lum bir ijobiy natijalarga erishish, o'quvchilar jamoasida obro'-e'tibor qozonish, atrof-muhit ta'siri va uni inson salomatligidagi roli borasida harakatga keltiruvchi vosita bo'lib, o'quvchilarda o'zini - o'zi hurmat qilish, o'zligini anglash, o'zini - o'zi boshqarish, o'zini - o'zi tarbiyalash, tozalikka rioya qilish, gigiyenik talablarni amalga bajarish kabi ko'nikmalarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish va takomillashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi vositalardan biri muvaffaqiyatga bo'lgan ehtiyoj bo'lib, bu ma'lum bir vazifalarni mas'uliyat bilan bajarish orqali ko'zlangan natijalarga erishishga xizmat qiluvchi, o'quvchilarda mas'uliyat hissini shakllantirish orqali ijodiy faoliyatga yetaklovchi ehtiyoj hisoblanadi.

Jumladan, N.Bozorovning tadqiqot ishi talabalarda ekologik madaniyatni shallantirishning ilmiy-pedagogik asoslariga bag'ishlangan bo'lib, unda tabiat bilan inson o'rtasida o'zaro oqilona mas'uliyatli munosabat tarkib topadi. Shuningdek, ekologik madaniyatning asosiy tarkibiy qismini ekologik ong tashkil etadi. Ekologik ong inson bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ifodalovchi bilim, tushuncha, tasavvur, munosabat, harakatlari majmui deb ta'kidlaydi.

N.Nishonovning ilmiy-tadqiqot ishlarida ekologik madaniyatga: "Ekologik madaniyat - bu tabiatni muhofaza qilish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, ekologik his-tuyg'ularning shakllanishi, faol hayotiy nuqtai nazarda turish, ekologik bilimga ega bo'lishdan iborat" deb ta'rif beradi va uning shakllanish mexanizmini ekologik bilim, ekologik ong, ekologik madaniyat, ekologik his-tuyg'u, ekologik e'tiqod, ko'nikma, malaka va nihoyat ekologik faoliyat tarzida ko'rsatadi.

Sh.Avezovning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'quvchilarning o'kashunoslik faoliyatini tashkil etish jarayonida ekologik ta'lim-tarbiya mazmuni bo'lib, unda asosiy e'tibor o'quvchilardagi ekologik madaniyat tushunchasining nazariy sharhlanishi va uning o'lkashunoslik ishlari jarayonida shakllantirilishiga qaratilganligi ta'kidlab o'tilgan.

N.Ashurovning ta'kidlashicha, "Ekologik madaniyat" tushunchasi kishilarning tabiatga munosabat darajasini tavsiflaydi. Ekologik madaniyatli kishi tabiatga, atrof - muhitga o'z tuqqan onasidek munosabatda bo'ladi. Shuningdek, tabiatni o'z uyidek ko'radi, uni doimo e'zozlab, toza, musaffo holatda saqlashga harakat qiladi.

Yuqoridagi yondashuvdan kelib chiqqan holda ta'kidlash joizki, tarbiyaning tabiat-muvofiqligi talqinida tashkil etib insonning tabiiy rivojlanishi jarayonida, o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish muhim masalalardan hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchilarning diqqati, xotirasi, individual tipologik xususiyati va fikrlash jarayonining o'ziga xosligini har taraflama o'rganish, tabiiy va ijtimoiy - atrof-muhit birligi, yaxlitligi tamoyiliga muvofiq holda ekologik madaniyatli va ma'naviy qadriyatlarga tayanib ta'lim-tarbiyani tashkil etish bugungi kunning dolzarb malalasidir.

Xulosa. Xususan, ekologik ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion yondashuv tizimi joriy etilsa, insoniyat tabiat, atrof-muhit va kosmos bilan obyektiv zarur darajadagi aloqadorlikka erishish va o'zaro uyg'unlikni shakllantirish mumkin. Tabiat bilan uyg'un yashash, inson uning bir bo'lagi, degan tushuncha va gumanistik g'oyalarni singdiruvchi ta'limning dasturiy tizimi bugungi kunda o'zini oqlamayotgandek, nazarimizda. Tabiiy resurslar haqidagi noto'g'ri tushunchalarning paydo bo'lganligi, tugab - bitmas manba degan yondashuvni ustunlik qilishi va tabiiy elementlarning odamga xayolan bo'ysundirishga bo'lgan intilishning hali ham barham topmaganligi ekologik muvozanatni buzishga, ekotizimlarni yo'q qilishga asos bo'lib qolmoqda.

Suningdek, aholi o'rtasida ekologik madaniyatni tushunchasini keng targ'ib qilish hamda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ekologik tarbiya berish sifatini yaxshilash, aholi salomatligini mustahkamlashda sifat ko'rsatkichlarini yaxlitlashtirish bo'yicha manzilli va maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirish vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalar umumta'lim boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirish mazmunini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shermatova, U. (2024). Ecological Education In Primary Classes Formation Of Pedagogical Conditions Of Development. *World Bulletin Of Social Sciences*, 33, 49-53.
2. Shermatova, U. (2024). Ecological Education Teaching In Primary Class Methodology. *Pedagogical Cluster-Journal Of Pedagogical Developments*, 2(4), 97-105.
3. Uljamol Shermatova. (2023). Development Of Ecological Education In Primary Class. *Open Access Repository*, 9(10), 152–157.
4. Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich Ta'limda Ekologik Xafvsizlik Madaniyatini Takomillashtirish. //Муаллим Хем Узлуксиз Билимлендириў. Илмий-Методикалык Журнал №2 Issn 2181-7138 Некис-2022. -Б. 93-97.
5. Shermatova, U. S. (2024). Boshlang'ich Sinf O'quvchilarida Ekologik Madaniyatni Rivojlantirish Xususiyatlari. *Inter Education & Global Study*, (10), 373-379.
6. Shermatova, U.S. (2024). Boshlang'ich Sinflarda Ekologik Ta'limni Rivojlantirish Metodikasi. *Inter Education & Global Study*, (4 (1)), 50-56.
7. Avezov Sh. Maktabda ekologik tarbiya. -Toshkent: O'qituvchi, 1992. - 62 b.
8. Ашурова Н. Экологическое воспитание учащихся 3-4 классов сельских школ: Автореферат дис... канд. пед. наук. - Ташкент, 1993. -18 с.
9. Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich sinflarda fanlararo ekologik tarbiya. //Zamonaviy ta'lim. - 2018. -11-son. - B. 53-58.

OILAVIY TA'LIM VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Anotatsiya. Maqolada oilaviy ta'limning farzand tarbiyasidagi o'rni , roli va ahamiyati ko'rsatilgan . Uning manbasi , muammo va imkoniyatlari bilan bog'liq masalalar o'rgatilgan

Tayanch tushunchalar. Oilaviy ta'lim , oila xududi , isloxot , tadbir , prinsip , refleks , gen , matsitsa , mo'tabar , fazilat

СЕМЕЙНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ЕГО ОСОБЕННОСТИ

Анотация. В статье рассматривается место, роль и значение семейного образования в воспитании детей. Изучены вопросы, связанные с его источниками, проблемами и возможностями.

Ключевые слова. семейное образование, семейная территория, реформа, мероприятие, принцип, рефлекс, ген, матрица, достоинства , добродетель

FAMILY EDUCATION AND ITS SPECIFIC FEATURES

Annotation. The article highlights the place, role, and significance of family education in child upbringing. It explores issues related to its sources, challenges, dignity.

Key words. family education, family boundaries, reform, event, principle, reflex, gene, matrix, respected, qualities

Ma'lumki , xar bir tamaddun , tarixiy jarayon natijasida -bir tomondan ilm , tafakkur va mexnat ikkinchi tomondan esa tajriba , taxlil va isloxot tufayli barpo bo'ladi. Albatta islohotlar jamiyat faoliyatining barcha jabxalarini shu jumladan ta'lim tizimini ham qamrab olishi darkor. Lekin shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki , oilaning ta'lim-tarbiya platformasi rasman yoki bevosita ma'orifning tizimli ta'lim strukturasi tarkibiga kirmaydi. Shu sababli mazkur ziyo maskani talab va normativlar darajasida meyorlanmagan, yani unda:

Kalendar o'quv rejasini ham, hatto o'quv rejasining o'zi xam tuzilmasida;

O'quvchi , tarbiyachi muallim va boshqa shu turdagi rasmiy lavozimlar yo'q ;

Isloxot , sinov va monitoring nazorati kabi ta'sir instrumentlari ham amalda emas va x.o

Oila ta'limi – oila hududi deb ataluvchi mustaqil anklavda , - asosan ota -onaning sayi-harakatlari bilan amalga oshiriladi.

Oila hududi bu nafaqat moddiy dunyo unsurlaridan tashkil topgan fizikaviy makon , balki inson zotiga ma'naviyat , ma'rifat va madaniyat ulashuvchi ilk ta'lim-tarbiya o'chog'idir.

Ona qornidan boshlab tokim maktabgacha bo'lgan ta'sir va ximoya maydoni har bir farzand uchun , -oila hududi hisoblanadi.

Bu hududning maqomini quyidagilardan anglab olish mumkin:

Ona qornida to'rt oydan so'ng ta'sirni qabul qiluvchi chaqaloq paydo bo'ladi;

Go'dak ilk bor yorug' olamni o'z ko'zi bilan ko'radi;

Tili chiqib , gapiradi.

Dunyo qarashning fundamental ba'zasi shakllana boshlaydi.

Munosabatlar madaniyati va mantiqi vujudga keladi va h.o

Oilaning ilm manbalari :

Ota-ona hamda boshqa yaqin qarindoshlar

Mahalla va muloqotdagi tengdoshlar

Kitob , internet hamda tayyorlov kursklari va h.o

Oilaning individual muhitini yaratuvchi omillar:

Qadriyatlari;

Insoniy munosabatlar madaniyati;

Amaliyotga munosabat : hunar mehnat , sport va h.o

Ota-onaning oilaviy ta'lim doirasidagi asosiy burchlari:

Ta'minotchi : Moddiy va ma'naviy ne'matlar masalasi boyicha ;

Himoyachi : Farzandning jismoniy va qalb dunyosini asrash bo'yicha;

Nazoratchi : Oilaviy ta'lim tadbirlari yuzasidan. . .

Oilaning tub maqsadi :

Farzandning ma'nan va jismonan sog'lom tug'ilishi;

Mukammal ta'lim-tarbiya olib o'sishi

Baxtli-saodatli hayot kechirishi. . .

Oila ta'limi , har bir oilada o'ziga xos turli-tuman , ya'ni individual shaklda amalga oshiriladigan ta'sir va tadbirlar majmuasidan iborat. Lekin , ayni paytda , ularning mazmun mohiyatiga prinsipial mushtaraklik bor. Bu umumlashtiruvchi prinsiplarda akslanadigan haqiqatlarni qisqa lo'nda va eng muhimi sodda ko'rinishda ifodalash mumkin. Zero , haqiqatning asosiy xususiyati bu uning oddiyligida. Insoniyat tarixidagi ulug' mutafakkirlardan bo'lgan Konfutsiy : "Oddiylilik insonning eng yaxshi fazilatlaridan biri " deb ta'kidlagan.(1)

Oilaviy ta'limning faol fazasi ikkita muhim davrni o'z ichiga oladi :

1.Farzandning ona qornidagi chaqaloqlik davri bo'lib , unda oila jamoasi qo'llaydigan asosiy tadbirlarning mazmun-mohiyati taxminan :

"Onaga berganingni oqibatini chaqaloqda topasan !" prinsipiga mos keladi.

Darhaqiqat , ona qornidagi chaqaloq , onaga ko'rsatiladigan har qanday ta'sirni mehrni ham , jabrni ham-birday , to'la-to'kis holidagi qabul qilib oladi. Chunki , bu davrda mazkur ta'surotlarga qarshi to'siq ham , chaqaloqda himoya refleksi ham mavjud bo'lmaydi.

Bundan esa oila jamoasi uchun kelinni ko'z qorachig'idek avaylab asrash hamda lozim darajada parvarishlash majburiyati ayon bo'ladi. Tadbirkor algoritmi ham shunga qarab tuziladi:

Kelinning jismonan salomatligi , ta'minoti , tinchlik-xotirjamligi , ...

Meyorini saqlagan xolda faqat ijobiy tashqi ta'sirlarga yo'l berish ya'ni: tilovati Qur'on , kitob mutoalasi , do'stona suhbat , sokin musiqa , toza havoda sayr , ...

Chaqaloqning rivojlanish bosqichlari bo'yicha vrach va oila nazorati va x.o

Bu mavzuning o'ziga xos nozik jihatlari bor. Mulohazalarga ko'ra , ularni nafaqat ilmiy jamoatchilik uchun , eng avvalo oilaning taynach muallimlari sanalgan ota-onalar uchun oddiy tilda , lekin o'ziga jalb etuvchi mazmun-mohiyat bilan yoritish maqsadga muvofiqdir.

Saxobiylar Payg'ambar (s.a.v) dan quyidagicha savol so'rashdi:

Yo Rasululloh(s.a.v) bolalarimiz xunuk tug'ilayapti. Buning muammosi nedur ?

Kelinlarga behi yediringerlar . Farzandlaringiz chiroyli tug'iladi , deb marhamat qildilar.(2)

Albatta , oila jamoasi bu davrda ona va chaqaloqning tanasi va vujudi bir ekanini , yuraklari esa hamohang urushini aslo unutmasliklari lozim bo'ladi.

2. Go'daklik va bolalik davri. Bolalik-go'daklikdan boshlanadi. Bunday ishchi prinsip: "Yomonini emas-yaxshisini ekan , chunki nimani eksang shuni o'lasan !" shaklida ifodalanishi mumkin. Bu davrda oilaning diqqat e'tibori eng avvalo quyidagi muhim masalalarga qaratilishi lozim bo'ladi:

Mutaxassislarning fikriga ko'ra , go'dak doimo Ota va ayniqsa Onaning mehr muhabbat maydonida bo'lmog'i shart. Chunki bunday ilohiy ne'matni dunyoda boshqa hech bir manba berolmaydi. Shu o'rinda Peterburg universitetining professori , mashhur psixologiya olimi Tat'yana Chernigovskayaning fikrini keltirishni joiz toptik: "Farzand go'daklik chog'ida bog'chaga emas balki ona bag'rida o'sib-ulg'ayishi lozim , chunki faqat Ona uning murg'ak qalbiga muhabbat tuyg'usini uyg'ota oladi. Aynan shu davrda bola onasiga sof tabiiy hissiyot bilan bir umrga bog'lanadi.(3)

Ota-onaga o'zida yo'q fazilatlarini farzandiga beraolmaydi. Lekin ehtiyotsizlik yoki kelib chiqadigan oqibatni anglamaslik natijasida-zulm orqali osongina , go'dakni-qalbi majruh

nogironga aylantirib qo'yilishi mumkin. Hayotda bu jarohat quyidagicha xarakatlar tufayli sodir bo'lishi qayd etilgan: qo'rqitish , aldash , kamsitish , adolatsizlik qilish , kaltaklash va h.o (4)

Albatta , bu mavzular atroflicha o'rganilgan. Olingan natijalar va chiqarilgan xulosalar ham ahamiyatga sazovordir. Aytaylik , mashhur davlat arbobi , boy aristokrat oila vakili bo'lgan Uinston Cherchil quyidagicha fikrni bildirgan: "Ota-ona farzandiga qilishi mumkin bo'lgan eng katta jabr bu-uni hashamatli hayotda o'stirishidir"(5) . Biz bu xulosani "muhtojlik eng kuchli motivatsiya komfort esa yutuqlarning dushmani , " ma'nosida talqin qilsak ayni haqiqat bo'ladi.

Olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatilishicha oddiy bola besh yoshidayoq unga inson sifatida lozim bo'ladigan barcha ma'lumotlar bazasining to'qson foizini o'zlashtirib olishiga ulgurur ekan. Bundan esa ma'naviyat va ma'rifatning ta'mal toshi oila hududida qo'yilishi ravshan bo'ladi. Buyuk rus adibi , donishmand Lev Tolstoyning quyidagi fikri ham yuqoridagi xulosani batamom tasdiqlaydi: "Besh yoshli boladan mengacha atigi bir qadam bor. Ammo yangi tug'ilgan chaqaloqdan o'sha besh yoshli bolagacha son bilan ifodalab bo'lmaydigan qo'rqinchli darajadagi ulkan masofa mavjud"(6)

Shak shubxasiz "ota-onaning farzandiga mehr-muhabbati beqiyos. Ahli ilmlardan ma'lumki , Ona go'dagini dunyoga keltirayotganida jonini garovga qo'yib , o'lim bilan yuzma-yuz olishadi. Agar qazo qilsa shahid bo'ladi. Ota ham bolasi uchun moli-jonini hech ayamaydi.

Hayot esa ota-onadan farzandiga , ayniqsa go'daklik va bolalik davrida mo'tadil ta'lim-tarbiya muhitini yaratib berish bobida ham xuddi ana shunday fidokorlik ko'rsatishlarini talab etadi. Ya'ni har bir ota-ona farzand ustida oilaviy ta'limni munosib tarzda amalga oshirishi uchun o'zining vaqtini , mehnatini va sabrini hech ham ayamaskliklari, shuningdek maxsus tayyorgarlik ko'rishga ham o'zlarida istak va imkon topishlari lozim bo'ladi. Tayyorgarlik jarayoni esa quyidagi tartibda bo'lishi mumkin:

Ijobiy-insoniy sifatlar bo'yicha o'zlarini isloh qilishlari;

Ilmiy jamoatchilik tomonidan tavsiya etilgan minimal bilimni egallash , ya'ni: tegishli adabiyotlar bilan tanishish , malaka kurslarini o'tash , treninglar , ...

Zamonaviy pedagogik tafakkurga asoslanib , ishchi reja tuzib olish va h.o

Ma'lumki , farzandga ota-onadan tabiiy tarzda genlar orqali o'tadigan behisob insoniy xususiyatlar bor:

Bola jismoniy tanasining parametrlari;

Intelлект , xotira , nutq , fikrlash , ta'surot , ...

Instinktlar ... va h.o

Bu xususiyatlarning matritsa , ya'ni gendagi formula holidan inson hayoti dunyosiga transformatsiyalanib , rivojlanish fazasiga o'tishi aynan oila muhitida sodir bo'ladi. Ravshanki , ulardagi fazilat va yoki

Illat sifatleri ham shu muhit bilan bog'liq holda yuzaga chiqadi.

Tizimli ta'lim esa , - oilaviy muhitda kurtak yozadigan bu insoniy sifat va salohiyat novdalarini zamonaviy ilm ne'mati bilan oziqlantirib , balog'atga yetkazadi. Ayni paytda ota-onalarning ta'lim jarayonidagi muallimlik , murabbiylik va menedjerlik malakasi ham tizimli ta'lim manbalari beradigan ilm va odob bilan chuqur bog'liq ekanini unutmash lozim.

Shuningdek oilaviy ta'lim orqali farzandga bevosita singdiriladigan juda ko'p insoniy sifatlar ham bor:

Iymon , e'tiqod , sabr , shukur , hayo , adolat , vatanparvarlik , mehnatsevarlik , kamtarlik , poklik , ... va hk.

Bu qatorning davomi juda uzun . Lekin , misol tariqasida qayd qilingan manashu insoniy fazilatlarining o'zi ham quyidagi qat'iy xulosalarni chiqarishga kifoya qiladi , deb o'ylaymiz:

Barcha ta'lim turlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib , mazkur tizimning poydevorida oilaviy ta'lim bo'g'ini joylashgan;

Oilaviy ta'limni munosib darajada tashkil etish nafaqat oila jamoasining balki butun jamiyatning mo'tabar vazifasi xisoblanadi;

Oilaviy ta'lim beradigan potensial insonning kelajakdagi hayot tarzini hamda jamiyatda egallaydigan nufuzini belgilab beradigan fundamental argumentlardan eng birinchisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Confucius "The Analekts of Confucius". "Columbia University Press". 2007
2. Imom al Buxoriy "Al-jome as-sahih T. , "fan". 1991
3. Т.В.Черниговская. Газета "Психология" Интервью от 13.10.2021
4. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf "Baxtiyor oila". T. , Hilol nashr. 2022
5. Winston Churchill "My Early Life : A Roving Commission. "Augustine's Press" 2025
6. Л.Н.Толстой "Мои воспоминания" М. , Изд. "Юрайт". 2024

Atadjonova Dinora Ulug'bekovna

Urganch davlat pedagogika instituti

maktabgacha ta'lim kafedrası

dotsenti (PhD)

dinoraatadjanova@gmail.com

O'ZLASHTIRMOVCHILIKKA OLIB KELUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarda uchraydigan o'zlashtirmovchilik muammosining psixologik-pedagogik jihatlari yoritilgan. O'zlashtirmovchilikni keltirib chiqaruvchi omillar tahlil qilinib, ularni bartaraf etishning samarali usullari hamda profilaktik choralar ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarga individual yondashuv, motivatsiyani oshirish, ota-ona va pedagog hamkorligini yo'lga qo'yish zaruriyati asoslab berilgan. Tavsiya etilgan metodik va psixologik yondashuvlar o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtirishga, o'zlashtirish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: o'zlashtirmovchilik, psixologik omillar, profilaktika, motivatsiya, individual yondashuv, o'quv faoliyati.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ПРИВОДЯЩИЕ К НЕУСПЕВАЕМОСТИ, И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ

Аннотация. В данной статье освещаются психолого-педагогические аспекты проблемы неуспеваемости, наблюдаемой у школьников. Проанализированы причины неуспеваемости и предложены эффективные способы её устранения, а также профилактические меры. Кроме того, в статье обоснована необходимость индивидуального подхода к учащимся, повышения мотивации, налаживания сотрудничества между родителями и педагогами в образовательном процессе. Предложенные методические и психологические подходы способствуют активизации учебной деятельности и повышению уровня успеваемости учащихся.

Ключевые слова: неуспеваемость, психологические факторы, профилактика, мотивация, индивидуальный подход, учебная деятельность.

PSYCHOLOGICAL FACTORS LEADING TO UNDERACHIEVEMENT AND WAYS TO OVERCOME THEM

Abstract. This article highlights the psychological and pedagogical aspects of underachievement commonly observed among students. It analyzes the causes of underachievement and presents effective methods for its elimination, along with preventive measures. The article also emphasizes the need for an individual approach to students, increasing motivation, and establishing collaboration between parents and educators within the educational process. The recommended methodological and psychological approaches aim to enhance students' learning activity and improve their academic performance.

Keywords: underachievement, psychological factors, prevention, motivation, individual approach, learning activity.

Hozirgi kunda ta'lim tizimidagi eng dolzarb muammolardan biri — bu o'quvchilarning o'quv faoliyatida past ko'rsatkichlarga ega bo'lishi, ya'ni o'zlashtirmovchilikdir. O'zlashtirmovchilik nafaqat o'quv dasturlarini o'z vaqtida o'zlashtira olmaslikni, balki

o'quvchining psixologik holati, motivatsiyasi va shaxsiy xususiyatlaridagi muammolarni ham o'zida aks ettiradi. Bu holatning ildiz sabablari ko'p qirrali bo'lib, ayniqsa psixologik omillar alohida e'tiborni talab etadi.

O'zlashtirmovchilik — bu o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishi natijasida o'quv faoliyatining past darajada bo'lishi holatidir. Bu jarayonda o'quvchining shaxsiy psixologik holati, bilish jarayonlari (xotira, tafakkur, e'tibor, idrok) va emotsional barqarorligi muhim o'rin tutadi. Demak, o'quv faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan psixologik omillarga bog'liq.

O'quvchilarni o'zlashtirmovchilikka olib keluvchi asosiy psixologik omillar quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. Motivatsiya yetishmovchiligi O'quvchining bilim olishga bo'lgan ichki ehtiyoji past bo'lsa, u darslarga befarq bo'ladi, faol ishtirok etmaydi. Rivojlanmagan o'quv motivatsiyasi o'zlashtirish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Emotsional holat va stress Qo'rquv, xavotir, o'ziga ishonchsizlik kabi salbiy emotsional holatlar o'quvchining bilish faoliyatini sustlashtiradi. Oilaviy muammolar, o'qituvchidan qo'rquv yoki sinfdoshlar bilan nizolar ham bunga sabab bo'lishi mumkin.

3. Shaxsiy individual xususiyatlar Har bir bola o'ziga xos shaxsiy va temperament xususiyatlariga ega. Ba'zi o'quvchilar labil (tebranma), boshqalari esa inert (sust) bo'lishi mumkin. Tez charchaydigan, sust e'tiborli yoki passiv tafakkurli o'quvchilarda o'zlashtirish darajasi past bo'ladi.

4. Bilish jarayonlarining rivojlanmaganligi E'tiborning tarqoq bo'lishi, xotira hajmining kichikligi, tafakkurda mantiqiy bog'lanishlarning yetishmasligi kabi psixik funksiyalar sust rivojlangan bo'lsa, bu o'quv faoliyatida katta to'siqlarga olib keladi.

5. O'qituvchining shaxsiyati va uslubining salbiy ta'siri O'qituvchining haddan ortiq talabchanligi, qo'pol muomalasi yoki pedagogik yondashuvdagi xatolar o'quvchida salbiy emotsional holatni keltirib chiqaradi. Bu esa bilim olish jarayoniga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi.

6. Ijtimoiy-psixologik muhit Oila muhiti, maktabdagi sinf jamoasi bilan bo'lgan munosabatlar, o'qituvchi-ota-ona hamkorligi o'quvchining psixologik holatini belgilab beradi. Salbiy muhitda bo'lgan o'quvchilarda ko'pincha o'zlashtirmovchilik kuzatiladi.

O'quvchilarda o'zlashtirishdagi muammolarni hal etish uchun quyidagi samarali yo'llarni ko'rsatish mumkin:

1. Individual yondashuvni ta'minlash Har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, bilim darajasi, psixologik holati inobatga olinishi kerak. Differensial yondashuv asosida dars tashkil etilsa, har bir o'quvchi o'z imkoniyatiga yarasha rivojlanadi.

2. Ta'lim motivatsiyasini oshirish O'quvchilarda bilim olishga qiziqish uyg'otish, ularda muvaffaqiyatga erishish istagini shakllantirish zarur. Rag'batlantirish, interaktiv metodlar, o'yinli va ijodiy yondashuvlar motivatsiyani kuchaytiradi.

3. Psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish Maktab psixologi va ijtimoiy pedagog tomonidan o'quvchining emotsional holati, o'ziga ishonch darajasi, o'qishga bo'lgan munosabati o'rganilib, kerakli maslahatlar va korreksion mashg'ulotlar o'tkazilishi zarur.

4. Ota-ona bilan samarali hamkorlik O'zlashtirmovchilikni bartaraf etishda oilaning roli katta. Ota-onalar farzandining o'quv faoliyatini muntazam nazorat qilishi, unga mehr va e'tibor bilan yondashishi kerak.

5. Ta'lim metodikasini takomillashtirish An'anaviy dars usullaridan tashqari, zamonaviy interaktiv, texnologik va kompetensiyaviy yondashuvlar o'quvchining faol ishtirokini ta'minlaydi, mustaqil fikrlashga undaydi.

O'zlashtirmovchilikning oldini olish, uni erta aniqlab, muammoni chuqurlashib ketmasdan hal etish uchun quyidagi profilaktik choralar tavsiya etiladi:

1. Dastlabki sinflardan diagnostika ishlarini olib boorish O'quvchilarning bilish qobiliyatlari, psixik rivojlanish darajasi va emotsional holati muntazam baholab borilishi lozim.

2. Ijobiy sinf muhitini yaratish O'quvchilar orasida sog'lom raqobat, do'stona munosabatlar va o'zaro hurmat muhitini shakllantirish kerak. Bu ijtimoiy moslashuvga yordam beradi.

3. O'qituvchilarning psixologik savodxonligini oshirish O'qituvchilar o'quvchilarning ruhiy holatini to'g'ri baholay olishi, individual yondashuvni amalga oshira olishi zarur. Buning uchun malaka oshirish kurslari va treninglar o'tkazilishi lozim.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy omillarni hisobga olish Kam ta'minlangan, nogironligi bor yoki ijtimoiy xavfli guruhga mansub o'quvchilarga alohida e'tibor qaratilishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'zlashtirmovchilikka olib keluvchi psixologik omillarni aniqlash va bartaraf etish o'quvchilarning o'quv faoliyatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Buning uchun psixologik diagnostika vositalaridan foydalanish, individual yondashuvni kuchaytirish, motivatsiyani oshirish va ijobiy emotsional muhit yaratish zarur. Bundan tashqari, o'zlashtirmovchilikni bartaraf etish va uning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar tizimli va kompleks tarzda olib borilishi zarur. Bunda pedagogik yondashuvlar bilan bir qatorda psixologik, ijtimoiy va metodik jihatlar ham muvofiqlashtirilgan bo'lishi kerak. Har bir o'quvchi – bu o'ziga xos individual dunyo, unga mehr, sabr va to'g'ri yondashuv orqali katta yutuqlarga erishish mumkin. Bu esa ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi, psixolog va ota-onalarning hamkorlikda ishlashi orqali bu muammoning oldini olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.A. **Pedagogik va yosh psixologiyasi**. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
2. Saidov S.S. **Psixologiyada shaxs muammosi**. – Toshkent: Fan, 2005.
3. Hasanboyeva O.M. **Pedagogik psixologiya**. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2017.
4. Jalolov J.J. **Pedagogika: Umumiy, yosh va pedagogik psixologiya asoslari**. – Toshkent: NMIU, 2020.
5. G'ofurov K., G'ulomova M. **Ta'lim motivatsiyasi va o'quv faoliyatida rag'batlantirish usullari** // "Psixologiya va hayot" jurnali, 2019, №3.
6. Muminova M.A. **Maktab psixologiyasi asoslari**. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2021.
7. Yusupova M.T. **O'quvchilarda o'zlashtirish darajasiga ta'sir qiluvchi omillar** // "Xalq ta'limi" jurnali, 2020, №4.
8. Vygotskiy L.S. **Pedagogik psixologiya**. – Moskva: Prosveshcheniye, 1991.
9. Bo'ronov N. **Pedagogik diagnostika va o'quvchilarning yutuqlarini baholash**. – Toshkent: TDPU, 2018.
10. Nurullaeva D. **O'quvchilarning o'quv motivatsiyasini shakllantirishda psixologik yondashuvlar** // "Ilm-fan va zamonaviy ta'lim" jurnali, 2021, №6.

TA'LIM JARAYONIDA REFLEKSIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDAGI PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishda psixologik yondashuvlar o'rganildi. Refleksiv qobiliyatlarning mohiyati va psixologik omillarning ta'limdagi o'rni aniqlab olindi. Tadqiqotda psixologik intervensiyalar, guruh muhokamalari va empirik kuzatuvlar usullari qo'llanildi. Natijalar ta'lim muhitida psixologik yondashuvlarning refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishda samaradorligini ko'rsatdi hamda shaxslararo munosabatlar va o'z-o'zini anglashga ijobiy ta'sirini namoyish etdi. Muallif olingan ma'lumotlar asosida ta'lim jarayonida refleksiv qobiliyatlarni shakllantirishda ushbu yondashuvlarning ahamiyati va amaliy qo'llanilishi haqida xulosa chiqardi.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, refleksiv qobiliyat, psixologik yondashuvlar, ijtimoiy-psixologik muhit, motivatsiya, guruhli faoliyat, mentorlik, tanqidiy fikrlash, pedagogik psixologiya, mulot madaniyati, o'zaro ishonch, psixologik madaniyat, ta'lim sifati, interaktiv metodlar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ РЕФЛЕКСИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В данной статье изучены психологические подходы к развитию рефлексивных способностей в образовательном процессе. Определены сущность рефлексивных способностей и роль психологических факторов в образовании. В исследовании использовались методы психологических интервенций, групповых обсуждений и эмпирических наблюдений. Результаты показали эффективность психологических подходов в развитии рефлексивных способностей в образовательной среде, а также их положительное влияние на межличностные отношения и самопознание. Автор на основе полученных данных сделал вывод о значении и практическом применении этих подходов в формировании рефлексивных способностей в образовательном процессе.

Ключевые слова: образовательный процесс, рефлексивные способности, психологические подходы, социально-психологическая среда, мотивация, групповая деятельность, наставничество, критическое мышление, педагогическая психология, культура общения, взаимное доверие, психологическая культура, качество образования, интерактивные методы.

APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF REFLECTIVE ABILITIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract: This article explores psychological approaches to the development of reflective abilities in the educational process. The essence of reflective abilities and the role of psychological factors in education were identified. The study employed methods such as psychological interventions, group discussions, and empirical observations. The results demonstrated the effectiveness of psychological approaches in developing reflective abilities within the educational environment, as well as their positive impact on interpersonal relationships and self-awareness. Based on the obtained data, the author concluded on the significance and practical application of these approaches in shaping reflective abilities in the educational process.

Keywords: educational process, reflective ability, psychological approaches, socio-psychological environment, motivation, group activity, mentoring, critical thinking, educational

214 *psychology, communication culture, mutual trust, psychological culture, quality of education, interactive methods.*

Bugungi kun ta'lim sohasida pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish uchun psixologik yondashuvlarning o'rni ortib bormoqda. Shaxslarning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri, guruhdagi muloqot, psixologik qo'llab-quvvatlash va motivatsiya tizimlari ta'lim jarayonining sifatini oshirishda muhim omillardan hisoblanadi. Ayniqsa, pedagogik kadrlar tayyorlashda ushbu yondashuvlar talabalar va o'qituvchilar o'rtasida o'zaro hurmat, ishonch va faol hamkorlik muhitini yaratish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-fevraldagi PQ-4373-sonli qarorida ta'lim muassasalarida pedagoglarning malakasini oshirish, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish, shuningdek o'quvchilarning psixologik holatini yaxshilashga doir yangi tizimlarni joriy etish vazifalari belgilangan. Bu qaror ta'lim jarayonida psixologik omillarni tizimli ravishda hisobga olish zaruratini ta'kidlaydi [1].

Shuningdek, 2021-yil 29-apreldagi PQ-5175-sonli "Ta'lim tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror ham pedagogik kadrlarni tayyorlashda innovatsion pedagogik texnologiyalar va psixologik xizmatlarni keng joriy etish muhimligini ta'kidlab, ta'lim sifatini oshirishda ijtimoiy-psixologik yondashuvlarni qo'llashning ahamiyatini oshirgan [2]. Respublikamiz pedagogik universitetlarida olib borilayotgan amaliy ishlar va tadqiqotlar psixologik omillarning ta'lim jarayonida pedagoglarning professional rivojlanishi va talabalarning ta'lim olish samaradorligini oshirishda katta rol o'ynashini ko'rsatmoqda. Shu bois, ta'lim jarayonida psixologik yondashuvlarni yanada takomillashtirish va samarali qo'llash pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqola ushbu yondashuvlarning nazariy asoslari hamda respublikamiz universitetlari tajribasi misolida ularning amaliy qo'llanilishini o'rganishga qaratilgan.

So'nggi yillarda ta'lim va pedagogik psixologiya sohasida psixologik yondashuvlarga e'tibor sezilarli darajada oshdi. Xorijiy olimlar **ijtimoiy munosabatlar** va guruhdagi hamkorlik ta'lim jarayonidagi shaxsning ichki rivojlanishi, ayniqsa refleksiv qobiliyatlarning shakllanishida muhim omil ekanligini ko'rsatdilar (Mercer, 2020; Veenman & Beishuizen, 2021) [3]. Mercer (2020) o'z tadqiqotlarida pedagoglar va talabalar o'rtasidagi muloqotning sifatli ijtimoiy-psixologik muhit yaratishda, o'quv jarayonining o'zaro faoliyatga asoslangan mexanizmlarini shakllantirishda muhimligini ta'kidlaydi. Veenman va Beishuizen (2021) [4], esa refleksiv qobiliyatlar rivojlanishida o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va muloqotning o'rni haqida keng ilmiy asosda dalillar keltirdi.

Rossiya va Qozog'iston olimlari guruh ishlari va mentorlik tizimlari orqali talabalar orasida psixologik barqarorlik va o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishga oid tajribalarni taqdim etdi (Ivanov, 2020; Alimbekova, 2022). Bu tadqiqotlar pedagogik jarayonda ijtimoiy kontekstning rolini yoritib, pedagog kadrlar tayyorlashda ijtimoiy-psixologik yondashuvlarning ahamiyatini oshirdi [5-6].

Respublikamiz olimlari so'nggi yillarda psixologik omillarni o'rganishga alohida e'tibor qaratmoqda. Islomova (2021) [7], ta'lim jarayonida talabalar orasida ijtimoiy interaktiv metodlarning refleksiv fikrlashni rivojlantirishdagi rolini aniqladi. S.Tursunov va A. Hamroqulov (2022) [8], esa ijtimoiy-psixologik yondashuvlar yordamida pedagogika universitetlarida o'qituvchilar malakasini oshirishning samaradorligini ilmiy asosda ko'rsatdilar. Ularning tadqiqotlari O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirishda psixologik omillarning qanchalik muhimligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, so'nggi ilmiy tadqiqotlar psixologik yondashuvlarning ta'lim jarayonida, ayniqsa pedagogik kadrlar tayyorlashda refleksiv qobiliyatlarni shakllantirishda asosiy omil ekanligini ko'rsatmoqda. Bu yondashuvlar o'quv muhitini o'quvchilarning individual va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda shakllantirishga, o'zaro ishonch va hamkorlik muhitini yaratishga imkon beradi.

Ushbu tadqiqotda pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayonida psixologik yondashuvlar orqali talabalar refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligi o'rganildi. Tadqiqot Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti va Navoiy davlat universitetining pedagogika va psixologiya yo'nalishlarida tahsil olayotgan 80 nafar talaba hamda 15 nafar

professor-o'qituvchini qamrab oldi. Ishtirokchilar tasodifiy tanlov asosida, o'quv jarayonida faol ishtirok etish darajasi va ochiqqligi asosida belgilandi. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

So'rovnoma (anketalar): Talabalarning ijtimoiy-psixologik muhitga munosabati, refleksiv faoliyatga qiziqishi, o'z-o'zini tahlil qilish va fikr bildirishi bo'yicha ma'lumotlar yig'ildi. Savollar Likert shkalasiga asoslangan bo'lib, ularning emotsional, ijtimoiy va intellektual refleksiya darajalarini baholashga yo'naltirildi.

Intervyular: Tanlangan talaba va o'qituvchilar bilan yarim tuzilgan intervyular o'tkazildi. Savollar psixologik yondashuvlar, o'zaro munosabatlar, ta'lim jarayonidagi refleksiya, muhitning ta'siri kabi masalalarni qamrab oldi. Intervyular suhbatdoshlarning real hissiyotlarini aniqlash, fikrlar chuqurligini o'rganish va holatlarni yaxshiroq tushunishga yordam berdi.

Kuzatuv: Dars jarayonlarida bevosita ishtirok etilib, talabalar va o'qituvchilarning o'zaro muloqoti, guruh faoliyatidagi roli, faolligi va reflektiv yondashuvlarga amal qilinish darajasi tizimli tarzda qayd etildi. Kuzatuvlar 2 hafta davomida 6 ta guruhda olib borildi.

Eksperimental metod: Tadqiqot ishtirokchilari ikki guruhga ajratildi – nazorat guruhi (an'anaviy o'qitish bilan) va tajriba guruhi (psixologik yondashuvlar asosida). Tajriba guruhida mentorlik, guruh muhokamalari, motivatsion mashg'ulotlar va reflektiv savol-javob texnikalari asosida mashg'ulotlar o'tkazildi.

Eksperiment yakunida har ikki guruhning refleksiv qobiliyat darajalari solishtirildi.

Yig'ilgan barcha ma'lumotlar statistik tahlil dasturi (SPSS) yordamida tahlil qilinib, ishonchlilik ko'rsatkichlari va korrelyatsiya koeffitsiyentlari hisoblandi.

So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar o'rtasida ijtimoiy-psixologik muhit darajasi bilan refleksiv qobiliyatlarning rivojlanishi o'rtasida aniq ijobiy bog'liqlik mavjud. Yuqori ijtimoiy-psixologik muhitda tahsil olayotgan talabalar o'z fikrlarini erkin ifoda etish, xatolarini tan olish va o'z faoliyatini tahlil qilishga ko'proq moyil bo'lishgan. Quyidagi 1-jadval bu bog'liqlikni aniq ko'rsatadi.

1-jadval

Ijtimoiy-psixologik muhit va refleksiv qobiliyat darajasi
o'rtasidagi bog'liqlik

Ijtimoiy-psixologik muhit darajasi	Refleksiv qobiliyat darajasi	O'rtacha ball (100 ballik tizimda)
Yuqori	Yuqori	92
O'rtacha	O'rtacha	76
Past	Past	60

Kuzatuvlar va intervyular asosida aniqlanishicha, guruh muhokamalari va mentorlik faoliyati talabalar o'rtasida o'zaro ishonchni oshirib, o'z fikrini ochiq ifoda etish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam bergan. Shu bilan birga, an'anaviy darslarda qatnashayotgan talabalar refleksiv faoliyatda sustroq bo'lgani kuzatildi. Quyidagi 2-jadvalda turli faoliyat shakllarining ta'siri ko'rsatib berilgan:

2-jadval

Faoliyat shakllari bo'yicha talabalar fikr bildirish erkinligi va refleksiv fikrlash darajasi

Faoliyat turi	Talabalar o'z fikrini erkin ifoda etish foizi (%)	Refleksiv fikrlash faolligi (100 ball)
Guruh muhokamalari	78	86
Mentorlik	82	92
An'anaviy darslar	50	64

Eksperiment yakunida esa psixologik yondashuvlar asosida ishlagan tajriba guruhi ishtirokchilarida refleksiv qobiliyat darajalari nazorat guruhiga nisbatan 25–30% yuqori bo'lgani

216 aniqlandi. Bu esa psixologik yondashuvlarning ta'lim jarayonidagi real amaliy ahamiyatini ochib berdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, ijtimoiy-psixologik omillarni ongli ravishda ta'limga tatbiq etish, refleksiv qobiliyatlarning rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'quvchilarning faolligi, o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmalari, tanqidiy fikrlashi va shaxsiy kamolotiga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida ijtimoiy-psixologik yondashuvlarni tizimli va samarali qo'llash refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim omil ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Ijtimoiy-psixologik muhitning yuqori darajada tashkil etilishi talabalar o'rtasida ochiq muloqot, o'z fikrini erkin ifoda etish, tanqidiy fikrlash hamda o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmalarining rivojlanishiga zamin yaratadi. Shuningdek, guruhli faoliyatlar, mentorlik va interaktiv metodlar ta'lim jarayonida talabalar refleksiv faolligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, pedagoglarning psixologik savodxonligi va ijtimoiy-psixologik yondashuvlarga tayangan holda faoliyat yuritishi nafaqat talabalar motivatsiyasini kuchaytiradi, balki o'quvchilar o'rtasida o'zaro ishonch, hamjihatlik va emotsional barqarorlikni ta'minlaydi. Bu omillar o'z navbatida, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, shaxsning ongli va kasbiy kamolotiga xizmat qiladi.

Shu bois, pedagogik kadrlar tayyorlash tizimida ijtimoiy-psixologik yondashuvlarni tizimli ravishda joriy etish, refleksiv qobiliyatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan samarali metodlarni kengaytirish zarur. Bunday yondashuvlar ta'lim sifatini yaxshilash, talabalarning individual va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, zamonaviy pedagogikaning talablariga javob beruvchi raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, ta'lim jarayonida psixologik va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda pedagogik jarayonlarni rejalashtirish va tashkil etish zamonaviy ta'limning sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-fevraldagi PQ-4373-sonli qarori. «Ta'lim muassasalarida pedagoglarning malakasini oshirish, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish va o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik holatini yaxshilashga doir chora-tadbirlar». O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-apreldagi PQ-5175-sonli qarori. «Ta'lim tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.

3. Mercer, N. (2020). The social nature of learning: Teacher-student interaction and its role in developing thinking skills. *Cambridge Journal of Education*, 50(4), 445-461.

4. Veenman, M.V.J., & Beishuizen, J.J. (2021). *The development of reflective skills in collaborative learning environments. Learning and Instruction*, 74, 101380.

5. Ivanov, P. (2020). Group work and psychological resilience among university students. *Russian Journal of Educational Psychology*, 10(2), 113-125.

6. Alimbekova, G. (2022). Social-psychological aspects of student mentoring in higher education. *Journal of Pedagogical Science*, 15(3), 45-52.

7. Islomova, N. (2021). The role of interactive social methods in developing reflective thinking of students. *Uzbek Journal of Education and Psychology*, 4(1), 29-36.

8. Tursunov, S., & Hamroqulov, A. (2022). Effectiveness of social-psychological approaches in professional development of pedagogical staff. *Central Asian Journal of Education*, 6(2), 89-98.

**“Durdona” nashriyoti muassisligidagi
“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.**

**“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA” xalqaro ilmiy-metodik jurnalida o‘zbek, rus, ingliz
tillarida maqolalar chop etiladi.**

**Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti**

Tahririyat rekvizitlari:

«Садриддин Салим Бухорий» МЧЖ
Манзил: Бухоро, Муҳаммад Иқбола кўчаси, 11
Р/с 20208000104858465002
Бухоро шаҳри Ҳамкорбанк МФО 00966
ИНН 301637939 ОКНХ 87100

Мақолаларни қабул қилиш учун
<https://t.me/alijonhr>, <https://t.me/AzizaHusenovaSh>

PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA Xalqaro ilmiy-metodik jurnal 2025-yil 8-son (25) 2022-yil avgust oyidan chiqa boshlagan. Нашр индекси: 1397	“Durdona” nashriyoti nashri Jurnal davlat va nodavlat oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, kasb-hunar maktablari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan. Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi. Nashr uchun mas’ul: Alijon HAMROYEV. Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar. Bosishga ruxsat etildi 26.08.2025 Bosmaxonaga topshirish vaqti 22.09.2025 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 32,0 Adadi – 100 nusxa Buyurtma №618. Bahosi kelishilgan narxda. “Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.
---	--	--